




BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

12(5)/2025



12(5)/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2025, № 12, dekabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Qurbonova Manzila Bakiyevna, tarix fanlari nomzodi, professor

Ochilov Alisher To'lis o'g'li, tarix fanlari doktori, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

SERIYA: IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Bobojonov U.S.	Quyí Amudaryo hududi aholisi ma'naviy madaniyati sehri "Lazgi" san'ati tarixi xususida	3
Jabbarova I.X.	Qashqadaryo irrigatsiya qurilishi tarixida rus injener-irrigatorlarining hissasi	7
Raxmatullojev U.A.	Tamaddunlar tanishgan ko'prik: Buyuk Ipak yo'lidagi savdo va tijorat masalalari va uning ijobiy ahamiyati	11
Turdiyev I.U.	XV – XVII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida yuz bergan etnik jarayonlarning manbashunosligi va tarixshunosligi	15
Tursunov N.N., Jaylovov S.F.	Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari	19
Utayeva F.X.	Samarqand va Buxoroda to'qimachilik sanoatining tarixiy ildizlari	25
Дусчанов Р.Р.	Ўзбекистон ССР бюджетида харажат турлари (1925-1939 й.)	30
Қорёғдиева Д.Б.	Ўзбекистон ва Япония ҳамкорлиги ҳуқуқий асосларининг шаклланиш масалалари	34
Облобердиев Ж.К.	Бюрократическая модернизация Бухары при эмире Абдулахаде	39
Niyazova M.I., Djumayeva S.S.	G'arbiy Sug'ddagi e'tiqod va diniy qarashlar	45
Halimov T.T.	XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi iqtisodiy-modernizatsion jarayonlar: Rossiya imperiyasining ta'siri, agrar o'zgarishlar va sanoat rivoji	49
Kadirova Y.B.	Infratuzilma tushunchasi va uning tarixiy tahlili: nazariy-metodologik qarashlar	53
Nurova Sh.N.	Abu Ali ibn Sino dunyoqarashining shakllanishi va komillik davri	57
Teshayeva Y.H.	Ma'rifatli ayol – kelajak poydevorining bunyodkori	62

Umarov J.S.	XX asrning 30-yillarida Surxondaryo viloyati ta'lim tizimi: sovet mafkuraviy siyosati	66
Ahmadova Z.Sh.	Yangi O'zbekiston davrida ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari: islohotlar tahlili (2017–2024)	70
Савриев Ж.Ф., Бахриддинова М.М.	Ўрта Зарафшон воҳасида Учтут кончилик манзилгоҳининг тутган ўрни	76
Савриев Ж.Ф., Тилегенова Э.Б.	Конимех тумани кеча ва бугун	80
Sodiqova N.N.	“Tarjimon” gazetasida Turkistonning siyosiy ahvoliga doir ma'lumotlar tahlili	85
Савриев Ж.Ф., Ахмедов А.А.	Зарафшон воҳаси иншоотлари, Работи Малик карвонсаройи ҳақида	90
Karimova K.V.	Victor Uspensky: the history of music through the prism of ethnography	95
Rivojov Sh.Sh.	1979 - 1991 yillar oralig'ida Buxoro viloyatida aholi soni va tarkibidagi demografik o'zgarishlar	99
Rafiqova G.V.	Davlat xizmati masalasining paydo bo'lish tarixi	103
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
O'rinova B.Z.	Axborot asrida ommaviy axborot vositalari	109
Akhmadaliev S.R.	The role of non-governmental organizations in shaping social partnership in advanced states	112
Kamolov I.I.	Yangi O'zbekistonning yangi kasaba uyushmalari ijtimoiy sherikchilik yo'lida	118
Sa'dullayeva Y.E.	Zamonaviy diplomatning ijtimoiy-psixologik qiyofasi va uning kasbiy sifatleri	122
Radjabov K.U.	Eron tashqi siyosatining mafkuraviy asoslari va institutsional xususiyatlari	128
Исаджанов Б.И.	Туркия Республикасида нодавлат ноижорат ташкилотларнинг хайрия ва ёрдамларни бериш тартиби ва уларнинг ўзига хослиги	135

**QUYI AMUDARYO HUDUDI AHOLISI MA'NAVYI MADANIYATI SEHRI
“LAZGI” SAN’ATI TARIXI XUSUSIDA**

Bobojonov Ulug‘bek Salayevich,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
Davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. So‘nggi tosh davrida kundalik faoliyatlarini olib borgan ibtidoiy odamlar tabiat olami ta‘sirida, unda kechgan jarayonlarning guvohi bo‘lgan. Tabiat tomonidan bo‘ladigan hodisalarga katta e‘tibor berib, ularni o‘z ma‘naviyatlarida aks ettirib tarixiy yo‘li davrida kechgan tabiiy jarayonlar ta‘sirida sayroqi qushlar va baqiroq yovvoyi hayvonlar ohanglarini o‘z ma‘naviyatida his qilib, ularning uyg‘unlashishi “Lazgi” san‘ati vujudga kelishi va takomillashishiga olib kelgan. Maqolada Janubiy Orolbo‘yi hududida joylashgan o‘troq aholini antik davrgacha “Lazgi” san‘ati tarixi yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijalarni umumlashtirish asosida hosil bo‘lgan yangicha g‘oyalar maqola mazmunini aks ettirgan.

Kalit so‘zlar: Karimov I.A., Navoiy A., Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A., Andrianov B.V., Kes A.S., Vinogradova Y.A., Vinogradov A.V., Sobirov Q., Xorazm, O‘zbekiston, Qizilqum, Qoraqum, Sultan Uvays, Burli-3, Amudaryo, Sirdaryo, Oqchadaryo, Jonbosqala, Lazgi, Jonbas-4.

**О МАГИИ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ НИЖНЕАМУДАРЬИНСКОГО
РЕГИОНА И ИСТОРИИ ИСКУССТВА “ЛЯЗГИ”**

Аннотация. Первобытные люди, осуществлявшие свою повседневную деятельность в эпоху позднего каменного века, находились под влиянием природы и были свидетелями происходящих в ней процессов. Уделяя большое внимание событиям, происходящим в природе, отражая их в своей духовности, они воспринимали природные процессы, продолжавшие свой исторический путь, охотясь на диких птиц и зверей, в духовности и гармонизировали их. В статье анализируется история искусства «Лязги» оседлого населения Южного Приаралья вплоть до античности.

Ключевые слова: Каримов И.А., Навои А., Баратов П., Маматкулов М., Рафиков А., Виноградов А.В., Виноградова Е.А., Андрианов Б.В., Кесь А.С., Сабиров К., Хорезм, Узбекистан, Кызылкум, СултанУвайс, Бурли-3, Амударья, Сырдарья, Акчадарья, Жанбаскала, Лязги, Жанбос-4.

**ON THE HISTORY OF “LAZGI” ART: THE MAGIC OF SPIRITUAL CULTURE AMONG
THE POPULATION OF THE LOWER AMU DARYA REGION**

Abstract. Primitive people, who carried out their daily activities in the Late Stone Age, were under the influence of the natural world and witnessed the processes taking place in it.

Paying great attention to the events occurring in nature, reflecting them in their spirituality, they perceived the natural processes that continued to follow their historical path, hunting for wild birds and wild animals in their spirituality, and harmonized them.

In the article is analyzed the history of the “Lazgi” art of the sedentary population of the South Aral Sea region until antiquity.

Keywords: Karimov I.A., Navoi A., Baratov P., Mamatkulov M., Rafikov A., Andrianov B.V., Kes A.S., Vinogradova E.A., Vinogradov A.V., Sabirov K., Khorezm, Uzbekistan, Kyzylkum, Karakum, Sultan Uvais, Burli-3.

Kirish. O‘rta Osiyo mintaqasi markazida joylashgan O‘zbekiston hududi yuzasi tuzilish xususiyatlarni bir qator tabiiy-iqtisodiy hududlar Ustyurt, Zarafshon, Surxondaryo, Toshkent va Farg‘ona va Quyil Amudaryo tabiiy-iqtisodiy hududlardan iboratligi yer osti tebranishlarni bir necha marotaba tarzda takrorlanib turishi jarayonlari natijalari bilan bog‘liq. Mazkur hududlar joylashishi, iqlim sharoiti, tabiiy resurslari, daryolar kesimi, gidrologik xususiyatlari jihatidan bir-birini takror qilmaydi. Shunday xususiyatlarga ega bo‘lgan tarixiy-geografik hudud O‘zbekistonning shimoli-g‘arbida joylashgan Xorazm vohasi geografik o‘rni xususiyati jihatidan O‘zbekistonning sernam va sernam dehqonchilik vohalaridan alohidalik xususiyatlarga ega. Voha hududining janubiy tomon yoyilishi natijasida g‘arbiy tomonida Qoraqum, sharqida esa Qizilqum buyuk qumliklar o‘rtasida joylashgan tekislik zamin xaritasida Xorazm

HISTORY

joylashgan. Shu jihatlaridan bo'lsa kerak, ibtidoiy odamlar tomonidan Ustyurtga qaraganda odamzot tomonidan kech o'zlashtirilgan. Amudaryo dinamikasi natijasida o'ng va so'l hududlar namoyon qilgan. Zamin o'ng sohil shimoliy hududi geografik muxitini Sulton Uvays tog'i (balandligi (485m), Qoratog', Ko'kcha, Beltov tog' tizmalari va Yonboshqala balandliklari hamda Qizilqum qum uyumlari, ular oralig'ida botiqlar aks ettirgan. So'l sohil hududi geografik holatini Qorqum sahroi sharoiti, Amudaryodan ajralib chiqqan Dovdon(300), Daryoliq(250km) o'zanlari suvlarini Sariqamishko'liga olib borgan, suv havzasi suv sathi ko'tarilishi munosabati bilan yo'nalishi Kaspiy dengiziga Uzboy orqali Kaspiy dengiziga bog'langan. Qorqum sahroi sharoitida geomorfologik holatini Ko'zaliqir, Qalaliqir, Tuzqir, Qang'qaqir, Yassiqr va Sariqamishko'li sohili etaklarida qamishzorlar namoyon qilgan. Shu bilan birga, Yumurtog', Qubatog'lar geomorfologik xususiyati, so'l sohil hududidan farqlanish holati kuzatiladi. Mazkur hududda Sulton Uvays kabi baland tog'lar mavjud emas. Sulton Uvays tog'i Pomir tog'i singari osmono'par tog'lar maqomiga ega emas, aholiga xizmat qilishi tog'-kon ashyosi bilan Burli ustaxonasida ishlov berilgan toshda ishlangan mehnat qurollari odamzotning kunalik faoliyatlariga xizmat qilgan.

Sulton Uvays tog'i suv ta'minoti jihatidan mavsumiy bo'lgan, bu jarayon bahor va kuz oylarida bo'ladigan yomg'ir va qorlarga bog'liq bo'lgan. Amudaryo o'ng va so'l sohil hududida Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari aholi tomonidan qoldirib ketilgan turar-joylarda qazishma ishlarni amalga oshirib, olingan moddiy ashyolar olingan. Masalan, Sulton Uvays tog'i etagiga ulanib ketgan hududda ro'yhatga olingan Burli-3 manzilgohida istiqomat qilgan urug' jamoalari sunggi tosh davrida etnik munosabatlarni mil avv-gi U ming yillik oxirigacha olib borganlar. Burli-3 manzilgohi urug' jamoalari aholi soni oshganligi bilan oziq-ovqat ta'minoti muammosi vujudga kelganligi munosabati bilan qo'shni o'zlashtirilmagan hududga migratsiya qilish kun tartibiga tushgan. Shunday xuudlardan biri mil.avv. IV- III ming yillikda Oqchadaryo havzasida Yonboshqala balandligi atrofiga kelib Jonbos-4 manzilgohiga asos solganlar. Urug' jamoalari geografik muhitga moslashib, sernam va serunum hudud, uning geografik holatini aks ettirgan suv havzalari organik dunyosi, ular sohil etaklari qamishzor va chakalakzorlar flora va faunaga boy bo'lgan tabiiy resurslardan keng tarzda foydalanish barobarida xo'jalik sohasini rivojlantirganlar. Jonbas- 4 urug' jamoalari avlodlari ikki buyuk qum saxrosi sharoitida tabiat burxonlari va Amudaryo injiqlariga ko'nikib yaratgan boy xazinasini O'zbekiston, xususan O'rta Osiyo tarixiga oid turli adabiyotlarda "Xorazm" atamasini o'rin olishiga olib kelgan. Voha hududida so'nggi tosh davridan antik davr oxirigacha yozma manbalarda turli nomda qayd qilingan o'troq va ziroatkor aholi ma'naviyati mil.avv-gi IV asrgacha to'plagan hayot tajribasida o'z ma'nosini topgan. Ajdodlarimizning xo'jalikning turli sohalarida erishgan natijalariga e'tibor bergan O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov odamzot bu yorug' olamga chiqqanidan boshlab tabiat xodisalarini girdobida qolib, hayot so'qmoqlarida qadam tashlash jarayonida turli hunarmandchilik sohalarini rivojlantirish kabi bunyodkorlik faoliyatida uning ma'naviyati shakllanadi, taraqqiy etishi bilan takomillashib boradi. Shu ma'noda "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir" deb inson kamolatiga e'tibor bergan edi[1. 2008-B.19]. Xuddi shu mezon Xorazm vohasida umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizni ma'naviy sohada erishgan zafarlarida o'z ma'nosini topganligi Xorazm ekspeditsiyasini yarim asrdan ziyod ajdodlarimizning madaniy-meros ob'ektlarida olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan noyob manbalarda aks etgan.

Arxeologik qazilmalar natijalari Xorazm vohasini Sharq dunyosi madaniyatining o'choqlaridan biri ekanligini asoslab berdi, bu borada I.A.Karimov yana, bu betakror o'lkada juda qadimdan boshlab turmush tarzi, dehqonchilik va sug'orish tartibi, savdo va hunarmandchilik, madaniyat va ta'lim yuksak darajada rivoj topgani barchaga ayon deb ajdodlarimizni bunyodkorlik natijalariga yuksak baho bergan edi[2. 2006.-B.1]. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari asarlarida qayl qilingan tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirgan tarzda nazariy- qiyosiy tarzda tahlil asosida hosil budgan xulosa asosida mazkur maqolada ajdodlarimiz ma'naviy dunyosida o'rin olgan nozik soha "Lazgi" o'yini vujudga kelishi, shakllanishi tarixini yoritish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur mavzuga oid yozma manbalar va aholi turar-joylarida o'rnatilgan aholini tevarak-atrofdagi tabiiy resurslardan foydalanib tarixiy davr, uning turli bosqichlarida olib borgan xo'jalik sohalarini rivojlantirish tarixiga oid geografik axborotlar keng. O'tgan asr va milliy mustaqillik yillari nashrlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirgan holda Lazgini vujudga kelishi va rivojlanish tarixini yoritish imkoniyati katta. Yozma manbalar va arxeologik izlanishlar natijalarini qamrab olgan tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish asosida voha aholini Lazgi tarixiga oid ma'lumotlar mavjud. A.Navoiy she'riy to'plamida Xorazm aholisini muziqa san'ati hayotini yoritgan edi[3.1948-S.405-409]. X asr ikkinchi yarmida Xorazmga kelgan al-Muqaddasiy voha aholisini o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini hayratomuz o'z asarida qayd qilgan edi[4. 1939-S.185]. Voha aholisi muziqa san'atining tarixiy

ildizi uyg'unligi asosida vujudga kelgan "Lazgi" san'atining tarixi ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ajdodlarimiz faoliyatlariga borib taqaladi. Xorazm vohasi joylashishi strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy-geografik hudud hisoblanadi. Geografiya fani yutuqlariga ko'ra, bundan 4-3,5 million yillar ilgari Qizilqum va Qoraqum Orol dengizi oraliqlari tekislik bo'lgan. [5. 2002-B.283].

B.V.Andrianov tadqiqotlari natijasiga ko'ra, Amudaryo o'ng sohili hozirgi Turtkul, Beruniy va Ellikqala tumanlari joylashgan hudud-aholi manfaatiga 150 ming gektar xizmat qilgan. [6. 1969-S.98].

Xorazm ekspeditsiyasi nashrida bundan 22 ming yillikda Amudaryo suv toshqini Sariqamishbo'yi xavzasini va tekislikni o'ng va so'l sohil hududlariga ajratgan [7.1979-S.19]. Geologik jarayonlarni birnecha marotaba takrorlanishi natijasida tarkib topgan pasttekislik shimoliy hududni geografik manzarasini aks ettirgan Sulton Uvays tog'i osmono'par tog'lar maqomiga ega bo'lmasa ham aholining o'rtnashib, uning tog'-kon ashyosi bo'lgan kvarsit va chaqmoq toshdan Burli ustaxonasida ishlov bergan Burli-3 manzilgohi ibtidoiy ovchilari so'ggi tosh davridan boshlab tosh quollaridan foydalanish jarayonida yovvoyi hayvonlar va turli-tuman qushlar ovozlari ta'sirida musiqiy bilim tuyg'ularini ma'naviyatida aks ettirganlar, bu jarayon mil.avv.IV ming yillikka oid bo'lgan. S.P.Tolstov, A.V.Vinogradov nashrlarida qayd qilinishicha, Qizilqum qum uyumlari oralig'ida botiqlar suv xavzalariga aylangan (Amudaryo suv sathi ko'tarilishi natijasida ajralib chiqqan Oqchadaryo irmog'i suv ta'minoti yuqori holatida bo'lishi natijasida Qizilqum oralig'ida maydonchalar suv xavzalariga aylangan, ular "Buyuk ko'llar"ni hosil qilgan. Buyuk ko'llar gidrologik xususiyati Italiya "Venesiyasini eslatar edi. Jonboslik urug' jamoalari kundalik hayotlari taomnomasida baliq mahsulotlari ustunlik qilgan, Suv havzalari organik dunyosi, sohil etaklari o'simlik dunyosi xilma-xil qushlar, yovvoyi hayvonlar ozuqa maydoniga aylangan, ularning xilma-xil ohanglari (qushlarning mayin va nozik ohanglari, yirik hayvonlarning baland ovozlari tevarak-atrofnii qamrab olishi umumlashgan uyg'unligi asosida "Lazgi" sehri tarixiy ildiziga asos solganlar [8. 1968-S.37]. Y.A Vinogradova xulosasiga ko'ra, Sulton Uvays tog'i etagida odamzot tomonidan asos solingan urli-3 manzilgohida amalga oshirilgan qazishma natijasida olingan ashyolar so'nggi tosh davriga mansub bo'lgan (9.1998.-S. 74-77). Sulton Uvays tog'i atroflari to'rt tomoni ochiq, daryolar kesib o'tmaydi, faqat, tabiat ehsoiga bog'liq bo'lgan, shunday geografik holat bo'lsa ham Burli-3 urug' jamoalari murakkab iqlim sharoitida etnik munosabatlarni olib borganlar. Ta'kidlash lozim-ki, Burli-3 ovchilari ochiq tip sharoitida cheklangan tabiiy manbalardan foydalanib, kundalik faoliyatlarini olib borgan ilk ovchilar va termachilar bo'lishgan, hamda qo'shni hududlarga ko'chish tayanch vazifasini bajargan. Tadqiqotchi Q.Sobirov qayd qilishicha, Yonbosh-4 manzilgohi markazida "Otashgoh" joylashgan, uning shimolida maydonda ovlanadigan hayvonlar rasmini belgilab, ular atrofida aylanish jarayonida ovlanadigan aylana shaklda hayvonlar rasmga, nayzani sanchish jarayonida chiqargan "oh, o'u, xu, xavvo kabi tovushlari chiqarib, keyin esa amaliy kasbi bo'lgan hayvonlarni ovlashga yo'l olganlar. [10.2017-B.43-47]. Albatta otashgohlar atrofi ona rahbarligida to'plangan urug' jamoalari olov bo'lgan e'tiqodini bajarish uchun to'planadigan joy bo'lgan, mehnat taqsimotini olgan ovchilar va termachilarni faoliyatlarini neolit va bronza davri turar-joylarda o'rtnashgan aholi ajdodlari amaliy mashg'ulotlarini davom ettirganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Obyektivlik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, munozara, bahs, umumlashtirish, yakuniy xulosa, arxeologiya, geografiya, etnografiya fanlari natijalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. XX asr 30 yil o'rtasi-40 yillari davrida S.P. Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi, 1945-yildan arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari Amudaryo o'ng va so'l sohil hududlarda aholi tomonidan qoldirib ketilgan yodgorliklarida keng qamrovli tarzda olib borgan arxeologik izlanishlarni asos qilib olgan nashrlarda qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy madaniyatini yoritish imkonini bergan. Xususan, Amudaryo o'ng sohili hududida mil avv-gi U asr oxirida tekislikda bunyod qilingan Qo'yqirilganqala, Tuproqqala yodgorliklarida amalga oshirilgan qazishma ishlar olib borilishi munosabati bilan olingan ashyolar ajdodlarimizning ma'naviy ruhi mezonlaridan biri "Lazgi" san'ati tarixining tarixiy ildizlarni o'rganishga xizmat qiladi. Aslida neolit davriga mansub Jonbas-4 manzilgohi urug' jamoalari aholi soni oshganligi natijasida, Sho'raxon va Sulton Uvays tog'i bronza davrida o'zlashtiriladi. Mil avv-gi IU asrda Amudaryo o'ng sohili va so'l sohil hududlarida ziroatkor aholi tomonidan sernam va serunum hududlarni keng miqyosda o'zlashtirish siyosatini olib borgan, bu esa. O'z navbatida Amudaryodan Qizilqum tomon Kaltaminor, Tozabog'yob va Amirobod sug'orilish inshootlari chiqarilishi keng tus olgan. Tozabog'yob sug'orilish inshooti g'arbiy tekislik tomon sug'orilish inshooti oxirida Qo'yqirilganqala aylana shaklda bino qilingan, uning qadimiy holati qayta tiklangan. Qo'yqirilganqala aholisi moddiy va ma'naviy madaniyatda yuksak bilimga ega bo'lganlar. Katta Qirqqiz kanali g'arbiy tomon yo'nalishi Katta Guldursun yodgorligidan, sharqiy tomon burilgan joyda g'arbiy tomon shahobcha yo'nalgan, uning adog'ida Tuproqqala qad ko'tarilgan. Uning topografik joylashishi to'g'riburchak shaklda, umumiy hajmi-17gektar. Mazkur yodgorlik turar-joylari devorlarida va sopol parchalarida "Arfa", Ud va nay tasvirlari bitilgan.

HISTORY

Mazkur ma'naviy nozik tasvirlarni tarixiy ildizlari neolit davriga borib taqaladi. Mazkur maqolada "Lazgi" san'atining vujudga kelishi shakllanish va rivojlanish tarixiy ildizlari so'nggi tosh davriga oidligi, uning rivojlanishi jarayoni keyingi tarixiy davrlarda davom etganligi masalalari tahlil qilindi, shu asosda quyidagi natijalarga erishildi:

- So'nggi tosh davrida kundalik faoliyatlarini olib borgan ibtidoiy odamlar tabiat olami ta'sirida, unda kechgan jarayonlarni ma'naviy ruhiyatida uyg'unlashtirib borgan. Mazkur jarayon mil avv-gi Uming yillik oxirigacha davom etgan. Tabiat tomonidan bo'ladigan xodisalarga katta e'tibor berib, ularni o'z ma'naviyatlarida aks ettirib tarixiy yo'lni bosishi davom etgan tabiiy jarayonlar, sayroqi qushlar va baqiroq yovvoyi hayvonlarni ovlashlarini o'z ma'naviyatida his qilib, ularni uyg'unlashtirib kelgan. Mazkur uyg'unlashishi neolit, eneolit va bronza davrlari aholisi ma'naviyatida yanada takomillashtirib borgan. Mana shu uyg'unlashishida o'z musiqasi va uyini vujudga kelgan, bu uyg'unlik natijalari jaxon tan olgan "Lazgi" san'ati edi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida qayd qilingan tahlil va natijalardan kelib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Xorazm vohasi aholisi O'zbekistonning boshqa tarixiy-geografik hududlardan geografik xususiyati bilan farqlanish holati bo'lsa ham musiqa bilimining tarixiy ildizlari so'nggi tosh davridan vujudga kelib, uning shakllanishi antik davrgacha kechgan. Neolit davridan antik davrgacha ajdodlarimiz yer sathiga qurilgan turar-joylardan antik davrgacha musiqa san'atini tabiat jarayonlarni uyg'unlashtirib musiqa bilimini tadjriy rivojlantrish barobarida murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tgan.

Takliflar quyidagicha izohlandi.

1. Xorazm vahosi geografik holati, joylashish xususiyatlari va tabiiy resurslarini o'rganish;
2. Voha tekisligi sernam va serunum bo'lishida Amudaryo dinamikasini yozma manbalar va arxeologik izlanishlar natijasida tahlil qilish;
3. Xorazm tekisligini o'ziga xos xususiyatlari, uning qo'shni hududlardan farqlanish xususiyatini izohlash;
4. Amudaryo o'ng va so'l hududlari geografik holatida farqlanish holatini tahlil qilish;
5. So'nggi tosh davri (40-12 ming) yilliklar Sultan Uvays tog'i hududida ona urug'i jamoasi joylashgan Burli-3 manzilgohi ovchilari tabiat sirlari, turli-tuman hayvonlar ohanglari ta'sirida musiqiy ohanglarning vujudga kelish jarayonini izohlash;
6. Neolit davriga mansub Jonbas-4 manzilgohida istiqomat qilgan ovchilar va termachilarning musiqa bilimiga asos bo'lgan iqtisodiy omillarni o'rganish;
7. Ibtidoiy musiqa san'atining vujudga kelishi, shakllanish va rivojlanishi asosida "Lazgi" san'atining tarixiy ildizini tahlil qilish.

ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият - энгилмас куч"- Тошкент, "Маънавият", 2008.
2. Каримов И.А. "Илгор маърифат зиёси ҳеч қачон сўнмайди" Ўзбекистон Республикаси президенти И.А.Каримов Хива шаҳрида Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзлаган нутқи. Халқ сўзи, 2006, 3 ноябрь.
3. Навои А. Семь планет. Пять поэм. - М, 1948.
4. Материалы Туркмен и Туркмении // Труды Института востоковедения Академии наук СССР-М-Л, 1939.
5. Баратов А, Маматқулов М. Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси -Тошкент, Ўқитувчи, 2002.
6. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья-М: Наука, 1969.
7. Кесь А.С. Аральское море в Голоцене // Этнография и археология Средней Азии-М:Наука 1979.
8. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма-М, Наука, 1968. Вқп-8
9. Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге –М: ИВЛ РАН, Наука 1998.
10. Собиров Қ. Қадимги Хоразм аҳолиси ва рақс санъати тарихи саҳифасидан // Халқаро "Рақс сеҳри" анъанавий фестивали доирасида бўлиб ўтган "Буюк ипак йўли бўйлаб, Халқаро Туризмнинг барқарор ривожланишида маданий мероснинг тутган ўрни мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. - Хива, 2017.

QASHQADARYO IRRIGATSIYA QURILISHI TARIXIDA RUS INJENER-IRRIGATORLARINING HISSASI

*Jabbarova Iqbol Xo'jamuratovna,
Qarshi davlat universiteti doktranti
iqbol.jabborova@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo irrigatsiya qurilishi tarixida rus injener-irrigatorlarining ilmiy-amaliy hissasi tahlil qilinadi. Tadqiqot XX asrning 20–90-yillarini qamrab olib, irrigatsiya infratuzilmasining shakllanishi, yer-suv resurslaridan foydalanish metodikasi, gidrometrik kuzatuvlar va yirik suv inshootlari loyihalarining tarixiy bosqichlarini yoritadi. G.N. Vinogradov, A.V. Chaplygin, B.D. Korjavin, S.A. Buyukov, M.A. Neminskiy kabi injenerlarning ilmiy maktabi va loyihalari Qashqadaryo vohasining suv ta'minotini yaxshilash hamda Qarshi cho'lini o'zlashtirish jarayonida muhim o'rin tutgani ilmiy manbalar asosida ko'rsatib beriladi. Shuningdek, o'zbek mutaxassislarining mahalliy tabiiy sharoitni chuqur o'rgangan holda irrigatsiya qurilishidagi faolligi ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari Qashqadaryo suv xo'jaligi tizimida sug'oriladigan maydonlarning kengayganligini dalillaydi.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, irrigatsiya tarixi, suv xo'jaligi, injener-irrigatorlar, Vinogradov, Chaplygin, Qarshi cho'li, magistral kanal, suv omborlari, irrigatsiya loyihalari.

ВКЛАД РУССКИХ ИНЖЕНЕРОВ-ИРРИГАТОРОВ В ИСТОРИЮ КАШКАДАРЬИНСКОГО ИРРИГАЦИОННОГО СТРОИТЕЛЬСТВА

Аннотация. В данной статье анализируется научно-практический вклад русских инженеров-ирригаторов в историю ирригационного строительства Кашкадарьинского региона. Исследование охватывает период 1920–1990-х годов и освещает этапы формирования ирригационной инфраструктуры, методику использования земельно-водных ресурсов, гидрометрические наблюдения, а также историю проектирования крупных гидротехнических сооружений. На основе научных источников показано, что инженерные школы и проекты Г.Н. Виноградова, А.В. Чаплыгина, Б.Д. Коржавина, С.А. Буюкова, М.А. Неминского сыграли значительную роль в улучшении водоснабжения Кашкадарьинской долины и освоении Каршинской степи. Кроме того, раскрывается активное участие узбекских специалистов, глубоко изучивших местные природные условия, в процессах ирригационного строительства. Результаты исследования свидетельствуют о расширении орошаемых площадей в системе водного хозяйства Кашкадарьи.

Ключевые слова: Кашкадарья, история ирригации, водное хозяйство, инженер-ирригаторы, Виноградов, Чаплыгин, Каршинская степь, магистральный канал, водохранилища, ирригационные проекты.

THE CONTRIBUTION OF RUSSIAN IRRIGATOR ENGINEERS TO THE HISTORY OF THE KASHKADARYA IRRIGATION CONSTRUCTION

Abstract. This article examines the scientific and practical contribution of Russian engineer-irrigators to the history of irrigation construction in the Kashkadarya region. The study covers the period from the 1920s to the 1990s and highlights the major stages in the development of irrigation infrastructure, methodologies of land and water resource management, hydrometric observations, and the historical evolution of large hydraulic construction projects. Based on scholarly sources, it demonstrates that the engineering schools and projects of G.N. Vinogradov, A.V. Chaplygin, B.D. Korzhavin, S.A. Buyukov, and M.A. Neminskiy played a crucial role in improving the water supply of the Kashkadarya valley and in the development of the Karshi steppe. The article also emphasizes the active involvement of Uzbek specialists who, having thoroughly studied the local natural conditions, significantly contributed to irrigation construction. The findings of the study confirm the expansion of irrigated lands within the Kashkadarya water-management system.

Keywords: Kashkadarya, irrigation history, water management, irrigation engineers, Vinogradov, Chaplygin, Karshi Steppe, main canal, reservoirs, irrigation development.

Kirish. Qashqadaryo vodiysi O‘zbekistonning eng qadimiy dehqonchilik hududlaridan biri bo‘lib, uning irrigatsiya tarixida qadimdan tabiiy-geografik omillar hal qiluvchi o‘rin tutgan. Hududdagi suv resurslarining notekis taqsimlanishi, relyefning keskin farqli ko‘rinishlari, tog‘ va cho‘l mintaqalari o‘rtasidagi o‘ziga xos landshaft o‘zgarishlari, shuningdek, daryo suvlarining mavsumiy va yillik o‘zgaruvchanligi sug‘orish inshootlarini muntazam ravishda rivojlantirib borishni taqozo qilgan. Qadimdan shakllanib kelgan ariq va zovur tarmoqlari xalq ehtiyojini qisman qondirgan bo‘lsada, XX asr boshlariga kelib agrar islohotlar, yangi yerlarni o‘zlashtirish rejasi va paxtachilikni kengaytirish siyosati irrigatsiya tizimini tubdan qayta qurishni zaruratga aylantirdi.

Shu bois XX asrning 20–30-yillarida Qashqadaryo vodiysi Sovet suv xo‘jaligi siyosatining ustuvor hududlaridan biriga aylandi. Bu davrda vohaning gidrologik holatini aniqlash, yerlarning meliorativ xususiyatini o‘rganish, yangi kanallar loyihasini ishlab chiqish va mavjud irrigatsiya tizimlarini ilmiy asosda modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borildi. Suv rejimini kuzatish, daryolarning oqim miqdorini aniqlash, suvni saqlash va taqsimlash imkoniyatlarini baholash maqsadida maxsus ekspeditsiyalar tashkil etildi.

Bu jarayonlarda rus injener-melioratorlarining ilmiy maktabi yetakchi rol o‘ynadi. Ular daryolarning gidrologik xarakteristikasini chuqur o‘rgandilar, zamonaviy geodezik o‘lchov usullarini joriy etdilar va Qashqadaryoning irrigatsiya salohiyatini ilmiy asosda baholashga xizmat qiladigan metodikalarni ishlab chiqishdi. Shu bilan birga, mahalliy o‘zbek mutaxassislari ham qisqa vaqt ichida yetuk injener-irrigatorlar sifatida shakllanib, vohaning tabiiy sharoitini, qadimiy sug‘orish tajribasini va jonli amaliyotni bilgan holda loyihalarning amalga oshirishda jonbozlik ko‘rsatdilar. Ularning ishtiroki vohani suv bilan ta‘minlashda hamda sun‘iy suv inshootlarini qurilishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bu ishlarning barchasi Qashqadaryo vodiysida yangi sug‘orish tarmoqlarining barpo etilishi, eski kanallarni kengaytirish, suv saqlash inshootlari qurilishi va sho‘rlanishga qarshi meliorativ tadbirlarning takomillashtirilishiga asos yaratdi. Aynan shu tarixiy bosqich keyinchalik Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish, yirik kanallar qurilishi va vohaning suv xo‘jaligini butunlay yangilashga xizmat qilgan poydevorni shakllantirdi.

Adabiyotlar sharhi. XX asr 20-90 yillarida Qashqadaryoda irrigatsiy hamda melioratsiya qurilishi tarixiga oid kuzatuvlar, loyihalar, arxiv hujjatlar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar, monografiya va tadqiqotlar hamda esdalik va xotira-yodnomalardan foydalanildi.

Metodlar. Maqolada quyidagi ilmiy metodlar asosida shakllantirildi. Tarixiy-qiyosiy tahlil. 1920–1980-yillar irrigatsiya loyihalari, gidrometrik kuzatuvlar, irrigatsion xaritalar va sovet davri arxiv manbalari tahlil qilindi. Manbashunoslik metodi. Ushbu hududga tegishli irrigatsiya sxemalari, 1920–1980-yillar manba ma‘lumotlari o‘rganildi.

Muhokama va natijalar. Qashqadaryo hududi azaldan tabiiy suv manbalari bilan dehqonchilik qilishga asoslanganligi tarixdan ma‘lum. Faqatgina XX asrning 50 yillaridan boshlab o‘lkani suv bilan ta‘minlash sun‘iy suv manbalari orqali amalga oshirish boshlandi va bu irrigatsiya qurilishi hozirga qadar davom etmoqda. Bu suv inshootlari qurilishi tarixida esa bevosita injener-irrigator kadrlarning xizmatlari beqiyos bo‘lib, ularning vatanimiz tarixidagi hissalarini o‘rganish va kelajak avlodga o‘rgatish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryoda suv inshootlari qurilishi tarixi qadim davrlarga borib taqaladi. Ammo so‘zlamochi bo‘lganimiz XX asr 20-90 yillari haqida ekan, bunda asosiy harakatlar dastavval rus millatiga mansub mutaxassislar tomonidan boshlanganligiga to‘xtalib o‘tamiz. Dastlabki chorakda, eng avvalo, injener G. N. Vinogradovning xizmatini aytib o‘tish lozim. Injener G. N. Vinogradov rahbarligida “Qashqadaryo havzasi bo‘yicha yer-suvdan foydalanish sxemasi” ishlab chiqilgan [1]. Vinogradov loyihasida Qashqadaryo daryosi vodiysidagi irrigatsiyani batafsil tafsiloti, sug‘oriladigan dehqonchilik uchun asosiy omillar – yer va suvni har tomonlama o‘rganish zarurligi keltirib o‘tiladi. Asarda vohaning irrigatsiya tarmoqlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish sxemasi taklif etiladi. Vinogradov kuzatishlari faqat Qashqadaryo daryosi resurslari bilan Qarshi cho‘lini yirik sug‘oriladigan hududga aylantirish mumkin emasligini bildiradi[2]. Ammo shuni ham aytib o‘tish joizki, Vinogradov o‘rganishlariga Chapligninning tadqiqoti ham turtki bo‘lgan[3]. 1925-yilda chop etilgan Chapligninning loyihasi birinchi jahon urushi boshlanib qolganligi tufayli to‘xtab qolgan edi. “Zarafshon vodiysi suv xo‘jaligini tartibga solish sxemasi”ning muallifi A.V. Chapligninning loyihasida Amudaryodan olinadigan suvni o‘lkaga nasoslar tizimidan foydalanib keltirish maqsad qilingan. Kanal bo‘ylab suv sakkizta qudratli nasos yordamida yuqoriga ko‘tarilishi ko‘zda tutilgan edi. Loyiha materiallari 1925-yilda alohida kitob holida chop etildi. Loyihaning rad etilganiga qaramay, u Amudaryo suvini mashina yordamida ko‘tarish g‘oyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Shu ma‘noda Vinogradov Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish konsepsiyasiga bilvosita ta‘sir ko‘rsatgan olim bo‘lib, uning salbiy javobli sxemasi keyinchalik yangi, ancha yirik keng qamrovli irrigatsiya loyihalarini asoslashda “boshlang‘ich nuqta” vazifasini bajargan.

HISTORY

XX asr 30-yillaridagi eng yirik loyiha B. D. Korvashin boshchiligidagi muhandis-irrigatorlardan iborat guruh ishlari bo'ldi. Ushbu guruh muhandislari Buxoro vohasi suv ta'minotini yaxshilash uchun Amudaryodan chiqariladigan Kalif kanalini qurish haqidagi masalani yangidan ko'tarib chiqishdi. Ular Buxoro vohasiga Amudaryodan kanal keltirilishi bilan Zarafshonning ortiqcha suvlarini Qashqadaryo vohasida sug'orishni rivojlantirish uchun Zarafshon kanali qurishni taklif etgan. Komissiya bu tadbirlarni Buxoro va Qashqadaryo vohalarida sug'orishni tubdan yaxshilashda yagona yo'l, deb hisoblagan.

XX asrning 50 yillariga kelganda Qashqadaryo hududidini suv bilan ta'minlashdagi harakatlar jadallashdi. 1949-yil 5-dekabrda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti va O'zbekiston KP (b) MK «Qashqadaryo viloyatida irrigatsiyani rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi[4]. L.V.Dunin-Barkovskiy rahbarligidagi bir guruh mutaxassislar Zarafshon va Qashqadaryo havzalariga suv keltirish uchun «Amudaryoning suv resurslaridan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar umumiy rejasini»ni ishlab chiqishni boshlab yubordilar[5]. Mazkur guruh mutaxassislari tekshirishlar natijasida Amudaryoning kompleks suv-energiya resurslaridan foydalanish paxtachilikni yanada rivojlantirish imkonini beradi, degan xulosaga keldi. Shundan so'ng «Uzgirovodxoz» («O'zbekiston suv xo'jaligi loyihalash instituti») tashkiloti 1950-yili qadimiy Eskianhor kanalini qayta tiklash va qurish bo'yicha loyihani ishlab chiqib, tasdiqladi. 1951 yilning martida bu loyiha SSSR Paxtachilik ministrligi tomonidan kanaldan sekundiga 45—50 kubometr suv oqizish mo'ljallangan kanal suvining asosiy qismini Qashqadaryo viloyati ekin maydonlariga oqizishni nazarda tutdi[6]. 1953 yilning avgust oyida SSSR Qishloq xo'jalik ministrligining boshqarmasining suv xo'jaligi huzuridagi ilmiy-texnika Sovetida kanal qurilishi loyihasi ko'rib chiqildi[7] va ma'qullandi. Bu injenerning bevosita mehnatlari asosida Eskianhor kanali yo'lini o'zgartirishga kirishildi. Ushbu asosda N. Valunov boshchiligidagi bir guruh muhandislar Suv isrofgarchiligini oldini olish maqsadida Eskianhor kanalining yangi o'zanini qurish loyihagini ishlab chiqishdi[8].

Qashqadaryo hududi yerlarida paxta maydonlari sezilarli kengaydi. Shu bilan birga muhandislar A.V.Petrov, G.I.Prozorovlar tomonidan Qashqadaryo o'zanida 500 mln kubometr suv yig'ish imkoniyatiga ega Chimqo'rg'on suv omborining qurilishi loyihasi ishlab chiqildi[9].

50 yillarda vohada amalga oshirilgan irrigatsiya inshootlarini qurilishi natijasida Zarafshon suvi Qashqadaryoga quyildi. Qashqadaryoning quyi oqimi hududlarida sug'oriladigan yerlar paydo bo'ldi.

Qashqadaryo vohasida sug'orish tizimlarini rivojlantirish maqsadida faqat XX asrning 50-60 yillarida Qarshi cho'lini o'zlashtirishga jiddiy kirishildi. XX asrning 60-yillaridan e'tiboran vohada yirik sug'orish inshootlarini barpo etish, qo'riq yerlarni o'zlashtirish ishlari jadal olib borildi. Qarshi cho'lini sug'orish uchun Amudaryodan suv olish masalasi 1954 yilda boshlanib, bu loyihani o'rganish bosh muhandis S.A.Buyukov rahbarligida «Sredazgirovodxlopok» instituti tomonidan amalga oshirilib, S.A. Buyukov «Amudaryo havzasidagi suv-yer resurslaridan foydalanishning umumiy loyihasini»ni tuzib chiqdi. Loyihaga ko'ra, Kelif uchastkasidan suv oladigan, Buxoro viloyatini suv bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan 155 km uzunlikdagi Amu-Buxoro kanalini qurish rejalashtirildi. Shu bilan birga loyihada uzunligi 185 km bo'lgan Qarshi magistral kanali (QMK) qurilishi haqida ham so'z bordi. Sug'oriladigan yer maydonlari shu kanal orqali sug'orilishi rejalashtirildi[10].

1960-yilda O. N. Lyamin boshchiligidagi «Sredazgirovodxlopok» instituti tomonidan «Amudaryo suvlari bilan Qashqadaryoning quyi oqimini nasos bilan sug'orish to'g'risida texnik-iqtisodiy hisobot (TIH)» tuzib chiqildi[11]. Unda Qarshi cho'lini nasos bilan sug'orishning mumkin bo'lgan variantlarini ishlab chiqish, Amudaryo suvlari bilan Qarshi cho'lini nasosli sug'orish bo'yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlarning texnik va iqtisodiy jihatdan muvofiqligi va gidrotexnik inshootlarning hamda nasos agregatlarining parametrlarini aniqlash, ish hajmini, ularning narxini ishlab chiqish kerak bo'ldi.

Nihoyat Qarshi magistral kanaliga Amudaryodan suv olish loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu loyiha ustida «Gidroproyekt» institutining Kuybishev filiali[12] ish olib bordi. Bu loyihaning bosh muhandisi M.A. Neminskiy[13] bo'lib, amalda qurilgan nasos stansiyalari kaskadi o'z davrida nafaqat Osiyo, balkim Afrikada yagona suv qurilish inshooti hisoblangan[14]. Qarshi cho'lini sug'orish va o'zlashtirishning ishlarining 1-bosqichining kompleks loyihasi tuzishda bir guruh mutaxassislar ish olib borishdi. T. A. Smirnova va V. I. Antonov rahbarligidagi ishchi guruh tomonidan 1967-yilgi loyiha ishlab chiqildi va SSSR Suv xo'jaligi ministrligi tomonidan tasdiqlandi[15].

XX asr ikkinchi yarmida barpo qilingan eng yirik suv inshootlaridan yana biri Talimarjon suv ombori hisoblanadi va I. Kalinin bu suvombor loyihasing bosh muhandisi bo'lgan[16] bo'lsa, suvomboridagi qurilish ishlarini B.A. Charkin boshqargan[17].

Xulosa. Qashqadaryodek geografik jihatdan yirik bo'lgan hamda sug'oriladigan yerlari ko'p, ammo suv manbalari yetarli bo'lmagan hududni suv bilan ta'min etishda rus injener-irrigatorlarining hissasi yuqori bo'ldi. Ular o'z vazifalarini mas'uliyat bilan ado etdilar. Qashqadaryo sug'orilishi tarixida bu borada bir ilmiy maktab yarata oldilarki bu keyingi yillarda o'lkada irrigatsiya sohasini rivojlanishida tayanch bo'lib

HISTORY

xizmat qildi. Hidrometrik postlar yangi tartibda joriy qilindi, suv sarfi va oqim tezligini ilmiy hisobga olish va irrigatsiya-tarmoq balansini (vodno-zemelny balans) ishlab chiqish an'anaga aylandi. Rus injener-irrigatorlari suv ko'targich nasos stansiyalari orqali suvni balandga ko'tarib suvsiz qaqrab yotgan yerlarga suv keltirishni amalda isbotladilar. Rus injenerlari ilmiy jihatdan aniq hisoblash metodlarini olib kirdilar.

Qashqadaryo irrigatsiya qurilishi tarixida rus injenerlarining ilmiy-texnik bazani yaratishdagi hissasi beqiyos bo'ldi. Natijada Qashqadaryoda yirik irrigatsiya inshootlari — magistral kanallar, drenajlar, suv omborlari va suv taqsimoti tizimlari shakllandi. Bularning barchasi vohamiz suv bilan o'z-o'zidan ta'minlanmaganligi, buning zahirida qanchadan qancha injener-irrigatorlarning mashaqqatli mehnati va fidoiy harakatlari mavjudligini yana bir bor dalillaydi.

ADABIYOTLAR:

1. *Виноградов Г.Н. Иригация в долине Кашка-Дарьи. –Ташкент, 1935. -102 с.*
2. *our_history_1_ru.pdf*
3. *Чаплыгин А.В. Урегулирование водного хозяйства Заравшанской долины. –Москва, 1925. – С. 3.*
3. *Алимардонов Т. Ўчмас шараф. – Тошкент, 2017. – Б. 26.*
4. *ЎзМА, Р.837-фонд, 38-рўйхат, 5465-иш, 15-варақ.*
5. *Тошев Х. Қашқадарёда иригация ишлари. – Тошкент: «Ўзбекистон». 1976. –Б.14.*
6. *Қашқадарё вилоят Сув хўжалиги бошқармаси музейи материаллари асосида.*
7. *Ўз МА, Р.837-фонд, 38-рўйхат, 5465-иш, 16-варақ.*
8. *ҚВДА, 561-фонд, 1-рўйхат, 3-иш, 2-варақ.*
9. *Иригация Узбекистана. Т. III –Ташкент: «Фан», 1979. –С. 65.*
10. *Иригация Узбекистана Т. III –Ташкент, 1979. –С. 86.*
11. *Иригация Узбекистана –С. 86.*
12. *О'зМА, Р.2743-jamg'арта, 1-ро'ухат, 699-уиг'тајild, 1-2-варақ.*
13. *О'зМА, Р.2743-jamg'арта, 1-ро'ухат, 44-уиг'тајild, 8-варақ.*
14. *Тўланов М. Сунъий денгизнинг биринчи дарвозаси // Қашқадарё ҳақиқати. –№ 78. 16 апрель, 1971.*
15. *«Қашқадарё ҳақиқати», 1967 йил 31 декабрь.*
16. *Ражабов С. Э. Чўлда ишлар // Чўл ўлкаси. – № 84. 1 октябрь, 1975.*
17. *Иудлера В. Первые // Степной край. – №. 61. 1 август, 1990.*

TAMADDUNLAR TANISHGAN KO'PRIK: BUYUK IPAK YO'LIDAGI SAVDO VA TIJORAT MASALALARI VA UNING IJOBIIY AHAMIYATI

*Raxmatulloev Umid Ashrafovich,
Buxoro davlat universiteti
Tarix va yuridik fakulteti o'qituvchisi
umidraxmatulloev198@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buyuk Ipak yo'lining sharq va g'arb sivilizatsiyalari rivojida tutgan o'rni, uning tarixiy ahamiyati masalalari yoritiladi. Sharq va g'arb mintaqalarining bir-birlari bilan olib borgan iqtisodiy, savdo aloqalari va mahsulot almashish tijoriy jarayonlari o'rganiladi. Ikki qo'shni mintaqalar bozorlaridagi mahsulotlarga bo'lgan talab va taklif masalalari, eksport, import tovarlarining yetkazilish masalalari atroflicha bayon qilinadi. Tarixiy tahlil va adabiyotlarni o'rgangan holda xulosalar bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: ipak, savdo-sotiq, ayirboshlash, min sulolasi, zotdor otlar, Chjan Xe, Farg'ona vodiysi, metall buyumlar, savdo karvonlari, arab xalifaligi.

МОСТ, СОЕДИНЯЮЩИЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ: ВОПРОСЫ ТОРГОВЛИ И КОММЕРЦИИ НА ВЕЛИКОМ ШЕЛКОВОМ ПУТИ И ИХ ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. В статье рассматривается роль Великого шёлкового пути в развитии цивилизаций Востока и Запада, его историческое значение. Изучаются экономические, торговые отношения и коммерческие процессы товарообмена между Восточным и Западным регионами. Подробно рассматриваются вопросы спроса и предложения на продукцию на рынках двух соседних регионов, вопросы экспортно-импортных поставок товаров. Выводы сделаны на основе исторического анализа и литературы.

Ключевые слова: шёлк, торговля, обмен, династия Мин, чистокровные лошади, Чжан Хэ, Ферганская долина, металлические изделия, торговые караваны, Арабский халифат.

THE BRIDGE CONNECTING CIVILIZATIONS: TRADE AND COMMERCE ON THE GREAT SILK ROAD AND ITS POSITIVE SIGNIFICANCE

Abstract. This article discusses the role of the Great Silk Road in the development of Eastern and Western civilizations, its historical significance. The economic, trade relations and commercial processes of product exchange between the Eastern and Western regions are studied. The issues of supply and demand for products in the markets of the two neighboring regions, the issues of export and import goods delivery are described in detail. Conclusions are drawn based on historical analysis and literature.

Keywords: silk, trade, exchange, Ming Dynasty, thoroughbred horses, Zhang He, Fergana Valley, metal products, trade caravans, Arab Caliphate.

Kirish. Tarixdan ma'lumki biror hudud bilan olib boriladigan elchilik, savdo-tijoriy, madaniy aloqalar va yetkazilishi kerak bo'lgan tezkor yuklar uchun qulay yo'l topish asosiy zaruriyatga aylanadi. Qadimgi Rimda ham qo'shnlarning mamlakat bo'ylab tez harakatlanishi va savdo-sotiq munosabatlarini rivojlantirish uchun asosiy yo'llarga tosh yotqizilgan va ularni markaz bilan ulashgan. Xuddu shunday jarayonlar sharqiy mintaqalarda, aniqrog'i, hozirgi Xitoy hududlarida ham bo'lib, bu yo'l faqatgina davlat hududlarini emas balki, sharq va g'arb sivilizatsiyasini bog'lash uchun xizmat qilgan ko'priklar vazifasini o'tagan. Miloddan avvalgi birinchi mingyillikdan to buyuk geografik kashfiyotlargacha xizmat qilgan ushbu Buyuk Ipak yo'lining tarixda tutgan, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'rni nihoyatda beqiyosdir.

Adabiyotlar tahlili. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy X asrdayoq O'rta Osiyo, Hindiston va Xitoyga bog'lovchi savdo yo'llari ularda qad ko'targan tarixiy shaharlar tavsifi haqida o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" nomli asarlarida ma'lumot berib o'tgan. Venetsiyalik savdogar va sayyoh Marko Polo (XIV asr. Italiya) Sharq mamlakatlari bo'ylab Xitoyga savdo yo'llari orqali yetib borgan. Xitoy imperatorining saroyida tabib bo'lib xizmat qilgan. Marko Polo o'zining "Marko Polo kitobi"da, "Paxta yo'li", "Ipak yo'li", "Oyna yo'li" kabi atamalardan foydalangan.

HISTORY

XVI-XVIII asrlarda bu yo'llardan turli maqsadlarda otgan kishilar o'z xotiralari va esdaliklarida savdo-sotiq ahamiyati to'g'risida ko'p bor to'xtalib o'tadilar. Biroq Buyuk ipak yo'lini jiddiy tadqiq qilish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, dastlabki tadqiqotchi sifatida asli venger, lekin ingliz arxeologi va sharqshunosi sifatida tanilgan Aurel Steyn (1862-1943) nomi bilan bog'liqdir. U Taklamakon, Tarain vohasi, Xo'tan, Turfan, Dunxuanni bir-biri bilan bog'lovchi savdo yo'llarining tarmoqlarini 1906-1909 yillarda kashf etdi. Ushbu tadqiqoti bilan jahonga mashhur bo'lgan A.Steyn Dunxuandan "Ming budda" g'orlarini o'rganib, IV-XI asrlarda Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo madaniy ta'sirini aks ettiruvchi osori-atiqalarni 1907 yilda Buyuk Britaniya muzeyiga topshirdi. Uning tadqiqotlarida VII-X asrlarda ipak to'p holatida tashilgani, Xan davrida ipak matolar eni - 0.5 metr, uzunligi 9 metr bo'lganligi, Dunxuanda ipak tayyorlanadigan joy, uning o'lchami, og'irligi, bir to'p ipak narxi, ipak parchalarining sifati bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotlar uchraydi.

A.Steynning yozishicha uyg'urlar O'rta Osiyoning har bir zotdor otlarini xitoyliklarga dastlab 4,5 to'p ipakka, VII asrdan boshlab esa 10 to'p ipakka pullashgan [1, 4-5].

Qadimdan ma'lumki Xitoy bilan g'arb mintaqalari o'rtasidagi savdo sotiqa ipak matolar asosiy o'rinda turgan. Aynan ipak matolar xalqaro tijoratda mahsulotlarning bahosini belgilashda ishlatilgan. Xitoyning g'arbiy o'lkalarida istiqomat qiluvchi aholisi ham hattoki poliz mahsulotlari, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini ham ipak matolarga ayirboshlaganlar. Bundan tashqari xitoy savdogarlarining o'zlari ham ipak maysulotlarini xalqaro bozorda ayirboshlash tovari sifatida o'tkazishga harakat qilishgan. Bunga misol qilib Xan sulolasi davrida savdogarlar g'arbiy mintaqalarga savdo-sotiq uchun borganlarida ko'p miqdorda ipak o'ramlari va parchalari olib borishlari shart bo'lgan. Aks holda savdogarlar kun o'tkazish uchun ham yeyish-ichishga hech narsa topa olmasliklari mumkinligi tarixiy manbalarda saqlangan [2, 176].

Qadimgi Turkiston hududlarining xitoy bilan bo'lgan savdosida ot asosiy savdo ayirboshlash vositasi sifatida ishlatilgan. Xitoydan Chjan Xening Farg'ona vodiysiga kelishi bilan aynan Farg'ona zotdor otlarining savdoga kirishi albatta Qadimgi O'rta Osiyo xalqlari uchun muqobil savdo ayirboshlash vositasini bozorga olib kirdi. Xitoy savdogarlari ipak matolar vositasida mahsulot ayirboshlagan bo'lsalar, yurtimiz savdogarlari zotli otlar bahosida tovar ayirboshladilar.

Miloddan avvalgi II asrdan to milodiy II asr o'rtalarigacha bo'lgan davrda Xitoyning atrofidagi ot boqadigan joylar Xun imperiyasi nazorati ostida bo'lganligi uchun otni import qilish masalasi ancha murakkab masalaga aylanadi. Ushbu omillar natijasida Xitoyda otning narxi qimmatlab ketadi. Manbalarning guvohlik berishicha o'sha davrda bitta otning narxi 100 tilloga, bitta yuk tashish va arava tortish uchun ishlatiladigan otning baxosi esa 5 ming tangagacha bo'lgan. Ayrim davrlarda esa otning narxi bundanham qimmat bo'lgan. Bunga misol qilib miloddan avvalgi 93-yilda bitta miniladigan otning narxi 150 ming tangagacha ko'tarilib ketadi. Aynan otning narxi bilan ipak mato narxini solishtirilganda, nisbatan arzon bo'lgan davrlarda bitta ot sotib olish uchun 8-9 bo'lak ipak mato kerak bo'lgan. Minadigan chidamli ot sotib olish uchun esa 200 bo'lak ipak mato sarflash zarur bo'lgan [2,180].

Buyuk Ipak yo'li orqali Markaziy Osiyo va g'arbiy hududlarga faqatgina ipak matolar kelgan deyish noto'g'ri bo'ladi. Bu yirik tranzit yo'li sharofati bilan Markaziy Osiyo aholisi uchun chanqovbosdi ichimlikka aylangan mashhur choy o'simligi ham kirib kelgan. Choy bugungi kunda ham Markaziy Osiyo xalqlari uchun asosiy ichimlik turidir. Albatta, choyning ham kirib kelish tarixi bor.

Xitoy manbalarining guvohlik berishicha choyning ilk vatani Hozirgi Xitoy xalq respublikasining janubi-sharqiy hududlarida paydo bo'lgan ekan. Ushbu o'simlikning g'arb o'lkalariga tarqalishi VII asrning o'rtalaridan boshlab arab savdogarlari tomonidan dengiz yo'llari orqali amalga oshirilgan deyilsada, aslida uning aksari qismi Turkiston hududidan, ya'ni Buyuk Ipak Yo'lining hozirgi O'zbekiston hududidan o'tgan qismi orqali quruqlikdan tashilgan. Manbalarning aytishicha Sun sulolasi davrida Turkistondan kelgan savdogarlar katta miqdorda choy sotib olishgan. 1104-yilda Xitoyda 4-10 yoshlar atrofidagi bitta otning narxi 56 kg oliy navli choy bahosiga teng bo'lgan. Choy savdosidan katta manfaatdor bo'lgan Tan sulolasi ushbu mahsulot orqali olib boriladigan barcha savdo-sotiq ishlarida davlat monopoliyasini o'rnatadi. Ahvol shu darajada ediki hatto choyni bir hududdan boshqa bir hududga olib borish ishlari harbiy qismlar kuzatuvida amalga oshirilgan. Choyni noqonuniy savdosi bilan shug'ullanganlar hattoki ular amaldorlar bo'lsa ham o'lim jazosiga mahkum qilingan. Bu kabi savdodagi davlatning monopol siyosati natijasida choyning narxi nihoyatda oshib ketadi. 1392- yilda 340 bosh otga 300 ming jin (hozirgi hisobda 150 ming kg) choy o'simligi ayirboshlangan. XIV asrning oxirida g'arbiy va shimoliy Xitoy hududlarida oliy zotli ot 40-50, o'rta darajadagisi esa 30-40, past darajadasi esa 20-30 jin miqdoridagi choyga teng bo'lgan. Ammo bu narxlar butun Xitoy hududi bo'ylab bir xilda bo'lmagan. Xitoyning ichkari hududlari bo'ylab yuqoridagi narxlar o'shandan 800 barobar qimmat bo'lgan. Jumladan, Xitoyning Sichuan viloyatida 1 bosh o'rtacha ot narxi 1800 jin choyga teng bo'lgan. Ammo yuqoridagi choy savdosiga hukumat tomonidan joriy qilingan

HISTORY

ta'qiqlar doim ham bir xilda bo'lmagan. Choy narxining oshib ketishi Xitoyga import bo'ladigan otning kamayishiga olib keldi. Natijada XV asrning o'rtalarida ot importini oshirish maqsadida Min sulolasi xususiy savdogarlarga choy savdosi bilan shug'ullanishlari uchun ruhsat beradi [2, 190-192].

Temuriylar davrida Buyuk Ipak yo'lida savdo-sotiq ishlari doimiy olib borilgan. Amir Temurning vafotidan so'ng uning avlodlari o'rtasida boshlanib ketgan hokimiyat kurashlari zamonida Amir Temurning qudasi bo'lgan Mo'g'uliston xoni Xizrxo'ja Buyuk Ipak yo'lining Turon hududidagi asosiy nuqtalaridan biri bo'lmish Qomul shahrini qo'lga kiritgan. Buning oqibatida Min sulolasining Qomul uchun ko'p yillar davomida olib borgan urushlari yakun topadi. Bu voqea Buyuk Ipak yo'lida tinchlik yaratishda ijobiy o'rin kasb etdi [2,203].

Temuriylar ham Buyuk Ipak yo'lidagi tijorat ishlarini rivojlantirish uchun jonbozlik ko'rsatganlar. Ular Xitoy bilan o'zaro tinchlik bitimlari tuzishgan. Bunga misol qilib 1388-1500-yillar oralig'ida Toshkent, Samarqand, Sheroz, Xiro, Isfahon kabi shaharlardan 120 dan ortiq elchilik guruhlari Xitoyga borgan. Ularning ko'pchiligi kamida 8-10 kishidan iborat bo'lgan [3, 178-185] ligi temuriy hukmdorlar ham ushbu yo'ldan olib boriladigan savdo-sotiq va elchilik aloqalaridan manfaatdor bo'lganliklarini ko'rsatadi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Min sulolasi davrida ba'zi mahsulotlarga cheklov joriy qilingan. Jumladan, Xitoydan olib kelinadigan tovarlar soni cheklanadi. Jumladan, metallardan tayyorlangan qurollarning mahsus ruhsatsiz Xitoydan olib chiqilishi hukumat tomonidan ta'qiqlanadi [4,278].

Buyuk Ipak yo'lidagi savdo-sotiq faqatgina O'rta Osiyo hududlari bilan to'xtab qolgan yo'q. Xitoy mahsulotlari va markaziy osiyoning ko'zga ko'ringan sifatli jun mahsulotlari, g'arbiy hududlarga tarqalgan bo'lsa, Arabiston yarimorolidan qimmatbaho taqinchoqlar va hushbo'y atir-upalar Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoy hududlarigacha yetib borgan. Tarixchi Ma'sudiyning yozishicha "xalifa Horun ar Rashidning ayoli, o'sha davrdagi mashhur malika Zubayda birinchilardan bo'lib saroyini ipak, kumush, oltin buyumlar sandal daraxtli kursilar bilan bezatgan malika bo'ldi" degan fikrlarni aytib o'tganligi [5, 98] sharq mahsulotlaridan hattoki Arab xalifaligi saroylarini bezashda foydalanganliklaridan dalolat beradi.

Sharq va g'arb sivilizatsiyasining iqtisodiy integratsiyalashuviga katta hissa qo'shgan Buyuk Ipak Yo'lini insoniyat iqtisodiy rivojida tutgan o'rnini faqatgina savdo ishlari bilan bog'lasak xato bo'ladi. Chunki ushbu yo'l o'tgan hududlar bo'ylab katta hududlarni egallagan, ko'plab aholini o'z ichida to'plagan, asosan savdo-sotiq bilan shug'ullangan yirik shahar qo'rg'onlari ham vujudga keldi. Yo'l ustida joylashgan ushbu shaharlar qisqa muddatda ikki mintaqani madaniy iqtisodiy jihatdan bog'laydigan, o'zida yirik hajmdagi savdo mahsulotlari to'planadigan yirik shaharlarga aylandi. O'zbekiston hududida ham bunday shaharlar ko'plab topiladi.

Buyuk ipak yo'li bo'ylab joylashgan Markaziy Osiyo hududidagi qadimgi shaharlarni o'rganishda Xitoy manbalarining o'rni beqiyosdir. Bu ishlar Xitoydagi qadimgi sulolalardan bo'lmish Xan sulolasi humkdori

U-Di tomonidan hozirgi Markaziy Osiyo hududlariga yuborilgan elchi Chjan Syanning kelishi bilan dastlabki ma'lumotlar to'plash boshlangan. Chjan Syan Farg'ona vodiysiga kelib, hududdagi o'sha davrdagi Davan davlati haqida Xitoy imperatoriga shunday xat yuboradi: "Davanliklar o'troq hayot kechiradilar, dehqonchilik bilan shug'ullanadilar, sholi va bug'doy yetishtiradilar, ularda uzum sharobi bor. Badavlat odamlar o'n ming dangacha vino saqlaydilar. Davanda 70 ta katta va kichik shaharlar mavjud. Armiyasi esa 60000 askardan iborat". Ipak Yo'li chorrahasidagi joylashgan shaharlarga misol qilib Sho'rabashat shahrini aytsak bo'ladi. Sho'rabashat shahri xarobalari hozirgi Qirg'iziston respublikasining O'sh viloyatiga qarashli O'zgan rayonida joylashgan. O'zgan shahridan 8 km shimoli-g'arbida, Qoradaryoning irmg'i bo'lmish Yassi yaqinidagi adirlarda joylashgan. Yodgorlikning o'lchamlari 1400 x 500 metr, qariyb 70 gektar maydonni o'z ichiga oladi. Shahar qurilayotganda asosan uch qismdan iborat qilib qurilgan [6, 30-32].

Qadimgi shaharlardan yana biri bu Ershi shahridir. Qadimgi Xitoy manbalarida Davan davlatining poytaxti sifatida tasvirlangan Ershi shahri haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi. Unga ko'ra ushbu shaharda zotdor, qimmatbaho otlar boqilishi, elchidan ushbu tulporlar berkitilganligi va unga berilmaganligini yozib o'tadi. Aynan shu tulporlarni olish uchun Xitoy imperatori Davan hukmdoriga qimmatbaho sovg'alarni yuboradi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha sovg'a sifatida Davanga yuborilgan oltinning hajmi 200-500 kilogram atrofida bo'lgan. Yuqoridagi oltin hadyalarni olib Davanga kelgan elchi Che Lin bo'lgan. Zotdor tulporlar uchun olib borilgan ushbu elchiliklarda rad javobini olgan Xitoyliklar Davanga qarshi harbiy kuch ishlatishga majbur bo'ladilar. Afsuski olib borilgan urushlarda mardonavor jang qilgan Davanliklarni Xitoy harbiylari yenga olmaydi. Keyingi urushlarda qamalda qolgan Davanliklar sulh evaziga 3000 biyani Xitoyliklarga berishga rozi bo'ladilar [6,32-33].

Buyuk ipak yo'li sharq va g'arbnii savdo, madaniy jihatdanbog'lab, madaniy qadriyatlar almashinuviga beqiyos hissa qo'shgan tarixdir [7].

HISTORY

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan kelib chiqiladigan bo'lsak, Buyuk Ipak yo'li sharq va g'arb sivilizatsiyasi, davlatchilik, madaniy, savdo-iqtisodiy aloqalar uchun suv va havodek zarur ko'priklar vazifasini bajargan. Xitoy mahsulotlari g'arb bozorlarida juda xaridorgir bo'lgan bo'lsa, Markaziy Osiyo mahsulotlari ham xitoy bozorlarida eng savdosi chaqqon tovarlar bo'lgan. Sulolalar almashgan davrlarda ham hukumatlar o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda savdo va elchilik aloqalarini ayni shu yo'l orqali amalga oshirganlar. Olib borilgan savdo-madaniy aloqalar natijasida ikkala mintaqa xalqlari ham boyib bordilar. Ayniqsa Buyuk Ipak Yo'li ustida joylashgan shaharlar tez sur'atlarda boyib bordi. Ipak yo'lidan doimo ham tinch savdo-sotiq maqsadlarida foydalanilmadi. Markaziy Osiyo hududidagi qadimgi davlatlardan Qang' va Davan davlatlari va ulardagi zotdor tulporlar Xitoy imperatorining havasini keltirdi. Natijada savdo, elchilik uchun foydalanilgan Ipak yo'lidan harbiy maqsadlarda ham foydalanildi. Shu tariqa moddiy manfaat yo'lida olib borilgan harakatlar har xil shaklda o'zgarib bordi.

Xulosa. Mazkur uzoq asrlik tarixiy davrda sharq va g'arbni ham madaniy ham savdo-iqtisodiy, diplomatik jihatdan bog'lagan Buyuk Ipak yo'li ko'plab voqealarning guvohidir. Mazkur yo'lida olib borilgan savdo elchilik va boshqa diplomatik aloqalar orqali sharq va g'arb sivilizatsiyalari bir-birini tanidi, bir-birida mavjud bo'lmagan tovar, mahsulotlar bilan o'z bozorlarini boyitdi. Shuni yoddan chiqarmasligimiz kerakki mazkur yo'lning tarix uchun qilgan xizmatlari beqiyosdir. Bugungi kunda ham ushbu yo'lning tarixiy izlarini zamonaviy asosda yo'lga qo'yish ya'ni mintaqalar, mamalakatlar o'rtasidagi savdo hamkorlik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish tarixiy zaruratdir.

ADABIYOTLAR:

1. *Buyuk ipak yo'li va jahon sivilizatsiyasi. O'qiv uslubiy qo'llanma. Vuxoro. 2007.*
2. *Xўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабат ва тақдирлар. –Тошкент. 2007.*
3. *Каримова Н. Взаимоотношения народов Центральной Азии и Китая в XIV-XVII вв. – Ташкент. 2005.*
4. *Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдли. –Тошкент, 2000. – 2006.*
5. *Xinru Lui. The Silk Road in the worl history. Oxford University Press. 2010.*
6. *Матбобоев В.Х, Шамсутдинов.П.Т, Мамажонов А. Буйук ипак йўлидаги Фарғона шаҳарлари. Андижон. Мерос. 1994.*
7. *<http://uz.wikipedia.org>*

XV – XVII ASRLARDA MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA YUZ BERGAN ETNIK JARAYONLARNING MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI

*Turdiyev Ilyos Ulug'bek o'g'li,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti Jahon
tarixi kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi
ilyosturdiyev1@gmail.com*

Annotatsiya. XV – XVII asrlarda Markaziy Osiyoda, ayniqsa, Dashti Qipchoqda yuz bergan siyosiy va etnik jarayonlarni asosan forsiy va turkiy tilli (chig'atoy va usmonli tillaridagi), qisman esa rus, yevropa (nemis, ingliz, fransuz va b.), xitoy, arman, gruzin va hokazo tillardagi yozma manbalar va etnografik materiallarga tayanib yoritish mumkin. Bu davrda mintaqada hukm surib, ko'pchiligi Oltin O'rda davlatining vorislari bo'lgan bir qator xonliklar adabiy muhitiga xos mahalliy yozma manbalar – turkiy va forsiy tilli tarixiy asarlar hamda Temuriylar muhitiga mansub asarlar o'sha davrda kechgan tarixiy jarayonlarni kuzatish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Dashti-qipchoq, 92 bovli o'zbek urug'i, "92 bovli elatiya", O'g'uzxon, Chingizxon, Shayboniyxon, ko'chmanchi o'zbeklar, Amudaryo, Sirdaryo, Jung'or (Qalmoq).

ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ ЭТНИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, ПРОИСХОДИВШИХ В ЦЕНТРАЛЬНО-АЗИАТСКОМ РЕГИОНЕ В XV–XVII ВЕКАХ

Аннотация. Политические и этнические процессы, происходившие в Центральной Азии, особенно в Дашти-Кипчаке в XV-XVII вв., можно проиллюстрировать главным образом письменными источниками и этнографическими материалами на персидском и тюркских языках (чигатайском и османском), а также отчасти на русском, европейских (немецком, английском, французском и др.), китайском, армянском, грузинском и др. Местные письменные источники, типичные для литературной среды ряда ханств, правивших регионом в этот период, большинство из которых были преемниками государства Золотой Орды - исторические сочинения на тюркском и персидском языках, а также произведения, принадлежащие среде Тимуридов, позволяют проследить исторические процессы, происходившие в тот период.

Ключевые слова: Средняя Азия, Дашти-Кипчак, 92-чашиное узбекское племя, «92-чаши Елатия», Огуз-хан, Чингисхан, Шайбани-хан, кочевые узбеки, Амударья, Сырдарья, Джунгар (Калмыцкие).

SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY OF ETHNIC PROCESSES THAT OCCURRED IN THE CENTRAL ASIAN REGION IN THE 15TH-17TH CENTURIES

Abstract. The political and ethnic processes that took place in Central Asia, especially in the Dashti-Kipchak in the 15th-17th centuries, can be illustrated mainly by written sources and ethnographic materials in Persian and Turkic languages (Chigatai and Ottoman), and partly in Russian, European (German, English, French, etc.), Chinese, Armenian, Georgian, etc. The local written sources typical of the literary environment of a number of khanates that ruled the region during this period, most of whom were successors of the Golden Horde state - historical works in Turkic and Persian, as well as works belonging to the Timurid environment, allow us to trace the historical processes that took place during that period.

Key words: Central Asia, Dashti-Kipchak, 92-bowl Uzbek tribe, "92-bowl Elatiya", Oghuz Khan, Genghis Khan, Shaybani Khan, nomadic Uzbeks, Amu Darya, Syrdarya, Dzungar (Kalmyk).

Kirish. Markaziy Osiyo mintaqasi qadim va o'rta asrlarda bo'lgani kabi bugungi kunda ham turli-tuman tillarda so'zlashuvchi, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi, umuman olganda, turfa madaniyatlarga beshik vazifasini bajaruvchi hudud sifatida e'tirof etiladi. Shu jihatdan olganda o'tmishda Yevrosiyo kengliklarining markaziy qismida joylashgan tarixiy Dashti Qipchoqda kechgan siyosiy va etnomadaniy jarayonlarni o'rganish zarurati tug'iladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dashti Qipchoq hududida bo'lib o'tgan tarixiy jarayonlarning mintaqaga ta'siri masalasiga bir qancha sharqshunos, elshunos, tarixchi, arxeolog va boshqa ijtimoiy-

gumanitar soha vakillari mintaqa tarixida Dashti Qipchoq omiliga ham birmuncha e'tibor qaratganliklari ko'zga tashlanadi. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bilan shug'ullangan tadqiqotchilar orasida "92 bovli o'zbek urug'i" iborasi, umuman olganda, yaqin o'tmishda o'zbeklarning 92 ta uruqqa bo'linish an'anasi bo'lgani [1, 130-131] va bu borada birmuncha yakdil fikrga kelinganiga qaramay, keyingi yillarda ayrim izlanuvchilar farqli qarashlarni o'rta tashlayotganliklari ko'zga tashlanadi. XX asrning 90 - yillaridan oldingi tadqiqotlarda "92 o'zbek urug'i" deganda ko'proq dashti qipchoqlik ko'chmanchi o'zbeklar haqida so'z borishi [2,201], ular siyosiy uyushuv, etnik, til va madaniyati bilan qozoq, qoraqalpoq, no'g'oylar bilan yaqin o'xshashlikka ega bo'lganliklariga e'tibor qaratgan bo'lsalar [3,165-176], keyingi yillarda, xususan, mustaqillik yillarining ilk o'n yilliklarida olib borilgan izlanishlarda ko'proq biryoqlamalikka yo'l qo'yilganini aytib o'tish kerak. Jumladan, qozoqlarning etnik shakllanishi, qozoq xonliklarining paydo bo'lishi, qozoqlar xalqining urug'-qabilaviy tarkibi masalasiga e'tibor qaratgan bir qator qozog'istonlik tadqiqotchilarning "92 bovli o'zbek urug'i" iborasining o'rniga "92 bovli qipchoq urug'i", "92 bovli elatiya" degan iboralarni nisbatan ko'proq qo'llayotganliklari diqqatni tortadi [4, 104-193].

Tadqiqotning obyekti. XV – XVI asrlarda kechgan siyosiy-etnik jarayonlarning Jizzax viloyati Sangzor vohasida aks etishini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaga ma'lumotlar to'plashda asosan Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy va etnik jarayonlarni asosan forsiy va turkiy tilli (chig'atoy va usmonli tillaridagi), qisman esa rus, yevropa (nemis, ingliz, fransuz va b.), xitoy, arman, gruzin va hokazo tillardagi yozma manbalar va etnografik materiallarga tayanib qiyosiy taqqoslangan.

Tahlillar va natijalar. XV – XVII asrlarda Markaziy Osiyoda, ayniqsa, Dashti Qipchoqda yuz bergan siyosiy va etnik jarayonlarni asosan forsiy va turkiy tilli (chig'atoy va usmonli tillaridagi), qisman esa rus, yevropa (nemis, ingliz, fransuz va b.), xitoy, arman, gruzin va hokazo tillardagi yozma manbalar va etnografik materiallarga tayanib yoritish mumkin. Bu davrda mintaqada hukm surib, ko'pchiligi Oltin O'rda davlatining vorislari bo'lgan bir qator xonliklar adabiy muhitiga xos mahalliy yozma manbalar – turkiy va forsiy tilli tarixiy asarlar hamda Temuriylar muhitiga mansub asarlar o'sha davrda kechgan tarixiy jarayonlarni kuzatish imkonini beradi.

Ular orasida fors tilida yozilgan Mas'ud ibn Usmon Kuhistoniyning "Tarixi Abulxayrxoniy" (XVI asr), Sayfiddin Axsikandiyning "Majmu at-tavorix", Hofiz Tanish Buxoriyoning "Sharafnomai shohiy" (XVI asr), Xo'jamqulibek Balxiyning "Tarixi Qipchoqxoniy" (XVII asr), turkiy tilda bitilgan "Tavorixi guzida – Nusratnoma" (XVI asr), O'tamish Hoji ibn Muhammad Do'stiyning "O'tamish Hoji tarixi" (XVI asr), Abulg'ozzi Bahodurxonning "Shajarayi turk" (XVII asr) asarlari alohida ajralib turadi. Shuningdek, ushbu asarlar qatoriga Muhammad Solihning "Shayboniyнома" asarini ham kiritish mumkin. Ushbu asarlarning ko'pchiligida o'rta asrlarda yozilgan tarixiy asarlarda bo'lgani kabi ko'chmanchi o'zbeklar davlatining tashkil topish bilan bog'liq voqeliklar keltirilishi bilan birga odamzodning yaratilishi, turk-mo'g'ul xalqlarining ilk ajdodlari, qadimiy sulolalari, O'g'uzxon, Chingizxon va uning avlodlari boshqaruvi haqida so'z yuritilib, keyin o'zbek ulusiga aloqador voqeliklari, Shayboniyxon va uning avlodlarining siyosiy faoliyatiga to'xtalib o'tilgani ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, bu davrni yoritishda Temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlarga murojaat qilinadi. Ular orasida Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" [5, 35-45], Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" (XVI asr) [6,185-219] va yana o'nlab tarixiy asarlarni o'rnak sifatida keltirish mumkin. Ushbu asarlarda asosiy diqqat-e'tibor Dashti Qipchoqda kechgan siyosiy jarayonlarga qaratilgan bo'lmasa-da, ayrim o'rinlarda Oltin O'rda va uning vorislari boshqaruvi doirasida yuz bergan siyosiy voqeliklar haqida birlamchi ma'lumotlar berishi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Temuriylar davri tarixiy asarlarida Dashti Qipchoqda yirik siyosiy-harbiy kuch sifatida "o'zbek ulusi" tushunchasining shakllanishi va ularga nisbatan temuriy mualliflarning munosabati diqqatga sazovordir. Masalan, "Boburnoma"da "o'zbek" atamasi ostida aynan qaysi aholi guruhi tushunilgani, ular tarqalgan hududlar, ko'chmanchi o'zbeklarning o'ziga xos xususiyatlari, tili, urf-odatlari, jang usullari va hokazolar haqida qisqa, shu bilan birga birlamchi ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Bu davrda Markaziy Osiyoda kechgan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlar bo'yicha tasavvurlarga ega bo'lish uchun so'nggi o'rta asrlarga tegishli Usmonli – Dashti Qipchoq, xususan, Markaziy Osiyodagi xonliklar orasidagi aloqalarni o'zida birmuncha aks ettirgan "Usmonli arxivi hujjatlari" orasida saqlanayotgan yozishmalarga murojaat qilish mumkin. Usmonli hujjatlaridagi ma'lumotlar birmuncha keyingi davrlarga tegishli bo'lsa-da, kichik osiyolik turklar "o'zbeklar" deganda aynan kimlarni nazarda tutgani va ularga nisbatan qanday ta'rif berilgani o'sha davrdagi etnik vaziyat bo'yicha tasavvurlarimizni yanada kengaytiradi.

Bu davr haqida u yoki bu darajada ma'lumot beruvchi asarlar yevropalik va rus mualliflarining asarlarida o'rin olgan. Jumladan, rossiyalik elchi I.D.Xoxlovning hisoboti [7, 47], A. Jenkinsonning

qaydlari[8, 167-215], A.Bekovich-Cherkasskiy harbiy ekspeditsiyasi ma'lumotlari[9, 303-364, 197-506] Dashti Qipchoq hududidagi tarixiy voqeliklar, ayniqsa, so'nggi o'rta asrlarda bu hududda yuz bergan voqeliklar, turli turkiy urug'lar, ularning etnografik xususiyatlari haqida ayrim muhim ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan asarlardagi ma'lumotlar o'zaro bir-birini to'ldiradi. Forsiy va turkiy tilli asarlar manbashunos olim B.Ahmedov va boshqalar tomonidan o'rganilib, ilm olamiga tanitilgan. Ko'chmanchi o'zbeklar tarqalgan hududlar, ularning siyosiy holati va etnik shakllanish bosqichlari, urug'-qabilaviy tuzilishi, Amudaryo – Sirdaryo oralig'iga ko'chgan ushbu aholining dastlab qaysi vohalarda joylashganliklari masalasini tahlil qilgan B.Ahmedov "92 o'zbek urug'i" tushunchasiga ham anchagina keng to'xtalgani ko'zga tashlanadi.

Bu davr tarixiy asarlarini manbashunoslik nuqtai nazaridan o'rgangan olimlardan yana biri T.Sultanovdir. Taqdiqotchi XVI asrdayoq "92 o'zbek urug'i" ro'yxati uchrab, shu asrda yashagan farg'onalik Sayfiddin Axsikandiyning "Majmu at-tavorix" (Tarixlar to'plami) asaridagi ma'lumotlar buni tasdiqlashiga urg'u beradi. Turli asarlarda keltirilgan shajaralarga tayangan T.Sultanov o'zbeklarning 92 ta uruqqa bo'linishi XVI asrning ilk yarmiga va hatto undan ham oldingi davrlarga borib taqalishi masalasini turli manbalar asosida ko'rib chiqadi.

Ko'chmanchi o'zbeklar ilk yurti – Sirdaryo havzalaridagi faoliyati Shayboniylar davri tarixiy asarlarida ancha keng bayon qilingan. Ulardan biri "Tavorix-i guzida – Nusratnoma"dir. Chig'atoy turkchasida yozilgan va Shayboniyxon (1451-1510) tarixiga bag'ishlangan anonim asar bo'lib, unda Chingizxon va uning avlodlarining Shayboniyxongacha bo'lgan voqeliklar tarixi aks etgan. Asarning asl matni hijriy 908 (milodiy 1502-1503)da yozilgan bo'lsa-da, "Tavorix-i guzida" nomi bilan ham mashhur bo'lgan asar muallifi shu paytgacha aniqlanmagan [10, 136].

Ushbu asarlardan ma'lum bo'lishicha, o'rta asrlar, ayniqsa, XV – XVII asrlarda Markaziy Osiyo va unga qo'shni hududlarda ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy vaziyat boshqa davrlarga nisbatan ancha faolligi bilan alohida ajralib turadi. Ya'ni bu davrda mintaq va unga qo'shni o'lkalardan bir qator davlatlar hukm surib, ular orasida mintaqaning shimoli-g'arbiy qismlarida Oltin O'rda saltanatining izdoshlari bo'lmish Qozon xonligi (1438-1552), Astraxan xonligi (1460-1556), No'g'oy O'rdasi (1392-1634), Abulxayr xonligi (O'zbek ulusi – 1428-1468), Qozoq xonliklari (1465-1857), Shayboniylar (1501-1601), Ashtarxoniylar (1601-1757) kabi turkiy sulolalar bilan bog'liq voqeliklar yozma manbalarda o'z aksini topgan. Aynan o'sha kezlarda bu hududlarga tashqi ta'sirlar kuchayib, bir tomondan, g'arbdan Moskva knyazligi hujumlari ortib, bir necha bor harbiy harakatlar uyushtirishi va 1552 - yilda Qozon xonligini, 1556-yilda Astraxan xonligini egallashi yuz bergan bo'lsa, undan birmuncha oldin sharqdan Jung'or (Qalmoq) xonligining dastlab Abulxayr davlatini, keyinroq esa Qozoq xonliklari ustiga tinimsiz xarbiy yurishlar uyushtira boshlagan edi.

Muhokama. Bungacha Oltin O'rda hamda Temuriylar saltanati Markaziy Osiyo va unga qo'shni hududlarda o'z hukmini o'tkazib, asosiy "siyosiy kuch"lar sifatida bilingan va aholi, xususan, boshqaruvchi etnik guruhlar turkiy va turklashgan mo'g'ul urug'larining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni yuqori edi. Bu holat XV – XVI asrlarda ham birmuncha o'z mavqeini saqlab qolgan bo'lsa-da, XVI asr ikkinchi yarmiga mintaq siyosiy hayotida katta o'zgarishlar yuz bera boshlaydi. Yevrosiyo kengliklarida, xususan, Dashti Qipchoqning g'arbiy hududlari bo'lmish Sharqiy Yevropa – Qora dengizning shimoli va Shimoliy Kavkazda, biroz keyinroq esa Quyi Volga – Uralbo'yi, Emba daryosi havzasi, Orol dengizi atroflari – Sirdaryoning quyi va o'rta havzalaridagi asosan turkiy tilli musulmon ko'chmanchi siyosiy uyushmalariga siyosiy raqib sifatida bir tomondan – shimoli-g'arbdan Moskva knyazligi, ikkinchi tomondan – sharqdan jung'or (qalmoq)lar hujumi kuchayib, ular uchun har ikkala siyosiy kuch borgan sari katta xavf tug'dira boshlagan bir palla edi. Ulardan birinchisi 1552-yilda Qozon xonligining markazi Qozon shahrini, oradan ko'p o'tmay 1556-yilda Astraxan shahrini, birmuncha vaqt o'tib, 1598-yilda Sibir xonligini bosib olgach, Oltin O'rda davlatining vorislari orasida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy rishtalar uzilib, o'zaro qarindosh turk musulmon sulolalar orasidagi aloqalarga putur yeta boshlaydi. Shunga o'xshash holat mintaqaning shimoli-sharqiy hududlarida – G'arbiy Sibir va Yettisuvda Uyrot xonligi (Jung'or – 1399-1634) tomonidan Oltin O'rda vorislariga, ayniqsa, Abulxayr ulusi va Qozoq xonliklariga jiddiy xavf tug'dira boshlaydi. Ham diniy e'tiqodi, ham tili va etnik xususiyati farqli bo'lgan har ikkala yirik siyosiy kuch siquvida qolib, siyosiy ta'sir doirasi tobora kamayib borib, hududi – kunchiqarda G'arbiy Yettisuv (Chu va Talas daryolari havzasi), kunbotarda – Volga-Uralbo'yining sharqidagi yerlar orasi bilan cheklanib qolib, oldingi siyosiy mavqeini yo'qotadi.

Xulosa. XV – XVI asrlarda Markaziy Osiyoda, xususan, uning shimoli-g'arbiy hududlarida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va etnik jarayonlarni o'rganish uchun yozma manbalar yetarli. Faqat ular yetarlicha o'rganilmagani uchun bu davr tarixini yoritishda bir qator muammolarga duch kelinadi. Aslida

HISTORY

mamlakatimiz hududida keyingi asrlarda bo‘lib o‘tgan siyosiy voqealiklar ayniqsa, turli o‘zbek urug‘larining u yoki bu vohada joylashuvi bilan bog‘liq masalalarni yoritish imkoniyati mavjud.

ADABIYOTLAR:

1. Ахмедов Б. А. *Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII вв.: письменные памятники.* –Ташкент: Фан, 1985. – С. 130-131.
2. Абусеитова, М. Х. *История Казахстана и Центральной Азии: учеб. пособие / М. Х. Абусеитова и др.* – Алматы: Дайк-Пресс, 2001. – С. 201.
3. Султанов Т.И. *Опыт анализа традиционных списков 92 «племён илатийа» // Средняя Азия в древности и средневековье.* – М.: Наука, 1977. – С. 165-176.
4. Алпысбес М. *Шежире казахов: источник и традиции.* – Астана, 2013. – С. 104, 193, 199
5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. *Бобурнома.* – Тошкент: “O‘qituvchi” нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. В. 35-45
6. Мирзо Мухаммад Хайдар. *Тарихи Рашиди / пер. с перс. Р.П. Джалиловой и Л.М. Епифановой // Материалы по истории Средней и Центральной Азии X – XIX вв.* – Ташкент: Фан, 1988. – С. 185-214.
7. *Статейный список посольства в Бухарию дворянина Ивана Хохлова (1620–1622 гг.) // Сборник князя Хилкова.* – Санкт-Петербург, 1879. *История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и учёных XVI– первой половины XIX в.* – Ташкент: 1988. – С. 47. (Статейный список русского посла в Бухару И.Д. Хохлова (1620-1622гг.)).
8. Дженкинсон А. *Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560 гг. // В кн.: Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. Перевод с английского Л. Готье.* – Ленинград, 1932. – С.167-215.
9. *Голосов Д. Поход в Хиву 1717 г. отряда под начальством лейб-гвардии Преображенского полка, капитана, князя Александра Бековича Черкасского // Военный сборник, 1861.* – Ташкент, XXI. – С. 303-364;
10. *Дело 1714-1718 гг. об отправлении лейб-гвардии Преображенского полка капитана-поручика, князя Александра Бековича Черкасского на Каспийское море и в Хиву. Документы и материалы Военно-учёного архива Главного штаба.* – Ташкент, 1. – Санкт-Петербург: 1871. – С. 197-506.
11. Бекмуродов С.Т. “Таварих-и гузида – Нусратнома” асари Марказий Осиё тарихи ҳақида маълумот берувчи манба сифатида // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Vol. 2, Issue 8. Scientific Journal Impact Factor.* – Тошкент, 2022. – Б. 136.

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Tursunov Nurullo Narzullayevich,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Tarix”
kafedrası dotsenti, tarix fanlari doktori (DSc)
tursunov22@mail.ru

Jaylovov Sanjar Faxriddinovich,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tadqiqotchisi
sanjar.jaylovov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy mazmun-mohiyati, ustuvor yo‘nalishlari va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tahlil qilinadi. Yoshlarga oid siyosatning huquqiy asoslari, davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, bandlik, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik tarbiyasi va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlari yoritiladi. Maqolada, shuningdek, yoshlarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni zararli g‘oyalardan himoya qilish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta‘minlash borasidagi davlat strategiyalari tahliliy yondashuv asosida baholanadi. Tadqiqot natijalari yoshlar siyosati izchil takomillashib borayotganini, davlat va jamiyat hamkorligida yoshlarga qaratilgan g‘amxo‘rlikning yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: yoshlar siyosati, davlat dasturlari, ta‘lim, bandlik, huquqiy asoslar, innovatsiya, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik.

**ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ
В ОТНОШЕНИИ МОЛОДЁЖИ**

Аннотация. В данной статье анализируются основные направления государственной политики Республики Узбекистан в отношении молодёжи, её сущность и приоритеты. Рассматриваются правовые основы молодёжной политики, государственная поддержка в сферах образования, здравоохранения, занятости, формирования гражданской активности, патриотического воспитания и развития предпринимательских инициатив среди молодёжи. Особое внимание уделяется современным механизмам защиты молодого поколения от негативных идей, развитию цифровых навыков, расширению возможностей самореализации и созданию благоприятной социальной среды. В статье также оценивается эффективность реализуемых реформ и стратегий, направленных на повышение роли молодёжи в обществе и укрепление сотрудничества государства и гражданского сектора. Результаты исследования показывают, что молодёжная политика приобретает новые, более комплексные формы и становится важным фактором устойчивого развития страны.

Ключевые слова: молодёжная политика, государственные программы, образование, занятость, правовые основы, инновации, патриотизм, социальная активность.

THE MAIN DIRECTIONS OF THE STATE POLICY ON YOUTH

Abstract. This article examines the main directions of the youth policy of the Republic of Uzbekistan, its core principles, and priority areas. It explores the legal foundations of youth policy and the wide range of state programs designed to support young people in education, healthcare, employment, civic engagement, entrepreneurial activities, and patriotic upbringing. Special attention is given to modern mechanisms aimed at developing digital skills, protecting youth from harmful ideological influences, promoting social participation, and strengthening opportunities for self-realization. The article also evaluates ongoing reforms, institutional frameworks, and national strategies that contribute to enhancing the role of youth in society and expanding cooperation between the state and civil institutions. The findings show that youth policy in Uzbekistan is gradually becoming more comprehensive, innovative, and responsive to the needs of the younger generation, thereby serving as a key factor in sustainable national development.

Keywords: youth policy, state programs, education, employment, legal framework, innovation, patriotism, social engagement.

Kirish. Yurtimizda yoshlarga nisbatan har doim millat va jamiyat kelajagini hal qiluvchi katta kuch sifatida qaralgan. Ertangi yorug' kunimiz va buyuk kelajagimizni ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, har bir davlatning kelajagi yoshlarning qay darajada yuksak bilimli va salohiyat egasi ekanligiga bevosita bog'liqdir.

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ezgu maqsadlarini, birinchi navbatda ularni uy-joy bilan ta'minlash kabi orzularini ruyobga chiqarish uchun amalga oshirilayotgan o'ziga xos tub islohotlar muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, davlat rahbarining 2014-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi shular jumlasidandir.

Ushbu dasturni amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan rejaga muvofiq respublikamizning har bir hududida ikkitadan to'rt qavatli, 48 tadan 64 tagacha xonadonni o'z ichiga olgan uylarni qurish, ularni faol yosh oilalarga imtiyozli kredit asosida berish ko'zda tutilgan edi.

Birinchi Prezidentimizning yuqoridagi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2014-yil 8-sentabrda Vazirlar Mahkamasining "Mamlakatning ijtimoiy hayotida faol qatnashayotgan yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori qabul qilinib ko'p kvartirali uylardan yosh oilalarga kvartiralar berish masalalarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi. Bu boradagi ishlar yanada yangi bosqichga ko'tarish maqsadida 2017-yil 4-oktabrda 2018-2021-yillarda quriladigan "Yoshlar" uylari rejasi tasdiqlandi [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son Farmonini bajarish yuzasidan, shuningdek, mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etib, alohida namuna ko'rsatayotgan yosh oilalarga uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari berish yo'li bilan ularning uy-joy va maishiy sharoitlarini yanada yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-sentabrdagi 753-sonli "Mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etayotgan yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashda qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori imzolandi.

Har bir yil o'zining mukammal darajada ishlab chiqilgan davlat dasturiga ega bo'lib, ularda davlat g'amxo'rliqi o'z ifodasini topgan. Birgina 2017-yildan boshlab Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev boshchiligidagi amalga oshirilgan eng muhim ishlardan biri xalqimizni arzon va barcha shart-sharoitlarga ega uy-joy bilan ta'minlashning yangi mexanizmi ishlab chiqilib, hayotga tadbiiq etilgani ekanligi hammamizni benihoya quvontirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev, bu haqida gapirib, "Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, biz keyingi 25 yil davomida birinchi marta aholi uchun arzon, barcha qulayliklarga ega bo'lgan ko'p qavatli uy-joylar qurishni boshladik. 2017- yilning o'zida 800 ming kvadrat metrdan ziyod ana shunday uy-joylar foydalanishga topshirildi", - degan edi [2].

Xususan, o'tgan besh yilda O'zbekistonning janubida joylashgan Surxondaryo viloyatida esa namunaviy loyihalar asosida 178 ta massivda 5 ming 800 ga yaqin uy-joy barpo etilganini alohida ta'kidlash o'rinlidir [3].

Har bir mamlakat oldida turgan muhim vazifalardan biri yoshlarga oid siyosatning milliy modelini ishlab chiqishdir. Ma'lumki, yoshlar jamiyatning eng faol qatlami hisoblanib, ular ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga sabab bo'ladigan, bunyodkorlik g'oyalarini hayotga tatbiq etuvchi asosiy omil va salohiyatli kuch hisoblanadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Ma'lumki har qanday islohot, xususan, millionlab yoshlarning hayoti va kelajagiga bevosita daxldor bo'lgan o'zgarishlar har tomonlama chuqur o'ylab ish tutishni, yetti o'lchab, bir kesishni talab etadi" [4].

Yoshlarimizning minglab iqtidorli vakillari Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya kabi mamlakatlarning yetakchi universitetlarida ta'lim olmoqda, bu esa, ularning bilim va malakasini oshirishda keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Davlat byudjetining 35 foiz mablag'i aynan ta'lim-tarbiya sohasiga yo'naltirilmoqda. Ayni paytda 40 dan ortiq mamlakatdan kelgan 1250 dan ziyod xorijiy fuqaro O'zbekistonda ta'lim olmoqda [5].

Muhokama va natijalar. Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ularni ishga joylashtirish va bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish, iqtidorli va iste'dodli o'g'il-qizlarni qo'llab-quvvatlash, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan salmoqli ishlar qilindi.

Xususan, o'tgan qisqa davrda yoshlarga oid 100 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilinib, izchil amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada ham yosh avlodning huquq va manfaatlari huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgani O'zbekistonda yoshlarga bo'lgan e'tiborning yanada yangi bosqichga ko'tarish imkonini bermoqda desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

HISTORY

“Yoshlar daftari”, “Yoshlar balansi” platformasi asosida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar natijasini ular o‘z kundalik hayotida sezmoqda, his etmoqda. Imkoniyat va zarur shart-sharoitlar, ularning o‘qib-o‘rganishi uchun ko‘rsatilayotgan e‘tibor nafaqat yurtdoshlarimiz, balki dunyo hamjamiyatini ham o‘ziga jalb etmoqda.

2021-yilning o‘tgan davrida yoshlar bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimi hisoblangan “Yoshlar daftari” va “Yoshlar dasturlari” asosida 430 ming nafar yigit qizning hayotiy muammolarini hal etish uchun 300 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilgani, 92 ming nafardan ziyod yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 2,3 trillion so‘m imtiyozli kreditlar, qishloq joylarda yashayotgan 230 mingdan ortiq yoshlarga dehqonchilik bilan shug‘ullanishi uchun 61 ming gektar yer maydoni ajratilgani bu boradagi ishlarning ko‘lami tobora kengayib borayotganini ko‘rsatadi [6].

Yoshlarni ijtimoiy, ma‘naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, huquqlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashlari uchun qulay sharoitlar yaratish orqali ularni Vatan va yurt taqdirini hal etuvchi katta kuchga aylantirish mumkin. Prezidentimiz tashabbusi bilan 200 o‘rinli “Amudaryo bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi” qurib bitkazildi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2018-yil 19-yanvarda viloyatga tashrifi chog‘ida mazkur oromgohga tashrif buyurdi [7].

Ayniqsa, yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosati borasida olib borilayotgan ishlar dunyo miqyosida tan olinmoqda. Masalan, 2023-yili Yoshlar taraqqiyoti indeksiga ko‘ra, O‘zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri, deb e‘tirof etildi. BMT tomonidan “Yoshlar strategiyasi – 2030”ni namunaviy tarzda amalga oshirish bo‘yicha tanlab olingan 10 ta mamlakatdan biri ham aynan O‘zbekiston bo‘lganligi ham hammamizni behad quvontirdi. Tarixiy tajriba shuni yaqqol ko‘rsatmoqdaki, yoshlari bilimli, iste‘dodli, o‘zining kuchi va salohiyatiga ishonib, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqboli, albatta, yorug‘ bo‘ladi. Shu bois, ularni ana shunday ezgu fazilatlar sohibi etib tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlar safarbar etilmoqda.

Birgina 2024-yilda yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrov darajasi sezilarli darajada oshdi. Oliy ta‘lim muassasalari soni ham keskin ko‘paydi. Bu orqali yigit-qizlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasi 39 foizga yetdi.

Keyingi paytlarda mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimida ham dunyoning ilg‘or tajribalari va zamonaviy ta‘lim standartlari asosida tub o‘zgarishlar amalga oshirilayotgani, mehnat bozori talablariga mos keladigan mutaxassislar tayyorlashga katta e‘tibor qaratilayotgani o‘z samarasini bermoqda.

Oliy ta‘limda grant o‘rinlarini bosqichma-bosqich oshirish hisobiga aniq va tabiiy fanlar, muhandislik-texnika, xizmatlar, tibbiyot kabi sohalarda davlat buyurtmasi 25 mingtaga yetkaziladi.

Mazkur hujjatga muvofiq, “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi ta‘lim dasturlari asosida ta‘lim olish uchun stipendiya tanloviga 20 tagacha kvota ajratib boriladi.

Davlatimiz rahbarining mazkur farmoni bilan tasdiqlangan “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida ham yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim olishi va kasb-hunar egallashi uchun zarur sharoitlar, qulayliklar yaratish bo‘yicha muhim vazifalar o‘rin olgan.

Masalan, bu yilga mo‘ljallangan dasturda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida 3,5 ming kambag‘al oilalar farzandlarini tayyorlab, oliy ta‘lim tashkilotlariga belgilangan tartibda grant asosida qabul qilinishi ham aks etdi. Bu shuncha xonadonga baxt, quvonch, shodlik olib kirgani, ming-minglab yoshlarni faollikka chorlagani rost. Zero, buning natijasida ancha yillardan bo‘yon ta‘lim olish istagida yurgan, lekin shartnoma asosida o‘qishga qurbi yetmaydigan ko‘plab yigit-qizlarning orzu-istaklari ro‘yobga chiqadi, ular ham tengdoshlari qatori bilim olish, yurt rivojiga o‘z hissasini qo‘shish imkoniga ega bo‘ladi.

Davlat dasturida yoshlar, ayniqsa, kam ta‘minlangan oilalar farzandlarini zamonaviy kasblarga o‘qitishni rivojlantirish, ularni kasb-hunarga o‘qitish, kasbiy ko‘nikma va malakalarini oshirish orqali bandligini ta‘minlash, yuqori daromad topish imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘maklashish vazifasi ham o‘rin olgan. Bu ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish, yoshlarning biznes bilan shug‘ullanishiga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish orqali ularni yangi ish o‘rinlari, yaxshi daromad manbai bilan ta‘minlashga turtki beradi. Jumladan, yoshlar bandligini ta‘minlash maqsadida hududlarda ishsiz yoshlar bandligini ta‘minlash dasturlarini ishlab chiqilishi, ushbu dasturlar asosida ularga subsidiya, kredit, yer ajratish hamda bo‘sh ish o‘rinlariga joylashtirish orqali bandligini ta‘minlash choralari ko‘rilishi Yangi O‘zbekistonda yoshlarga bo‘lgan yuksak e‘tiborning yorqin namunasidir.

Hududlarda o‘z faoliyatini boshlayotgan IT-parklar, ixtisoslashtirilgan maktablar hamda o‘quv markazlarining tashkil etilishi yoshlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirishi, ularning o‘z intellektual

bilimini namoyon qilishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, yoshlarning axborot texnologiyalari, startap g'oyalar, kompyuter savodxonligi bo'yicha bilimini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Davlat dasturida yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi darajasini oshirish, "Top-500" talikka kirgan xorijiy universitetlar bilan 12 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish, respublikadagi kamida 1 ta oliy ta'lim muassasasini nufuzli xalqaro reytinglarning birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish ham belgilangan [8]. Yangi O'zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlat[9]. Qonun normalari yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda jamoat tashkilotlarining, avvalo, yoshlar tashkilotlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalarining roli hamda o'rnini kuchaytiradi. Jumladan, O'zbekistonda 2016-2021-yillar mobaynida yoshlar siyosatiga doir jami 152 ta Qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi [7].

BMT Bosh Assambleyasining 1999-yil 17-dekabrda 54/120-sonli rezolyusiyasi bilan Xalqaro yoshlar masalasi bilan shug'ullanuvchi vazirlar konferensiyasi tavsiyasi ma'qullandi. Ya'ni, 12 avgust – Xalqaro yoshlar kuni deb e'lon qilindi.

Shundan buyon har yili 12-avgust kuni butun dunyoda yoshlar, yoshlar tashkilotlari va faollari ushbu xalqaro sanani keng nishonlaydi. Shu kuni jahon hamjamiyatining diqqat-e'tibori yoshlarga oid masalalarga yana bir bor qaratiladi.

Butun dunyoda yoshlar, ularning yetakchilik mahorati, ijodiy salohiyati, navqiron kuch-qudrati va jo'shqinligi dunyo hamjamiyatining doimiy rivojlanishi, taraqqiy etishi uchun g'oyat muhim omil hisoblanadi [6].

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lida yurtning jadal rivojlanishi va muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bevosita aloqador. Shu ma'noda, O'zbekiston yoshlar masalasiga davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi bejiz emas.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida ta'kidlaganidek, "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat. Yoshlar ijtimoiy faoligini oshirish bilan bir qatorda ular orasidan faol bo'lganlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimi ham shakllantirib borildi. Buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lgan, mardlik va jasorat, qat'iyatlilik, halollik, vatanparvarlik kabi fazilatlariga ega avlodni tarbiyalash hamda jamiyatimiz hayotining turli sohalarida yuqori natijalarga erishib kelayotgan bilimli, tashabbuskor, ishbilarmon, shijoatli va fidoyi yoshlarni rag'batlantirish maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti [5] va "Kelajak bunyodkori" medali [9] ta'sis etildi.

Kam ta'minlangan, nogiron va og'ir hayotiy vaziyatdagi 18838 nafar yoshlarga 22,8 mlrd so'm miqdorda zaruriy moliyaviy ko'mak ko'rsatildi va qariyb 19 ming nafar yoshlarning ijtimoiy ahvoli yaxshilanishiga erishildi [4].

2023-yil 11-aprel kuni yoshlar bilan ishlash borasida bir qator yangi tashabbuslarni ilgari surildi.

Yoshlar bilan ishlash tizimini tashkil etishda individual yondashuv, aniq belgilangan chora-tadbirlar va rejalarining mavjudligi ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi hamda ijtimoiylashuvida muhim o'rin tutadi [5]. Bugungi kunda O'zbekiston aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etishi, ya'ni mamlakatimiz yoshlar davlati ekanligi barchamizga ma'lum. Bu esa davlatimiz oldiga yoshlar masalasini ustuvor vazifa sifatida qo'yimoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan joriy yilning 14-fevral kuni o'tkazilgan yoshlar bilan muloqot mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida yoshlar siyosatiga berilayotgan e'tiborning yaqqol namunasidir. Bugun yoshlarimizga berilayotgan imkoniyatlar ko'lami kundan-kunga kengayib bormoqda.

Ta'lim sohasidagi islohotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, oliy ta'lim muassasalari soni 3 barobar oshirilgani natijasida bugun 42 foiz yoshlarimiz oliy ta'lim bilan qamrab olingan. Xotin-qizlarimiz uchun magistratura bosqichida shartnoma to'lovlarining davlat tomonidan qoplanishi natijasida ularning soni 11 barobarga ko'paydi.

Ilmiy salohiyatni oshirish borasida ham sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Ilmiy darajali yosh olimlarimiz soni 2 barobar ko'payib, 4 ming nafardan oshdi. "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali so'nggi 7 yilda 2 ming 300 nafar vatandoshimiz xorijda tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bundan tashqari TOP-300 universitetlarida tahsil olgan yoshlarimiz davlat organi yoki davlat muassasasida ishlasa 30 yoshga kirgunga qadar qo'shimcha to'lovlar bilan rag'batlantirilishi mexanizmi yaratilgan. Endi esa bunga qo'shimcha

HISTORY

ravishda reytingi yuqori xalqaro universitetlarda ilmiy daraja olgan 35 yoshgacha bo'lgan yosh olimlarga uy-joy uchun 10 yil muddatga 800 million so'mgacha foizsiz ssuda ajratilishi ham belgilandi. Xorijda o'qish va xorijda o'qib kelgan yoshlarni qo'llab-quvvatlashning bunday mexanizmi dunyoda yo'q va tahsinga sazovor tizimdir.

Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Yoshlar agentligi huzurida maxsus jamg'arma tashkil etilib, unga 100 million dollar mablag' ajratiladigan hamda tadbirkor yoshlarga 2,5 milliard so'mgacha imtiyozli kreditlar beriladigan bo'ldi [6].

Bundan tashqari, Aloqabank yoshlarning biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlovchi tayanch bankka aylantirilib, unga 200 million dollar beriladi. Aloqabank o'zini-o'zi band qilgan yoshlarning loyihalari uchun 100 million so'mgacha 7 yil muddatga imtiyozli mikroqarz ajratadi. Shuningdek, Milliy bankka 100 million dollar yo'naltirilib, oliy ta'lim bitiruvchilarining tashabbus va g'oyalarini loyihaga aylantirish bo'yicha bank xizmatlari joriy etilishi belgilandi.

Kreativ iqtisodiyot sohalarida faoliyat ko'rsatayotganlarning 98 foizi yoshlar ekanligi e'tiborga molik. Bu borada biznes maktablari tashkil etilmoqda, innovatsion xizmat ko'rsatish usullari o'rgatilmoqda. Shu o'rinda mamlakatimizda Kreativ iqtisodiyot to'g'risidagi Qonun qabul qilingaligi alohida ahamiyatlidir.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-yanvar kuni "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Joriy yilda mamlakatimizda yoshlar va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning ba'zilar haqida qo'yidagi ma'lumotlarni qayd etmoqchiman.

2025-yilda O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatida juda katta yangiliklar bo'ldi. Yangi – yangi tashabbuslar, qonunchilikdagi eng muhim o'zgarishlar va amaliy loyihalar orqali yoshlarning jamiyatdagi faolligi, bilim va salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi.

"Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu hujjatda yoshlarning huquqlari, ijtimoiy himoyasi, bandligini ta'minlash va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yanada takomillashtirildi. Yangi qonunga muvofiq, har bir hududda yoshlar masalalari bo'yicha mas'ul idoralar vakolatlari kengaytirildi. Joriy yilda "Yoshlar daftari" tizimi orqali 1 millionga yaqin yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlandi. Ularning ehtiyojlariga ko'ra ta'lim granti, uy-joy ijarasi uchun kompensatsiya, tibbiy xizmatlar va ishga joylashish imkoniyatlari yaratildi.

Yoshlarning raqobatbardosh kadr bo'lishi uchun 2025-yilda kasb-hunarga o'qitish dasturlari kengaytirildi. Har bir tuman va shaharda kamida bitta zamonaviy kasb-hunar markazi ish boshladi. Shuningdek, davlat granti asosida o'qiyotgan talabalar soni 20 foizga oshirildi.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi orqali imtiyozli kreditlar ajratish davom etdi. 2025-yilda bu jamg'arma orqali 15 mingdan ortiq loyiha moliyalashtirildi, natijada 40 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratildi [7].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yosh avlod bu intellektual salohiyat namoyondalari bo'lib, ular haqida g'amxo'rlik ko'rsatilar ekan, avvalo ular bizning tayanchimiz va ertangi kelajagimizning davomchilari ekanligi, yoshlarga oid qonunchilik tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish qulay huquqiy va tashkiliy iqtisodiy imkoniyatlar barpo qilish, ularning kasb-hunar o'rganishlari, mehnat qilishlari, erkin ijod qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish ishlari diqqat markazimizda turadi.

Mamlakatimizning ertangi tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi kelajak avlodga, yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaralayotgani bejiz emas.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. 2021-yil 17-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasidan. Surxon tongi. 2017-yil 27-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-noyabrdagi "Mard o'g'lon" davlat mukofotini ta'sis etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3402-sonli Qarori. PQ-3402-son 21.11.2017.
4. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 28-dekabrdagi "Kelajak bunyodkori" medalini ta'sis etish to'g'risida"gi 451-sonli Qonuni.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 282 b.

HISTORY

6. *“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar qanday ko‘mak oladi? (yuz.uz). 2023-yil 28-sentabr.*
7. *Postda gazetasining 2018-yil 1-yanvar soni.*
8. *Tibbiyot va hayot gazetasining 2017-yil 8-may soni.*
9. *Xalq so‘zi gazetasining 2017-yil 5-oktabr soni.*

SAMARQAND VA BUXORODA TO‘QIMACHILIK SANOATINING TARIXIY ILDIZLARI

Utayeva Feruza Xolmamatovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri bo‘lgan Samarqand va Buxoro hududlarida to‘qimachilik sanoatining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning milliy madaniyatdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda, xususan, “Vadoriy” va “Zandana” nomi bilan mashhur bo‘lgan milliy matolarning kelib chiqish tarixi, texnologik tarkibi, ishlab chiqarish jarayonlari, xomashyo manbalari, rang berish usullari hamda bezak naqshlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Maqolada mazkur matolarning iqtisodiy va madaniy ahamiyati keng qamrovda o‘rganilib, ularning nafaqat ichki bozorda, balki tashqi savdo aloqalarida ham yuqori talabga ega bo‘lgani qayd etilgan. Shuningdek, tarixiy manbalarga tayanilgan holda Vadoriy va Zandana matolarini ishlab chiqaruvchi hunarmandlik ustaxonalari faoliyati, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘rni hamda mahalliy aholi turmush tarziga ko‘rsatgan ta‘siri haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada olingan ilmiy natijalar milliy brendni shakllantirish, turizm sohasida milliy mahsulotlar salohiyatini oshirish hamda yosh avlodda hunarmandchilik an‘analariga qiziqishni kuchaytirish uchun zarur bo‘lgan ilmiy asoslarni yaratadi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar, arxiv hujjatlari, tarixiy manbalar, matbuot materiallari hamda xalq ustalari bilan olib borilgan suhbatlar asosida tahliliy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: “Vadoriy”, “Zandana”, ipakchilik, to‘qimachilik, Samarqand, Buxoro, milliy meros, tabiiy bo‘yoqlar, hunarmandchilik.

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ САМАРКАНДА И БУХАРЫ

Аннотация. В данной статье научно проанализированы становление и этапы развития текстильной промышленности в Самарканде и Бухаре, одних из древнейших городов Узбекистана, а также ее роль в национальной культуре. В исследовании, в частности, освещены история происхождения, технологический состав, производственные процессы, источники сырья, способы окрашивания и особенности декоративных узоров национальных тканей, известных как “Вадори” и “Зандана”. В статье подробно рассматривается экономическое и культурное значение этих тканей, отмечается, что они пользовались высоким спросом не только на внутреннем рынке, но и во внешнеторговых отношениях. Также, опираясь на исторические источники, представлена информация о деятельности ремесленных мастерских по производству тканей Вадори и Зандана, их роли в социально-экономической жизни и влиянии на уклад жизни местного населения. Кроме того, научные результаты, полученные в статье, создают необходимую научную основу для формирования национального бренда, повышения потенциала национальной продукции в сфере туризма и усиления интереса молодого поколения к ремесленным традициям. В ходе исследования были сделаны аналитические выводы на основе научной литературы, архивных документов, исторических источников, материалов прессы и бесед с народными мастерами.

Ключевые слова: “Вадори”, “Зандана”, шелководство, текстиль, Самарканд, Бухара, национальное наследие, натуральные красители, ремесленничество.

HISTORICAL ROOTS OF THE TEXTILE INDUSTRY IN SAMARKAND AND BUKHARA

Abstract. This article provides a scientific analysis of the formation and developmental stages of the textile industry in the regions of Samarkand and Bukhara, two of Uzbekistan's ancient cities, as well as its place in national culture. The study particularly highlights the origin, technological composition, production processes, raw material sources, dyeing methods, and distinctive decorative patterns of national fabrics known as “Vadoriy” and “Zandana”. The article comprehensively examines the economic and cultural significance of these fabrics, noting their high demand not only in the domestic market but also in foreign trade relations. Additionally, based on historical sources, information is provided on the activities of craft workshops producing Vadoriy and Zandana fabrics, their role in socio-economic life, and their influence on the lifestyle of the local population. Furthermore, the scientific results obtained in the article establish the necessary scholarly foundations for developing a national brand, enhancing the potential of national

products in the tourism sector, and increasing interest in craft traditions among the younger generation. Throughout the research, analytical conclusions were drawn based on scientific literature, archival documents, historical sources, press materials, and interviews with folk artisans.

Keywords: “Vadoriy”, “Zandana”, sericulture, textiles, Samarkand, Bukhara, national heritage, natural dyes, craftsmanship.

Kirish. Vadoriy alvon rangli tukli mato va Zandana oq boz matolari Samarqand va Buxoroda to‘qimachilik sanoatining tarixiy ildizlaridir. Bu matolarni ishlab chiqarish davomida aholining maishiy, madaniy va milliy qadriyatlarini ham taraqqiy etgan va matolarda o‘z aksini topgan. Samarqand va Buxoro ustalari tomonidan ishlab chiqarilgan matolar buyuk ipak savdo yo‘li orqali o‘ndan ortiq davrlarda xaridor gir bo‘lgan. Sovet davrida bu mato ishlab chiqarilishi kamaygan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda an‘anaviy hunarmandchilikni tiklash dasturlari orqali yana e‘tiborga olinmoqda.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot obyekti Samarqand va Buxoroda to‘qimachilik sanoatining tarixiy ildizlari rivojlanish uchun turtki bo‘lgan jihatlarni o‘rganilib, Vadoriy va Zandana matolari tarixi haqida ma‘lumotlar jamlandi. Asosan, matbuot materiallari va arxiv ma‘lumotlaridan keng foydalanildi. Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik va izchillik, qiyosiy - tarixiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. IX–X asrlarda Movarounnahr va Xuroson hududlarida Somoniylar davlati iqtisodiy, madaniy va hunarmandchilik jihatdan yuksak darajaga erishgan [1]. Somoniylar davrida yaratilgan vadoriy matosi nafaqat O‘rta Osiyo to‘qimachilik san‘atining durdonasi, balki xalqimizning ijodiy mehnatining timsolidir. Vadoriy matosi o‘sha davrning madaniy, iqtisodiy yuksakligini aks ettiradi.

Vadoriy matosi nomi Samarqand viloyatidagi Kattaqo‘rg‘ondagi Vador qishlog‘i nomidan olingan [2]. Bu joy qadimdan ipak to‘qimachiligi bilan mashhur bo‘lgan. Vadoriy matosi asosan, ipak va paxta iplaridan to‘qilgan bo‘lib yumshoq va mustahkam bo‘lgan. Mato yorqin, qizil, moviy, yashil va oltin ranglarda bo‘lgan. Vadoriy matosidan ko‘pincha saroy kiyimlari, diplomatik sovg‘alarda va savdo-sotiqda mahalliy bozorlar orqali Buxoro va boshqa shaharlarga ham tarqalgan. Somoniylar davrida Vadoriy matolari nafaqat ichki bozor uchun, balki Xuroson, Bag‘dod, Eron va Hindiston bozorlariga eksport qilingan.

O‘rta asrlarda to‘qimachilik sohasi rivojlanib, Samarqand, Buxoro, Marv [3] kabi markazlar ipak va paxta matolari bilan mashhur bo‘lgan. Shu davrda yaratilgan vadoriy matosi o‘zining sifati, bezaklari va eksport salohiyati bilan alohida e‘tiborga loyiqdir. Vadoriy matosi asosan ipak iplaridan to‘qilgan, nozik, yumshoq, ammo mustahkam bo‘lganligi haqida ham ma‘lumotlar mavjud. Matoga geometrik shakllar, gullar va islmiy bezakli naqshlar ishlatilgan. Rangsiz, yorqin qizil, moviy, yashil va oltin tuslar ko‘p ishlatilgan. Mato tolalari maxsus haroratda qizdirilib, silliqlangan va bu unga jilolilik bergan. Rang berish jarayonida asosan, tabiiy bo‘yoqlar, anor po‘sti, pista bargi, piyoz po‘chog‘i va boshqa o‘simliklardan tayyorlangan bo‘yoqlar ishlatilgan.

IX–XV asrda bu matolar ko‘pincha saroy kiyimlari, diplomatik sovg‘alar va savdo tovarlari sifatida ishlatilgan. Bu mato o‘zining sifati, nozik tuzilishi va chiroyli naqshlari bilan ajralib turganligi bilan ko‘pincha saroy kiyimlari, diplomatik sovg‘alar va savdo tovarlari sifatida ishlatilgan. U asosan to‘qilish davomida ko‘pincha oltin va kumush iplar bilan bezatilgan. XV–XVI asrlarga kelib o‘zining mavqeini biroz yo‘qotgan, yangi to‘qimachilik markazlarining paydo bo‘lishi natijasida asta-sekin o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. “Boburnoma”da ta’kidlanganidek, “Samarqandda bir mato bo‘lib, qirmizi rangi’li bu tukli baxmal matosiga atroflicha ta’rif berilgan. Demak, Bobur davrida ham Vadoriy matosi Samarqandda mashhur va takomillashgan bo‘lgan.

XVIII–XIX asrlarda Vador qishlog‘i aholisi ipakchilik bilan shug‘ullangan, ayniqsa ayollar orasida to‘qimachilik keng tarqalgan. Shu davrlarda ular ipakdan o‘ziga xos jiloli, silliq tuzilishga ega mato to‘qishi davom ettirganlar. Vadoriy matosi o‘z davrida O‘rta Osiyoda to‘qimachilik san‘atining yuksak namunasi bo‘lgan. U nafaqat iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan, balki xalq amaliy san‘ati, madaniy meros va estetik qadriyatlarini ham ifodalagan [4]. Vadoriy matosi o‘sha davrda zodagonlar kiyim-kechaklarida, tantanali liboslarda, bayram va to‘y marosimlarida keng ishlatilgan. Demak, Vadoriy matolari o‘zining estetik, ekologik va iqtisodiy ahamiyati bilan O‘zbekistonning milliy-madaniy merosida beqiyos o‘rin egallaydi. Ularni ilmiy asosda tadqiq etish va amaliy jihatdan tiklash jarayonlari xalq hunarmandchiligi an‘analarini davom ettirish, milliy brendni shakllantirish hamda ekologik to‘qimachilikni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

XX asrda sintetik tolalardan, ip-gazlamalardan tayyorlangan matolarning va to‘quv dastgohlarining Samarqandga kirib kelishi mahalliy tabiiy matolarni ishlab chiqarishdagi xarajatlarning ko‘pligi, Vadoriy matolarini ishlab chiqish mahalliy aholi o‘rtasida shug‘ullanuvchilar sonini kamayib borishiga olib kelgan. Vadoriy matosi mahalliy hunarmandlar tomonidan XX asrning 30-yillariga qadar ishlab chiqilgan. Asosan,

HISTORY

sovet hokimiyati davrida ya'ni, 1927-1937-yillarda yurtimizda elektrlashtirish va sanoatlashtirishga e'tibor qaratilib, mayda qul mehnatiga asoslangan, hunarmandchilik ustaxonalari birlashtirilib, yirik to'qimachilik sanoatiga aylantirilgan.

Samarqand viloyat sifatida 1938-yil 15-yanvarda tashkil etilganidan so'ng hududiy to'qimachilik sanoatining tarmoqlari soni ko'payib brogan. Samarqand To'qimachilik-tikuvchilik sanoat artellari ittifoqi 1938-yil 23-oktabrda O'zbekiston SSR Vazirlar Soveti qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi kasanachilik kooperatsiyasi kengashi tasarrufida tashkil etilgan. Uning tarkibiga turli tikuvchilik va trikotaj sanoat artellari kirgan "Mexprom", "Bofanda", "8- mapr", "Kalangar" "Zarya", "Krasnaya Zvezda", "Shveynik", "3 pyatiletki", "Trud jenshin", "imena Krupskaya" va boshqalar. Artellarining barcha faoliyati ustidan nazorat va boshqaruv to'qimachilik va tikuvchilik sanoati birlashmasiga o'tgan [7]. Samarqand to'qimachilik va tikuvchilik sanoati birlashmasi Samarqand paxta-tozalash zavodi paxtani qayta tayyorlash va qayta ishlash bo'yicha davlat tresti bilan hamkorlik o'rnatilgan. Asli bu 1922-yildan boshlab davlatga qarashli paxta-tozalash zavodi sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan.

Samarqand viloyat ipakchilik ishlab chiqarish boshqarmasiga oid hujjatda viloyatda ipakchilik idorasi 1938-yil yanvarida tashkil etilgan bo'lib, Samarqand ipakchiligi O'zbekiston Davlat ipakchilik trestiga tegishli bo'lgan. 1947-yildan boshlab, O'zbekiston Ipakchilik sanoati trestiga bo'sungan. 1963-yil 29-iyundagi O'zbekiston SSR Vazirlar Soveti qaroriga binoan "Samarqand viloyat ipakchilik ishlab chiqarish boshqarmasi" tashkil etilgan.

Buxoro hunarmandlik va savdo taraqqiy etgan shaharlardan biri sifatida tilga olinadi. Ayniqsa, buxorolik hunarmandlar tayyorlagan matolar orasida zarboft, zandanicha, karpas kabi matolar mashhur bo'lgan. Zandanicha bu Buxoroda to'qilgan mashhur matolardan biri bo'lib, Buxoroning ipakchilik sanoatining mahsulidir. Bu mato o'ziga xos an'anaviy naqsh va to'qimachilik usuli bilan ajralib turadi. Mato qo'lda to'qilgan, asosan, ipak yoki paxta aralashmasi ishlatilgan. Yorqin ranglardan iborat bo'lib, ko'pincha gulli yoki geometrik naqshlarga ega bo'lib, undan amirlar, saroy ahli va boy savdogarlar liboslari uchun foydalanilgan. Bu mato ilk bora Buxoro viloyatining Peshku tumani hududidagi Zandani qishlog'i hunarmandlari tomonidan yaratilgan. Peshku tuman markazidan 12 kilometr uzoq masofada joylashgan Zandana qishloq'ining uzoq tarixi, tabiati va azal urf-odatlarini bilan viloyatning boshqa ko'hna qishloqlaridan ajralib turagan [5].

Zandana qishlog'i tarixi moziyning teran va ko'hna ildizlariga bog'liq. Tarixda "Zandani" atamasi ilk bor Abu Bakr Muhammad ibn Jafar Narshaxiyning milodiy 943-944-yillarda (hijriy 332) yozilgan "Buxoro tarixi" asarida tilga olingan. Bu qishloqda katta bozorlar bo'lgan. Zandonada ilk o'rta asrlarda to'qilgan bo'z "Zandanacha", ya'ni "Zandana qishlog'idan chiqadigan" gazlama deb atalgan. Buxoroning ko'plab qishloqlarida, masalan: Vardonze, Romitan va Afshonada to'qib chiqarilgan bunday gazlamalar ham shunday nomlanib, o'rta asrlarda Hindiston, Yaqin va O'rta Sharq hamda Yevropa davlatlariga olib chiqilgan. "Zandanacha" gazlamasining shuhrati so'nggi o'rta asrlarda ham baland bo'lgan. Hukmdorlar va ulug' kishilar bu matodan kiyim tiktirganlar va uni kiyishni o'zlari uchun sharaf hisoblaganlar. Aslida ipakning vatani Xitoy bo'lsa ham "Zandanacha" ipak matolari G'arb va Sharqqa sotilishi bilan birga, Xitoyning o'ziga ham tarqalib ketgan. Asosan, "Zandanacha" matolari ko'p hollarda paxtadan ishlab chiqarilgani uchun ham xaridorgir bo'lib, aholi uchun arzonga tushgan. Ipakdan ishlansa biroz narxi qimmatroq bo'lgan.

IX-XV asrlarda "Zandanacha" matosining bozori chaqqonligi hunarmandlarning mahorati jahon davlatlarigacha yetib borganligidan dalolat beradi. Asosan, IX-XV asrlar oralig'i Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro va uning atrofidagi hunarmandchilik markazlari uchun iqtisodiy va madaniy yuksalish davri bo'lgan. Shu jarayonda "Zandanacha" matosi ishlab chiqarish sohasida alohida o'rin egallab, nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy savdo tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllandi. Zandani qishlog'ida yaratilgan ushbu mato o'zining texnologik takomilligi, rang-barangligi va bezak naqshlarining milliylikni ifoda etuvchi uslubi bilan ajralib turgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, "Zandanacha" matosining bozori IX-XV asrlarda nihoyatda chaqqon bo'lgan. Bu holat o'sha davr Buxoro hunarmandlarining yuksak kasbiy mahoratini, estetik didini va to'qimachilik texnologiyasini chuqur o'zlashtirganligini ko'rsatadi. Matoning sifati, tabiiy xomashyo asosida to'qilishi, o'simliklardan olinadigan bo'yoqlardan foydalanilishi uni nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ekologik va madaniy nuqtayi nazardan ham qimmatli mahsulotga aylantirgan.

Muhokama. Buxoro hunarmandlari o'z mahsulotlarini bozor talabiga moslashtirish maqsadida "Zandanacha" gazlamalarini turli fasllarga mos tarzda ishlab chiqarganlar: yozgi matolar yengil, havo o'tkazuvchi va nozik tuzilishga ega bo'lgan bo'lsa, qishki gazlamalar issiqlikni saqlovchi qalin ipak yoki paxta aralash tolalardan tayyorlangan. Shu bilan birga, bezak naqshlarida mavsumiy ramzlar, tabiat manzaralari, geometrik shakllar va etnik belgilarning uyg'unligi ustuvor bo'lgan. Zandaniycha matoning keng tarqalishida tabiiy bo'yoqlar ko'k, sariq, qizg'ish, jigarrang va boshqa tabiiy manbalardan olingan

pigmentlar muhim rol o'ynagan. Bu esa matoning rangini uzoq muddat saqlab qolish, uning sifatini oshirish va estetik jozibasini ta'minlagan. Shunday qilib, IX–XV asrlarda “Zandanacha” matosining bozordagi chaqqonligi, hunarmandlar faoliyatining keng ko'lamda rivojlanishi va texnologik yangiliklarning qo'llanilishi O'rta asrlar O'zbekistonining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida to'qimachilik sohasining yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Bu davr tajribalari zamonaviy milliy to'qimachilikni qayta tiklash va ekologik toza ishlab chiqarish tizimlarini yaratishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Amir Temur safarga chiqishi oldidan oila-a'zolari bilan Buxoroga kelishgan. Hatto, o'sha vaqtlarda Amir Temur yaqinlari ya'ni, qarindoshlari Zandani qishlogidagi “Zandanacha” matosidan kiyim tikdirgan ekanlar. Buxoro yaqinidagi ushbu qishloqda ishlab chiqarilgan matolar avj olib, keyinchalik mamlakat bo'ylab ham tarqala boshlagan. Zandaniycha mato ishlab chiqaruvchi markazlar ko'paygan. Shunday bo'lsa-da, boshqa joylarda ham uning asl nomi saqlanib qolgan.

Peshku tumanining Zandani qishlog'i Buxoro amirligi tumanlaridan biri sanalgan. To'qimachilik ishlab chiqarish markazi bo'lib, Zandani qishlog'ida, mato ishlab chiqarish an'alarini davom ettirib, yuzdan ortiq hudud aholisining bandligi ta'minlangan. Buxoroning “Zandaniycha” (Zandanacha) matolarini mahalliy aholi 1930-yilgacha to'qish bilan shug'ullanganlar. Asosan, Zandani qishlog'i (Peshko' tumani)ga yaqin bo'lgan Arabxona qishlog'i aholisi “Zandaniycha” matosi uchun ip yigirganlar, Ofandar qishlog'i aholisi to'quvchilik bilan shug'ullanishgan, Sayidon qishlog'i aholisi o'simliklardan bo'yoq tayyorlagan, Ko'kchi qishlog'i aholisi matoni bo'yagan. Demakki, mahalliy aholi o'zi ham bo'yoq tayyorlash bilan shug'ullangan.

XX asrda sintetik tolalardan, ip-gazlamalardan tayyorlangan matolarning va to'quv dastgohlarining kirib kelishi mahalliy tabiiy matolarni ishlab chiqarishdagi xarajatlarning ko'pligi, Zandanacha matolarini ishlab chiqarish mahalliy aholi o'rtasida shug'ullanuvchilar sonini kamayib borishiga olib kelgan. Zandani qishlog'i XX asrning 30-yillariga qadar mavjud bo'lgan, keyinchalik u yerga suv borib yetmaganligi sababli mavjud tepalik, tashlandiq holga aylangan. Usta va ustaxonalar atrofdagi qishloqlarga tarqalgan. Mato to'qiydigan dastgohlarni tayyorlovchi alohida ustalar bo'lib, ularning ko'pchiligi Ko'kchi qishlog'ida yashagan [5]. Buxoroda to'qimachilik sanoatining tarixiy ildizlari hunarmandchilik bo'lib ishlab chiqarishda keng rivojlanganligi sababli “Zandanacha” matolarini tabiiyligi va pishiqliligini bilgan va ota-bobolarning ish uslublarini o'rganilgan tajribalarini davom ettirgan holda, Buxoroda to'qimachilik sanoati tashkil topishiga turtki bo'lgan omillardan biri hisoblanadi.

Buxoroda to'qimachilik faoliyatini rivojlanishidagi asosiy omillardan biri, aholini ish bilan ta'minlanish zaruratining yuzaga kelishi bilan uzviy bog'liq holda tarixiy tajribalarga tayanadi. Buxoro shahrida 1926-yilda 2 ta tikuvchilik arteli va 1928-yilga kelib pillachilik fabrikasi ishga tushirilgan. Tikuvchilik va pillachilik fabrikalarida 2000 dan ortiq kishi ish bilan ta'minlangan. Ishchilarning 80 foizi ayollar bo'lib, ishchilar orasida mahalliy millat vakillari 85 foizni tashkil etgan. 1930-yilda shoyi, baxmal to'qiydigan va kashta tikadigan artellar tashkil etish orqali yana 1500 ishchini ishga jalb qilgan. 1933-1937-yillarda Buxoroda paypoq ishlab chiqaruvchi, so'zanachilik, ipak to'qimachilik kabi 14 ta artellar faoliyat yuritgan. Viloyat bo'yicha 2000 dan ortiq ishchilar ipakchilik, to'quvchilik va tikuvchilik sohalarida mehnat qilishgan. Jumladan, 1937-yilga kelib, F.Xo'jayev nomidagi (1929-yilda ishga tushirilgan) trikotaj artelida 232 nafar ishchi ishlagan. To'qimachilik sanoati tarmoqlarining rivojlanib ko'payib borishda Samarqand va Buxoroda to'qimachilik sanoatining tarixiy ildizlari Vadoriy va Zandana matolariga ham borib taqaladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Vadoriy va Zandana matolari O'zbekistonning, xususan, Samarqand va Buxoro viloyatlarining qadimiy to'qimachilik an'alarida o'ziga xos o'rin egallagan milliy gazlamalar sirasiga kiradi. Ushbu matolar nafaqat maishiy ehtiyojni qondiruvchi buyum sifatida, balki xalqning badiiy didi, estetik qarashlari va milliy o'zligining ifodasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Ularning ishlab chiqarish texnologiyasi, rang va naqsh uyg'unligi, tabiiy xomashyo asosida yaratilishi hamda ekologik tozaligi bugungi kunda ham dolzarb ilmiy va amaliy tadqiqotlar mavzusi bo'lib qolmoqda. Vadoriy va Zandana matolarining tiklanishi va ularni zamonaviy to'qimachilik jarayonlariga moslashtirish orqali milliy madaniyatimizning boy merosini saqlab qolish, an'anaviy hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va ekologik barqaror ishlab chiqarish tizimini shakllantirish mumkin. Shu jihatdan, mazkur matolarni o'rganish jarayonida ularning texnologik xususiyatlari, tabiiy bo'yoqlardan foydalanish imkoniyatlari, dizayn yechimlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini chuqur tahlil etish zarurdir. Shuningdek, Vadoriy va Zandana matolarining tarixiy ildizlarini o'rganish, ularni xalq amaliy san'ati va to'qimachilik texnologiyalari rivoji bilan bog'liq holda tahlil etish milliy madaniyatshunoslik, san'atshunoslik va iqtisodiyot fanlari uchun muhim nazariy asos yaratadi. Bu yo'nalishda olib boriladigan izlanishlar natijasida nafaqat milliy gazlamalarimizning qadimiy shakllarini qayta tiklash, balki ularni zamonaviy dizayn, moda va eksport salohiyati nuqtayi nazaridan yangi bosqichga ko'tarish imkoniyati yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2-jild, "Vadoriy" maqolasi. Toshkent, 2001.
2. Doniyorov N. O'zbek xalq hunarmandchiligi tarixi. –Toshkent 1991-yil.
3. Rahmonov A. O'rta Osiyo to'qimachilik san'ati tarixi. –Toshkent: 1998.
4. Азимжонов С.А. Текстильное производство в Средней Азии в IX–XV вв. – Самарканд, 1990.
5. Kholmatovna U. (2025). From The History of The Bukhara Knitting Factory. // Jurnal Ilmu Arkeologi Indonesia, 1(1), 8-8.
6. Раҳимов Н.К., Раҳимова М.Н. Зандани ва Занданийчи тарихидан лавҳалар. – Бухоро: Дурдона, 2021. – Б. 76.
7. Самарқанд вилоят давлат архиви Ф 516, 2-рўйхат, 412-йигма жилд, 14-варақ.

**ЎЗБЕКИСТОН ССР БЮДЖЕТИДА ХАРАЖАТ ТУРЛАРИ
(1925-1939 й.)**

*Дусчанов Расулжон Рахимбаевич,
Ўзбекистон Миллий университети
Тарих факультети “Архивишунослик
ва манбаишунослик” кафедраси доценти,
фалсафа фанлари доктори (PhD)
duschanovrasuljon1985@gmail.com*

Аннотация. Ўзбекистон ССРнинг шу йиллардаги давлат бюджети бир хилда кечмаган бунинг асосий сабаби дастлабки йилларида бюджет тақчиллиги кузатилган. Ўзбекистонда шу даврда ишлаб чиқариш корхоналари қурилиши жараёни ва меҳнат муносабатларидаги ўзгаришлар бунинг асосий сабаби бўлган. Давлат харажати доимий равишда бюджетдан ҳар бир соҳага иқтисодий, молиявий маблағлар манбаи бўлган, харажатни шаклланиши даромад билан чамбарчас боғлиқ кечган. Харажат доимий халқ хўжалигига қоратилиб, бундан асосий ижтимоий-маданий тадбирларга, улардан маориф, соғлиқни сақлаш ва жисмоний тарбия ташиқил этган. Харажатни яна бир жиҳати маълум бир қисми кейинги йилги бюджет учун қолдирилган.

Калит сўзлар: бюджет, маҳаллий бюджет, даромад, харажат, маориф, соғлиқни сақлаш, колхоз, совхоз, совет, тақчиллик, лойиҳа, янги иқтисодий сиёсат, давлат ижтимоий сугурта.

**ВИДЫ РАСХОДОВ В БЮДЖЕТЕ УЗБЕКСКОЙ ССР
(1925-1939 гг.)**

Аннотация. Государственный бюджет Узбекской ССР в эти годы развивался неравномерно, и основная причина этого заключается в том, что в первые годы наблюдался дефицит бюджета. В Узбекистане в этот период это было связано, прежде всего, со строительством производственных предприятий и изменениями в трудовых отношениях. Государственные расходы постоянно являлись источником экономических и финансовых средств для каждой отрасли, а их формирование было тесно связано с доходами. Расходы постоянно направлялись на народное хозяйство, при этом значительная часть выделялась на основные социально-культурные мероприятия, среди которых — образование, здравоохранение и физическая культура. Ещё одна особенность расходов заключалась в том, что определённая их часть оставлялась для бюджета следующего года.

Ключевые слова: бюджет, местный бюджет, доход, расход, образование, здравоохранение, колхоз, совхоз, совет, дефицит, проект, новая экономическая политика, государственное социальное страхование.

**TYPES OF EXPENDITURE IN THE BUDGET OF THE UZBEK SSR
(1925-1939)**

Abstract. During these years, the state budget of the Uzbekistan SSR was not stable, primarily due to budget deficits observed in the initial years. The main causes of this instability were the process of constructing industrial enterprises and changes in labor relations that took place during this period in Uzbekistan SSR.

State expenditure consistently served as an economic and financial source allocated from the budget to various sectors. The formation of expenditures was closely interconnected with revenue generation. Public spending was mainly directed toward the national economy, with particular attention to social and cultural programs such as education, healthcare, and physical training. Another characteristic of the expenditure system was that a certain portion of funds was carried over to the budget of the following year.

Keywords: budget, local budget, revenue, expenditure, education, healthcare, kolkhoz, sovkhos, Soviet, deficit, project, New Economic Policy, state social insurance.

Қириш. Бюджетини бир-бирига боғлиқ иккита асосий устуни бўлиб, биринчиси – даромад, иккинчиси – харажат ҳисобланади, даромад шаклланишидан келиб чиқиб харажат белгиланади. Молия соҳасида харажатларнинг даромадлардан ортиб кетиши бюджет тақчиллиги муаммосини

келтириб чиқаради, шу боис доимий равишда уларнинг мувофиқлиги таъминлаб борилиши керак. Бюджет тизими тузилиши ва уни бошқариш асослари, давлат бюджетини тузиш, кўриб чиқиш, қабул қилиш, ижро этиш билан тартибга солинади. Бюджет шаклланиш даврида ҳар бир ташкилот ва муассаса ўзининг кирим-чиқимини шакллантириб берган, шунинг натижасида ташкилот харажатлари қопланади.

1924/25 бюджет йилидаги давлат даромади – 16.860.855 минг сўм, харажати – 19.047.113 минг сўм белгиланган, лекин булар ўртасидаги фарқ – 2.186.258 минг сўм бўлиб, харажатларга кўпроқ маблағ ажратилган[1]. Иқтисодий томондан қаралганда, бу бюджет тақчиллиги бўлганлигини кўриш мумкин. Чунки бу даврда ҳаммаси соҳани изга солиш учун харажатлар қисми юқори бўлган. Харажатларни юқори қилмасдан даромадга эришиб бўлмаслигини совет ҳокимияти яхши англаб етган.

Мавзуга доир адабиётлар таҳлили. Архив ҳужжатларидаги маълумотларга кўра, Ўзбекистон ССР давлат бюджети 1928/29-1929/30 йиллардаги бюджетининг харажат қисмини қуйидаги асосий тўртта қисмдан иборат бўлган:

I) Мустақил сметаларга эга бўлган идора ва муассасалар.

Марказий Ижроия Қўмита, Халқ Комииссарлар Советидаги комиссарлик ва бошқармалар ҳамда ташкилотларга 25.217.321 минг сўм маблағ ажратилган [2]. Булардан Маориф Халқ комиссарлигига – 9.274.806 минг сўм, 36,7 % ини, умумий харажатнинг 11,8 % ига тўғри келган. Кейинги ўринларда Ер ишлари, Соғлиқни сақлаш ва Молия Халқ комиссарликлари бўлган.

II) Халқ хўжалигини молиялаштириш идора ва муассасаларнинг мустақил сметаларига ажратилган маблағлардан ташқари бу иккинчи қисмда 9 та соҳани ўз ичига олган, булар: Саноат, электрификация, қишлоқ хўжалиги, сув хўжалиги, кооперация, савдони ривожлантириш бўйича тадбирлар, уй қурилиш ва коммунал хўжалиги, автотранспорт ва йўл қурилиши ҳамда бошқа қурилишлар киритилиб – 20.728.396 минг сўм белгиланган. Булардан энг катта харажат саноат, қишлоқ хўжалиги ва савдони ривожлантириш бўйича тадбирларига ажратилган.

III) Махсус фондлар. Ишсизликка қарши кураш матбуотни молиялаштириш ижтимоий суғуртага ажратмалар Халқ Комиссарлари Совети захира жамғармалари ва бошқа жамғармалар кабилар билан бирга бунга – 2.997.625 минг сўм ажратилган.

IV) Маҳаллий бюджетга ўтказиладиган маблағлар бунда давлат даромадларидан ажратмалар, субвенция ва дотация бўлиб – 29.555.413 минг сўм белгиланган.

1928/29 йиллардаги давлат бюджети – 191.345.950 минг сўм миқдорида тасдиқланган. Унда даромад ва харажатга тенг маблағ ажратилган. Буларнинг бажарилиши 100 % дан ошиқни ташкил қилган. Харажатларнинг тақсимлангани таҳлил қилинса, Мустақил сметага эга бўлган идора ва муассасалар – 33,6 % ини, Халқ хўжалигини молиялаштиришга – 28,3 % ини, қолган қисмини бошқа соҳаларга ажратилган[3].

1929/30 йиллардаги давлат бюджет йили таҳлил қилинса, даромад билан харажатлар миқдори бир хил бўлиб – 131.278.860 минг сўм, умумий ҳисобда – 262.557.720 минг сўм белгиланган. Харажатлар ўзига хос тақсимланиши тўртта устунни ташкил қилиб, 1) Корхона ва ташкилотлар – 30,5 %, Халқ хўжалигини молиялаштириш – 31,7 %, Махсус фондлар – 3,5 %, Маҳаллий бюджетга ўтказиладиган маблағлар – 34 % ини ташкил қилган [4].

1932 йилдаги давлат бюджети – 264.305 минг сўм бўлиб, даромад ва харажат бир хил миқдорда ажратилган. Шу йилги давлат даромадининг бажарилиши 98 % га тўғри келган. Жамоалаштирилган хўжалиқдан тушумлар - 195.971 минг сўм, аҳоли маблағларини сафарбор этиш учун - 68.334 минг сўм, жами харажатлар қисми 264.305 минг сўм иқдоридан бажарилган. Жумладан, Халқ хўжалигини молиялаштириш - 92.446 минг сўм ёки 93,9 %; Ижтимоий-маданий тадбирлар – 72.324 минг сўм ёки 98,5 %; бошқарув харажатларига – 16.291 минг сўм ва маҳаллий бюджетга ажратмалар - 73.613 минг сўм ёки йиллик режага нисбатан – 101,8 % [5].

1934 йилдаги Ўзбекистон ССР Марказий Ижроия Қўмитаси томонидан давлат бюджети харажат 406.818 минг сўм қилиб тасдиқланган. 101,7 %, харажатдаги ўсиш 415.980 минг сўм бўлиб, бу 102 % ини ташкил қилган [6]. Шу йилдаги харажатлар – 406.818 минг сўм қилиб тасдиқланиб, 8 та тоифага бўлиниб, а) Халқ хўжалиги унга, оғир, енгил, озик-овқат, кино-фото саноати ва қишлоқ хўжалиги, коммунал хўжалиқ, давлат савдоси, автотранспорт ва йўл хўжалиги ҳамда халқ хўжалигининг бошқа даромадлари кирган. Халқ хўжалигининг харажатлардаги улиши – 84810 минг сўм бўлиб, 20,8% ини ташкил қилган. б) тоифада Ижтимоий-маданий тадбирлар, бунга маориф, соғлиқни-сақлаш, жисмоний-тарбия, меҳнатни муҳофаза қилиш ва ижтимоий таъминот каби тўртта бўлган. Бу тоифада – 113.701 минг сўм, улиши 28 % бўлган. Юқоридаги иккита тоифа 50 % га яқинига тўғри келган. Бундан ташқари в) Бошқармалар (умумий бошқармалар, халқ хўжалигини

тартибга солиш) маъмурий, ижтимоий-маданий ишлар, суд масалалари, г) Халқ Комиссарлар Советининг заҳира фонди, д) Бошқа фондлар, ж) маҳаллий бюджетга ўтказиладиган маблағлар – 178.815 минг сўм бўлиб, 43,9 % и ажратилган [7]. Бундан ташқари яна иккита тоифага бўлинган. Бу йилдаги бюджетининг катта харажати маҳаллий, маориф ва меҳнатни муҳофаза қилиш ва ижтимоий таъминотга 92,6 % и шу учта соҳага берилган.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. Архив ҳужжатида келтирилган 1935 йилдаги харажатлар – 542.530 минг сўм қилиб тасдиқланиб, 8 та тоифага бўлиниб, а) Халқ хўжалиги унга, оғир, енгил, озик-овқат, кино-фото саноати ва қишлоқ хўжалиги, коммунал хўжалик, давлат савдоси, автотранспорт ва йўл хўжалиги ҳамда халқ хўжалигининг бошқа даромадлари кирган. Халқ хўжалигининг харажатлардаги улиши – 80218 минг сўм бўлиб, 14,7 % ини ташкил қилган. б) тоифада Ижтимоий-маданий тадбирлар, бунга маориф, соғлиқни-сақлаш, жисмоний-тарбия, меҳнатни муҳофаза қилиш ва ижтимоий таъминот каби тўртта бўлган. Бу тоифада – 153.835 минг сўм, улиши 28,3 % дан иборат бўлган. Юқоридаги иккита тоифа 40 % дан ортиғига тўғри келган. Бундан ташқари в) Бошқармалар (умумий бошқармалар, халқ хўжалигини тартиб солиш) маъмурий, ижтимоий-маданий ишлар ва суд муассасаларини бошқариш, г) Халқ Комиссарлар Советининг заҳира фонди, д) Бошқа фондлар, ж) Маҳаллий бюджетга ўтказиладиган маблағлар – 274.242 минг сўм бўлиб, 50,5 % и ажратилган[8]. Бундан ташқари яна иккита тоифага бўлинган. Бу йилдаги бюджетининг катта харажати маҳаллий, маориф, меҳнатни муҳофаза қилиш ва ижтимоий таъминотга 90,5 % и шу учта соҳага берилган.

1936 йилда бюджетдан халқ хўжалигига ажратилган пуллар ижтимоий-маданий тадбирларнинг чиқимидан анча кам ўсган. Халқ хўжалигига ажратилган пул 22 миллион 750 минг сўм ёки 25 % га ортиб, ижтимоий-маданий чиқимлар 9 миллион 258 минг сўм ёки 56 % га кўпайган. Ижтимоий-маданий чиқимларнинг бюджетда тутган ўрни камайган, бунга сабаб хўжалик органларининг ўзларидаги даромадининг ошиши бўлган. Шу йилдаги Ўзбекистон ССР давлат бюджетидан халқ хўжалигига бериладиган умумий маблағ 114 миллион 183 минг сўм белгиланиб, бу маблағ қуйидаги тақсимланиб, қишлоқ хўжалигига 81 миллион 118 минг сўм берилган. 1935 йилга нисбатан 36.1 % га ошган. Бюджетдан халқ хўжалигига ажратилган маблағлар иккинчи ўринда саноат бўлиб, 1936 йилда саноатга 20 миллион 905 минг сўм пул берилган, бу ўтган йилгига нисбатан 15.8 % га ўсган.

1937 йилдаги СССР давлат бюджети тўғрисидаги қарорига кўра, давлат бюджетига даромад – 98.069.020 минг сўм қилиб белгиланган. Бюджетдаги харажатлар даромад билан бир хил этиб белгиланган бўлиб, асосини 1) Халқ хўжалигининг ўзига ажратилган чиқим 25 турда кўрсатилган, 2) Ижтимоий-маданий тадбирлар – маориф, соғлиқни-сақлаш, жисмоний-тарбия ҳамда ижтимоий таъминот ва меҳнат муҳофазалари кирилган. 3) СССР Мудофаа халқ комиссарлиги, 4) Ички ишлар халқ комиссарлиги, 5) Адлия халқ комиссарлиги ва прокурора, 6) Бошқарув чиқимлари ва бошқа харажатлар киритилган[9].

Муҳокама. Ўзбекистон ССРнинг 1937 йилги давлат бюджетига эътибор қоратилса, энг биринчи қирим ва чиқим асосини саноат соҳаси ташкил қилинган, бу соҳалардан даромадга чиққан йўналишлардан асосийлари – қишлоқ хўжалиги, ўрмон, турар жой, коммунал корхоналар, коммунал хўжалик, ободончилик, савдо, солиқдан ташқари маҳаллий қиримлар, маҳаллий солиқлар, давлат солиқларидан ажратилган пуллари, бевосита маҳаллий бюджетга кирадиган давлат солиқлари ва йиғимлар, колхозлар ва хўжалик органларидан ажратилган маблағлар, ижтимоий суғурта ва соғлиқни-сақлаш ишларидан тушадиган маблағлар ва заёмлар ва ссудалар киритилган. Харажатни асосини ташкил этувчи соҳалар – саноат, қишлоқ хўжалиги, ўрмон хўжалиги, коммунал хўжалик, савдо, тош ва тупроқ йўллари, халқ алоқаси, маориф, соғлиқни-сақлаш, жисмоний-тарбия, ижтимоий таъминот, идора ишлари, эҳтиёж фондлари, заёмлар бўйича чиқимлар ва бошқа харажатлар киритилган [10].

Шу йилги давлат бюджети ҳақидаги бошқа бир архив ҳужжатида Харажат – 1.090.177 минг сўм белгиланган, лекин 1.263.029 минг сўм бажарилган, яъни 115,8 % бажарилган. Маҳаллий бюджетнинг маблағ миқдори тўғри кўрсатилган. Бу ердаги даромадлар – 103 % га, харажатлар – 101 % га бажарилган[11].

Архив ҳужжатларидаги маълумотларга кўра, 1937 йилда Ўзбекистон ССРнинг давлат бюджети 2.475.008 сўмни ташкил қилган. Бундан даромад қисми 1.247.390,0 сўм ва харажат 1.227.617 минг сўм қилиб ажратилган. Бюджетдаги даромаднинг 80,4 % ига тўғри келган[9]. Бюджетдаги харажатлар иккита тоифага бўлиниб, булар Халқ хўжалиги ва Ижтимоий-маданий тадбирлар бўлиб, халқ хўжалигидаги харажатларни Маориф – 46,6%, Соғлиқни-сақлаш – 18,6 %, Қишлоқ хўжалиги Ер ишлари халқ комиссарлигига – 10,5 % харажатлари шу соҳаларга тўғри келган[12].

HISTORY

1938 йилги давлат бюджет харажати – 1.081.457,6 минг сўм даромад билан харажат ўртасидаги фарқ 18.944,4 минг сўм бўлган. Шу йилги бюджети 1.100.402 минг сўм бўлса, бажарилиши 181.457,6 минг сўм бўлган. Харажатлар халқ хўжалиги ва ижтимоий-маданий тадбирларга ажратилган. Халқ хўжалигига – 14 %, ижтимоий-маданий тадбирларга – 86 % дан ортиғи тўғри келган. Харажатларнинг катта қисмини маҳаллий бюджетга бериладиган маблағлар – 51,5 % ини, маорифга – 22 % и ажратилган. Шу йилдаги харажатнинг бажарилиши – 98,3 % ига бажарилган[13].

1939 йилдаги Маҳаллий харажатларни вилоят кесимида кўрадиган бўлсак, Ўзбекистон ССР ўтган йилгига, яъни 1939 йил 1938 йилга нисбатан ҳажми 20 % га оширилиб, Фарғона – 20,5 %, Бухоро – 20 %, Самарқанд – 21,2 %, Тошкент – 19,2 %, Хоразм – 20 % ва Қорақалпоғистон АССР – 20 % га умумий маҳаллий бюджет 20 % га оширилган[14].

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, тарихий жиҳатдан бюджетнинг ўтмиши хазина ҳисобланади, хазинанинг заманавий шакли бу бюджет бўлиб, лекин уларнинг ўртасида ҳозирги кунда фарқ жуда катта, доимий равишда харажатлар халқ хўжалигига ва ижтимоий-маданий тадбирларга ажратилиб, булардан асосий ўринда маориф тизими турган. Бу даврда иқтисодий соҳани изга солиш мақсадида бюджет тақчиллиги кузатилиб турган. Ҳар бир ташкилотнинг молия бўлими ёки молиявий тизимини назорат қилувчи ҳисоб бўлими бўлган.

АДАБИЁТЛАР:

1. ЎзМА, Р-93-фонд, 1-рўйхат, 30-йиғмажилд, 3-8-варақлар.
2. ЎзМА, Р-837-фонд, 8-рўйхат, 150-йиғмажилд, 7-варақ.
3. ЎзМА, Р-837-фонд, 8-рўйхат, 145-йиғмажилд, 90-91-варақлар.
4. ЎзМА, Р-837-фонд, 8-рўйхат, 145-йиғмажилд, 116-варақ.
5. *Финансовые итоги пятилетки и финансовая программа Узбекской ССР на 1933 г. (Доклад Народного Комиссара Финансов Узбекской ССР т. Исламова А.И. на 3-й сессии ЦИК Советов Уз.ССР 19 февраля 1933 г.)* Ташкент.: № 3 Узнаркомлегпрома. С. 4-5
6. ЎзМА, Р-837-фонд, 13-рўйхат, 335-йиғмажилд, 3-4-варақлар.
7. ЎзМА, Р-837-фонд, 13-рўйхат, 335-йиғмажилд, 4-варақ.
8. ЎзМА, Р-837-фонд, 13-рўйхат, 335-йиғмажилд, 4-варақ.
9. ЎзМА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 65-йиғмажилд, 2-3-варақлар.
10. VII советлар қурултоида сайланган Марказий Ижроия қўмита III-сессиясининг қарорлари 1937 йилги СССР давлат бюджети тўғрисида // Қизил Ўзбекистон. 1937 йил 15 январ. № 12. 3-бет
11. Ўзбекистон ССРнинг 1937 йилги давлат бюджети тўғрисида // Қизил Ўзбекистон. 1937 йил 25 феврал. № 47. 1-бет
12. ЎзМА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 1761-йиғмажилд, 99-101-варақлар.
13. ЎзМА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 65-йиғмажилд, 4-варақ.
14. ЎзМА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 1761-йиғмажилд, 280-варақ.
15. ЎзМА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 1761-йиғмажилд, 66-66а-варақлар.

**ЎЗБЕКИСТОН ВА ЯПОНИЯ ҲАМКОРЛИГИ ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИНГ
ШАКЛЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ**

*Қорёғдиева Дилфуза Бахрамовна,
Низомий номидаги Ўзбекистон*

*Миллий педагогика университети таянч докторанти
history11@gmail.com*

Аннотация. Мазкур мақолада Ўзбекистон ва Япония ҳамкорлиги ҳуқуқий асосларининг шаклланиш масалалари ўрганилган. Икки давлатнинг ҳамкорлиги тарихи ретроспективага эътибор қаратилган. Ўзбекистон мустақилликка эришгандан сўнг, Япония билан ҳамкорлик ўрнатишининг ҳуқуқий асослари изоҳлаб берилган. Ўзбекистон ва Япония давлатлари ҳуқуқий асосининг тарихий аҳамияти иқтисодий кўрсаткичлар билан таҳлил этилган. Шунингдек, Ўзбекистон ва Япония давлатларининг халқаро муносабатлар тизимида бир-бирини қўллаб-қувватлаши кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: Ўзбекистон, Япония, ҳамкорлик, ҳуқуқий асос, ретроспектива, тарихий аҳамияти, иқтисодий кўрсаткич, халқаро муносабатлар тизими, БМТ.

**О ВОПРОСАХ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОЙ ОСНОВЫ СОТРУДНИЧЕСТВА
МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ЯПОНИЕЙ**

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы формирования правовой базы сотрудничества Узбекистана и Японии. Уделяется внимание ретроспективной истории сотрудничества двух стран. Разъясняются правовые основы установления сотрудничества с Японией после обретения Узбекистаном независимости. Анализируется историческое значение правовой базы отношений Узбекистана и Японии с использованием экономических показателей. Также показано, что Узбекистан и Япония поддерживают друг друга в системе международных отношений.

Ключевые слова: Узбекистан, Япония, сотрудничество, правовая основа, ретроспектива, историческое значение, экономический показатель, система международных отношений, ООН.

**ON THE FORMATION OF A LEGAL BASIS FOR COOPERATION BETWEEN
UZBEKISTAN AND JAPAN**

Abstract. This article examines the issues of the formation of the legal basis of cooperation between Uzbekistan and Japan. Attention is paid to the retrospective history of cooperation between the two countries. The legal basis for establishing cooperation with Japan after Uzbekistan gained independence is explained. The historical significance of the legal basis of the states of Uzbekistan and Japan is analyzed with economic indicators. It is also shown that the states of Uzbekistan and Japan support each other in the system of international relations.

Keywords: Uzbekistan, Japan, cooperation, legal basis, retrospective, historical significance, economic indicator, system of international relations, UN.

Кириш. Ўзбекистон ва Япония ўртасидаги муносабатлар Буюк ипак йўли ривожидан бошланган икки минг йилдан ортиқ тарихга эга. Ўша олис замонларда ҳам қадимий қарвон йўллари туфайли ўзбек ва япон сайёҳлари, савдогарлари бир мамлакатдан иккинчисига узоқ сафарларни амалга ошириб, икки минтақа халқлари ўртасидаги савдо-сотик ва маданий алмашинувнинг ривожланишига ҳисса қўшган.

Узоқ ўтмишда ҳам машҳур Фарғона отлари Японияга олиб келингани, савдогарлар ўзбек ипагини етказиб берганлиги ва хоказолар ҳақида маълумотлар мавжуд.

Тарихий маълумотларга кўра, Мейдзи ислохотларидан бери Марказий Осиё японияликларни кизиқтириб келган. 1880-йилда Япониянинг кейинчалик ташқи ишлар вазири бўлган япон дипломати Токужиро Ниши ватанига қайтаётганда 40 кун давомида Ўрта Осиё бўйлаб саёҳат қилиб, Тошкент, Самарқанд, Бухоро ва Фарғона водийсини кезган. Нишини Бухоро амири Музаффар қабул қилиб, Япония билан савдо алоқаларини ўрнатиш йўлларини муҳокама қилади. 1886 йилда «Туркистонга саёҳат» китобини нашр эттиради. Кейинчалик япон тадқиқотчилари Ясумаши Фукусима (1894),

Казуо Отани (1903), Масажи Иноуе (1903), Зуичи Тошибана (1912) ва бошқалар Марказий Осиё бўйлаб саёхат қилиб, ўз қайдларида минтақа ва унинг халқлари ҳақида ёзганлар. Тахминан 1920-йилларнинг ўрталаридан бошлаб Япония ва Ўзбекистон ўртасида илмий муассасалар орқали нашрлар ва даврий нашрлар алмашинуви кўринишидаги айрим алоқалар қайд этилган [1].

Иккинчи жаҳон уруши тугаганидан кейин бир неча минг япон фуқаролари Ўзбекистонда бир неча йил истиқомат қилиб, қатор иқтисодий ва маданий объектлар қурилишида қатнашадилар. Японияликлар Навоий номидаги опера ва балет театри, Фарҳод ГЭСи сингари қатор йирик бинолар қурилишида қатнашган. Ангрен кўмири конида, Когонда, Қўқонда ўзбеклар билан елкама-елка туриб меҳнат қилган. Уларнинг кўпчилиги тупроғимизда абадий кўним топган.

Уларнинг Ўзбекистонда бўлган даврларида ўзбеклар ва японлар ўртасида илиқ ва дўстона муносабатлар шаклланди.

Ўзбекистон уларга ҳарбий асирлар, деб қарамаган. Биринчи Президент Ислоҳ Каримов шундай деган эди: Биз японлар билан уруш қилмаганмиз. Улар бизнинг мамлакатимизда меҳнат қилган, иқтисодий ва маданий соҳаларга оид иморатлар бунёд этган. Шунинг учун уларнинг хотирасини кадрлашимиз керак!. 1994 йил майда Ислоҳ Каримов Японияга давлат ташрифи давомида император Акихито жанобларига Ўзбекистондаги япон қабристонлари тўғрисидаги фото-альбомни топширган [1] Алишер Навоий номидаги Давлат академик опера ва балет театри икки халқимиз вакиллари томонидан қад ростлаган ва бугун Тошкент шаҳрининг марказий қисмини беэаб турган муҳташам бино бўлиб, дўстликнинг бетакрор рамзидир.

Адабиётлар таҳлили. Муаммонинг ўрганилганлик даражасини таҳлил этар эканмиз, мазкур масалага бағишлаб маҳаллий ва хорижий тарихшуносликда кўплаб илмий изланишлар амалга оширилганлигининг гувоҳи бўламиз. Жумладан, ўзбекистонлик олимлардан С.М.Адилходжаева [1], С.Ш.Азизов [2], Э.Махмудов [4], Тосинобу Усуяма ва бошқалар, хорижлик муаллифлардан Е.В.Ким, Л.О.Конопьянова, Е.Ф.Троицкий, М. Ю.Ким [3], Ф.П.Уразаева [9] каби олимларнинг илмий тадқиқот ишларини келтириб ўтиш мумкин.

Тадқиқот методологияси. Мақолада тарихий-хронологик, ворисийлик ва изчиллик, контент анализ, эвент анализ, қиёсий-тарихий таҳлил, тарихийлик ва ҳолислик каби илмий тадқиқот усуллардан фойдаланилган.

Муҳокама ва натижалар. Маълумки, Япония Ўзбекистон мустақиллигини биринчилардан бўлиб 1991 йил 28 декабрда тан олган ва 1992 йил 26 январда республикамиз билан дипломатик алоқалар ўрнатилган. Мазкур алоқаларнинг ўрнатилиши сиёсий, иқтисодий, илмий-техникавий ва маданий соҳалардаги ҳамкорликни ҳар томонлама ривожлантириш учун зарур шарт-шароит яратди.

Тошкентда 1993 йил январда кун чиқар юрт элчихонаси, кўп вақт ўтмай Япония халқаро ҳамкорлик агентлиги - ЈСА ваколатхонаси очилади. Мустақилликнинг дастлабки йилларидаёқ Япония Ўзбекистонга қизиқиш намоеъ қилган. 1993 йил давомида бу ўлкадан мамлакатимизга юздан зиёд делегация келган. 1996 йилда Токиода Ўзбекистон элчихонаси очилган.

Ўзбекистон ва Япония ўртасидаги ҳамкорликнинг ҳуқуқий асосини томонларнинг ўзаро келишуви асосида тузилган халқаро шартномалар, шунингдек, ҳар икки давлат иштирокчиси бўлган халқаро шартномалар ташкил этади. Ҳамкорлик турли соҳаларда, жумладан, иқтисод, молия, сармоя, маданий алмашинув ва илм-фан соҳаларида кенгайиб бормоқда, буни халқаро ташкилотларда иштирок этиш каби кўп томонлама шартномалар ва икки томонлама шартномалар тасдиқлайди.

Икки томонлама муносабатларни ривожлантиришда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислоҳ Каримовнинг 1994-йил май ойида Японияга ташрифи чоғида тузилган Иқтисодий ҳамкорлик бўйича Ўзбекистон-Япония ва Япония-Ўзбекистон кўмиталари катта рол ўйнамоқда.

Ўзбекистон Ташқи ишлар вазирлиги маълумотларига кўра, ҳамкорликнинг ҳуқуқий асоси 1994-йил 17-майдаги алмашув ноталари билан яратилган бўлиб, улар орқали икки давлат саккизта халқаро шартномани узайтирган. 1994-йилда ташкил этилган Иқтисодий ҳамкорлик бўйича Ўзбекистон-Япония ва Япония-Ўзбекистон кўмиталари катта рол ўйнамоқда [7]. Иқтисодий ҳамкорлик қилиш бўйича Ўзбекистон — Япония кўмитаси ташкил этилиб унинг зиммасига вазирликлар ва идоралар, уюшмалар, корхоналар, хусусий тадбиркорлар ҳамда жамоат ташкилотларининг Япония билан иқтисодий ҳамкорликни ривожлантириш бўйича фаолиятини ўзаро мувофиқлаштириш вазифаси юкланганлигини алоҳида таъкидлаш жоиз [7].

Бинобарин, давлатлараро ҳамкорликни мустаҳкамлашга доир ҳуқуқий асосининг амалий натижаси иқтисодий ҳамкорликни тараққий эттиришга хизмат қила бошлади. Япониянинг Ўзбекистондаги иштироки ортиб борди. 1999-2000-йилларда Тошкентда Япония халқаро ҳамкорлик агентлиги (ЈСА) ва Япония ташқи савдо ташкилотининг (JETRO) минтақавий ваколатхоналари очилиб, Ўзбекистонда техник кўмак лойиҳаларини амалга оширишга кўмаклашди ва икки давлат

ишбилармон доиралари ўртасида алоқалар ўрнатди. Бундан ташқари, Тошкентда Ўзбекистон-Япония маркази фаол ишлай бошлади. 2000 йилда Токиода ЖЕТРО кўмагида ташкил этилган Ўзбекистоннинг биринчи савдо-саноат кўرғазмаси катта ютуққа эришди. Расмий очилиш маросимида Япония Бош вазирининг иштироки тадбирнинг нуфузини ошганлигидан далолат беради. Ўзбекистон компаниялари Японияда ўтказилган кўплаб халқаро савдо кўрғазмаларида фаол иштирок этиб, Ўзбекистон махсулотларини ушбу мамлакатга экспорт қилиш бўйича муҳим шартномалар имзоланди.

2000 йилга келиб, мамлакатимизда амалга оширилаётган қатор йирик иқтисодий лойиҳаларда иштирок этаётган Япониянинг 18 компаниясининг Ўзбекистонда ваколатхоналари очилди. Шунингдек, 100 фоиз Япония капитали иштирокидаги еттига Ўзбекистон-Япония қўшма корхонаси ва учта корхона рўйхатга олинган.

Ўзбекистонда миллий кадрлар тайёрлаш, таълим тизимида ислохотларни амалга оширишга катта эътибор қаратилмоқда. Япония ҳукумати Ўзбекистонда таълимни ривожлантиришда, хусусан, ўрта касб-хунар таълимини ривожлантиришда ҳам катта ёрдам кўрсатди. Масалан, 2001-йил январ ойида Япония ҳукумати томонидан Ўзбекистонда ўрта махсус, касб-хунар таълимини ривожлантириш лойиҳасини амалга ошириш учун 60 миллион АҚШ доллари миқдорига маблағ ажратиш тўғрисида кредит шартномаси имзоланди. Япония ҳукуматининг ҳар йили 20 нафар ўзбекистонлик йигит-қизни танлаб олиш ва Япония ҳукумати ҳисобидан икки йил муддатга Япониянинг энг нуфузли олий таълим муассасаларига ўқишга юбориш дастури алоҳида эътиборга молик.

2002 йил июль ойида Японияга Ўзбекистон Биринчи Президенти Ислом Каримовнинг ташрифи чоғида икки давлат ўртасидаги дўстлик ва ҳамкорликни мустаҳкамлашга қаратилган бир қатор шартномалар имзоланган, шунингдек, икки томонлама муносабатларни “стратегик шериклик” даражасига кўтариш бўйича келишувга эришилган. Бу ташриф дўстлик муносабатлари ва иқтисодий ҳамкорликни кенгайтиришга катта ҳисса қўшган. Ўзбекистон Президенти Ислом Каримовнинг Японияга ташрифи чоғида (2002-йил 29-июль) Ўзбекистон билан Япония ўртасидаги дўстлик, стратегик шериклик ва ҳамкорлик тўғрисидаги қўшма баёнот имзоланиши натижасида Стратегик шериклик муносабатлари ўрнатилган.

Ўзбекистон Республикаси Япония билан сиёсий, иқтисодий ва гуманитар соҳаларда стратегик шериклик, дўстлик ва ҳамкорлик муносабатларини янада ривожлантириш, икки томонлама парламент, таълим, илмий ва маданий алоқаларни кенгайтириш, республика вазирликлари ва идоралари, ишбилармон доиралари ва жамоат ташкилотларининг Япония билан ҳамкорлик масалалари бўйича фаолияти мувофиқлаштирилишини ва ўзаро самарали ҳамкорлик қилишини таъминлаш мақсадида 2004 йил 14 июльда Япония билан ҳамкорлик кўмитасини ташкил этилди [8].

Мазкур Қарордан келиб чиқиб, қуйидагилар Кўмитанинг асосий вазифалари ҳисобланади:

республика вазирликлари ва идоралари, ишбилармон доиралари ва жамоат ташкилотларининг Япония билан ҳамкорлик бўйича фаолияти мувофиқлаштирилишини ва ўзаро самарали ҳамкорлик қилишини таъминлаш;

иккала давлат ўртасида сиёсий, иқтисодий, илмий-техник, маданий ва гуманитар соҳаларда ҳамкорлик қилиш дастурларини ишлаб чиқиш, уларнинг амалга оширилиши устидан мунтазам назоратни ташкил этиш;

иккала мамлакатнинг қонунчилик органлари, Ҳукуматга қарашли, Ҳукуматга қарашли бўлмаган, жамоат ва гуманитар ташкилотлари ўртасида алоқаларни мустаҳкамлаш;

республикада таркибий ўзгартиришларни жадаллаштиришга кўмаклашиш учун замонавий технологиялар ва Япония инвестицияларини жалб этишга йўналтирилган иқтисодий ва инвестиция ҳамкорлигини кенгайтириш ва чуқурлаштириш;

икки томонлама муносабатларнинг ҳуқуқий ва институционал базасини такомиллаштириш юзасидан таклифлар тайёрлаш;

таълим, фан ва маданият соҳаларида ўзаро айирбошлашларни, шаҳарлар, вилоятлар, префектуралар, маҳаллий ҳокимият органлари даражасида ҳамкорликни кенгайтириш [8].

Савдо-иқтисодий муносабатларни ривожлантиришда 2008 йил 15 августда “Инвестицияларни либераллаштириш, химоя қилиш ва рағбатлантириш тўғрисида”ги ҳукуматлараро битим имзоланиб, уни Ўзбекистон томони 2009 йил 6 апрелда, Япония томони эса 2009 йил 18 июнда ратификация қилган. 2009 йил 24 сентябрда кучга кирган “Инвестицияларни либераллаштириш, ўзаро химоя қилиш ва рағбатлантириш тўғрисида”ги ҳукуматлараро битим Япония компанияларининг Ўзбекистонга қизиқишини янада кучайтириш баробарида ўзбекистонлик шериклар билан узоқ муддатли истиқболга мўлжалланган мустаҳкам алоқалар ўрнатишга хизмат қилди. Мазкур жараёнда

1994-йилда тузилган иқтисодий ҳамкорлик бўйича Ўзбекистон-Япония ва Япония-Ўзбекистон кўмиталари муҳим аҳамият касб этганлигини алоҳида таъкидлаш жоиз [3].

Давлатлараро ҳамкорликнинг такомиллашуви натижасида, Япония томонидан Ўзбекистон иқтисодиётига киритган молиявий ресурслар ҳажми 2011 йилда 23 миллиард долларни ташкил этган.

Ўзбекистон томонидан Японияга 1994, 2002 ва 2011-йилларда амалга оширилган олий даражадаги ташрифлар икки томонлама ҳамкорликни ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлашда муҳим аҳамият касб этди.

Айниқса, Ўзбекистон Биринчи Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг 2011 йил февраль ойида Японияга қилган расмий ташрифи ўзбек-япон муносабатларига катта туртки бергани холда янги амалий мазмун билан бойитди. Ташриф якунида савдо-иқтисодий, сармоявий, молиявий-техникавий ва бошқа соҳаларни қамраб олувчи ҳужжатлар тўплами имзоланди. Ташриф чоғида Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий алоқалар, инвестициялар ва савдо вазирлиги ва Япония Иқтисодиёт, савдо ва саноат вазирлиги ўртасида имзоланган “Ташқи савдо ва инвестицияларни ривожлантириш тўғрисида”ги меморандум ҳамкорликни кенгайтириш ҳамда республика иқтисодиётига япон юқори технологиялари ва ноу-хауларини жалб этиш, шунингдек, энергия ва ресурс лойиҳаларини амалга оширишни назарда тутган эди. Расмий ташриф чоғида Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Бош вазир Ўзбекистон Республикаси билан Япония ўртасидаги Қўшма баёнотни имзоладилар, унда Ўзбекистон-Япония муносабатларининг бугунги аҳволи ва ривожлантириш истиқболларига баҳо берилган, шунингдек, халқаро майдондаги ҳамкорликка доир ёндашувлар муштарак бўлди. Томонлар эришилган келишувлар ва имзоланган ҳужжатлар кўп киррали ҳамкорлик учун мустаҳкам пойдевор бўлиб, ўзаро стратегик шерикликни кенг кўламли ривожлантириш, янги, юқори босқичга кўтариш учун ишончли замин яратганини таъкидладилар.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Японияга 2019-йил 17-20-декабрь кунлари расмий ташриф билан навбатдаги олий даражадаги ташрифни амалга оширган [1]. Ўзбекистонга Япония Бош вазирлари Ж.Коизуми (2006-йил август) ва Синд Абе (2015-йил октябрь) ташриф буюрган.

Иккала давлат парламентларида дўстлик гуруҳлари ташкил этилган. 2002-йилдан бери Ташқи ишлар вазирликлари ўртасида 19 маротаба сиёсий маслаҳатлашувлар ўтказилган (охиргиси – 2024-йил 10-июль, Токио). 2004-йилдан буён “Марказий Осиё + Япония” мулоқоти фаолият юритмоқда.

Иқтисодий ҳамкорлик бўйича Кўмиталарнинг 17 та йиғилиши ўтказилган (охиргиси – 2024-йил октябрь, Токио). 2024-йилда савдо айланмаси \$320,2 млн.ни ташкил этди, шундан экспорт – \$12,0 млн., импорт – \$308,2 млн. 2024-йил апрел ойида Нагоя шаҳрида Ўзбекистон-Япония савдо уйи очилди. Ўзбекистон ҳудудида 82 та қўшма корхона, улардан 50 таси 100% япон капитали ишторида фаолият юритмоқда. Япониянинг 13 та компаниясининг ваколатхоналари аккредитациядан ўтган [11].

Ўзбекистон Биринчи Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг таклифига биноан Япония Бош вазири Синдзо Абэ 2015 йил 24-26 октябрь кунлари расмий ташриф билан мамлакатимизда бўлган эди. Олий даражадаги учрашув ва музокаралар чоғида Ўзбекистон ва Япония ҳамкорлигини янада ривожлантиришга оид кенг кўламли масалаларни, минтақавий ва халқаро сиёсатга доир долзарб муаммоларни муҳокама қилинган. Ташриф якунлари бўйича томонларнинг Қўшма баёноти қабул қилиниб, савдо-иқтисодий, инвестициявий, молиявий-техникавий ва маданий-гуманитар соҳалардаги ҳамкорликни янада ривожлантиришга қаратилган ҳуқуматлараро, идоралараро ва бошқа кўплаб ҳужжатлар имзоланган. Музокаралар якунида Ислон Каримов ва Синдзо Абе Ўзбекистон билан Япония ўртасидаги стратегик шерикликни чуқурлаштириш ва кенгайтириш тўғрисидаги Қўшма баёнотни имзоладилар. Шунингдек, ташқи сиёсат идоралари ва молия институтлари ўртасида энергетика, фан, соғлиқни сақлаш соҳаларида ҳамкорликни ривожлантиришга доир қатор ҳужжатлар имзоланди. Japan Oil, Gas and Metals National Corporation (JOGMEC) ва “Ўзбекнефтгаз” Миллий холдинг компанияси биргаликда Ўзбекистонда углеводородлар қазиб олиши келишиб олинди. Япония томони Тошкент иссиқлик электр станциясини модернизация қилишда ҳам иштирок этиши белгилаб олинди. Япониянинг “Mitsubishi Heavy Industries” ва “Mitsubishi Corporation” компаниялари “Навоиязот” очик акциядорлик жамиятида аммиак ва карбамид заводини қуриш лойиҳасини амалга ошир масаласи ҳам кўриб чиқилган.

1993–2024 йиллар оралиғида Япония халқаро ҳамкорлик агентлиги (JICA) орқали соғлиқни сақлаш, таълим, энергетика, транспорт ва телекоммуникация соҳаларида жами \$5,6 млрд. миқдордаги ижтимоий ва инфратузилмавий лойиҳалар амалга очирилган. Япониядаги олийгоҳларда ўқиш учун 400 дан ортиқ талабага стипендия ажратилган, 2500 нафар ўзбекистонлик мутахассис Японияда амалиёт ўтаган.

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон ва Япония нафақат икки томонлама муносабатларда балки, халқаро муносабатларда ҳам бир-бирини қўллаб-қувватлаб ҳуқуқий асосини мустаҳкамлаб келмоқда. 2019 йилда Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Японияга ташрифи Ўзбекистон билан Япония ўртасидаги икки томонлама ҳамкорликни мустаҳкамлашга янги, кучли туртки берди. Ўзбекистон Японияни халқаро ташкилотлар, жумладан, БМТ доирасида ҳамisha қўллаб-қувватлаб келган ва бундан кейин ҳам қўллаб-қувватлайди. Аини пайтда Ўзбекистон-Япония муносабатларини мустаҳкамлаш ва янги мазмун билан сингдириш зарур. Масалан, “Марказий Осиё плус Япония” форматидаги минтақавий ҳамкорлик доирасида иқтисодий алоқадорлик, муқобил энергетика, экология соҳаларида ҳамкорликни чуқурлаштириш зарур. Қуйидаги жиҳатлар Ўзбекистон учун жуда фойдали бўлиб, уларни синчиклаб ўрганиш ва қабул қилиш зарур: транспорт инфратузилмасини ривожлантириш тажрибаси, инновацияларни рағбатлантириш учун конун ҳужжатларини ишлаб чиқиш, чиқиндиларни бошқариш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш механизмларини ишлаб чиқиш зарурдир.

Халқаро ташкилотлар ва институтлар доирасида ҳам конструктив ҳамкорлик йўлга қўйилган. Ўзбекистон БМТ Хавфсизлик кенгаши доимий аъзолигига Япония номзодини изчил қўллаб-қувватлаб келмоқда. Ўз навбатида, расмий Токио Тошкентнинг халқаро ташаббусларини маъқулламоқда. Хусусан, Япония ўзининг ядро қуролига эга бўлмаган давлат мақомидан келиб чиқиб, Марказий Осиёда ядро қуролидан холи худуд яратиш ғоясини жиддий қўллаб-қувватламоқда ва рағбатлантирмоқда.

Ўзбекистон ва Япония БМТ ва бошқа халқаро ташкилотлар доирасидаги ҳамкорликни фаол ривожлантирмоқда. Дарҳақиқат, Ўзбекистон ва Япония ҳамкорлиги ҳуқуқий асосларининг таҳлили кўрсатганидек, ҳар икки томон вакилларининг кенг ишбилармонлик формати, Тошкент ва Токиода навбатма-навбат ўтказилаётган учрашувларнинг мунтазамлиги ҳамкорлар ўртасида ўзаро хабардорликка, икки давлатнинг йирик корхоналари, молия институтлари ва хусусий тадбиркорлари ўртасидаги тўғридан-тўғри алоқаларни мустаҳкамлашга хизмат қилиши шубҳасиз. Бойси, Ўзбекистон учун Япония Осиё-Тинч океани минтақасидаги энг муҳим ҳамкорларидан биридир. Япония, ўз навбатида, Ўзбекистонга Марказий Осиёда барқарорлик ва хавфсизликни таъминловчи минтақавий давлат сифатида қарайди. Япониядан нуфузли парламентарийлар, сиёсий партиялар раҳбарлари ва бизнес раҳбарлари республикага мунтазам ташриф буюриши икки давлат ҳамкорлиги ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлашга хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Адилходжаева С.М. Вектор внешнеполитических отношений между Узбекистаном и Японией // *Universum: общественные науки : электрон. научн. журн.* 2024. 5(108).
2. Азизов С.Ш. Развитие экономического сотрудничества с Японией. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.* (E)ISSN: 2181-1784. 5(6), 2025 www.oriens.uz
3. Ким Е.В., Конопьянова Л.О. 2018. Вестник ЗабГУ. 2018. Т.24. №6. – С. 71.
4. Махмудов Э., Тосинову Усуяма. *Узбекистан и Япония: новый виток в развитии двусторонних отношений* // *Правда востока.* – 6 августа 2020.
5. Президент Узбекистана совершит официальный визит в Японию <https://regnum.ru/news/1371719> (20.10.2025.).
6. Троицкий Е.Ф., Ким М. Ю. *Политика Японии в Центральной Азии (1992-2016 гг.)* // *Вестник Томс. Гос. Ун-та.* 2017. №50. –С. 84-88.
7. *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Иқтисодий ҳамкорлик қилиш бўйича Ўзбекистон-Япония Қўмитасини ташкил этиш тўғрисида” Қарори.* (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 01.02.1994 йилдаги 49-сон).
8. *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Япония билан ҳамкорлик қўмитасини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори.* (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори, 14.07.2004 йилдаги №333-сон).
9. Уразаева Ф.П. *Историко-культурные перспективы развития сотрудничества Узбекистана и Японии* // <https://doi.org/10.24158/fik.2017.9.15>
10. <https://www.uzinform.com/ru/news/20110212/05588.html> (20.10.2025.).
11. <https://gov.uz/oz/mfa/pages/o-zbekiston-respublikasining-osiyo-tinch-okeani-mintaqasi-davlatlari-bilan-hamkorligi> 20.10.2025.).
12. <https://www.gazeta.uz/ru/2015/10/24/interview/> (20.10.2025.).
13. <https://uzbchron.wordpress.com/2015/10/25/6735/> (20.10.2025.).

БЮРОКРАТИЧЕСКАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХАРЫ ПРИ ЭМИРЕ АБДУЛАХАДЕ

Облобердиев Жасурбек Косим угли,
докторант кафедры истории Узбекистана
Самаркандского государственного
университета имени Шарофа Рашидова
orcid.org/0009-0007-0833-8355
obloberdiyevjasurbek@gmail.com

Аннотация. Статья посвящена комплексному исследованию реформаторских процессов в Бухарском эмирате в период правления эмира Абдулахада (1885–1910 гг.). На основе источниковедческого анализа, включающего внутренние бухарские тексты, российские административные отчёты и современные научные исследования, выявляются конкретные годовые административные, фискальные, военные и социокультурные изменения. Показано, что реформы при Абдулахаде носили характер «контактной модернизации», при которой традиционное государство сохраняло собственный политико-идеологический фундамент, но селективно адаптировало инструменты управленческой рациональности: учёт, регламент, дисциплину, процедуру. В отличие от реформ Музаффара, ориентированных на внутреннюю адаптацию системы, реформы Абдулахада строились в условиях российского протектората и приобрели более выраженную институционально-письменную форму. Результаты исследования позволяют рассматривать позднебухарскую государственность не как реактивную, а как активного субъекта политического выбора.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Абдулахад, реформы, модернизация, бюрократизация, налоговая политика, военная дисциплина, политическая рациональность.

**ABDULAHAD AMIRLIGI DAVRIDA BUXORONING BYUROKRATIK
MODERNIZATSIYASI**

Annotatsiya. Maqola Buxoro amirligida Amir Abdulahad (1885–1910-yillar) hukmronligi davrida amalga oshirilgan islohot jarayonlarining kompleks tadqiqiga bag'ishlangan. Manbashunoslik tahlili ichki buxoriy matnlar, Rossiya ma'muriy hisobotlari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida ma'muriy, fiskal, harbiy va ijtimoiy-madaniy sohalarida amalga oshirilgan aniq yillik o'zgarishlar aniqlanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Abdulahad davridagi islohotlar "kontakt modernizatsiyasi" xarakteriga ega bo'lib, an'anaviy davlat o'zining siyosiy-ideologik poydevorini saqlab qolgan holda boshqaruv ratsionalligining ayrim vositalarini hisob-kitob, reglament, intizom va tartib-qoidalarni selektiv ravishda qabul qilgan. Muzaffar davridagi islohotlar asosan tizimning ichki moslashuviga qaratilgan bo'lgan bo'lsa, Abdulahad davridagi o'zgarishlar Rossiya protektorati sharoitida yuzaga kelgan bo'lib, yanada aniqroq yozma-institutsional shakl kasb etgan. Tadqiqot natijalari kechki Buxoro davlatini reaktiv emas, balki siyosiy tanlovni amalga oshiruvchi faol subyekt sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Abdulahad, islohotlar, modernizatsiya, byurokratizatsiya, soliq siyosati, harbiy intizom, siyosiy ratsionallik.

**BUREAUCRATIC MODERNIZATION OF BUKHARA DURING THE REIGN
OF EMIR ABDULAHAD**

Abstract. This article examines the reform processes in the Bukhara Emirate during the reign of Emir Abdulahad (1885–1910). Based on primary sources, Russian administrative reports, and contemporary scholarship, the study reconstructs specific year-by-year changes in administrative governance, taxation, military organization, and socio-cultural regulation. The reforms of Abdulahad are interpreted as a form of "contact modernization", where a traditional Islamic polity selectively adopted elements of procedural rationality-record keeping, regulation, discipline, documentation while retaining its native legitimacy framework. In contrast to the adaptive endogenous modernization under Emir Muzaffar, Abdulahad's reforms occurred within the environment of Russian protectorate pressure and thus developed a more institutionalized and written administrative form. The study demonstrates that the late Bukharan state was not merely reactive, but capable of selective strategic political adaptation.

Keywords: Bukhara Emirate, Abdulahad, reforms, modernization, bureaucratization, fiscal policy, military discipline, political rationality.

Введение. Правление эмира Абдулахада (1885–1910 гг.) стало одним из наиболее противоречивых и сложных этапов позднебухарской политической истории. В отличие от внутренне-адаптивной модели реформ при Амине Музаффаре, ориентированной преимущественно на рационализацию традиционных механизмов власти, реформаторские процессы при Абдулахаде развивались в условиях формально зафиксированной зависимой государственности, при которой Бухара находилась в системе российского протектората. Это означало, что трансформация государственных институтов происходила в пространстве двойной логики – внутренней традиционной и внешней империал-структурной.

В этот период реформы становятся более видимыми, секторально оформленными и хронологически фиксируемыми. Если при Музаффаре реформаторская динамика действовала преимущественно как внутренняя эволюционная тенденция, то при Абдулахаде государственная система вступает в фазу контактной модернизации – модернизации через соприкосновение с внешним административным, военным, экономическим и образовательным опытом Российской империи. Именно в эпоху Абдулахада наблюдается проникновение элементов бюрократического порядка, статистического учёта, системного документооборота и более чётких форм институциональной отчётности.

Исследование реформаторских процессов в Бухарском эмирате в 1885–1910 гг. имеет особую научную значимость, поскольку оно позволяет проследить механизм перехода традиционной политической системы от внутренней адаптации к пограничной модернизации, где внутренние институциональные изменения уже не автономны, но и не полностью внешне навязаны. Данный период демонстрирует, что традиционное мусульманское государство Центральной Азии не только сохраняло собственный политико-культурный код, но одновременно развивало способность избирательно воспринимать элементы внешнего современного государственного управления.

Для аналитической конкретизации реформ Абдулахада и для обеспечения точного сопоставления с предыдущим этапом (эпоха Музаффара), данная статья исходит из трёхфазной периодизации реформ при Абдулахаде:

- 1885–1893 гг. этап первичной институциональной адаптации и оформления государственной документационной культуры (бюрократизация аппарата).
- 1894–1903 гг. фаза расширения секторальных реформ: образование, фискальный контроль, военная подготовка, сотрудничество с российскими военными и учёными.
- 1904–1910 гг. период стабилизации, консервации реформ и институционального торможения при достижении максимума формального бюрократического расширения.

Цель данной статьи – реконструировать политические реформы эпохи Абдулахада в разрезе внутренней институциональной логики государства, фиксируя конкретные годовые рубежи и содержание реформ в области государственного управления, налоговой системы, военной организации и социокультурно-образовательного сектора.

Научная значимость заключается в том, что анализ реформ Абдулахада позволяет переосмыслить позднебухарскую политическую модель не только как объект внешнего контроля, но как активного субъекта селективного модернизационного выбора, действующего в условиях ограниченного суверенитета.

Методология. Методология исследования строится на комплексном сочетании источниковедческого анализа, компаративного политико-исторического подхода и периодизационного метода. Работа исходит из необходимости рассматривать реформы эмирского государства не как одномоментные политические акты, а как процесс, распределённый по времени, институциональным сегментам и внутренним центрам принятия решений. Именно поэтому основным методологическим инструментом в исследовании является поэтапная реконструкция реформаторских изменений по годам и по секторам.

Источниковедческая база исследования включает три типологические группы:

1. Внутренние нарративные источники и интеллектуальные тексты конца XIX – нач. XX вв. (Ахмад Дониш и его продолжатели, поздние бухарские хроники, записки среды улема, отражающие отношение элиты к модернизации);
2. Классическая и советская востоковедческая историография (Бартольд, Семёнов, Зияев), обеспечивающая описание структуры позднебухарского политического порядка;

3. Новейшая постсоветская историография и монографии (Салимов, 2008), которые позволяют анализировать институциональные изменения эмирских реформ системно и сопоставимо.

Для исследуемого периода применяется трёхфазная периодизация реформ Абдулахада:

- 1885–1893 гг. институциональная адаптация и первичная бюрократизация;
- 1894–1903 гг. расширение секторальных реформ (образование, фискал, армия);
- 1904–1910 гг. консервация реформ и стабилизация аппаратной модернизации.

Компаративный компонент методологии основывается на сопоставлении реформ Абдулахада с реформами Музаффера, но не в форме прямых параллелей «кто больше реформировал», а в форме сравнения типов модернизационной логики: эндогенная рационализация (Музаффар) селективная контактная модернизация (Абдулахад). Это позволяет корректно анализировать именно внутренний механизм политической адаптации.

Методологически принципиально важным ограничением является отказ от европоцентрической интерпретации модернизации. В данной работе модернизация не понимается как переход к европейскому госмодерну, а как внутренний поиск оптимальных режимов функционирования власти в условиях изменённого внешнего контекста.

Таким образом, методы исследования направлены на реконструкцию динамики, содержания и секторальных параметров реформ Абдулахада через анализ годовых рубежей, институциональных функций и идейно-нормативных установок элиты в условиях протекторатной зависимости.

Результаты. Государственное управление. Реформы государственного управления при Амуре Абдулахаде (1885–1910 гг.) носили последовательный характер и фиксировались в конкретных административных действиях по годам. В условиях российского протектората процесс модернизации управления приобрёл преимущественно бюрократический формат: власть постепенно переводилась из устной традиционной практики в письменную и нормативную форму.

В 1886 году в эмирской канцелярии (дафтархоне) вводится постоянное ведение журналов регистраций решений и резолюций, что фиксирует переход власти в письменный формат управленческих процедур [1:176 -179]. В 1887 году устанавливается порядок рассмотрения жалоб и петиций через письменный протокол (приём регистрация передача на исполнение) [2:155]. В 1889 году при дворе появляются штатные переводчики и советники по «русским делам», что отражает необходимость постоянного взаимодействия с внешними структурами управления [3:90–92]. В 1892 году функциональное размежевание в связке «диван - кози-калон»: диван закрепляется как политико-административный фильтр, кози-калон как нормативно-правовой регулятор принятия решений [1]. В 1896 году вводятся практические инструктивные правила для вилоятских администраторов (включая порядок ведения переписки, сроки ответов, формальную муницию и систему хранения документов) [4:147]. В 1901 году амин и наиб вводятся в режим обязательной письменной отчётности перед центром; отчётность стандартизируется по формам [2:169]. В 1907 году центральная власть вводит внутренние нормы контроля (инструкция по проверкам исполнения приказов и контроль сроков исполнения), что укрепляет институт административной ответственности [2:162].

Аналитический вывод. Эти изменения показывают, что в течение 1886–1907 гг. в Бухаре формировалась бюрократическая рациональность: власть перестала быть преимущественно устной традиционной фиксацией и стала оформляться в виде письменных, регламентированных, контролируемых и подотчётных процедур.

Внутренняя легитимность власти сохранила исламский иерархический принцип, но её операционная архитектура стала «бумажной», системной и по факту ближе к административно-контрольной модели поздней имперской практики.

Налоговая система. Налоговые реформы периода правления эмира Абдулахада (1885–1910 гг.) являются одним из наиболее документально фиксируемых направлений внутренней модернизации. Именно в фискальной сфере конкретные реформаторские шаги отражены по годам, что позволяет проследить эволюцию перехода от локально-разрозненной податной практики к более унифицированным и контролируемым механизмам взимания.

В 1888 году проведена первичная инвентаризация земель и хозяйственных ресурсов в отдельных регионах эмирата с целью определения реального фискального потенциала территорий [2:142]. Фактически это стало первой попыткой учёта налоговых резервов государства. 1890 год вводятся меры по сокращению межрегионального разброса налоговых ставок. Этим были ограничены резкие различия между различными вилоятами в одном и том же виде налога [2:143]. В 1894 году амин и наиб получают официальную письменную инструкцию по сбору налогов, где прописаны: порядок взимания, сроки, форма учёта, обязательное оформление квитанции/расписки о получении средств [4:144–145]. Это первый переход к бюрократическому «регламенту сбора». В 1898

году введение обязательного реестрового регистра налоговых поступлений податные суммы фиксируются поимённо, по плательщику, и вносятся в отдельный дневной реестр. Это резко снижает пространство для скрытых «надбавок» и самовольных удержаний [2:145]. В 1903 году ограничение практики откупа/аренды сбора налога т.е. сокращение возможности частных сборщиков самостоятельно определять объём и порядок извлечения фискального дохода [2:146]. Это прямое снижение фискальной коррупции. В 1908 году введена практика центральных ревизионных выездов: специальные группы из центра проверяют соответствие реальных сборов записанным в реестрах суммам на местах. Это создаёт прямую линию контроля «центр поле» (Салимов, 2008, с.147).

Ахмад Дониш, ещё в 60-х годах XIX века, критиковал неравномерность налоговой нагрузки, называя её «внутренним разрушителем государства» [5:130]. Его идея о едином принципе справедливого налога «обложить одинаково» [5:131] создаёт теоретическую основу тех бюрократических новаций, которые при Абдулахде начали реализовываться практически.

Итог по фискальному сектору. С 1888 по 1908 гг. налоговая система Бухары прошла путь от полу-индивидуальной, персонализированной и по сути традиционной податной модели к системе, где:

- есть учёт,
- есть регламент,
- есть проверка,
- есть ответственность.

Это одна из самых чётко прослеживаемых линий внутренней бюрократизации и функционализации власти при Абдулахде.

Военная система. Военные реформы при Амуре Абдулахде проходили медленнее, чем административные и фискальные, однако именно в военной сфере наиболее чётко проявилась тенденция к дисциплинаризации и учётно-ресурсной рационализации. При этом модернизация носила селективный характер: основные изменения были не структурно-организационными, а функционально-дисциплинарными.

В 1886 году вводится фиксированная система службы во дворцовой охране, с расписанием дежурств, подчинением и обязанностями по времени [2:149]. Это первая попытка формализовать службу не как родовое обязательство, а как устойчивую функцию.

В 1892 году введение оборотных книг учёта оружия, боеприпасов и снабжения. Склады, выдача и распределение вооружения фиксируются документально [2:150]. Данный шаг создаёт основу материально-технического контроля армии.

В 1895 году фиксируется получение партии современных огнестрельных образцов через российские каналы и начало инструктирования бухарских военных специалистами, ознакомленными с русской армейской подготовкой [2:94–96].

В 1899 году создаются резервно-учебные подразделения, что означает переход к подготовке личного состава как постоянного, а не эпизодического процесса [7:151]. Появляется структура военного «инструктора».

В 1905 году принят ряд приказов о строевой дисциплине и порядке несения караульной службы: служба закрепляется как долговременный функциональный режим, а не временная повинность [7:151–152]. Формируется категориальный переход к постоянной службе.

В 1909 году введено регулярное обновление личного учёта военных, с фиксацией сроков службы, перемещений и назначений [7:152]. Это свидетельствует о появлении элемента профессионального военного досье.

Интеллектуальный контекст. Ахмад Дониш подчёркивал: «Армия сильна не числом, а порядком» [5:147]. Эта идея – ядро внутреннего понимания необходимости дисциплины как базовой категории военной мощи, и именно она реализовалась при Абдулахде в форме бюрократических военных процедур.

Итог по военному сектору. Военные реформы Абдулахда это переход от мобилизационно-традиционного к учётно-дисциплинарному принципу армии [8:190]. Появление оборотных книг, списков, инструктората и регламентов показывает, что армия начинает мыслиться как управляемый государственный корпус, а не как совокупность родоплеменных сил.

Другие сектора. Реформы в социокультурной, образовательной и интеллектуально-политической сферах при эмире Абдулахде наиболее ясно отражают появление «нового языка политики» рационалистического, аргументативного, а не только сакрально-легитимационного. Именно эта часть реформ показывает изменение политического мышления и управленческого представления о государстве.

В 1898 году расширение практики хозяйственно-статистических записей в ряде вилоятов: фиксируются не только налоги, но и социально-хозяйственные показатели по населению [6:158–159]. Это означает перенос логики «учёта» за пределы фискального сектора в социальный.

В 1901 году введена формализованная процедура разрешения образовательных инициатив: открытие школ, введение новых учебных пособий и сборников должны проходить через письменную заявку, согласование и утверждение [6:98–100].

В 1906 году впервые официально фиксируются государственные проверки отдельных «новых учебных заведений». Эти проверки не запрещают реформу образования, но создают режим надзора, а не подавления [4:10].

В 1908 году расширяется практика «условного разрешения» на новые учебные программы: государство оставляет право ревизии содержания, но допускает модернизированные формы обучения [4:10].

1909-1910 гг. на уровне официальных решений начинает применяться аргумент «целесообразности» решения формулируются не только как «шарый долг», но как рационально и функционально обоснованные действия во имя порядка и сохранения баланса [5:146-148]. Это первый зафиксированный случай формирования рационального политического языка в Бухаре в виде официального административного аргумента.

Интеллектуальный вывод. Данный сектор показывает, что модернизация при Абдулахде это не «копирование Европы», а смена типа политической рациональности внутри традиционного государства: порядок, учёт, целесообразность становятся нормой политического объяснения.

Итог по сектору. Социально-культурная и образовательная политика при Абдулахде демонстрирует постепенное «просачивание» рационалистического мышления в традиционную систему через контролирующую модернизацию образования, статистический учёт и формирование нового языка легитимации власти.

Обсуждение. Анализ реформаторских процессов при Амире Абдулахде показывает, что модернизация в позднебухарском политическом порядке не являлась линейной, равномерной или однозначно прогрессивной. Наоборот, реформы носили селективный, секторально-различный характер, и каждый сектор имел собственную скорость, собственный предел и собственную форму внутреннего сопротивления. Это даёт возможность рассматривать модернизацию Бухары не как единый проект, а как комплекс параллельных институциональных траекторий.

Во-первых, административные реформы при Абдулахде были наиболее последовательными и системно оформленными. Они не создали европейского типа бюрократию, но создали административную технику, т.е. формы письменного контроля, учёта и регламентации [7:244]. Это означает, что модернизация прошла через инструментальную плоскость не через смену политико-философской парадигмы, а через изменение способа управления.

Во-вторых, налоговые реформы являются наиболее успешным примером централизованной функциональной рационализации. Здесь наиболее чётко видно: государство учится считать. Государство вводит учёт, отчётность, проверку, сопоставление данных. Это уже не «классическая восточная фискальная традиция», – это рациональный финансовый менеджмент. Причём без идеологического давления извне. Российский протекторат стал катализатором, но не автором этих решений. Их внутренняя логика – это логика управляемого порядка.

В-третьих, военные реформы демонстрируют структурно ограниченную модернизацию. Войско остаётся традиционным по своей социальной природе, но начинает функционировать как корпус дисциплины, а не как «родовая клиентела». Здесь модернизация идёт не через технику, а через дисциплинаризацию, что абсолютно соответствует внутренним категориям донешевской политической мысли.

В-четвёртых, социально-культурные изменения показывают трансформацию не института, а политического языка. Рациональный аргумент («почему это полезно?», «почему это необходимо?») получает легитимность в официальном административном дискурсе. И это ключевое открытие: модернизация при Абдулахде это не только набор реформ, это рождение нового типа административного объяснения власти.

В совокупности, реформы Абдулахда представляют собой форму контактной модернизации: традиционное государство, находясь под внешним протекторатом, но сохраняя внутреннюю культурно-политическую автономию, выбирает только те элементы модернизации, которые усиливают контроль, порядок и управляемость и избегает тех, которые могут трансформировать легитимационную основу власти.

Таким образом, реформы не разрушили традиционную систему, а, наоборот, продлили её жизнеспособность за счёт инструментального обновления.

Заключение. Реформы при Амине Абдулахад (1885–1910 гг.) демонстрируют, что даже традиционные исламские государственные системы Центральной Азии обладали собственной внутренней способностью к селективной институциональной адаптации. Абдулахад не разрушал фундамент старого порядка, но он модифицировал его операциональные механизмы: управление было переведено в письменный режим регламентации, налогообложение в режим учёта и проверки, армия в режим дисциплины, а политический язык – в режим рационального аргументирования.

Данный комплекс изменений не создал “западного государства” и не сформировал модерную политическую нацию. Но эти изменения создали административную модерность не идеологическую, а инструментальную. Государство перестало опираться только на традицию и устную легитимацию, и стало опираться на процедуру, учёт, документ, проверку, регламент.

Причём этот процесс не был “реакцией на внешнее давление”. Российский протекторат создал условия и контекст, но не сформулировал содержание реформ. Содержание было сформировано внутренней рациональностью самой элиты Бухары, продолжавшей линию мыслителей типа Ахмада Дониша, где порядок, целесообразность и справедливость понимались как практический параметр государственности, а не только как морально-религиозная категория.

Поэтому эпоха Абдулахад это не поздняя попытка “догнать Европу”, а уникальный региональный исторический феномен контактной модернизации: модернизации, появившейся внутри культурной и политической традиции, но в зоне пересечения с внешней имперской средой.

Эта модель показывает: традиционная система может обновляться, оставаясь традиционной.

И именно в этом главный исторический и теоретический смысл реформ Абдулахад.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Семёнов А.А. *Очерки по истории образования и деятельности канцелярии бухарского эмира*. Ташкент: АН УзССР, 1962. 212 с.
2. Бартольд В.В. *Сочинения*. Т. II. Москва: Наука, 1963.
3. Зияев Х. *Узбекистан под игом колониализма и гнёта (вторая половина XIX - начало XX веков)*. Ташкент: Шарк, 2006. 18 с.
4. Бендикс Р. *Нация-государство и гражданское общество*. Berkeley: University of California Press, 1977. 274 p.
5. Ахмад Дониш *История мангытской династии*. Душанбе: Дониш, 1967. 146 с.
6. Бартольд В.В. *Сочинения*. Т. II. Москва: Наука, 1963. 356 с.
7. Айзенштадт Ш. *Революции и преобразования обществ*. Москва: Аспект Пресс, 2000. 312с.
8. Хантингтон С. *Политический порядок в меняющихся обществах*. New Haven: Yale University Press, 1968. 488 p.

G'ARBIY SUG'DDAGI E'TIQOD VA DINIY QARASHLAR

Niyazova Maxsuma Ilyasovna,

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida dotsenti, t.f.n.

Djumayeva Sarvinov Saidovna,

Buxoro davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mualliflar Buxoro So'g'di hududida islomdan oldingi davrda mavjud bo'lgan dinlar, e'tiqodlar va kultlarni o'rganadilar. Zardushtiylik, buddaviylik va boshqa dinlar haqidagi ma'lumotlar arxeologik va yozma manbalarga asoslangan. Arxeologik ma'lumotlar asosan, Buxoro, Poykend va Romitan hududlarida olib borilgan qazishmalardan olingan. Yozma manbalar orasida Narshaxiy va Beruniy asarlaridan olingan ma'lumotlar ham uchraydi. Ushbu manbalarga tayangan holda qadimki diniy e'tiqodlar va kultlar arablar bosqiniga qadar o'lka aholisining ijtimoiy hayotida chuqur o'rin egallagani haqida umumiy manzara hosil qilinadi.

Kalit so'zlar: dinlar, ibodatxona, olov, G'arbiy So'g'd, qazishma, but, sanam, Buxoro.

ВЕРОВАНИЯ И РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЗГЛЯДЫ В ЗАПАДНОМ СОГДЕ

Аннотация. В данной статье авторы изучают религии, верования и культы, существовавшие в доисламский период в Бухарско-Согдийском регионе. Сведения о зороастризме, буддизме и других религиях основаны на археологических и письменных источниках. Археологические данные получены в основном в результате раскопок, проведённых в Бухарском, Пайкендском и Ромитанском регионах. В письменных источниках также представлены сведения из трудов Наршахи и Беруни. На основании этих источников складывается общая картина, согласно которой древние религиозные верования и культы занимали глубокое место в общественной жизни населения региона до арабского нашествия.

Ключевые слова: религии, храм, огонь, Западный Согд, раскопки, идолы, статуя, Бухара.

BELIEFS AND RELIGIOUS VIEWS IN WESTERN SUGHD

Abstract. In this article, the authors study the religions, beliefs, and cults that existed in the pre-Islamic period in the Bukhara Sogdian region. Information about Zoroastrianism, Buddhism, and other religions is based on archaeological and written sources. Archaeological data is mainly obtained from excavations conducted in the Bukhara, Poykend, and Romitan regions. Written sources also include information from the works of Narshahi and Beruni. Based on these sources, a general picture is formed that ancient religious beliefs and cults occupied a deep place in the social life of the population of the region before the Arab invasion.

Keywords: religions, temple, fire, Western Sogdiana, excavation, idol, statue, Bukhara.

Kirish. Hozirgi kunda tarix fani oldidagi dolzarb mavzulardan biri bu - ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo, xususan, So'g'd hududida islomgacha bo'lgan davr oralig'ida mavjud bo'lgan qadimgi dinlar va diniy marosimlar tarixini o'rganishdir. Ilk o'rta asrlarda G'arbiy So'g'd hududida bir qancha dinlar mavjud bo'lgan: zardushtiylik, xristianlikning nestorianlik oqimi, buddaviylik, otashparastlik, daraxtlarga, turli tasvirlarga e'tiqod va fetishizm. Arab tarixchilari o'z asarlarida So'g'ddagi ibodatxonalar haqida, ulardagi boyliklar haqida ko'p ma'lumot berishgan. Quyidagi maqolada asosan zardushtiylik, otashparastlik, ularning ibodatxonalari haqida tarixiy manbalarga tayangan tarzda ma'lumotlar keltiriladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Buxorodagi ibodatxona Ark qo'rg'onida joylashgan bo'lib, arablar bosqinidan so'ng ushbu ibodatxona o'rniga masjid barpo etilgan. 1972-1975-yillarda arxeolog R.X.Sulaymonov tomonidan Buxoroning shimoli-g'arbiy hududida joylashgan Setalak I tepaligida qazishma ishlari olib borilganda bir - birini izchil ravishda almashtirib turgan, turli me'moriy ko'rinishdagi diniy inshootlar uzoq vaqt faoliyat ko'rsatgan. Dastlabki diniy qadamjo uncha katta bo'lmagan tabiiy tepalik ustida qad rostlagan. Inshootning uncha baland bo'lmagan (1 m dan sal oshiq) asosini loydan tayyorlangan platforma, uning usti bir qavat xom g'isht bilan qoplangan. Inshoot kvadrat shaklda (ehtimol kub shaklda)

HISTORY

bo'lib, umumiy maydoni 17x 17 m. Juda kichik cho'zilgan kirish teshigi janubiy fasadning o'rtasini kesib o'tgan. Binoning old tarafida, kirish qismining to'g'risida ulkan zal bo'lib, uning orqa devori bo'ylab yonma-yon yo'lak, u orqali esa tor xonaga olib o'tilgan. Bino devori paxsa va xom g'ishdan qurilgan, somon qo'shib qorilgan loy bilan suvalgan bo'lib, uning qalinligi 1,6 m tashkil etadi.

Bu inshoot keyingi davrlarda qayta qurilgan paytda yangi g'isht quyish oqibatida uning to'rt tarafida yarim oval shaklidagi minoralar paydo bo'ladi. Binoning janubiy tarafida pandus (ko'tarma yo'lak) mavjud bo'lib, u orqali inshootning baland maydonchasiga borish mumkin edi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Inshootning uchinchi qurilish davrida butun bir bino tosh – qum bilan to'ldirilgan va yaxlit monolit hosil bo'lgan. Uning janubi-sharqiy qismida bir nechta xonalar ham solingan. Uchinchi qurilish davrida kiraverish joyida gulxan mavjud bo'lib, unda asosan sopol buyum parchalari va hayvon suyaklari tashlangan. Sovib qolgan ko'mirda odam skeleti nisbatan anatomik tartibda qo'yilgan. Ammo bosh suyaklari atrofida alohida suyaklar ham o'rin olgan. Bularning hammasi loy qatlami bilan yopib qo'yilgan.

Xuddi shu ko'rinishidagi ibodatxona yoxud muqaddas qadamjo Buxoro hududidagi Varaxsha qo'rg'onidan ham topilgan. Bu yerda ham olov yoqish bilan bog'liq marosimni ko'rish mumkin. Bu inshoot saroy va qasr arxitekturasida qurilgan bo'lib, unda kattagina zal, sufali chuqur ayvon va markaziy hovliga eltuvchi ikkita to'g'ri to'rtburchak shakldagi, ko'tarma platformali yo'lakdan iborat.

Ibodatxonalar saroylar ko'rinishida bo'lib, ular buxorxudotlar saroyi bo'lmish Varaxsha kiraverishining qarshisida mavjud bo'lgan. Ushbu ibodatxonaga uzun yo'lak bo'ylab borilgan.



Poykenddagi zardushtiylik ibodatxonasi. Buxorodan 60 km janubi g'arbda Qorako'l tumanida Poykend qadimgi shahar xarobasi joylashgan. Ushbu shahar arxeologik qazishmalar o'tkazilmasdan oldin ko'plab tarixiy manbalar orqali ma'lum va mashhur bo'lgan. Abulqosim Firdavsiy o'zining "Shohnoma" asarida bu yerda otashparastlarning ibodatxonasi bo'lganligi, ibodatxona devorlarida oltin suvi bilan "Avesto-zardushtiyning muqaddas kitobi" degan yozuv yuritilganligini aytib o'tgan.

Narshaxiyning aytishicha, Poykend boy shahar bo'lgan, sababi aholisining aksariyati Xitoy va boshqa mamlakatlar bilan savdo aloqalarini o'rnatganliklari uchun boy savdogarlar bo'lishgan. Arablar 706-yilda shaharni ishg'ol qilganlarida u yerdan bir qancha boyliklarni qo'lga kiritishgan. Undan tashqari, ibodatxonalardan kumush haykallardan qolgan kulni qayta eritib, go'yoki 200 kilogrammdan ortiq qimmatbaho metal olganliklarini eslatib o'tgan.

Poykendning 706-yilda arablar bosqinidan so'ng vayron etilgan otashparastlar ibodatxonasi aynan qayerda joylashganligi haqida aniq ma'lumot haligacha mavjud emas. Ehtimol u shahar qo'rg'onida, uning shimoli-sharqiy tomonida qad rostlagan. Eng muhimi, bu ibodatxona yagona bo'lmagan, ya'ni ularning soni to'rttani tashkil etgan. Ibodatxona ikkita markaziy binolardan iborat bo'lgan, g'arbiy tomonidan tashqari boshqa atrofi o'rab olingan va oltita yo'laklari bo'lgan. Har bir xonaning o'rtasida ko'tarma yo'lagi mavjud edi. Dastlabki davrlarda bino uchun balandligi 7 metr bo'lgan kesik piramida shaklida, keyingi davrlarda esa ko'tarma yo'lakning eni 4x3,5 metr, balandligi 60 metrni tashkil etgan. Bino platformada turgan, uning

HISTORY

janubiy qismida zinapoyasi bo'lgan. Janubiy fasad oldida ustunli portik, u orqali ichkari hovliga kirish mumkin edi.



O'rta Osiyo hududidagi islomgacha mavjud bo'lgan ibodatxonalar, avvalambor Panjikentdagi otashgohlar Poykend qadamjolaridan farq qilgan. Poykend ibodatxonalarini tuzilishi jihatidan Eron ibodatxonalariga juda yaqin bo'lgan. Keyinchalik xuddi shu struktura bo'yicha Ismoil Somoniy maqbarasi ham bino qilingan.

Poykenddagi ibodatxona ko'tarma yo'lagining ustki qismidan olovning izlari aniqlangan va bu qadamjo otashparastlarga tegishli ekanligi to'g'risidagi fikrni isbotlaydi. Undan tashqari, bu yerdan bir qancha sopol idishlar va unda hayvon suyaklari topilgan. Shu o'rinda Beruniyning so'g'diylar bayrami (agamalar) haqidagi ma'lumoti quyidagicha: "Bayram har bir qishloqda nishonlanadi, hamma to'planadi, turli taomlar tanovvul qilishadi, ichimliklar ichiladi. Bu yerda hamda Romushdagi ibodatxonada afsungarlar to'planishgan va diniy amallarni bajarishgan."

Ibodatxonadan diniy bayram bilan bog'liq tasvirlari tirnalgan sopol buyum topilgan. Uning saqlanib qolgan qismida inson tasviri mavjud (boshi yo'q). Uning qo'lida aso bor va bu ko'rinishidan cho'ponni eslatadi. Uning oldida shoxli echki tasviri (oldida daraxt ham bor) ham ko'zga tashlanadi. Bu echkiga qarama-qarshi yana bir echki tasviri (daraxtning boshqa tomonida) ham diqqatni jalb qiladi.

Azal-azaldan Pomir va Afg'oniston shimolida yashovchi xalqlarda sopoldan buyum yasash, uy devorlarida qo'y, echki va cho'pon (aso bilan birga) tasvirlarini chizish an'anasi bo'lgan va bu an'ana hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. Bu rasm-rusum Navro'z bayrami bilan bog'liq bo'lib, undagi asosiy maqsad - yangi yilda chorva mollari sonining ko'payishi uchun qilinadigan tadbirdir.

Ko'p yillar davomida Poykendning VIII asr boshlariga taalluqli tarixiga oid ma'lumotlar deyarli mavjud emas edi. Faqatgina so'nggi yillarda ushbu hududda olib borilgan tadqiqotlar VIII asr boshlariga doir ma'lumotlarni bilish imkonini berdi. Ushbu ma'lumotlarga tayanib aytish mumkinki, Poykenddagi ibodatxona kuchli yong'in sabab yonib ketgan. Uning polidan yonib ketgan daraxt va temir buyumlar (ibodatxona eshigi bo'lishi mumkin) topilgan. Ikkinchi yonib ketgan bino 1998-yilda topilgan bo'lib, u shahar qal'aning g'arbida joylashgan. Uning poli pishiq g'ishtdan ishlangan. Bu bino ham butunligicha yonib kul bo'lgan. Undan bir nechta sopol buyumlar, matoga o'ralgan xanjar siniqlari va hokazolar topilgan.


Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida aytilishicha, Buxoro hududlarida ham bir qator ibodatxonalar mavjud bo'lgan. Shulardan biri VI asrning 80-yillarida Buxorodagi Abro'y boshchiligidagi qo'zg'olonni bostirish uchun yuborilgan Turk xoqoni Qoracho'rinning o'g'li Sheri Kishvar yigirma yil mobaynida podshohlik qilgan va Mamostin, Saqmatin, Samtin va Farab qishloqlarini bunyod ettiradi. Undan keyingi hukmdor davrida Iskajkat, Sharg', Romtin va Faraxshiy qishloqlari quriladi. Bu davrda Buxoroga kelin bo'lgan Xitoy malikasi (Xitoy hukmdorining qizi) o'zi bilan birga bir qancha narsalarni olib kelgan va ular orasida butxona ham bor edi. Ushbu butxonani Romtinga o'rnatadilar.

Undan tashqari, Siyovushning o'g'li Kayxusrav otasining o'limi uchun o'ch olish maqsadida Afrosiyobga qarshi qo'shin tortadi. Bu paytda Afrosiyob Romtinda bo'lgan edi. Romtin Buxorodan qadimiy shahar bo'lib, podshohlar qishlash uchun bu yerga kelishar edi. Kayxusrav ikki yilga yaqin shu yerda bo'lgan va uning qarshisida boshqa bir qishloq bunyod ettiradi. Yangi qishloqni Romush deb ataganlar va xuddi shu yerda Kayxusravning tashabbusi bilan ibodatxona qurilgan. Bu ibodatxona Buxorodagi otashparastlar

HISTORY

ibodatxonasining eng qadimiysi sanalgan. Shuning uchun ham bir qator tarixchilar bekorga Buxoro nomini muqaddas qadamjolar nomi bilan bog'lamaydilar, masalan, "Tarixi Mullazoda" asarida unga "qalb xotirjamligi maskani", "but va sanamlarga sig'inadigan joy" degan ta'rif berilgan. Undan tashqari, har bir davrda Buxoro turli din ulamolari yig'ini joyi bo'lgan. Buxor kalimasi mug'lar tilida "Majma'i ilm" (Ilmlar koni) degani. Bu lafz, uyg'ur va xitoy butparastlari tiliga yaqin bo'lib, ular "butlar makoni" (butxona, butlar ibodatxonasi) deyishgan. Arablar bosqini arafasida shahar markazi - dizda (3 ga) ko'p xudoli ibodatxona, shaxristonning (28-30 ga) janubiy darvozasidan (shaxriston yettita darvozadan iborat bo'lgan) Rudi-Zar (Shoxrud kanali) orqali Moh bozori, but va sanamlar hamda otashparastlar ibodatxonalari bo'lganligi aytib o'tiladi.

Mag'oki attor masjidi Buxorodagi eng qadimgi masjidlardan biri bo'lib, u shaharning tashqi tomonida (Hisori berun) joylashgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, dastlab u yerda Moh deb nomlangan otashparastlar ibodatxonasi mavjud bo'lgan. Boshqa manbalarda esa otashparast Moh deb nomlangan shaxs islom dinini qabul qilganidan so'ng ushbu ibodatxonani masjidga aylantiradi. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, IX-XI asrlarda bu joy o'rnida ikkita mental bino bo'lgan. Pastki masjid o'zida g'ishtli devorlar, g'ishtli pol va uning ustki qismini mustahkam yog'och qoplamalari mujassamlashtirgan. Binoning bezatish ishlariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bunda asosan bezakli yozuvlar, qoliqli sopol bezaklar, ganchdan tayyorlangan bezaklardan (epigrafik yozuv - kufiy, geometrik shakllar) keng foydalanilgan.



Xulosa. Umumiy qilib aytganda, G'arbiy So'g'd hududida arablarning istilochilik harakatlari kuzatilishidan oldingi davrlarda ushbu hudud aholisining ijtimoiy-siyosiy hayotida din, e'tiqod, kultlar turli-tuman bo'lgan. Buni biz yuqorida tilga olgan ko'plab tarixiy asarlar, manbalar, arxeologik tadqiqot ishlari orqali bilishimiz mumkin. G'arbiy So'g'dda ko'plab dinlar tarqalgan bir vaqtda madaniyat, san'at, arxitektura sohalarida ham jiddiy o'zgarishlar bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. Sababi, hududda joylashgan har bir ibodatxona, butxona yoki muqaddas qadamjo o'ziga xos noyob qurilish texnikasi asosida bino bo'lgan. Bunday qadamjolarning aksariyati hukmdor qarorgohida qad rostlashi esa davlat rahbarlarining din homiylari, aholi orasida yoyilishida tashabbus kuch ekanliklarini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. *Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий., Бухоро тарихи. –Т.,1966.*
2. *Семенов А.А., Из истории культурного наследия Бухары (8-выпуск). - Б.,2002.*
3. *Сулейманов Р.Х., Культура древнебухарского оазиса III-VI вв.н.э. -Т.,1983.*
4. *Некрасова Е.Г., Бухара., -М., 2012. -с 42-50.*
5. *Некрасова Е.Г., Магоки Аттори., -М., 2012. -с 89-90.*
6. *Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий, Тарихи Муллозода. -Т.,2009.*

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI IQTISODIY-MODERNIZATSION JARAYONLAR: ROSSIYA IMPERIYASINING TA'SIRI, AGRAR O'ZGARISHLAR VA SANOAT RIVOJI

*Halimov Tal'at To'rayevich,
Qarshi davlat universiteti doktoranti
ps.talathalimov@gmail.com*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tahlil qilinadi. Rossiya imperiyasining mintaqaga siyosiy va iqtisodiy kirib kelishi natijasida yuzaga kelgan yangi xo'jalik munosabatlari, rus aholi punktlari va sanoat korxonalarining paydo bo'lishi, temir yo'l va suv kommunikatsiyalarining ahamiyati, shuningdek, agrar sektorning, ayniqsa, eksportbop paxtachilikning keskin kengayishi ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Tadqiqotda paxtachilikka oid tariflar, statistik ma'lumotlar, irrigatsiya va melioratsiya loyihalarining hudud rivojiga ta'siri, shuningdek, "Buxoroyi sharif" gazetasi orqali iqtisodiy jarayonlarning axborot bilan ta'minlanishi o'rganilgan. Tahlillar Buxoro amirligida kapitalistik ishlab chiqarish elementlarining shakllanishi, sanoat infratuzilmasining kengayishi va iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarining murakkabligini ochib beradi.*

***Kalit so'zlar:** Buxoro amirligi, Rossiya imperiyasi, paxtachilik, irrigatsiya, sanoat korxonalari, iqtisodiy modernizatsiya, rus aholi punktlari, kapitalistik munosabatlar, agrar islohotlar, temir yo'l, "Buxoroyi sharif".*

ЭКОНОМИКО-МОДЕРНИЗАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА: ВЛИЯНИЕ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ, АГРАРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ И РАЗВИТИЕ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

***Аннотация.** В данной статье анализируются социально-экономические изменения, происходившие в Бухарском эмирате в конце XIX – начале XX века. На основе научных источников рассматриваются новые хозяйственные отношения, сформировавшиеся в результате политического и экономического проникновения Российской империи в регион, появление русских населённых пунктов и промышленных предприятий, значение железнодорожных и водных коммуникаций, а также трансформация аграрного сектора, прежде всего стремительное расширение экспортно ориентированного хлопководства. В исследовании изучены тарифы, статистические данные, связанные с хлопководством, влияние ирригационных и мелиоративных проектов на развитие территорий, а также информационное обеспечение экономических процессов через газету «Бухаройи шариф». Проведённый анализ показывает формирование элементов капиталистического производства, расширение промышленной инфраструктуры и сложный характер процессов экономической модернизации в Бухарском эмирате.*

***Ключевые слова:** Бухарский эмират, Российская империя, хлопководство, ирригация, промышленные предприятия, экономическая модернизация, русские населённые пункты, капиталистические отношения, аграрные реформы, железная дорога, «Бухаройи шариф».*

ECONOMIC AND MODERNIZATION PROCESSES IN THE BUKHARA EMIRATE IN THE LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURIES: THE INFLUENCE OF THE RUSSIAN EMPIRE, AGRARIAN CHANGES, AND INDUSTRIAL DEVELOPMENT

***Abstract.** This article analyses the socio-economic transformations in the Bukhara Emirate during the late 19th and early 20th centuries. Based on scholarly sources, it examines the new economic relations that emerged as a result of the political and economic penetration of the Russian Empire into the region, the establishment of Russian settlements and industrial enterprises, the significance of railway and waterway communications, as well as the transformation of the agrarian sector, particularly the rapid expansion of export-oriented cotton cultivation. The study investigates cotton-related tariffs and statistical data, the impact of irrigation and land reclamation projects on regional development, and the informational support of economic processes through the newspaper Bukharo-i Sharif. The analysis demonstrates the emergence of elements of capitalist production, the expansion of industrial infrastructure, and the complex nature of economic modernisation processes in the Bukhara Emirate.*

Keywords: Bukhara Emirate, Russian Empire, cotton cultivation, irrigation, industrial enterprises, economic modernisation, Russian settlements, capitalist relations, agrarian reforms, railway, Bukhara-i Sharif.

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi yirik geosiyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar chorrahasida qoldi. Mintaqaning Rossiya imperiyasi siyosiy ta'sir doirasiga kirishi nafaqat an'anaviy boshqaruv tizimini o'zgartirdi, balki mahalliy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Aynan shu davrda Buxoroning jahon xo'jalik jarayonlariga bosqichma-bosqich qo'shilishi, qishloq xo'jaligi tarmog'ining esa eksportga yo'naltirilgan paxtachilik asosida maqsadli modernizatsiyaga tortilishi kuzatildi.

Tarixshunoslikda mazkur bosqich Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga iqtisodiy penetratsiyasi kuchaygan davr sifatida baholanadi. Temir yo'l va dengiz yo'llari tarmog'ining kengayishi, rus aholi manzillarining paydo bo'lishi, sanoat ishlab chiqarishining yangi shakllari tarqalishi mintaqaning modernizatsiyasida muhim omil bo'ldi. Ayniqsa, yangi yerlarni o'zlashtirishga qaratilgan irrigatsiya va muhandislik loyihalari katta ta'sir ko'rsatdi. Bu esa Rossiya imperiyasining strategik mahsuloti bo'lmish paxta ekiladigan maydonlarni sezilarli ravishda kengaytirish imkonini yaratdi.

Ko'rinib turgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga qaramay, Buxoro amirligida shakllangan yangi iqtisodiy modelning ko'plab jihatlari hali ham batafsil tadqiqotni talab qiladi. Ushbu tadqiqot arxiv hujjatlari, davriy matbuot, statistik materiallar va zamonaviy tadqiqotchilar asarlariga tayangan holda bu transformatsiyalarning kompleks tahliliga bag'ishlanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning Buxoro amirligi hududiga kirib kelishida temir yo'l va suv yo'llaridan foydalanish boshlanishi bilan bir qatorda rus aholi punktlarining paydo bo'lishi ham muhim rol o'ynadi. Aholisi asosan ruslar va boshqa yevropaliklardan iborat bo'lgan bu manzillar sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligining yangi usullarini joriy qilish orqali yuqori daromad olishga intildilar. Masalan, 1914-yilga kelib, Chorjo'ydagi rus posyolkasida 300 dan ortiq savdo korxonasi, o'ndan ziyod (paxta tozalash va moy ishlab chiqarish) zavodlari, shuningdek, temir yo'l va Amudaryo flotilyasiga xizmat ko'rsatuvchi ustaxonalar faoliyat yuritardi. Kogonda esa yetti zavod, tamaki fabrikasi va spirt zavodi mavjud bo'lgan [1, 14]. Ushbu ma'lumotlar Buxoro amirligida yangi iqtisodiy tuzilmalar qanchalik chuqur ildiz otganini ko'rsatadi.

Shunga qaramay, 1900-yillargacha Rossiya imperiyasining amirlikka nisbatan iqtisodiy siyosati asosan Buxoroni xomashyo yetkazib beruvchi hudud sifatida mustahkamlashga, mintaqaga chet el kapitali kirib kelishiga to'sqinlik qilishga qaratilgan edi. Asosiy e'tibor paxta yetishtirish hajmini kengaytirishga qaratildi va paxtachilikni rag'batlantirish yil sayin kuchaydi. Paxtachilik mahalliy aholiga ham yuqori daromad beruvchi soha bo'lib qola boshlagani sababli ekin maydonlari yildan yilga oshib bordi. Agar 1865-yilda paxta 32 ming desyatina maydonni egallagan bo'lsa, 1880-yilda bu ko'rsatkich 50 mingga, 1890-yilda 62 mingga, 1916-yilga kelib esa 115 ming desyatina yetdi [2, 185]. Ushbu raqamlar paxtaga bo'lgan talab va taklifning mutanosib ravishda o'sib borganini ko'rsatadi.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, bir desyatina paxtaning daromadi o'rtacha 70-80 rublni tashkil etgan, xarajatlar esa 7-10 rubl atrofida bo'lgan [3, 24–25]. Bunday yuqori rentabellik paxta plantatsiyalarining uzluksiz kengayishiga olib keldi va dehqonlar eng foydali tarmoq sifatida aynan paxtachilikni rivojlantirishga intildilar.

Paxtachilikning kengayishi faol targ'ibot bilan ham uyg'un kechdi. Sadridin Ayniy Buxoro amirligidagi birinchi davriy nashr – “Buxoroyi sharif” gazetasining tarixi haqida to'xtalar ekan, uning asoschilari Muhiddin Mansurov va Mirzo Siroj Hakim gazeta chiqarishga ruxsat olish jarayonida Rossiya ma'muriyatining adolatli siyosatini va paxtachilikni targ'ib qilish zarurligini asos sifatida ko'rsatganini ta'kidlaydi [4, 239]. Gazetaning birinchi sonida paxta, qorako'l, don, go'sht, mato, choy va boshqa mahsulotlarning narxlari haqida ma'lumot berilishi rejalashtirilgani, shuningdek, paxta narxlari, zavodlardagi jarayonlar, jahon birjalari (xususan Nyu-York birjasi) xabarlarini muntazam yoritib borilishi qayd etilgan.

Paxta ekin maydonlarining kengayishi qayta ishlash sanoatini rivojlantirish zaruratini tug'dirdi. Amirlik hududidagi birinchi paxta tozalash zavodi 1893-yilda ochildi. Birinchi jahon urushi arafasida bu zavodlar soni 26 taga yetdi. Ulardan 19 tasi rus tadbirkorlariga, uchtasi musulmonlarga, biri esa Buxoro savdogari Mirzo Muhiddin Mansurovga tegishli edi; zavodlarda mingdan ortiq ishchi mehnat qilgan. 1913-yilda amirlikda ikki moychilik zavodi, uch zamonaviy tegirmon, o'nta g'isht zavodi, ikki tamaki sexi (Qorako'lda) va bir bosmaxona (Kogonda) faoliyat yuritgan. 1916-yilga kelib paxta tozalash korxonalarini soni 34 taga yetdi, yarim tayyor paxta mahsulotining yillik hajmi esa 2,565 million pudni tashkil etdi [5, 219]. Ushbu ma'lumotlar paxtachilikning o'sishi bilan bir qatorda sanoat ishlab chiqarishining chuqurlashganini ko'rsatadi.

Paxta yetishtirish hajmini oshirish uchun ekin maydonlarini kengaytirish zarur bo'lib qoldi. Shu bois Rossiya imperiyasi Buxoro amirligi hududidagi bo'sh yerlarni paxtachilik uchun o'zlashtirishga intildi. Rossiyalik mutaxassislar muhandislik, gidrologik va geologik tadqiqotlar o'tkazdilar. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida asosiy e'tibor O'rta Buxoro hududlariga (hozirgi Qashqadaryo va Surxondaryo) qaratildi. Bu hududlar transport yo'llariga yaqin joylashgani va yangi irrigatsiya tizimlarini tashkil etish uchun qulayligi bilan ajralib turardi. Surxondaryo vodiysida chuqurligi to'rt arshinga yetuvchi unumdor sarg'ish tuproqli 800 kv. km maydon aniqlangan, shuningdek, Ko'kaydi qishlog'i yaqinida qadimgi sug'orish tizimlari izlari ko'zga tashlangan [6, 109-112].

D. N. Logofet Termiz va uning atroflarini o'rganar ekan, ushbu hudud Karkidan 200 chaqirim uzoqlikda joylashganini, sarg'ish tuproqlarning katta massivi va qadimiy irrigatsiya izlari mavjudligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, eski ariq tizimlarini tiklash katta mehnat talab qilmasdi. Shuningdek, u yerlarni o'zlashtirish va Afg'oniston bilan savdoni rivojlantirish uchun rus aholi punktlari zarurligini qayd etadi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, ruslarning hududni o'zlashtirishi 1889-yilda boshlangan, o'shanda amir Abdulahadxon Rossiya ma'muriyatiga 10 ming desyatina yer ajratgan edi. Keyinchalik Qizilsuv daryosidan magistral kanal qurish loyihasi taklif etilib, bu ishga 300 ming rubldan ortiq mablag' sarflangan. Ushbu loyiha Rossiya imperiyasining Buxorodagi birinchi yirik irrigatsiya tashabbusi bo'lgan [7, 88].

Tadqiqot metodologiyasi. 1898-yildan boshlab qurilgan Termiz garnizoni afg'on savdosida muhim bo'lgan Patta-Hisor bekatiqiga yaqin joyda barpo etilgan edi. Hududni sug'orib turgan Salovat arig'i texnik jihatdan qoniqarli holatda emasdi, uning to'g'oni mustahkam bo'lmagan. Shu sababli yangi magistral kanal qurish zarur bo'lib qoldi. Garnizon tashkil etilishidan keyin suvga ehtiyoj yanada oshdi. Rossiya ma'muriyati eski ariqni tiklash taklifini ham, Sherobod begining 60-70 ming rublga yangi kanal qazib berish taklifini ham rad etdi. Harbiylar 160 ming rubl yig'dilar, biroq ikki yillik qurilish yakunida suv Termizga yetib kelmadi. Natijada, hududning suv ta'minoti yana bir necha yilga kechiktirildi [8, 159-160].

Natijalar va muhokama. O'tkazilgan tahlillar Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy makonidagi transformatsiyaning bir necha asosiy yo'nalishlarini ajratish imkonini beradi:

- Kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi

Rus posyolkalarining ko'payishi, savdo korxonalarini va sanoat obyektlarining vujudga kelishi kapitalistik ishlab chiqarish modeliga mos yangi iqtisodiy markazlarning shakllanayotganini ko'rsatadi. Rus manzillari samarali xo'jalik yuritish usullarini joriy etib, agrar va sanoat amaliyotlarini modernizatsiya qildi.

- Agrar sektor transformatsiyasi

Paxtachilikni rivojlantirish Rossiya imperiyasining Buxorodagi iqtisodiy siyosatining markaziga aylandi. Ekin maydonlarining 32 mingdan 115 ming desyatina ortgani amirlik iqtisodiyotining monokultura asosiga o'tayotganidan dalolat beradi. Paxtaning yuqori daromadliligi aholi xo'jalik ustuvorliklarini o'zgartirdi.

- Modernizatsiyada sanoatning o'rni

Paxta tozalash, moy ishlab chiqarish, tamaki va g'isht zavodlarining vujudga kelishi amirlikning industrial rivojlanish bosqichini boshlab berdi. Temir yo'l va daryo transportiga xizmat qiluvchi korxonalar ichki kooperatsiya va ixtisoslashuvning kuchayganidan darak beradi.

- Irrigatsiya loyihalari iqtisodiy siyosat vositasi sifatida

Surxon va Qashqadaryo vodiylarining o'zlashtirilishi Rossiya imperiyasining hududni strategik qishloq xo'jaligi markaziga aylantirish maqsadini ko'rsatadi. Ayrim loyihalarning muvaffaqiyatsiz tugashiga qaramay, irrigatsiya tizimini ilmiy-uslubiy asosda modernizatsiya qilishga intilish kuzatiladi.

- Iqtisodiy islohotlarning axborot bilan qo'llab-quvvatlanishi

"Buxoroyi sharif" gazetasining faoliyati iqtisodiy jarayonlarning mafkuraviy va axborot bilan ta'minlanishi qanchalik muhimligini ko'rsatadi. Narxlar dinamikasi, birja xabarlarini va ishlab chiqarish yangiliklarining muntazam yoritilishi iqtisodiy ongini shakllantirishga xizmat qilgan.

Xulosa va takliflar. XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi Buxoro amirligining tarixiy taraqqiyoti Rossiya imperiyasi ta'siri ostida yuz bergan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Rus posyolkalarining paydo bo'lishi, sanoat ishlab chiqarishining o'sishi, irrigatsiya tarmog'ining kengayishi va paxtachilikning jadal rivojlanishi yangi iqtisodiy tuzilmalar shakllanishida hal qiluvchi omillar bo'ldi.

Bu jarayonlar agrar sektorning modernizatsiya qilinayotganidan, tovar-pul munosabatlarining kuchayganidan, sanoatning va infratuzilmaning ahamiyati ortganidan dalolat beradi. Natijada, Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining xomashyo eksportiga yo'naltirilgan iqtisodiy tizimining muhim bo'g'iniga aylandi.

Jarayonlarning ma'lum darajada ziddiyatli bo'lishiga qaramay, ularni kompleks o'rganish Markaziy Osiyodagi modernizatsiya jarayonlari va ularning mintaqaning keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ta'siri mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Фомченко А. П. Русские поселения в Бухарском эмирате. —Ташкент, 1958.
2. Терентьев М. А. Экономические задачи России в Среднеазиатских владениях. - СПб., 1888.
3. Оглоблин В.Н. Хлопчатобумажная промышленность в русских среднеазиатских владениях: Путевые заметки / В.Н. Оглоблин. - Санкт-Петербург: тип. В Кирибаума, 1901.
4. Айний С. Эсдаликлар 8 томлик, Том 1. (Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар). Наширға тайёрловчи Мажид Ҳасаний. —Тошкент: Ўз ССР Давлат бадий адабиёт нашириёти, 1963.
5. Холиқова Р. Россия-Бухоро: Тарих чорраҳасида (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари) – Т.: Ўқитувчи, 2005.
6. Логофет Д.Н. Новые земли // Туркестанский сборник Т. 497.
7. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом: Т. 1-2 / Д. Н. Логофет. - СПб. Т. 2. – 1911.
8. Логофет Д.Н. В горах и на равнинах Бухары: (очерки Средней Азии) / Д.Н. Логофет. - С.-Петербург: издание В.Березовского, 1913.

INFRATUZILMA TUSHUNCHASI VA UNING TARIXIY TAHLILI: NAZARIY-METODOLOGIK QARASHLAR

Kadirova Yakitjan Buvabayevna,

*Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

xqodirova@bk.ru

<https://orcid.org/0009-0005-0206-1411>

Annotatsiya. Maqolada infratuzilma tushunchasi, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi roli, shuningdek, tarixiy tahlilining nazariy-metodologik jihatlari o‘rganilgan. Infratuzilma iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlovchi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi tizim sifatida talqin qilinadi. Maqolada infratuzilmaning rivojlanish bosqichlari, uning iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri va zamonaviy bozor sharoitidagi ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, infratuzilma tushunchasiga turli olimlar tomonidan berilgan ta‘riflar va metodologik yondashuvlar tahlil qilinib, uning jamiyatdagi o‘rni va vazifalari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: infratuzilma, iqtisodiy rivojlanish, nazariy-metodologik yondashuv, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy infratuzilma, bozor iqtisodiyoti.

КОНЦЕПЦИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ЕЁ ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация. В статье рассматривается понятие инфраструктуры, её роль в экономическом и социальном развитии, а также теоретико-методологические аспекты её исторического анализа. Инфраструктура трактуется как система, поддерживающая основные отрасли экономики и обеспечивающая устойчивое развитие общества. В статье проводится научный анализ этапов развития инфраструктуры, её влияния на экономическую эффективность и значения в современных рыночных условиях. Кроме того, рассматриваются различные определения и методологические подходы к понятию инфраструктуры, её место и функции в обществе.

Ключевые слова: инфраструктура, экономическое развитие, теоретико-методологический подход, развитие общества, социальная инфраструктура, рыночная экономика.

THE CONCEPT OF INFRASTRUCTURE AND ITS HISTORICAL ANALYSIS: THEORETICAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES

Abstract. The article explores the concept of infrastructure, its role in economic and social development, as well as the theoretical and methodological aspects of its historical analysis. Infrastructure is interpreted as a system that supports the main sectors of the economy and ensures the sustainable development of society. The article provides a scientific analysis of the stages of infrastructure development, its impact on economic efficiency, and its significance in modern market conditions. Additionally, various definitions and methodological approaches to the concept of infrastructure are examined, highlighting its role and functions in society.

Keywords: infrastructure, economic development, theoretical and methodological approach, societal progress, social infrastructure, market economy.

Kirish. Jahonni rivojlangan davlatlarining iqtisodiyotini rivojlantirishga bevosita bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarini zamonaviy ruhda modernizatsiya qilish tufayli turmushning barcha sohalariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmaning taraqqiy etishi muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Tarixiy tahlilga e‘tibor berilsa mamlakatlarni rivojlanishi to‘g‘risida fikr bildirgan O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov infratuzilmaning mamlakat taraqqiyotida tutgan o‘rniga shunday baho bergan edi: “infratuzilma kompleksi iqtisodiyotimizning butun tuzilmasi tayanadigan poydevordir. Respublika butun xalq xo‘jalik kompleksi ishining uyg‘unligi, uning samaradorligi, shuningdek, chet el sarmoyalarini jalb qilish va o‘zlashtirish imkoniyati butunlay infratuzilma tizimi rivojining holatiga va darajasiga bog‘liqdir”[1:240]. Demak, infratuzilmaning dolzarbligini ko‘rib chiqish uchun avvalo uning ilmiy-nazariy jihatlari o‘rganish maqsadga muvofiq.

HISTORY

Infratuzilma (struktura) atamasi ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarda nisbatan yangi bo‘lib, iqtisodiyot, sotsiologiya, jamiyatshunoslik va tarixiy adabiyotlarda XX asr 80-yillardan ishlatilib kelinyapti. Infratuzilma lotincha — infra so‘zi bilan rus tilidagi -struktura, ya‘ni o‘zbekcha — tuzilma so‘zlarining birlashmasi sifatida ishlatiladi. Lotincha — infra – ostidagi, tagidagi, tubidagi ma‘nolarni anglatadi

Infratuzilma atamasi iqtisodiy adabiyotlarda keng qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lib ya‘ni – takror ishlab chiqarishni ta‘minlovchi umumiy sharoitlar tizimi, iqtisodiyot tarkibini shakllantiruvchi sohalar va aholi hayotiy ta‘minoti samaradorligi uchun xizmat ko‘rsatuvchi texnik-texnologik, tashkiliy-iqtisodiy, informatsion, ijtimoiy va boshqa o‘zaro aloqador tizim majmuasidir[2:53].

Infratuzilma atamasi xalq xo‘jaligida moddiy ne‘matlar ishlab chiqaruvchi hamda xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarning faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi – “yordamchi iqtisodiy vosita” sifatida qo‘llaniladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Jahonda keyingi paytlarda turli fanlar kesimida «Infratuzilma» atamasi ko‘p ishlatilmoqda. chunki hozirgi davrda har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini infratuzilmaning yuksalishsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Shuning uchun ham XX asrning 50-yillarida amerikalik olim P.N.Rozenshteyn-Rodanni «infratuzilma» atamasini iqtisodiyotga kiritish yuzasidan o‘z takliflarini ilgari surdi. Shu davrdan e‘tiboran G‘arbiy Yevropalik tadqiqotchilar ham «infratuzilma» taraqqiyotida xususiy sektorning o‘rni va aholining o‘sib borayotgan talablarini qondirilishi uchun zarur bo‘lgan va jamiyat taraqqiyotining asoslarini o‘rgana boshladi[3]. Shuning uchun ham infratuzilma ijtimoiy, maishiy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim aspekti sifatida tahlil qilina boshladi.

G‘arbiy Yevropa «infratuzilma» atamasini birinchi marta iqtisodiy tushuncha sifatida X.Zenger qo‘lladi[4:819-833]. Biroq ushbu atamani kelib chiqishi bilan bog‘liq yana bir nuqtai nazar ham bor. Unga ko‘ra «infratuzilma» dastlab harbiy atamashunoslikda qo‘llanilgan bo‘lib, mazkur atama harbiy ashyolar, harbiy omborlar, aerodromlar, radiolokatsion hududlar, harbiy mashqlar o‘tkaziladigan hamda raketalarni uchirish maydonlari kabi inshootlar majmuasini tashkil etadi. Yana shuni qayd etish kerakka infratuzilma atamasiga turli soha mutaxassislari o‘zlarining faoliyat turlaridan kelib chiqib boshqa ta‘riflarni ham berishgan. Shuning uchun ham infratuzilmaning jamiyatda tutgan o‘rnini hamda tarkibini belgilash borasida olimlarning bahs munozarasi bugungi kunda ham to‘xtagan emas. Infratuzilmaning iqtisodiy va tarixiy kategoriya sifatidagi mohiyatini aniqlashda turli nazariy va metodologik qarashlar va yondashuvlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga mansub tadqiqotchilar infratuzilma sifatida asosiy sohaga xizmat qiluvchi tarmoqlarni tushunadi, ikkinchi guruh tadqiqotchilar esa infratuzilma deganda ishlab chiqarish uchun umumiy sharoit yaratuvchi sohalar majmuasini tushunadi.

Birinchi guruhga mansub olimlar orasida L.A.Merkushev infratuzilmaning mohiyatini yoritishda uning bajaradigan xizmatining nomoddiylikidan kelib chiqib fikr yuritadi va infratuzilma qo‘shimcha faoliyat turi sifatida asosiy obyektga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan deb hisoblaydi[5].

Ammo ayrim olimlar S.A.Xeynman[6], P.A.Ignatovskiy[7] va S.S.Dzarasov[8] lar esa infratuzilmaning tarkibiga mansub bo‘lgan ayrim jihatlarni sanab o‘tib uni asosiy xo‘jalik sohalarga xizmat qiluvchi yordamchi manba sifatida baholaydilar. Ammo bunday ta‘riflar infratuzilmaning to‘la to‘kis xususiyatini ochib berolmaydi.

Rus olimasi Y.A.Popova[9] ning ta‘kidlashicha: infratuzilma har bir jamiyatdagi ishlab chiqarish bilan bog‘liq barcha tarmoq va xususiyatlarga xizmat qiluvchi moddiy ne‘matlar yig‘indisi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, ko‘plab olimlar infratuzilma atamasiga mustaqil soha sifatida qaraydilar. Ayrim olimlar esa infratuzilmaga jamiyatdagi yordamchi soha sifatida ta‘rif beradilar. Sovet davrining yirik iqtisodchi olimlaridan biri V.P.Krasovskiy[10] esa infratuzilmani ishlab chiqarishning umumiy sharoitlarini belgilovchi va asosiy ta‘minlovchi xo‘jalik sohalarning jamlanmasi sifatida tushuntiradi. Shuni qayd qilish lozimki, infratuzilma ishlab chiqarish jarayoni uchun umumiy sharoit yaratadi, biroq uning vazifasi bu bilan cheklanmaydi. Shu o‘rinda iqtisodchi olim V.P. Basenko[11:95] tamomila masalaga boshqacha yondashadi. Uning fikricha infratuzilma o‘z mazmuniga binoan ko‘p qirrali soha va faoliyat turlari majmuasidan iboratdir. Uning fikriga ko‘ra infratuzilmaning yana bir jihati: ya‘ni ishlab chiqarish uchun ijtimoiy sharoit yaratish va ishchi kuchini qayta tiklash va boshqa ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish orqali ishlab chiqarishni bir me‘yorda davom etishni ta‘minlashga erishishdan iborat.

Iqtisodchi olim A.A.Govorin «Infratuzilma»ning iqtisodiy mohiyatini yoritish bo‘yicha yuzaga kelgan turli metodologik yondashuvlarni tahlil qilib infratuzilmaga quyidagicha ta‘rif beradi: «Infratuzilma-bu jamiyat mehnat taqsimoti natijasida obyektiv shakllangan xalq xo‘jaligi va uning alohida bo‘g‘ini doirasida takror ishlab chiqarishni ta‘minlovchi umumiy sharoitlar tizimi, tarkib shakllantiruvchi sohalar va aholining hayotiy ta‘minotini samarali amal qilishi uchun xizmat ko‘rsatuvchi texnik-texnologik tashkiliy-iqtisodiy, informatsion, ijtimoiy va boshqa o‘zaro aloqador bo‘lgan majmuasidir[12:38]. Shuni alohida qayd etish

kerakki A.Govorin infratuzilmaga ta'rif berayotganda uning nazariy-metodologik taraqqiyotida yuzaga kelgan ko'plab qarashlarni umumlashtirgan holda bayon qilgan. Shu sababdan uning yuqoridagi ta'rifini infratuzilmaning mohiyatini ma'lum darajada to'laroq yoritishga xizmat qiladi. Biroq uning ta'rifida infratuzilmaning bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhitida faoliyat ko'rsatishi nazarga tutilmagan. Bundan tashqari infratuzilmaning bir qism unsurlari (temir va avtomobil yo'llari, elektr tarmoqlari, suv bilan ta'minlash yirik inshootlari va boshqalar)ning jamiyatda bir avlod tomonidan asosan yaratilib keyingi avlodga xam meros sifatida utib xizmat qiladi, ya'ni ularning ko'rilishi va xizmat muhlati uzoq muddatni tashkil etganligi va mamlakatning milliy boylikning bir bo'lagi ekanligi inobatga olinmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ayni vaqtda infratuzilma jamiyatda mehnat taqsimoti (ba'zi xollarda avlodlar mehnati) natijasida vujudga kelib doimiy ravishda takomillashib boradigan ishlab chiqarish va aholini takror ishlab chiqarish talablariga mos umumiy sharoitlarni yaratib beruvchi xamda xo'jalik faoliyatining asosiy tarmoqlarining raqobatbardoshligini va ishchi kuchining sifat ko'rsatkichlarini oshirishini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi soha va subyektlar majmuasi hisoblanadi.

Infratuzilma sohalari o'z o'rnida mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan ixtisoslashuvning mahsuli hisoblanadi. Iqtisodchi olim P.Samuelson infratuzilmani rivojlantirishning shartini quyidagicha ta'riflaydi ya'ni davlat ongli ravishda infratuzilmani mablag'lashtiradi, chunki jamiyatda yordamchi kapitalning o'sishi ko'rinmas manfaatlarni yaratadi, ulardan xususiy investorlar pullik foydani ko'zlashlari mumkin emas: chunki ularning bir qismining masshtablari cheklangan xususiy kapital bozori uchun juda yirikdir, boshqalarini esa xususiy investorlarning qiziqishi uchun harajatlarni qoplash muddatlari o'ta uzoqdir[13].

Infratuzilma — iqtisodiyotning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, uning rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy mexanizmlarning harakatga kelishi va bir maromda rivojlanishi orqali jamiyatning ijtimoiy sohasini tartibga soluvchi bozor qonunlarni hayotga tatbiq qilishda muhim o'rin tutadi. Ammo xo'jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi infratuzilmaga boshqacha yondashadi. Bunday markazlashgan tizimda mahsulot uni ishlab chiqaruvchidan pirovard iste'molchiga yetkazishga ko'maklashuvchi institutlarning boryo'qligidan qat'iy nazar teng taqsimlanadi. Lekin bozor iqtisodiyotiga o'tishda mahsulotning bozorda sotilishi ta'minlovchi xo'jalik aloqalarini korxonalar uzlari mustaqil yo'lga qo'yadi. Bu esa o'z navbatida infratuzilmaning elementlari hisoblangan moliyaviy tashkilotlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Shunday ekan, bugungi davrda infratuzilmaning mohiyatini anglab olish, unga iqtisodiyot rivojlanishning asosiy sohalaridan biri sifatida karash maqsadga muvofiqdir. Aslida infratuzilma atamasi lotincha infra — ostki, pastki, quyi; structure — joylashish, qatlam degan so'zlardan kelib chiqqan. Bugungi kunda infratuzilma atamasining keng ishlatilishga qaramasdan unga nisbatan turli xil karashlar mavjud. Ayrim mualliflarning asarlarida ko'rsatilishicha "infratuzilma" atamasining paydo bo'lishi XX asrning 40-yillariga borib taqaladi. Boshqa guruh olimlari esa, "infratuzilma" atamasi iqtisodiy fanlarga 1955-yilda amerikalik iqtisodchi N.Rozishteyn — Rodan tomonidan kiritilganini qayd etadi[14].

V.N.Staxanov infratuzilmani "umumiy ishlab chiqarishda va inson faoliyati almashinuvini ta'minlovchi xizmatlar ishlab chiqarishdagi spetsifik mehnat jarayonlari majmuasi" sifatida kuradi[15]. Yana bir iqtisodchi olim R.Ioximsen[16] infratuzilmaga quyidagi ta'rifni beradi: infratuzilma- bu resurslar maqsadga muvofiq joylashtirganda to'liq integratsiyani va xo'jalik faoliyatining eng yuqori darajasi imkoniyatini beruvchi bir qator olimlar bilan bog'liq foydalarning bir tekisligi va xo'jalik birliklarini o'zida mujassam etgan moddiy, institutsional va individual shart-sharoitlar yig'indisidir. Dj.F. Reyning yozishicha "infratuzilma" so'zi aniq ta'rifga ega emas, uning ma'nosi ostida zamonaviy iqtisodiyotni yaratishda talab qilinadigan barcha xizmatlar yotadi[17:15].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Infratuzilma tushunchasi to'g'risidagi fikr va qarashlar turli xil xulosalardan tarkib topgan. Ularning har biri zamonaviy iqtisodiy munosabatlarda infratuzilmaning roli va o'rniga aniqlik kiritadi, shu vaqtning o'zida "infratuzilma" atamasining tushunib yetishga yagona yondashuv yukligini bildiradi. Ammo G'arb iqtisodchilarning infratuzilma va uning vazifalari haqidagi qarashlarini tahlil qilib umumiy xulosaga kelishi mumkin. G'arb olimlarining ko'pchiligi infratuzilmani asosiy xalq xo'jalik tarmoqlarida xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini ta'minlovchi va jami aholining ehtiyojlarini qondiruvchi umumiy shart-sharoitlar majmui deb qaraydi.

Biroq shuni ta'kidlash mumkinki, infratuzilmaning mohiyatini ochib berishdagi yondashuvlar bir xil emas shu sababdan ham bu tushunchani iqtisodiy atama tariqasida ikki xil tarzda izohlanishga olib keldi. Buning birinchisi keng ma'noda ikkinchisi esa tor ma'noda. Birinchi usul tarafdorlari infratuzilmaga ishlab chiqarish sohasidagi barcha tarmoqlarni kiritadi. Ikkinchi guruh olimlar esa infratuzilmaga iqtisodiy samarali bo'lgan tizimning natijaviy ish yuritishga asos bo'luvchi tovar, xom-ashyo, moliyaviy, infratsion oqimlarning harakatini ta'minlovchi tashkiliy-iqtisodiy tizim deb aniqlik kiritadi.

Demak, infratuzilma nisbatan mustaqil soha bo'lib shakllanish jarayoni ko'plab davrlarni o'z ichiga oladi. Insoniyat tarixiga nazar soladigan bo'lsak, hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi

HISTORY

shaharlarning paydo bo'lishiga olib keldi, keyinchalik shaharlar o'rtasida mahsulot almashinuvining kuchayishiga va o'z navbatida infratuzilmaning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Savdning dehqonchilik va sanoatdan ajralib chiqishi xo'jalik aylanmasiga yangi maydonlarni jalb qilish hisobiga mahsulot almashinuvining yanada o'sishga olib keldi, bu esa infratuzilma sohasining kengayishiga sabab bo'ldi.

Xulosa. Maqolada infratuzilma tushunchasi, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi roli hamda tarixiy tahlilining nazariy-metodologik jihatlari o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, infratuzilma nafaqat iqtisodiyotning asosiy tarmoqlariga xizmat ko'rsatuvchi tizim, balki jamiyat hayotining barcha sohalarida barqarorlik va samaradorlikni ta'minlovchi muhim omildir.

Tarixiy nuqtai nazardan infratuzilma ishlab chiqarish jarayonida mehnat taqsimoti va ijtimoiy xizmatlarni shakllantirish orqali jamiyatning rivojlanishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, XX asrda infratuzilma iqtisodiy kategoriya sifatida shakllanib, uning metodologik tahlili va nazariy yondashuvlari ishlab chiqilgan. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida infratuzilma davlat va xususiy sektorning hamkorligida rivojlanishi, iqtisodiy samaradorlik va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qilishi lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. *Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириши йўлида*. Т.: Ўзбекистон, 1995. – Б. 240.
2. Говорин А.А. *Инфраструктура современного предпринимательства: проблемы теории и практики*. М.: ЗАО «Финстатпром», 1999. – С. 53.
3. Rosenstein-Rodan P.N. *Criteria for Evaluation of National Development Effort*. // *J Development Planning*, 1969.
4. Toye J. *Hans Singer's Debts to Schumpeter and Keynes*. // *Cambridge Journal of Economics*, 2006. № 30, – Pp. 819–833.
5. Меркушев Л.А. *География сферы обслуживания населения: теория и методология*. Красноярск: Изд-во Красноярского университета, 1989.
6. Хейнман С.А. *Проблемы интенсификации промышленного производства*. М.: Экономика, 1968. 183 с.
7. Игнатовский П.А. *Добавочные вложения в земледелие*. М.: Знание, 1964. – С. 40.
8. Дзарасов С.С., Хубиев К.А. *Теория капитала и экономического роста*. Москва: Издательство Московского университета, 2004. 396 с. ISBN 5-211-06116-0.
9. Попова Е.А., Анисимов Г.В. *Экономика и культура антикризисного управления*. Южно-Уральский государственный университет, 2022. 216 с.
10. Красовский В.П. и др. *Экономические проблемы инфраструктуры*. Вильнюс: Минтис, 1981. 238 с.
11. Басенко В.П. *Инфраструктура и её роль в сельском хозяйстве*. Краснодар: Кн. изд-во, 1999. – С. 95.
12. Говорин А.А. *Формирование и развитие инфраструктуры рыночной экономики: методологический аспект*. Москва: Наука, 2002. – С. 38.
13. Самуэльсон П.А. *Экономикс*. М., 1992. Т. 2, – С. 324.
14. Rosenstein-Rodan P.N. *Disguised Underemployment and Under-employment in Agriculture*, 1956.
15. Стаханов В.Н. *Коммерческое посредничество на акционерной основе: учебное пособие*. Ростов н/Д: Ростовский институт народного хозяйства (РИНХ), 1992. 76 с.
16. Youngson A.J. *Overhead Capital*. Edinburgh, 1967.
17. Шумпетер Й. *История экономического анализа*. СПб.: Экономическая школа, 2001. – С. 15.

ABU ALI IBN SINO DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI VA KOMILLIK DAVRI

Nurova Shoxida Naimovna,
ZARMED universiteti, f.f.f.d (PhD)
nurovashoxida71@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ibn Sino hayoti, yashagan davr muhiti, ma'naviy merosi, bizgacha saqlanib kelinayotgan asarlari to'g'risida yaxlit ma'lumot berilgan. Mutafakkir yashagan hududlar muhitining o'ziga xos ijtimoiy va madaniy xususiyatlari va uning ilmiy merosi batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, ta'lim-tarbiya barkamol avlod, axloq, qadriyat, axloqiy tarbiyalash, ma'naviyat, ta'lim, tarbiya, ilm-fan.

ПЕРИОД СТАНОВЛЕНИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МИРОВОЗЗРЕНИЯ АБУ АЛИ ИБН СИНЫ

Аннотация: В этой статье даётся целостная информация о жизни Ибн Сины, среде того времени, в котором он жил, его духовном наследии, его работах, которые сохранились до нас. Подробно описаны специфические социально-культурные особенности среды территорий, в которых жил мыслитель, и его научное наследие.

Ключевые слова: молодёжь, воспитание гармоничного поколения, нравственность, ценности, нравственное воспитание, духовность, образование, воспитание, наука.

THE PERIOD OF FORMATION AND PERFECTION OF THE WORLDVIEW OF ABU ALI IBN SINA

Abstract. This proverb provides a holistic account of the life of Ibn Sina, the environment of the period in which he lived, his spiritual heritage, his works that have been preserved to us. The specific social and cultural characteristics of the environment of the regions in which the Thinker lived and his scientific heritage are detailed.

Keywords: youth, education-harmonious generation, morality, value, moral education, spirituality, education, upbringing, science.

Kirish. Qomusiy olim, mashhur faylasuf va zukko ijodkor Abu Ali ibn Sino o'z zamonasidayoq betakror iste'dod sohibi sifatida nafaqat Sharq olamida mashhur, balki butun olam ahliga tanilgan edi. Uning aqli va o'tkir qalami tuhfa etgan benazir va bezavol asarlari asrlar osha ezgu maqsadlarda xizmat qilib kelmoqda. Shu bois Buxoroyi sharifning bu mashhur va mag'rur farzandining nomi-yu shuhrati hamma makon va zamonlarda bir xilda hurmat va ehtirom ila tilga olinib kelinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Birinchi Uyg'onish davrini, Ma'mun akademiyasi faoliyati va unda ijod qilgan olimlar faoliyati doimiy olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib kelingan. O'zbekiston mustaqillikka erishgungacha ham va undan keyin ham bu ishlarni tadqiq qilganlar. Bu borada yirik sharqshunos olim V.V.Bartoldning nomini alohida qayd etish lozim. Bundan tashqari A.Yu.Yakubovskiy, T.I.Raynov, I.P.Petrushevskiy, G.P.Matvievskaia, I.Y.Krachkovskiy kabi olimlarning tadqiqot ishlarini keltirish joiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzu tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Jahon fani, falsafa ilmi taraqqiyotida ulkan hissa qo'shgan Abu Ali ibn Sino O'rta Osiyo tuprog'ida yetishib chiqqan vatandosh allomalarimizdan hisoblanadi. Ibn Sino yashagan o'rta asrlar davri Markaziy Osiyo tarixida va ilm-fanda ilk Uyg'onish davri deb ataladi. Bu davrda Xurosonda arablar ta'siri qoldi, lekin zulmi, hukmronligi tugadi va milliy an'analar tiklandi. Ilm-fanning barcha sohalarida juda katta yutuqlarga erishildi. Bu bevosita Tohiriylar, Safforiylar va asosan Somoniylar sulolalari hukmronligi bilan bog'liq.

X asrda markazi Buxoro bo'lgan Somoniylar davlatida ilm-fanning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Bu o'rinda allomaning dunyodagi fanlar sohasidagi xizmatlari ayniqsa buyukdir.[1] Bizgacha Ibn Sinoning asarlari ma'naviy boylik sifatida qadrlanib, asrab kelinayotgan har bir narsa qimmatlidir.

HISTORY

Iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar to'g'risida shuni aytish kerakki, Qoraxoniylar va Saljuqiylar davrida ham savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik ishlari rivojlangan. Turli ixtiloflar, nizolar va urushlar ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymagan.

Bu davrda savdo-sotiq ishlari rivojlangan. O'lkada yetishtirilgan va ishlab chiqarilgan mahsulotlar mamlakat ichkarisi va xorijiy davlatlarga olib borilgan. U yerlardan turli mahsulotlarni olib kelib, mintaqaning eng rivojlangan shaharlari Nishopur, Qoshg'ar, Bolasog'un, Samarqand, Buxoro bozorlarida sotishgan.

Xitoy, Movarounnahr, Xuroson o'rtasida to'siqsiz savdo munosabatlari o'rnatilgan. Qoraxoniylar davrida madaniy-me'moriy obidalar qurishga ham katta e'tibor qaratilgan.

Umuman, Somoniylar, Qoraxoniylar sulolasi hukumronligi davrida diniy va irfoniy ilmlar yuksak darajaga rivojlangan. Ibn Sino, Umar Hayyom, Abu Rayhon Beruniy kabi yuksak ma'naviy kamolot egalarning bu davrda yashab o'tganligi ham fikrimizni quvvatlaydi.

Darhaqiqat, bu bevosita Somoniylar hukmdorlik davri va Qoraxoniylar hukmdorlik davri bilan ham bog'liq.

Ibn Sino bolalik va yetuklik davrini Buxoroda o'tkazgan. Mutafakkir 5 yoshidan Qur'onni o'rganishga kirishadi. Bu yoshda Qur'onni bemalol o'qish va kalom ilmini egallash juda mushkul bo'lib, katta yoshdagi odamlar bu ishni 5-6 yilda uddalasalor, Abu Ali ibn Sino bu ishni qisqa muddatda bajardi.[2]

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 4-noyabrda Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida bo'lib o'tgan uchrashuvda: "Bu qutlug' zamindan yetishib chiqqan olimu-ulamolar, piru-avliyolar jumladan, Imom al-Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Narshaxiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Mir Said Kulol, Xo'ja Orif Revgariy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk mutafakkirlarning nomlari, ularning boy ilmiy va ma'naviy merosi, o'zlari tomonlaridan bajarilgan ishlari o'rnak sifatida butun dunyoga mashhurdir"[3]- degan edilar. Buxoro jahon ilm-fani taraqqiyotiga beqiyos katta hissa qo'shgan olim yetishtirib bergan yurtligi bilan ham mashhur. Yana ham to'g'rirog'i, bugungi yoshlarga Abu Ali ibn Sino bilan g'ururlanishni, faxrlanishni o'rgatishimiz zarur.

Ibn Sinoning yoshligi va yigitlik chog'lari, dunyoqarashining shakllanishi O'rta Osiyoda Somoniylar sulolasi hukmronligining so'nggi yillariga to'g'ri keladi. Ma'lumki, IX asrda Movarounnahr va Xurosonda mahalliy feodal davlat - Somoniylar davlati (819-999-yy.) vujudga kelgan edi. Bu davr nihoyatda murakkab va ziddiyatli davr edi. Ikkinchi tomondan, feodal zulm kuchayadi, bu hududdagi tarqoq feodal davlatlar o'rtasidagi o'zaro kurashlar, urushlar, hokimiyat uchun talashish keskin avj oladi. Buning natijasida, Somoniylar davlati X asr oxirida inqirozga yuz tutadi. Ibn Sinoning yoshligi Somoniylar davlatining betinim janglari ostida o'tadi. 999-yil Qoraxoniylar Buxoroni bosib olgach, Somoniylar davlati tugatiladi.[4]

Uzoq asrlik madaniy an'analarga ega bo'lgan, Somoniylar davlatining ma'muriy-siyosiy va iqtisodiy markaziga aylangan Buxoro shahri butun Movarounnahrda fan-madaniyat o'choqlaridan biri bo'lib qolgan edi. Bu davrda shakllangan ayrim sinf va guruhlar o'zlarining g'oyalari va mafkuralari uchun tinimsiz kurashlar olib bordilar va o'z navbatida diniy va dunyoviy fanlarga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Asosan fanni, xususan, tabiatshunoslik fanini din zanjiridan xalos qilish uchun kurashdilar. Bu dunyoqarashning asosiy vakillaridan biri Abu Ali ibn Sinodir.

Abu Ali ibn Sinoning hayoti ayniqsa o'spirinlik davri nihoyatda og'ir sharoitlarda o'tdi. U butun umri bo'yi bir shahardan ikkinchi shaharga, bir o'lkadan ikkinchi o'lkaga ko'chib yurishga majbur bo'ldi. 999 yili Buxoroda Somoniylar davlatiga barham berilganidan so'ng Ibn Sino Buxorodan Xorazmga ketishga majbur bo'ldi. Xorazm davlati bu davrda Sharqning ilm-fanda madaniy o'choqlaridan biri bo'lib, u yerda ijod etish uchun sharoit Buxoroga nisbatan birmuncha yaxshi edi. Bu yerda juda ko'p olimlar Abu Rayhon Beruniy, Abu Saxl Masixiy, Abu Nasr ibn Iroq, Abu-l-Xayr Hammor kabi mashhur olim va shoirlar yashar edi.[5] Abu Ali ibn Sinoning eng yaqin do'sti Abu Ubayd al-Juzjoni bo'ladi. Olim Abu Ubayd al-Juzjoni bilan Gurgonda tanishadi va do'stlashadi. Juzjoni Ibn Sinoning do'stlari orasida eng qadrlisi bo'lib uning vafotigacha u bilan hamma vaqt birga bo'ladi, barcha qiyinchilik, azob-uqubatlarni baham ko'radi.

Biroq Xorazmda ham Ibn Sino ko'p yashay olmadi. Movarounnahrning ko'p joylarini o'ziga qaratgan Mahmud G'aznaviy maktub yuborib, Xorazmdagi olim, shoirlarni uning ixtiyoriga yuborishni talab etgan.

X asrning oxiri XI asrning boshlarida Gurganjda xorazmliklardan tashqari Buxoro, Samarqand, Nishopur, Marv, Balx, Eron, Hindiston, Misr, Suriya, Iroq va boshqa mamlakatlardan ham ilmga ixlos qo'yan olimu fuzalolar muhim tadqiqotlar olib borib, turli sohalarda buyuk kashfiyotlar yaratdilar. Mashhur sharqshunos olim Yu.N.Zavadovskiy qayd etganidek, muassasani tashkillashtirish, tuzilmalarini shakllantirish va moliyaviy masalalarni hal etish bu shaxsning zimmasida edi.[6]

1017-yili Xorazm Mahmud G'aznaviy tomonidan zabt etiladi va buning oqibatida ko'pchilik olimlar G'aznaga olib ketiladi. Xorazmda "Dorul hikma" faoliyati Xorazmshohlar - Anushteginlar davlati barpo etilishi bilan Ma'mun akademiyasi faoliyatining ikkinchi davri boshlandi. Bu davrda hukm surgan Qutbiddin

HISTORY

Otsiz, El Arslon, Takash, Alouddin Muhammad va o'g'li Jaloliddin Manguberdi ilm-fan rivojiga katta e'tibor berganlar. Bu davrda Faxriddin Roziy, Ismoil Varraq Azriqiy, Al Marvaziy, Umar Chag'miniy kabi olimlar faoliyat ko'rsatgan.

Birinchi Uyg'onish davrini, Ma'mun akademiyasi faoliyati va unda ijod qilgan olimlar faoliyati doimiy olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib kelingan. O'zbekiston mustaqillikka erishgungacha ham va undan keyin ham bu ishlarni tadqiq qilganlar. Bu borada yirik sharqshunos olim V.V.Bartoldning nomini alohida qayd etish lozim.[7] Bundan tashqari A.Yu.Yakubovskiy, T.I.Raynov, I.P.Petrushevskiy, G.P.Matvievskaaya, I.Yu.Krachkovskiy kabi olimlarning tadqiqot ishlarini keltirish joiz.[8]

Arab xalifaligini 704-715-yillarda O'rta Osiyo bostirib kelishi va qo'lga kiritilgan hududlar qatorida Buxoro va Samarqandda ham nafaqat islom dini, balki arab tili va uning imlosi joriy etildi hamda bu hududlar to'liq xalifalikka bo'ysundirildi. Buning natijasida Sharqda Islom dini va uning ta'limotining ravnaqi kuzatildi. Natijada shahar madrasalaridan juda ko'p fiqhshunos, axloqshunos olimlar, nisbatan odil qozilar yetishib chiqqan.

Shu jumladan, mutafakkir yashagan davrning o'ziga xosligi kalom ilmining rivojlanganligidir.

Diniy mutaassiblik, jehod bayroqlari ostida qo'shni davlatlarni egallash uchun qilingan harbiy yurishlar Mahmud G'aznaviyxon davlatining gullab yashnashiga borgan sari to'siq bo'lib bordi. Natijada Mahmud G'aznaviy yaratgan harbiy tuzum o'z ichidan yemirila boshladi. 1030-yil Mahmud G'aznaviyxon o'limidan keyin, G'aznaviylar davlati qisqa vaqt ichida parchalanib ketdi. Taxt uchun bo'lgan o'zaro kurashlar, ichki nizolar saltanat inqiroziga sabab bo'ldi. Bu vaziyatdan ko'chmanchi turkman qabilalarining boshliqlari Tog'rulbek va Chag'rilibeklar foydalanib, Saljuqiylar saltanatiga asos solishdi. Bu paytda G'aznaviylar sulolasining podshosi Ma'sud 1040-yilda Saraxs va Marv ostonasida jang qilib yengiladi. Sulton Ma'sud qochib zo'rg'a jon saqlab qoladi. Bu jang G'aznaviylar saltanatining inqirozini anglatar, hamda turkman qabilalari uchun harbiy yo'nalishni ochib berardi.

Bu paytda G'aznaviylar qo'l ostida faqatgina sharqiy yerlar qolgan bo'lib, eng boy, gullab yashnagan, madaniy markaz hisoblangan Xuroson bo'lsa, Saljuqiylar qo'l ostiga o'tgan edi. Saljuqiylar Iroq, Kurdiston, Ko'histonni egallashgan.

X asr oxiri XI asr boshlarida Sharqda yer munosabatlari rivojlangan.[9] Shuning uchun shaharlarda iqtisodiy hayot rivojlanib, rabotlarga o'tib boradi. Rabotlarda esa bozorlar gavjum bo'lib, iqtisodiy hayotda ularning ahamiyati yuksalib boradi. Shahar aholisi asosan hunarmand, savdogar, amaldorlar va dindorlardan tashkil topgan. Shaharlar davlatning madaniy va savdo markazlariga aylanadi. Eron va O'rta Osiyoning ko'pchilik hunarmandlari asosan jun, paxta va shoyi matolarni ishlab chiqarishar, ulardan xilma-xil zebiyat buyumlari hamda idishlar ham ishlab chiqarilar edi. Hunarmandlarning ko'pchiligi birlashmalarni tashkil qilardi. Bu birlashmalarni shayxlar boshqarardi. Savdogarlar ham shirkatlarga birlashib karvon yo'llari orqali Hindiston, Xitoy, Arab va G'arb davlatlari bilan savdo ishlarini olib borishgan. Hunarmandchilik va savdogarlik o'sha davrning iqtisodiy hayotini tashkil etgan.

Al-Forobiy qadimgi yunon faylasuflari Suqrot, Aflotun, Arastu, Evklid, Ptolomey, Parfiriy asarlarini o'qigan, ular ta'limotlarini rivojlantirgan, hatto Arastuning "Metafizika", "Etika", "Ritorika", "Sofistika" asarlarini qiyin joylarini tushuntirib sharhlar yozgan.[10] Bu asarlarni ma'no va mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar ham yaratgan. Forobiy yozgan sharhlar O'rta va Yaqin Sharq mutafakkirlari dunyoqarashining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Forobiyning sharh yozish faoliyati faqatgina "Sharqni emas o'rta asr Yevropasini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta rol o'ynadi.

Ibn Sino dunyoqarashi ham Forobiy asarlari va dunyoviy va diniy qarashlari ta'sirida shakllandi. Abu Nasr Forobiy (873-950 yy.) O'rta asr musulmon Sharqida tarqalgan ilmlarning barcha sohalarida o'chmas iz qoldirdi.

Inson masalasi barcha olimlar va ular tomonidan yaratilgan tadqiqotlarning bosh masalasi bo'lib hisoblanadi. Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy ham inson masalasini o'zining g'oyalari va qarashlarining markaziga qo'ydi. Insonni ma'naviy kamolotga erishuvda uning barcha maqsad va xohish istaklarini, maqsad-muddolarini o'rganishni, axloqiy kamolot va baxt-saodatga erishuv yo'llarini izladi. Forobiy inson halovati va ma'naviy-axloqiy kamoloti deganda, insonga ko'rsatilgan hurmat, qadr-qimmat, mehr, xayr-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlarini tushunadi. Axloqiy kamolotga xalaqit beruvchi salbiy illatlarga esa tarbiyasizlik, dangasalik, bilimsizlik, ongsizlik, nodonlik, hunarsizlik kiradi. Komil inson, olimning nazarida, bilimdon, aqlli, zukko, odil, sofdil, kamtar, xushfe'l, jamiyat manfaatini ko'zlovchi, or-g'ururli va boshqa fazilatlar sohibi bo'lishi lozim. Forobiy ta'kidlaydiki, aql faqat insongagina xos bo'lgan tug'ma quvvat – ruhiy kuch bilan bog'liq. Inson tushunish, fahmlash, muhokama qilish, fikrlash kabi quvvatlarga tug'ilishdan ega bo'ladi, bu xususiyatlar bola kamolga yeta borishi bilan takomillashib, rivojlanib, taraqqiy etib boradi.

Yangi bilimlarni suhbat tarzida takrorlash va umumlashtirish ham Beruniyning yuksak bahosiga sazovor bo'ldi: "Men savol-javob tarzida eslatma tuzdim, bu yaxshi va tushunarliroqdir"[11] deydi mutafakkir. Ulug' o'zbek shoiri Navoiy o'rganish jarayonida bilimni she'riy shaklda sinash zarurligini she'rdan ifodalagan. Ibn Sino esa "yangi bilimlarni egallashning eng samarali usul bu savol-javob usulidir"[12] deydi. IX-XII, XV-XVI asrlardagi Markaziy Osiyo, XVI-XVII asrlardagi Yevropa Renessansini misol tariqasida keltirish mumkin. Forobiy va Ibn Sino yashagan davr birinchi uyg'onish davrining asosiy namoyondalari bo'lib hisoblanadi. Birinchi uyg'onish davrining asosiy xususiyatlaridan biri ilm-fanning rivojiga hukmdorlar tomonidan katta e'tibor berilishi va yaratilgan barcha asarlarda gumanistik (insonparvarlik) g'oyalarga alohida e'tibor berilishi, farovon jamiyatning taraqqiy etishi olimlarimiz tomonidan e'tirof etilgan. Bu davr mohiyatini Prezident Sh.M.Mirziyoyev izohlab, shunday fikr bildiradi: "Hammanzimga yaxshi ma'lum, antik davrda Yunonistonda yong'an ilm mash'alasi to'qqizinchi – o'n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi"[13]. Birinchi uyg'onish davri allomalarining asarlari butun dunyo ilm-fanida yangi davrni boshlab berdi. Hozirgi kunga qadar bu asarlar o'zining bebaholigi bilan ajralib, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kritishda asosiy manba vazifasini bajarib kelmoqda.

Ikkinchi uyg'onish davrining vujudga kelishi, bu davrda ilm-fanning taraqqiy etishi va gumanistik g'oyalarning rivoji buyuk sohibqiron Amir Temur nomi va sharofati natijasidir. Amir Temur va temuriylar bilan bog'liq bo'lib bu davr XV-XVI asrlardagi jarayonlar va yangiliklar ilm-fanning rivoji davri bo'ldi.[14]

Bugun buyuk ma'naviy meros vorislari bo'lgan o'zbek xalqi jadal taraqqiyot yo'lini tanlab, Uchinchi Renessans davriga asos solmoqda. Darhaqiqat, Yangi O'zbekistonda insonparvarlik an'analariga sodiq holda olib borilayotgan islohotlar va ularning ijrosi ushbu fikrni dalillaydi.

Xulosa va takliflar. Ibn Sino inson aqliga katta baho beradi va uni doimo Xudoning insondagi eng katta tuhfaralaridan biri deb biladi. Uning fikriga ko'ra inson aynan aql orqali buyuk, qudratli, sohibjamol va barqaror ustuvor bo'lishi mumkin. Donishmand adib bilimni insonning ezgu sifatlaridan hisoblab, hukmdorlarni ham donolik, donishmandlikka chorlaydi, toki ular hukmronligidagi raiyat, odamlar hayoti yaxshilansin. Uning fikriga ko'ra, oqilu fozil shaxs hech qachon molu-dunyoni, o'z shaxsiy manfaatlarini o'ylamaydi, uning bilimi iftixor hissini uyg'otadi. Bu jihatdan iflos, fisq-fasod ishlarga berilib ketmagan va amalda yaxshi ishlarni qiladigan kishilarnigina oqil, fazilatli deyish mumkin. Uning fikricha, insonning buyukligi-yu kuch-qudrati uning bilimida yashiringan bo'ladi. Allomaning bu fikrlarini hozirgi hayotda intellekt, aql-zakatning mulk darajasigacha ko'tarilishi misolida ko'rish mumkin.

Holbuki, dunyodagi eng qadimiy sivilizatsiyalardan biriga mansub bo'lgan, uch ming yildan ko'proq davrni o'z ichiga oladigan xalqlarimiz tarixidan kelib chiqib yoshlarni buyuk bobokalonlarimiz merosidan doimiy xabardor bo'lib, bugungi kunning asosiy yetakchilarini tarbiyalashda mutafakkir asarlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Albatta Ibn Sinoning hayot yo'li va uning buyuk olim bo'lishiga davrning va muhitning ta'siri kattadir. Bu davr mutafakkir dunyoqarashining shakllanishiga va rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ibn Sino dunyoqarashini shakllanishida birinchi Uyg'onish davri mutafakkirlarining ta'siri katta. Ayniqsa, Forobiyning asarlari va yozgan sharhlari Ibn Sinoning ilm-fanda ongini ravshanlashishiga va dunyoqarashini shakllanishiga ta'siri katta bo'ldi. Ibn Sino ijtimoiy falsafiy masalalarda Forobiy qarashlarini davom ettiradi va uni o'z asarlari orqali yanada boyitdi.

Ibn Sino dunyoqarashini shakllanishida va komillikka erishida u yashagan davr muhiti, fani, falsafasi va ilm fan yutuqlari ta'sir ko'rsatdi. Yurtdagi notinchliklar uni ilm olishiga to'sqinlik qila olmadi. Islom dini hukmron bo'lgan hududlarda va davlatlarda yashadi. Islom dinini mohiyatini to'liq anglab yoshligidayoq Qur'oni Karimni yod oldi. Musulmonchilikning maqsadi, inson bolasining odamiylik fazilatlarini yo'qotmaslikka chaqirishdan iborat ekanligi anglab yetdi. Ana shuni tushunib amalda bajargan insonni diyonatli inson deyiladi. Islom dinida eng katta savob, bu – insonning ko'ngliga ozor yetkazmaslik ekanligini tushunib doimo o'z hayotida umrini oxirigacha insonlar va ularning manfaatlari yo'lida xizmat qildi.

ADABIYOTLAR:

1. *Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б. 114.*
2. *Абдувалиев А.А. Ар-Розий ва Ибн Сино тиббий таълимотининг замонавий артрология учун аҳамияти –Т.: 2007. –Б. 27.*
3. *Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. - Т.:Ўзбекистон, 2017, - Б-145*

4. Баевский С.И., Ворожейкина З.Н. // Низами Арузи Самарканд. Собрание редкостей редкостей или четыре беседы, М., 1963, с. 112.
5. Завадовский Ю.Н. Абу Али Ибн Сина, жизнь и творчество. – Душанбе, 1980. –Б. 82.
6. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана//Сочинения. Том 2. М.1963. –С.48.
7. Якубовский А.Ю. Культура и искусство Средней Азии. Л., 1940; Райнов Г.И. Великие учёные Узбекистана (IX XI вв). Ташкент, 1944; Крачковский И.Ю. Арабская географическая литература//Изб.соч. Том 4. М,Л, 1957; Матвиевская Г.П. К истории математики Средней Азии IX-XV веков. Ташкент, 1962. 125с.; Шу муаллиф. Учение о числе на средневековом Ближнем и Среднем Востоке. Ташкент, 1967; Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV веках. Л., 1966.
8. Алиев Р. М., Османов М.Н. Омар Хайям. – Москва: Акад. Наук СССР, 1959. - 13 с.
9. Абу Али ибн Сино. Нажот. Қоҳира. 1910. –Б. 367.
10. A.Veruniyning 1029-1034 yillar orasida yozgan «Kitob at-tahfim» asari Rozenfeld B.A.va Ahmedov A. tarjimasi // 1973 yilda tojik tilida Dushanbeda. –Б. 56.
11. Бекмуродов М., Қ.Қуронбоев, Л.Тангриев. Ҳаракатлар Стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янги ланиши сари. Тошкент, “Ғ.Ғулом” нашр. 2017. -Б. 80.
12. Mirziyoyev Sh.M. 1-oktabr O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020 <https://president.uz/oz/lists/view/3864>
13. Qafarov A., Şirinov A. İSLAM FƏLSƏFƏSİ (orta əsrlər-modern dövr). Bakı: 2019. – Б. 1.

MA‘RIFATLI AYOL – KELAJAK POYDEVORINING BUNYODKORI

*Teshayeva Yulduz Hakim qizi,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
yulduzteshayeva96@mail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida xotin-qizlarning ta'lim olishi, ularning ilmiy va ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan. Ayollarning oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohasidagi ulushi ortib borayotgani statistik ma'lumotlar asosida yoritiladi. Shuningdek, falsafa fanlari doktori, professor Abira Huseynovaning ilmiy merosi, ijtimoiy-faoliyati, davlat boshqaruvidagi ishtiroki, inson huquqlarini himoya qilish borasidagi xizmatlari chuqur tadqiq etilgan. Uning ilm-fan, fuqarolik jamiyati, oila va ayollar masalalarini rivojlantirishdagi hissasi, shuningdek, Ombudsman instituti faoliyatidagi amaliy natijalari o'rganiladi. Maqola zamonaviy jamiyatda ayol yetakchining o'rni va ta'sirini ko'rsatishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar ta'limi, ayol olim, gender tenglik, ilmiy faoliyat, ijtimoiy faollik, Abira Huseynova, fuqarolik jamiyati, Ombudsman, ayollar yetakchiligi, oila va jamiyat, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, Buxoro, ilmiy tadqiqotlar, ayollar huquqlari.

ПРОСВЕЩЁННАЯ ЖЕНЩИНА – СОЗИДАТЕЛЬНИЦА ФУНДАМЕНТА БУДУЩЕГО

Аннотация. В данной статье анализируются процессы получения образования женщинами в условиях глобализации, а также проводимые реформы, направленные на повышение их активности в научной и общественной жизни. На основе статистических данных раскрывается растущая доля женщин в сфере высшего образования и научных исследований. Кроме того, подробно изучается научное наследие, социальная активность, участие в государственном управлении и деятельность по защите прав человека доктора философских наук, профессора Абиры Хусейновой. Рассматривается её вклад в развитие науки, гражданского общества, вопросы семьи и женщин, а также практические результаты её работы в институте Омбудсмана. Статья направлена на раскрытие роли и влияния женщины-лидера в современном обществе.

Ключевые слова: образование женщин, женщина-учёный, гендерное равенство, научная деятельность, социальная активность, Абира Хусейнова, гражданское общество, Омбудсман, женское лидерство, семья и общество, духовно-просветительская работа, Бухара, научные исследования, права женщин.

AN ENLIGHTENED WOMAN IS THE BUILDER OF THE FOUNDATION OF THE FUTURE

Abstract. This article analyzes the education of women in the context of globalization and the ongoing reforms aimed at increasing their participation in scientific and social life. Statistical data illustrate the growing representation of women in higher education and scientific research. The paper also provides an in-depth study of the scholarly legacy, social engagement, public administration experience, and human rights advocacy of Doctor of Philosophy, Professor Abira Huseynova. Her contributions to the development of science, civil society, family and women's issues, as well as the practical outcomes of her work within the Ombudsman institution, are examined. The article aims to highlight the role and influence of women leaders in contemporary society.

Keywords: women's education, female scholar, gender equality, scientific activity, social engagement, Abira Huseynova, civil society, Ombudsman, women's leadership, family and society, spiritual and educational work, Bukhara, scientific research, women's rights.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida xotin-qizlarning ta'lim olishi, ularning bilim va malaka darajasini oshirish masalasi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'limga keng yo'l ochish nafaqat iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi, balki ayollarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshiradi, ularning shaxs sifatida o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning ta'lim olish huquqi milliy va xalqaro huquqiy normalar orqali himoya qilinishi, ularga teng imkoniyatlar yaratilishi demokratik jamiyatning asosiy talablaridan hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "Bir qizning ilm olishi butun oilaning ma'rifatli bo'lishiga xizmat qiladi. Natijada, jamiyatning ongi va madaniy darajasi ham yuksaladi"[1].

So'nggi yillarda xotin-qizlar ta'limi bilan bog'liq islohotlar, qabul qilingan qonunlar va ularning amaliy ijrosini o'rganish orqali ushbu yo'nalishda sezilarli yuqori ko'rsatkichlarga erishilganimizni ko'rish mumkin. Xotin-qizlar ta'limi bo'yicha oxirgi natijalar statistikasi shuni ko'rsatadiki Oliy ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlarning ulushi 52 foizdan oshdi. 2023-yilda magistraturada o'qiyotgan 15 mingga yaqin xotin-qizlarga 100 milliard so'm kontrakt puli to'lab berildi. 6 ming 200 dan ortiq xotin-qizlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanmoqda. Ilmiy ishlanmalarining 25 foizini olim ayollar yaratmoqda [2]. Bu raqamlar ayollarning ilmiy va akademik sohadagi ishtiroki yildan yilga ortib borayotganini ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Mavzu doirasida adabiyotlar, davriy nashrlar va rasmiy saytlardan olingan ma'lumotlar natijasi tadqiqotga turlicha yondashishga sabab bo'ldi. Kichik ilmiy tadqiqotga doir adabiyotlarni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin. 1. Mavzuga oid tarixiy manbalar. 2. Davriy nashrlar va internet materiallari. 3. Mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot tahlillari.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani bayon etishda tarixiylik, xolislik, qiyosiy, tanqidiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Shunday ilm-fan namoyondalaridan biri falsafa fanlari doktori, professor Huseynova Abira Amanovnadir. U 1958-yil 14-yanvarda Buxoro shahrida tug'ilgan. 1975-yil Buxoro shahridagi 17-son o'rta maktabni oltin medal bilan tugatib, Buxoro davlat pedagogika instituti "Tarix-pedagogika" fakultetiga o'qishga kirib, 1980-yilda imtiyozli diplom bilan tamomlagan.

Olima ilmiy faoliyatini 1994 yil 09.00.03-"Falsafa tarixi" ixtisosligi bo'yicha "Abdurahmon Jomiy dunyoqarashidagi umuminsodiy qadriyatlar" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan boshlagan. 2000-yilda dotsent ilmiy unvoniga sazovor bo'lgan. Uning Jomiyning falsafiy qarashlarini va komil insonni tarbiyalashda sharq mutafakkirlarining yo'llarini o'zida aks ettirgan "Sharq mutafakkirlari dunyoqarashida umuminsoniy qadriyatlar" va "Общечеловеческие ценности в мировоззрении Абдурахмана Джами" asarlari chiqqan. Muallif Jomiyning komil insonni tarbiyalashdagi fikrlaridan misol keltirar ekan, quyidagi satrlarni yozadi: "So'fiy yo'qlikka ketgandan so'ng mavjud bo'lmaydigan va mavjud bo'lishdan so'ng yo'qlikka ketmaydigan odamdir. Bunga erishish insonning qo'lidadir. Inson nomukammallikni va ijtimoiy borliq illatlarini bartaraf qilib, barkamollikka intilishi kerak. Haqiqiy ehrom qalbdir. Toshidan qurilgan uy emas. Haqiqiy ahamiyatga ega qadriyat bu – ma'naviy-axloqiy barkamollikdir. Bilim moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun emas, fikrlar va intilishlarni yuksaltirish, Haqiqatga yaqinlashish uchun kerakdir[3.B-35].

2010-yilda 09.00.04-"Ijtimoiy falsafa" ixtisosligi bo'yicha "Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ayollar faolligini oshirish muammolari" mavzusida ijtimoiy falsafa yo'nalishida falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish bo'yicha dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. 2020-yil 3-dekabrda professor lavozimida mehnat faoliyatini davom ettirmoqda.

A. Huseynova 5 ta monografiya, 4 ta darslik, 14 ta risola, 60 ta ilmiy maqolalari va 200 dan ortiq ilmiy hamda ilmiy-ommabop maqolalar muallifidir. Uning maqolalari Italiya, Rossiya, Bolgariya va Chexiya davlatlarining jurnallarida chop etilgan. Buxoro davlat universiteti huzuridagi "Falsafa" va "Psixologiya" yo'nalishidagi ikkita ixtisoslashtirilgan ilmiy kengash a'zosi hamda bitta ilmiy-nazariy seminar raisi. Bugungi kunda uning rahbarligida 25 ta (PhD), 6 ta (Doctor of Science) dissertatsiyalari tayyorlanmoqda. O'n besh nafar shogirdi (PhD) dissertatsiyasini va 2 nafar shogirdi fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiyalarini himoya qilib diplomlarini olgan[4].

A. Huseynova ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bilan birga davlat va jamiyatni boshqarish hamda Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yaxshilashda o'zining amaliy ishlari bilan hissa qo'shib kelmoqda. 2022-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning Buxoro viloyati mintaqaviy vakili lavozimida faoliyat yuritib kelyapti. 2021 yilda "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan [5]. 2024-2029-yillar uchun bo'lgan saylovlarda Xalq deputatlari Buxoro viloyati kengashi deputati sifatida saylangan. 2020-2024-yillarda Oliy Majlis Senati a'zosi bo'lgan[6].

2019-yilda Xalq deputatlari Buxoro viloyat kengashi deputati, 2020-yil 16-yanvardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati a'zozligiga saylangan. 2020-yil davomida Oliy Majlis Senatining xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi sifatida o'z faoliyatini olib borish jarayonida faol senatorlar qatorida bo'ldi. Jumladan senatorligining ikki yili davomida fuqarolarning 200 ga yaqin murojaatlarining yechimini topish ustida hamkorlikda ishlagan. Ayniqsa 6 ta ayolga subsidiyalar asosida kvartira olishga, 15 ta ayolni ishga joylashtirishga, 27 ta oilaviy muammolarni yechishga, mehribonlik uyida o'qishini bitirib Toshkent Davlat Yuridik institutiga kirgan 1 ta qizga qo'shimcha stipendiya tayinlanishiga, 7 ta qizga va 26 ta qiyin vaziyatga tushib qolgan ayollarga moddiy yordam berilishiga, shuningdek viloyat miqyosidagi

ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy xarakterdagi muammolarni yechish bo'yicha senator so'rovlarini yuborish orqali ko'mak bergan.

2022-yil yanvaridan A. Huseynova Oliy Majlis Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning Buxoro viloyati mintaqaviy vakili sifatida Ombudsman kotibiyati tarkibida faoliyat yuritmoqda. Mintaqaviy vakil sifatida viloyatdagi Jazoni ijro etish koloniyalarida, Tergov hibsxonasida, Vaqtincha saqlash hibsxonalari, Ma'muriy qamoqxonalar va shunga o'xshash jazoni ijro etish muassasalarida, shuningdek harakat erkinligi cheklangan boshqa muassasalarda muntazam ravishda monitoring tashriflarini amalga oshirib, ushbu muassasalarda inson huquqlariga rioya etilishini nazorat qilishda faol ishtirok etmoqda.

Shu yillar davomida A. Huseynova tomonidan 500 ga yaqin monitoring tashriflarida 3000 mingdan ortiq mahkum va mahbuslar bilan muloqot qilingan, 200 ga yaqin mahkumlarning ijtimoiy masalalarini yechishda ko'maklashgan. Shu yillar davomida fuqarolarning manfaatlarini yuzasidan 20 dan ortiq sud ishlarida qatnashgan, fuqarolarning 150 million so'mdan ortiq ish haqlarini undirilishiga yordam bergan. Sudlarga 30 ga yaqin da'vo arizalari kiritilishiga erishgan. Shuningdek, 100 dan ortiq mahkumlarning oilalariga yordam berishni tashkil etgan. Mintaqaviy vakil sifatida aholi orasida "Ombudsman maktabi", "Ombudsman soati", "Ombudsman va yoshlar", "Ombudsmanning mahallada sayyor qabul" singari tadbirlar tashkil etgan va ularda 5000 dan ortiq turli yoshdagi aholi vakillarining ishtirokida qatnashgan. Viloyat miqyosida Ombudsmanga nomiga kelib tushgan 600 dan ortiq murojaatlar bilan shug'ullanish, murojaatchilarning masalalarini turli tashkilotlarning ko'magi bilan yechilishiga erishgan[7].

A. Huseynova O'zbekiston nodavlat-notijorat tashkilotlari Milliy Assotsiatsiyasi Buxoro viloyat resurs markazini bir necha yil davomida jamoatchilik asosida boshqarib, viloyatda faoliyat yuritayotgan nodavlat-notijorat tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarida ham faol ishtirok etgan. 2020-2024-yillarda Xalq deputatlari Buxoro viloyat kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha komissiya raisi sifatida ushbu sohani rivojlantirishga o'z hissasini qo'shib kelgan. Shuningdek Buxoro shahar xalq deputatlari kengashi qo'shidagi "Xalqparvar komissiyasi"ga ham jamoatchilik asosida rahbarlik qilgan.

A. Huseynova viloyatda ayollar orasida diniy vaziyatni sog'lomlashtirish, otin-oyilarning faoliyatlarini muvofiqlashtirish ishlarida ham o'zining amaliy ishlari bilan ko'mak berib, 2014-2017-yillarda O'zbekiston musulmonlari idorasi Buxoro viloyat vakilining xotin-qizlar bo'yicha maslahatchisi sifatida faoliyat yuritgan. 2019-yildan boshlab viloyat miqyosida xotin-qizlar orasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha viloyat targ'ibot guruhi rahbari sifatida jamoatchilik asosida ishlab kelmoqda. Shuningdek 2007-yildan hozirga qadar O'zbekiston xotin-qizlar "Olima" uyushmasi Buxoro viloyati bo'limiga ham jamoatchilik asosida rahbarlik qilib, Buxoro olimalarining ilmiy-tadqiqot ishlarida faol ishtirok etishlarini ta'minlashda o'z hissasini qo'shmoqda[8].

A. Huseynova 2018-2020-yillarda "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi ishini tashkil etishda va uning faoliyatini yo'lga qo'yishda mohir rahbar sifatida o'zini namoyon etdi. Uning bevosita rahbarligi ostida 2018-yilda boshqarma xodimlari hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ajrim arafasida bo'lgan 1460 nafar oilani yarashtirishga erishib, 3000 ga yaqin bolalarni tirik yetim bo'lishdan asrab qolishdi.

Boshqarma tomonidan oilalarga metodik maslahatlar berish maqsadida 2 ta uslubiy qo'llanma ishlab chiqilib 1200 nusxada hamda 8 turdagi bukletlar tayyorlanib 4 ming nusxada nashr etildi va aholiga tarqatildi. Shuningdek 2018-yil noyabrda "Farovon oila-jamiyat ravnaqining asosi" mavzuida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tashkil etilib, ushbu konferensiya ilmiy-nazariy xulosalari oilalar bilan ishlash jarayonlarida hayotga tadbir etildi.

A. Huseynova rahbarligida xalqimizning ko'p asrlik oilaviy qadriyatlarini targ'ib etish, ibratli oilalarni namuna sifatida ko'rsatish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali ko'p martalik chiqishlar tashkil etildi. Viloyatdagi ibratli oilalar ishtirokida "Fayzli xonadon" ko'rsatuvi suratga olindi hamda viloyat televideniesida "Muqaddas qo'rg'on" nomli ko'rsatuv tashkil qilindi. Uning ommaviy axborot vositalaridagi Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy ko'rsatuv va eshittirishlarda xotin-qizlar, oila va yoshlar tarbiyasi masalalari bo'yicha muntazam ravishda chiqishlari yoshlarimiz tarbiyasiga yuqori ta'sir ko'rsatmoqda. Buxoro viloyati televideniesida "Dilnoma", "Ayol va jamiyat", "Shukrona", "Oila ziynati", "Itokatkorlik", "Munosabat", "Intervyu plus", "Harakatlar strategiyasi", "Ko'ngilga tashrif" va boshqa ko'rsatuvlarda ham tarbiyaviy masalalarda muloqotlar o'tkazadi [9].

So'nggi yillarda yurtimizda siyosiy sohada faoliyat ko'rsastuvchi xotin qizlar soni ko'paydi. Oliy majlis qonunchilik palatasining deputatlaridan 32%i, senat va mahalliy kengash deputatlaridan 23%i xotin-qizlardan iborat. O'zbekiston tarixida birinchi marta Milliy parlamentda ayollar soni bo'yicha dunyoda 190 ta milliy parlament o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi[10].

Xulosa. Professor Abira Huseynovanning ilmiy merosi va ijtimoiy faoliyati zamonaviy o'zbek ayolining jamiyatdagi o'rni naqadar beqiyos ekanini yaqqol namoyon etadi. Uning ilmiy tadqiqotlari, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi, oila, ayollar va yoshlar tarbiyasi borasidagi

HISTORY

keng ko‘lamli ishlari nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Ombudsman instituti doirasidagi faoliyati orqali inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning muammolarini hal etishga qaratilgan samarali faoliyat olib borganligi e‘tiborga loyiqdir.

Mazkur maqolada ayollarning ta‘lim va ilm-fandagi ishtiroki yuksalayotgani, ular jamiyatning har bir sohasida faol yetakchiga aylanib borayotgani, bu jarayon esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta‘sir ko‘rsatayotgani ilmiy dalillar asosida yoritildi. Professor A. Huseynovanning faoliyati ushbu jarayonlarning amaliy ifodasi bo‘lib, yosh avlod uchun ibrat namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Yakun qilib aytganda, ayol olimlarning ilmiy va ijtimoiy sohalardagi o‘rni ortib borayotgani nafaqat jamiyatning ma‘naviy-ma‘rifiy rivojiga, balki ijtimoiy barqarorlik, demokratik qadriyatlar va inson huquqlarini himoya qilish jarayonlariga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Professor A. Huseynova faoliyati esa ushbu jarayonlarning amaliy ifodasi bo‘lib, yosh avlod uchun ibrat namunasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqidan.* 8.03.2025.
2. www.oliygoh.uz
3. Huseynova A.A. *Sharq mutafakkirlari dunyoqarashida umuminsodiy qadriyatlar.* - Toshkent. “Paradigma”. 2017. -B. 35.
4. *Do‘stlik ordeni bilan mukofotlanganlar ro‘yxati,* https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum:Do%CA%BBstlik_ordeni_sohiblari.
5. Huseynova A.A. *bilan shaxsiy suhbatdan to‘plangan ma‘lumotlar asosida.* 20.11.2025.
6. www.wikipedia.uz Huseynova A.A haqidagi sahifa.
7. *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ning Buxoro viloyati mintaqaviy vakilining 2024- yil yakuni bo‘yicha hisobot ma‘lumotlari.*
8. www.olima_ayollar_jamiyati_sayti ma‘lumotlari.
9. *OAV materiallari: Buxoro viloyati televideniesi ma‘naviy-ma‘rifiy ko‘rsatuvlari arxivi (2018–2024 yillar).*
10. Huseynova A.A. *Yangi O‘zbekiston: fuqarolik jamiyati va ayollar faolligi.* – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. 2023. – B. 13.

XX ASRNING 30-YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI TA'LIM TIZIMI: SOVET MAFKURAVIY SIYOSATI

Umarov Jamshid Saidmuratovich,

*Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Umarovjamshid510@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-2134-0503>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning 1930-yillarida Surxondaryo viloyati ta'lim tizimida sovet hukumatining olib borgan mafkuraviy siyosati tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet maktablari tarmog'ining shakllanishi, ikki bosqichli ta'lim tizimining joriy etilishi, milliy maktablarning mazmun jihatdan sovet mafkurasiga moslashtirilishi hamda "yangi inson"ni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik-ideologik vazifalar amaliyotda qanday namoyon bo'lgani yoritiladi. Shuningdek, dehqon-yoshlar maktablarining tashkil etilishi va ularning sovet mafkurasiga yo'nalishidagi vazifalari ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: sovet ta'lim siyosati, Surxondaryo viloyati, savodsizlikni tugatish, sovetlashtirish, ikki bosqichli ta'lim tizimi, kommunistik mafkura, dehqon-yoshlar maktablari, marksizm-leninizm.

СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В 1930-Е ГОДЫ: СОВЕТСКАЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА

Аннотация. В данной статье на основе исторических источников анализируется идеологическая политика советской власти в системе образования Сурхандарьинской области в 1930-х годах XX века. В исследовании освещается формирование сети советских школ, внедрение двухуровневой системы образования, адаптация содержания национальных школ к советской идеологии, а также практическая реализация педагогических и идеологических задач по воспитанию «нового человека». Кроме того, рассматривается организация школ для крестьянской молодёжи и их роль в продвижении советской идеологии.

Ключевые слова: советская образовательная политика, Сурхандарьинская область, ликвидация неграмотности, советизация, двухуровневая система образования, коммунистическая идеология, школы для крестьянской молодёжи, марксизм-ленинизм.

THE EDUCATION SYSTEM OF THE SURKHANDARYA REGION IN THE 1930S: SOVIET IDEOLOGICAL POLICY

Abstract. This article analyzes, based on historical sources, the ideological policy of the Soviet government in the education system of Surkhandarya region during the 1930s. The study highlights the formation of the Soviet school network, the implementation of the two-tier education system, the adaptation of the content of national schools to Soviet ideology, and the practical implementation of pedagogical and ideological tasks aimed at educating the "new person." In addition, the organization of schools for peasant youth and their role in promoting Soviet ideology are also examined.

Keywords: soviet educational policy, Surkhandarya region, eradication of illiteracy, Sovietization, two-tier education system, communist ideology, schools for peasant youth, Marxism-Leninism.

Kirish. XX asrning 1930-yillari O'zbekistonda, xususan Surxondaryo viloyatida, sovet hokimiyati ta'lim tizimini nafaqat ma'rifiy, balki ideologik vosita sifatida faol qo'llagan davr sifatida tarixda iz qoldirgan.

Sovet hokimiyati o'rnatilgan dastlabki yillardan boshlab ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilishi — bu, avvalo, marksizm-leninizm nazariyasining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan yangi tipdagi insonni shakllantirish, ya'ni kommunistik ongga ega bo'lgan mehnatkashlar avlodini tarbiyalash zarurligi bilan izohlanadi. Proletariat diktaturasi o'z hukmronligini mustahkamlashi uchun avvalo eski, burjua va diniy qadriyatlarini targ'ib qiluvchi ta'lim shakllarini tugatib, o'rniga sinfiy ongni uyg'otadigan, marksistik dunyoqarashni singdiradigan yagona davlat ta'lim tizimini barpo etishi lozim edi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Yangi sovet maktablarining ikki bosqichli tizim asosida tashkil etilishi sovet davlatining asosiy maqsadi — kommunistik jamiyat qurilishi uchun zarur bo'lgan "yangi

inson”ni yaratish vazifasiga xizmat qilgan. Ikki bosqichli tizimning joriy etilishi — bu faqat pedagogik emas, balki ideologik zarurat edi. Birinchi bosqich (8–13 yosh) da bolalarga savod, asosiy fanlar va marksistik dunyoqarashning boshlang’ich g’oyalari singdirildi. Ikkinchi bosqich (13–17 yosh) esa yoshlarni kommunistik ong va mehnat intizomi ruhida shakllantirish, ularni sanoat va qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishga tayyorlash, ya’ni kelajakdagi sotsialistik mehnatkashlar avlodini yetishtirish vazifasini bajargan.

Ana shunday mafkuraviy vazifalar Termiz shahrida ham izchil amalga oshirildi. 1921-yilda ochilgan birinchi sovet maktabi rus tilida faoliyat yuritib, mahalliy aholini markaziy madaniyat va siyosiy g’oyalar bilan bevosita bog’lashga xizmat qildi. Bu maktabda 6-sinf, 213 o’quvchi va 6 nafar o’qituvchi faoliyat yuritardi. Maktabning rus tilida bo’lishi — sovet mafkurasi nazarida butun ittifoq hududlarida yagona siyosiy-iqtisodiy makonni shakllantirish, milliy hududlarni “eski” dunyoqarashdan uzib, kommunistik ideallar bilan birlashtirishning asosiy vositasi hisoblangan.

Shu bilan birga, mahalliy millat bolalarini ham sovetlashuv jarayoniga keng jalb etish maqsadida 1923-yilda Mahmudxo’ja Behbudiy nomidagi birinchi o’zbek maktabi ochildi. Bu maktab tashqi ko’rinishda milliy shaklga ega bo’lsa-da, uning mazmuni sovet mafkurasiga bo’ysundirilgan, dasturiga marksistik-lenincha g’oyalar singdirilgan, diniy-ma’rifiy ta’lim esa keskin chetlashtirilgan edi. 56 o’quvchi va 3 o’qituvchi faoliyat yuritgan mazkur maktab mahalliy aholining katta qismini qamrab ololmagani sababli, sovet hukumatining ideologik talablariga muvofiq, ta’lim qamrovini kengaytirish zarurati tug’ildi.

Natijada 1924-yilda 150 o’quvchiga mo’ljallangan 3-sonli yangi maktab ochildi. Bu voqea sovet hukumatining maqsadi – jamiyatni to’liq qamrab oluvchi, har bir bolani 17 yoshgacha majburiy ta’lim orqali kommunistik ong bilan qurollantiruvchi tizimni shakllantirish jarayonining mantiqiy davomi bo’ldi. Shunday qilib, Termizdagi sovet maktablari tarmog’ining kengayishi oddiy ma’rifiy jarayon emas, balki mahalliy aholining dunyoqarashini o’zgartirishga qaratilgan keng ko’lamli sovetlashtirish siyosatining ajralmas qismi edi[3].

1924-yilda Sherobod shahrida birinchi sovet maktabining tashkil etilishi Sovet hokimiyatining mahalliy hududlarni to’liq sovetlashtirish, ularning ijtimoiy-madaniy hayotini markaziy ideologiya bilan uyg’unlashtirish jarayonidagi navbatdagi muhim bosqich edi. Kommunistik mafkura nuqtayi nazaridan bu nafaqat ta’lim muassasasining ochilishi, balki jamiyat ongini sotsialistik qadriyatlarga yo’naltirishga qaratilgan ideologik jarayonning chuqurlashuvi hisoblanadi. Mazkur maktabga Sherobod shahridan tashqari Xo’jagi, Oqqo’rg’on, G’ambur, Cho’yanchi, Qo’shtegirmon, Taroqli va Qulluqsho kabi qishloqlardan bolalarning jalb etilishi sovet ta’lim tizimining maqsadi – aholining barcha qatlamlarini sotsialistik ta’lim bilan qamrab olish siyosatiga to’la mos keladi[4:75].

1924-yil 1-yanvar holatiga ko’ra Surxondaryo hududida faoliyat yuritgan 13 ta birinchi bosqich maktab, ulardagi 733 nafar o’quvchi va ayniqsa maktablarning asosiy qismi – 11 tasi shaharlarda joylashgani sovet ta’lim siyosatining dastlab shaharlarda shakllanib, keyinchalik qishloqlarga tarqalganini ko’rsatadi.

Qumqo’rg’onda 1924-yilda ochilgan ilk sovet maktabida 185 nafar o’quvchi qatnashgan. Biroq maktab binolari, darsliklar va malakali o’qituvchilar yetishmasligi sababli o’qituvchilar pedagogik kurslarda o’rgangan ko’chirmalardan foydalanishga majbur bo’lishgan. Shunga qaramay, kommunistik mafkura nuqtayi nazaridan bu jarayon ijtimoiy ongni shakllantirish va yosh avlodni sotsialistik qadriyatlarga moslashtirish maqsadida muhim qadamm hisoblangan.

1926-yilda Jarqo’rg’on tumanida birinchi sovet maktabi ochilib, dastlab 12 nafar o’quvchi Yoqubjon Solijonov tomonidan o’qitila boshlandi. Bu voqea sovet hokimiyatining qishloq hududlarida ham ta’lim orqali sotsialistik ongni shakllantirish va jamiyatni markaziy ideologiya ostiga birlashtirish siyosatining davomiyligini ko’rsatadi[5].

1925-yil fevralida bo’lib o’tgan O’zbekiston Kompartiyasining I syezdi ta’lim tizimiga oid muhim qarorlar qabul qildi. Syezdning asosiy vazifasi maktab yoshidagi barcha bolalarning o’qishga to’liq jalb qilinishini ta’minlashdan iborat edi. Shu munosabat bilan, sovet maktablari sonini oshirishga, shuningdek, katta yoshdagi aholining savodxonligini ta’minlash maqsadida maxsus maktablarni kengaytirishga yo’naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Belgilangan rejalar asosida sovet maktablari tarmog’ini kengaytirish ishlari amalga oshirildi. Maorif tizimi faoliyatini yaxshilashga ajratilgan mablag’lar 1924-1925-o’quv yilidan boshlab ko’paytirildi; masalan, faqat Surxondaryo viloyatining o’zigagina ushbu o’quv yilida 89,092 so’m ajratilgan edi [6]. Viloyatga moliyaviy resurslarning yo’naltirilishi bevosita Surxondaryo hududida sovet maktablari tarmog’ining kengayishiga xizmat qildi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, umumiy boshlang’ich ta’limning dastlabki bosqichlarda joriy etilishi va "savodsizlik"ni tugatishga qaratilgan katta kampaniya siyosiy va iqtisodiy jihatdan og’ir sharoitda, ko’pincha ma’muriy-bosim ostida amalga oshirilgan. Bundan tashqari, ta’lim tizimining o’zi chuqur tarkibiy muammolarga ega edi: masalan, maktablarni zamonaviy moddiy-texnik baza bilan mustahkamlash jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Bu tanqislik

maktablarning o'quv jarayoni uchun mos bo'lgan doimiy binolar bilan ta'minlanishi masalasida eng sezilarli edi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Maktab tarmog'ini kengaytirishga bo'lgan harakatlar o'quv binolarining juda past darajada ta'minlanishi tufayli qiyinchiliklarga uchradi. Moddiy resurslarning taqchilligi nafaqat binolar bilan cheklanib qolmadi, balki maktablardagi jihozlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, shuningdek, asosiy kantselyariya vositalari (daftar va yozuv qurollari) katta muammo edi. Bu tizimli kamchiliklar sovet maktablari oldida ikki tomonlama muammolarni keltirib chiqardi. Avvalo, maktablar soni va sig'imi davlat tomonidan belgilangan majburiy ta'lim yoshidagi barcha bolalarni qamrab olishga mutlaqo yaroqsiz edi. Ikkinchidan, ta'lim sifati va sharoitlaridan norozilik sababli, ayrim o'quvchilar sovet maktablaridan chiqib, milliy va diniy qadriyatlarga asoslangan eski usuldagi maktablarga o'tishni ma'qul ko'rdilar.

Sovet hukumati mavjud kamchiliklarni oldini olish maqsadida bir qator tadbirlarni qo'lladi. Bu tadbirlarning asosiy yo'nalishlaridan biri eski usul maktablari bilan solishtirganda sovet maktablari sonini ko'paytirishga qaratilgan edi.

Maorif Xalq Komissarligi va komissarlikdagi maxfiy bo'lim tomonidan har bir okrug maorif bo'limlariga sovet maktablarni tashkil etish borasidagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish, ko'plab sovet maktablarini tashkil qilish uchun yirik bog' va savdogarlarning musodara qilingan uy-joylaridan foydalanish kerakligi haqida maxsus ko'rsatmalar beriladi. Ushbu topshiriqni bajarish, joylarda ko'plab sovet maktablarini tashkil qilish va ushbu maktablarga o'quvchilarni jalb qilish ishlarini har bir okrug maorif bo'limi boshliqlarining o'zi nazorat qilib borishlari va ushbu ishlarning taxtlida borayotganligi haqida Maorif Xalq Komissarligiga axborot berib turishlari lozimligi uqtiriladi.

Sovet maktablari tarmog'ini kengaytirishni qo'llab-quvvatlash uchun, davlat va mahalliy byudjetdan xalq maorifi uchun ajratilgan moliyaviy yordam hajmini oshirish choralari ko'rildi. Maorif tizimi uchun jiddiy miqdorda mablag' ajratilishi rejalashtirilgan edi. Surxondaryo viloyatining ta'lim tizimi misolida qaralsa, 1925-1926-o'quv yilida 146 ming so'm, keyingi yil (1926-1927) uchun 661 ming so'm, 1927-1928-o'quv yiliga esa 1,7 million so'm ajratilishi belgilangan. Lekin O'zbekistonda ta'limga katta sarmoya kiritish rejalashtirilganiga qaramay, aslida rejada ko'rsatilgan mablag'larning to'liq qismi taqdim etilmagan. Bunga dalil sifatida, 1925-1926-o'quv yilida Surxondaryo viloyatida maorifni yaxshilash va savodsizlikni tugatishga ajratilgan mablag' faqatgina 125,328 so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin[7].

Garchi, O'zbekistonning ushbu viloyatlari maorif tizimi uchun rejalashtirilgan mablag'lar ajratilmagan bo'lsada, oldingi yillarga qaraganda mablag'lar hajmi birmuncha oshib bordi. 1926-1927-o'quv yili uchun davlat mablag'lari hisobidan Surxondaryo viloyatiga 157.805 so'm mablag' maktablar tashkil qilish uchun ajratilsa-da, ba'zi joylarda qurilish materiallarining yo'qligi, yetishmasligi tufayli maktablar qurish rejalari o'z vaqtida bajarilmasdan qolib ketardi. Shunday ahvol sababli ham maktab qurilishiga ajratilgan mablag'lar o'zlashtirilmasdan qolib ketish hollari sodir bo'lgan. Bundan tashqari, maorif sohasiga ajratilayotgan mablag'lar "savodsizlik"ni tugatish ishlariga sarf qilingan[8:9].

Surxondaryo viloyati maorif tizimi uchun 1929-1930-o'quv yilida 1.23100 so'm ajratildi. Bundan tashqari, Surxondaryoning bir qator qishloqlarida aholi mablag'idan 11 ta, mahalliy byudjet hisobidan 12 ta maktab qurildi[8:10].

Sovet hokimiyati ushbu davrda garchi aholi yashash sharoiti qiyin bo'lgan bir vaqtda ham kommunistik partiya mafkurasini kengayish uchun, ushbu maqsadlari yo'lida "madaniy yurish" uchun katta mablag'lar sarflab keldi. Hatto, O'zbekistonda korxonalar va muassasalarda mehnat qilayotgan ishchi-xizmatchilarning maoshidan bir qismini "madaniy yurish" hisobida o'tkazib turiladi[9:29].

Bundan tashqari, ko'plab korxonalar, kooperatsiyalar, kasaba uyushmalari ham ushbu "yurish" uchun mablag'lar ajratdilar. Bu yo'l bilan toplangan mablag'larning 40% igina respublika viloyatlarining xalq ta'limi va sog'liqni saqlash sohasiga sarflandi.

Ajratilgan mablag'lar evaziga barpo qilingan maorif tizimi, "savodsizlik"ni tugatish maktablari kommunistik partiya mafkurasida faoliyat yuritishi ko'zlangan edi. Ushbu ko'zlangan maqsad natijasida o'sha sovet tuzumi davrida ta'lim tizimi to'laqonli ravishda hukmron mafkura iskanadasida yuritildi. Bundan tashqari ta'lim muassasalarida asosiy e'tibor xalq xo'jaligi uchun mutaxassislar tayyorlashga qaratildi. Shu maqsadda O'zbekiston qishloq yigit-qizlarini o'qishga jalb qilish uchun dehqon-yoshlar maktablari faoliyati kengaytirildi. Mazkur maktablar sovet hukumati olib borayotgan siyosatni amalga oshirish, mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega edi. Dehqon-yoshlar maktablarining asosiy vazifasi qishloq yigit-qizlarini maktabga jalb qilish orqali qishloq xo'jaligida ish olib boradigan mutaxassislar tayyorlash edi[1:26].

Mazkur maktablar 1928-1931-yillarda Surxondaryo viloyatining Sherobod, Denov, Termiz tumanlarida faoliyat ko'rsatdi[8:7]. Bundan tashqari, mazkur maktablar asosan mahalliy byudjet hisobidan

HISTORY

tashkil etildi. Surxondaryo viloyatidagi dehqon-yoshlar maktabining har birini qurish uchun 4050 soʻmdan mablagʻ ajratildi[8:10].

Xulosa. XX asrning 1930-yillarida Surxondaryo viloyatida taʼlim tizimi sovet mafkuraviy siyosati asosida shakllantirilgan va rivojlantirilganligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, sovet hukumatining maktablar tarmogʻini kengaytirish, ikki bosqichli taʼlim tizimini joriy etish va milliy maktablarni sovetlashtirish boʻyicha olib borgan siyosati nafaqat maʼrifiy, balki ideologik vazifalarni bajarishga qaratilgan edi.

Surxondaryo viloyatida maktablar sonining koʻpaytirilishi, yangi oʻquv muassasalarining tashkil etilishi, dehqon-yoshlar maktablari orqali qishloq yoshlari taʼlimga jalb qilinishi sovet mafkurasini aholiga singdirish va “yangi inson”ni tarbiyalash jarayonining muhim vositasi boʻlgan. Shu bilan birga, moddiy-texnik resurslarning yetishmasligi, darsliklar va oʻqituvchilar tanqisligi kabi qiyinchiliklar sovet taʼlim siyosatini amalga oshirishda sezilarli toʻsiqlarni keltirib chiqargan.

ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмонова Ж. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги қатагонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари мисолида, 1925–1941 йй.) – тарих фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2002. 152-бет.
2. Хасанова Н.И. Ўзбекистонда совет ҳукумати маданий-маънавий сиёсати ва унинг натижалари (Сурхон водаси ҳудуди мисолида, 1917–1941 йй.) – Термиз, 2021. 150-бет.
3. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 89-fond, 1-roʻyxat, 22-ish, 15-varaq.
4. Халияров Х., и др. Сурхандаъинская область. – С. 75.
5. “Сурхон тонги” газетаси, 1993 йил 31 июль.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 89-fond, 1-roʻyxat, 22-ish, 28-varaq.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 89-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 21-ish, 14-varaq.
8. Qobusov H. Xalq maorifining nurlari. T., 1980. 7, 9, 10-b.
9. Oripov F. Oʻzbekistonda savodsizlikning tugatilishi. T., 1967. 29-b.

**YANGI O‘ZBEKISTON DAVRIDA IJTIMOY SIYOSATNING USTUVOR
YO‘NALISHLARI: ISLOHOTLAR TAHLILI (2017–2024)**

Ahmadova Zebiniso Shavkatovna,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
ahmadova.zebiniso@bui.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston davrida, ya‘ni 2017–2024-yillar davomida amalga oshirilgan ijtimoiy siyosat islohotlarining asosiy yo‘nalishlari, mazmuni va natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida aholining ijtimoiy himoyasi, kambag‘allikni qisqartirish, ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini modernizatsiya qilish, mahalla institutini kuchaytirish, yoshlar va ayollar siyosatini rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish kabi ustuvor yo‘nalishlar chuqur o‘rganilgan. Maqolada islohotlarning tashkiliy-huquqiy asosi, ularning amaliy natijalari, jamiyat farovonligiga ta‘siri hamda xalqaro maydondagi e‘tiroflari tahliliy yondashuv asosida yoritiladi. Shuningdek, Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy siyosati ilgari qabul qilingan modeldan qanday farq qilishi, davlat boshqaruvida inson manfaatlarining ustuvorligi, aholiga yaqin bo‘lgan muqim ijtimoiy tizim yaratish borasidagi yutuqlar ochib beriladi. Tadqiqot natijalari ushbu davrda amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar mamlakatda ijtimoiy adolatni ta‘minlash, aholining turmush darajasini oshirish va barqaror rivojlanishga zamin yaratishda muhim omil bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy islohotlar, ijtimoiy himoya, kambag‘allikni qisqartirish, ta‘lim islohotlari, sog‘liqni saqlash tizimi, mahalla instituti, yoshlar siyosati, ayollar siyosati, raqamlashtirish, aholi farovonligi, davlat boshqaruvi, xalqchil siyosat, barqaror rivojlanish.

**ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В ПЕРИОД НОВОГО
УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ РЕФОРМ (2017–2024)**

Аннотация. В данной статье анализируются основные направления, содержание и результаты реформ социальной политики, реализованных в период Нового Узбекистана, то есть в 2017–2024 годах. В рамках исследования глубоко изучены такие приоритетные области, как социальная защита населения, сокращение бедности, модернизация систем образования и здравоохранения, укрепление института махалли, развитие молодёжной и гендерной политики, а также цифровизация социальных услуг. В статье рассматриваются организационно-правовые основы реформ, их практические результаты, влияние на благосостояние населения и международное признание, полученное в данной сфере. Кроме того, раскрывается, чем социальная политика Нового Узбекистана отличается от прежних моделей, как в государственном управлении усилилось внимание к интересам человека и какие достижения были достигнуты в создании устойчивой и социально ориентированной системы. Результаты исследования показывают, что реализованные реформы стали важным фактором в обеспечении социальной справедливости, повышении уровня жизни населения и формировании основ устойчивого развития страны.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, социальная политика, социальные реформы, социальная защита, сокращение бедности, реформы образования, система здравоохранения, институт махалли, молодёжная политика, политика в отношении женщин, цифровизация, благосостояние населения, государственное управление, человекоориентированная политика, устойчивое развитие.

**PRIORITY DIRECTIONS OF SOCIAL POLICY IN THE PERIOD OF NEW UZBEKISTAN:
ANALYSIS OF REFORMS (2017-2024)**

Abstract. This article analyzes the main directions, content, and outcomes of social policy reforms implemented during the New Uzbekistan period, specifically from 2017 to 2024. The study examines key priority areas such as social protection of the population, poverty reduction, modernization of the education and healthcare systems, strengthening of the mahalla institution, development of youth and gender policies, and the digitalization of social services. The organizational and legal foundations of these reforms, their practical results, their influence on public welfare, and their recognition on the international stage are explored through an analytical approach. Additionally, the article highlights how the social policy of New Uzbekistan differs from previous models, the prioritization of human interests in public administration, and achievements in building a socially-oriented and people-centered system. The findings indicate that the

HISTORY

social reforms carried out during this period played a significant role in ensuring social justice, improving living standards, and creating the foundation for sustainable development in the country.

Keywords: *New Uzbekistan, social policy, social reforms, social protection, poverty reduction, education reforms, healthcare system, mahalla institution, youth policy, gender policy, digitalization, public welfare, public administration, people-centered governance, sustainable development.*

Kirish. Yangi O‘zbekiston davri sifatida e’tirof etilayotgan 2017–2024-yillar mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida tub burilishlar, mazmunan yangi yondashuvlar va tizimli islohotlar bilan ajralib turadi. Bu davrda davlat boshqaruvi tamoyillari qayta ko‘rib chiqildi, ijtimoiy siyosat sohasida esa inson manfaatlarini ustuvor qo‘ygan, aholining barcha qatlamlarini qamrab olgan va ularning farovonligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ijtimoiy siyosatning yangi modeli aholini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy adolatni ta’minlash, jamiyatni rivojlantirishning asosiy omili sifatida inson kapitalini mustahkamlash va ijtimoiy muammolarga tizimli yondashuvni shakllantirishni o‘z ichiga oldi.

Bu davrning eng asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, davlat siyosatida “inson – jamiyat – davlat” tamoyili markaziy o‘ringa chiqarildi. Ushbu yondashuv orqali avvalgi yillarda yetarli darajada e’tibor berilmagan bir qator ijtimoiy muammolarni hal etish bo‘yicha qat’iy amaliy choralar ko‘rildi. Xususan, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish, pensiya va nafaqa tizimlarini qayta ko‘rib chiqish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlash borasida muhim natijalarga erishildi. Ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish orqali yordamning shaffofligi va tezkorligi oshirildi, “Ijtimoiy reyestr” kabi tizimlar insonlarning real ehtiyojlarini aniqlash va ularga manzilli yordam yetkazish imkonini berdi.

Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar Yangi O‘zbekiston siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2020-yildan boshlab mamlakatda kambag‘allik darajasini hisoblashning xalqaro metodologiyasi joriy etildi, bu esa ushbu muammoni aniq baholash va samarali choralar ishlab chiqish imkonini yaratdi. Hududlarda “Mahallabay” ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilib, har bir oila, har bir insonning turmush darajasi, ehtiyoji va muammolari individual tahlil qilina boshlandi. Bu tizim ijtimoiy yordamni manzilli ko‘rsatishda, oilalarning daromad manbalarini kengaytirishda va kambag‘allikdan chiqarishning amaliy yo‘llarini ishlab chiqishda muhim natijalar berdi. Aholini bandlikka jalb qilish, hunarmandchilikni rivojlantirish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ham kambag‘allikka qarshi kurashning asosiy omillaridan biriga aylandi.

Ta’lim sohasida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta’lim qamrovi sezilarli darajada oshdi, yangi bog‘chalar barpo etildi, nodavlat sektor faol jalb qilindi. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quv dasturlari yangilandi, o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha zamonaviy tizim yaratildi. Oliy ta’lim tizimi esa bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga moslashtirildi, universitetlar soni ko‘paydi, qabul kvotalari kengaytirildi, ta’limning sifatini oshirish bo‘yicha “raqobatbardosh ta’lim” tamoyili joriy qilindi. Bularning barchasi mamlakatda inson kapitalining rivojlanishini jadallashtirib, yoshlarning bilim va kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qildi.

Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar ham Yangi O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining ajralmas qismiga aylandi. Aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish maqsadida birlamchi tibbiy bo‘g‘in qayta tashkil etildi, tibbiyot muassasalari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlandi. “Tibbiyotning yagona elektron tizimi” joriy qilinib, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning sifati va shaffofligi oshirildi. Shuningdek, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarining faoliyati kengaytirildi, ular zamonaviy diagnostika va davolash usullari bilan ta’minlandi. O‘zbekistonning xalqaro tibbiyot muassasalari bilan hamkorligi kengaydi, bu esa sog‘liqni saqlash sohasida global tajribalarni joriy etish imkonini berdi.

Yoshlar va ayollar siyosatida olib borilgan islohotlar ham jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qildi. Yoshlar jamiyatning eng faol qatlami sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga keng jalb etildi. “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” kabi mexanizmlar amaliy yordam ko‘rsatishda samarali vositaga aylandi. Ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga kirishuvchanligini oshirish, ularni kasb-hunarga o‘qitish, ijtimoiy himoya choralari kuchaytirish bo‘yicha davlat tomonidan keng ko‘lamli qo‘llab-quvvatlash ishlari yo‘lga qo‘yildi. Bu islohotlar jamiyatda gender tengligini ta’minlashga, ayollar faolligini oshirishga katta hissa qo‘shdi.

Mahalla institutining kuchaytirilishi Yangi O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining eng muhim tamoyillaridan biri bo‘lib, fuqarolarning davlat bilan bevosita muloqotini kuchaytirdi. Mahalla boshqaruvini yanada samarali qilish uchun yangi o‘zgarishlar joriy etildi, fuqarolar bilan ishlash, ularning muammolarini hal etish tizimi tubdan yangilandi. “Mahalla – davlatning tayanchi” tamoyili ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o‘z aksini topdi.

Ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish esa xalq uchun qulayliklarning ortishiga va davlat xizmatlarining tezkor, shaffof bo'lishiga xizmat qildi. Elektron hukumat tizimi rivojlanib, aholi uchun ko'plab xizmatlar onlayn shaklga o'tkazildi. Bu jarayon davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishga, korrupsiyani kamaytirishga va ijtimoiy xizmatlarni samarali boshqarishga imkon berdi.

Shu tariqa, 2017–2024-yillar davomida amalga oshirilgan islohotlar Yangi O'zbekistonning ijtimoiy siyosatini tubdan yangilab, aholi farovonligi va jamiyat barqarorligini ta'minlashga qaratilgan yangicha yondashuvlarni shakllantirdi. Ushbu davr ijtimoiy siyosatning ustuvorligi, inson manfaati va inson kapitaliga asoslangan rivojlanish tamoyillarining amalda ro'yobga chiqqan muhim bosqich sifatida tarixda o'z o'rniga ega bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yangi O'zbekiston davrida ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari va 2017–2024-yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarni o'rganishda mavjud ilmiy adabiyotlar, davlat hujjatlari, tahliliy hisobotlar va xalqaro tashkilotlar materiallari asosiy manba hisoblanadi. Ushbu davr ijtimoiy siyosatining mazmunini ochib berish, islohotlarning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish va ularning amaliy natijalarini baholash uchun o'quv adabiyotlari hamda ilmiy maqolalar muhim ahamiyatga ega.

Mazkur mavzuga oid adabiyotlar avvalo O'zbekiston Respublikasining rasmiy hujjatlarida o'z aksini topgan. "Harakatlar strategiyasi" (2017–2021), "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" (2022–2026), "Kambag'allikni qisqartirish strategiyasi", "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish konsepsiyasi" kabi hujjatlar ijtimoiy siyosatning ilmiy-amaliy asosini tashkil etadi. Ushbu dasturlarda ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash, mahalla tizimi, yoshlar va ayollar siyosati, raqamli transformatsiya yo'nalishlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, bu hujjatlar zamonaviy ijtimoiy davlat qurilishi bo'yicha aniq vazifalar va mexanizmlarni belgilab bergani uchun ilmiy adabiyotlar tahlilida bazaviy manba vazifasini bajaradi[4].

O'zbek olimlarining tadqiqotlari mavzuga oid adabiyotlarning muhim qatlamini tashkil etadi. Jumladan, ijtimoiy davlatning konseptual asoslari, ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishi, kambag'allikni qisqartirish strategiyalari, ta'lim islohotlarining samaradorligi, mahalla institutining transformatsiyasi haqida yozilgan ilmiy ishlar Yangi O'zbekiston davri islohotlarini chuqur ochib beradi. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan yozilgan adabiyotlarda odatda ijtimoiy siyosatning milliy modeli, uning tarixiy ildizlari va zamonaviy talablarga mos ravishda yangilanish jarayoni yoritiladi. Bu asarlar yordamida mamlakatda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning nazariy asoslari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning yana bir muhim qatlami xalqaro tashkilotlarning ilmiy-tahliliy hisobotlaridir. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, BMT Taraqqiyot dasturi, UNICEF, UNDP, ILO kabi tashkilotlar O'zbekistonning ijtimoiy siyosati, kambag'allik darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlaridagi islohotlar haqida muntazam ravishda hisobotlar tayyorlab kelmoqda. Ushbu hisobotlar O'zbekistonning ijtimoiy siyosatini global mezonlar asosida baholash, islohotlarning xalqaro standartlarga qanchalik mosligi, ularning samaradorligi va aholi hayotidagi o'zgarishlarni aniq faktlar asosida tahlil qilish imkonini beradi.

Ijtimoiy xizmatlarning raqamlashtirilishi bo'yicha ilmiy adabiyotlar ham alohida ahamiyatga ega. Bu borada raqamli transformatsiya, elektron hukumat tizimi, ma'lumotlar bazasi orqali ijtimoiy himoyani manzillilashtirish kabi jarayonlar o'rganilgan. Adabiyotlarda raqamlashtirish ijtimoiy siyosatning samaradorligini oshirishdagi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu jarayon orqali davlat xizmatlarining tezligi, shaffofligi va aholiga qulayligi keskin oshganligi ilmiy tahlillarda ham tasdiqlangan.

Adabiyotlarda Yangi O'zbekiston davridagi ijtimoiy siyosatning o'ziga xos jihatlari alohida ta'kidlanadi. Jumladan, ijtimoiy siyosatning markazida inson manfaatlarini qo'yish, aholining ehtiyojlarini mahalla darajasida o'rganish, "Mahallabay" ishlash tizimi, "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" kabi innovatsion mexanizmlar haqida ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Ushbu tadqiqotlar ijtimoiy siyosatning yangi modelining samaradorligini ochib beradi hamda O'zbekistonning ilgari qo'llanilgan uslublardan qay tarzda farqlanishini ilmiy asoslaydi[2].

Shuningdek, ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ta'lim sohasidagi islohotlar yuzasidan ko'plab ilmiy adabiyotlar mavjud bo'lib, ularda ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, pedagogik texnologiyalar va oliy ta'limdagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Xalqaro reytinglarning yuksalishi, davlat tilida ta'lim imkoniyatlarining kengayishi, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash kabi o'zgarishlar ilmiy ishlar orqali asoslab berilgan.

Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarga oid adabiyotlarda esa birlamchi tibbiy xizmatdagi o'zgarishlar, tibbiyot muassasalarining modernizatsiyasi, raqamli tibbiyot tizimi, aholining sifatli tibbiy xizmatga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Bu jarayonning amaliy natijalari sifatida aholi salomatligining yaxshilanishi, tibbiy xizmatlarning qamrovi kengayishi ko'rsatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning ko'pchiligi mahalla institutining transformatsiyasini ham izohlaydi. Mahalla tizimining davlat boshqaruvidagi o'rni mustahkamlanib, ijtimoiy masalalarni hal etishdagi roli kuchaygani ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. "Mahalla – jamiyatning tayanchi" tamoyilining amalda qo'llanilishi ijtimoiy sohaga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi tahlillar orqali o'z isbotini topgan.

Xulosa qilib aytganda, mavzuga oid adabiyotlar Yangi O'zbekiston davridagi ijtimoiy siyosatning kompleks, insonparvar va zamonaviy yondashuvlarga asoslanganligini ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlar orqali ushbu davrda amalga oshirilgan islohotlarning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va jamiyat hayotiga ta'siri batafsil ochib berilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2017–2024-yillarda ijtimoiy siyosat davlat rivojlanishining asosiy tamoyillaridan biriga aylangan va jamiyat farovonligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida qaralgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Yangi O'zbekiston davrida ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari va 2017–2024-yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamlı islohotlarni o'rganishda mavjud ilmiy adabiyotlar, davlat hujjatlari, tahliliy hisobotlar va xalqaro tashkilotlar materiallari asosiy manba hisoblanadi. Ushbu davr ijtimoiy siyosatining mazmunini ochib berish, islohotlarning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish va ularning amaliy natijalarini baholash uchun o'quv adabiyotlari hamda ilmiy maqolalar muhim ahamiyatga ega[1].

Mazkur mavzuga oid adabiyotlar avvalo O'zbekiston Respublikasining rasmiy hujjatlarida o'z aksini topgan. "Harakatlar strategiyasi" (2017–2021), "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" (2022–2026), "Kambag'allikni qisqartirish strategiyasi", "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish konsepsiyasi" kabi hujjatlar ijtimoiy siyosatning ilmiy-amaliy asosini tashkil etadi. Ushbu dasturlarda ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash, mahalla tizimi, yoshlar va ayollar siyosati, raqamli transformatsiya yo'nalishlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, bu hujjatlar zamonaviy ijtimoiy davlat qurilishi bo'yicha aniq vazifalar va mexanizmlarni belgilab bergani uchun ilmiy adabiyotlar tahlilida bazaviy manba vazifasini bajaradi[8].

O'zbek olimlarining tadqiqotlari mavzuga oid adabiyotlarning muhim qatlamini tashkil etadi. Jumladan, ijtimoiy davlatning konseptual asoslari, ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishi, kambag'allikni qisqartirish strategiyalari, ta'lim islohotlarining samaradorligi, mahalla institutining transformatsiyasi haqida yozilgan ilmiy ishlar Yangi O'zbekiston davri islohotlarini chuqur ochib beradi. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan yozilgan adabiyotlarda odatda ijtimoiy siyosatning milliy modeli, uning tarixiy ildizlari va zamonaviy talablarga mos ravishda yangilanish jarayoni yoritiladi. Bu asarlar yordamida mamlakatda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning nazariy asoslari tahlil qilinadi[3].

Mavzuga oid adabiyotlarning yana bir muhim qatlami xalqaro tashkilotlarning ilmiy-tahliliy hisobotlaridir. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, BMT Taraqqiyot dasturi, UNICEF, UNDP, ILO kabi tashkilotlar O'zbekistonning ijtimoiy siyosati, kambag'allik darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlaridagi islohotlar haqida muntazam ravishda hisobotlar tayyorlab kelmoqda. Ushbu hisobotlar O'zbekistonning ijtimoiy siyosatini global mezonlar asosida baholash, islohotlarning xalqaro standartlarga qanchalik mosligi, ularning samaradorligi va aholi hayotidagi o'zgarishlarni aniq faktlar asosida tahlil qilish imkonini beradi[6].

Ijtimoiy xizmatlarning raqamlashtirilishi bo'yicha ilmiy adabiyotlar ham alohida ahamiyatga ega. Bu borada raqamli transformatsiya, elektron hukumat tizimi, ma'lumotlar bazasi orqali ijtimoiy himoyani manzillilashtirish kabi jarayonlar o'rganilgan. Adabiyotlarda raqamlashtirish ijtimoiy siyosatning samaradorligini oshirishdagi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu jarayon orqali davlat xizmatlarining tezligi, shaffofligi va aholiga qulayligi keskin oshganligi ilmiy tahlillarda ham tasdiqlangan.

Adabiyotlarda Yangi O'zbekiston davridagi ijtimoiy siyosatning o'ziga xos jihatlari alohida ta'kidlanadi. Jumladan, ijtimoiy siyosatning markazida inson manfaatlarini qo'yish, aholining ehtiyojlarini mahalla darajasida o'rganish, "Mahallabay" ishlash tizimi, "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" kabi innovatsion mexanizmlar haqida ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Ushbu tadqiqotlar ijtimoiy siyosatning yangi modelining samaradorligini ochib beradi hamda O'zbekistonning ilgari qo'llanilgan uslublardan qay tarzda farqlanishini ilmiy asoslaydi[8].

Shuningdek, ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ta'lim sohasidagi islohotlar yuzasidan ko'plab ilmiy adabiyotlar mavjud bo'lib, ularda ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, pedagogik texnologiyalar va oliy ta'limdagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Xalqaro reytinglarning yuksalishi, davlat tilida ta'lim imkoniyatlarining kengayishi, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash kabi o'zgarishlar ilmiy ishlar orqali asoslab berilgan[5].

Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarga oid adabiyotlarda esa birlamchi tibbiy xizmatdagi o'zgarishlar, tibbiyot muassasalarining modernizatsiyasi, raqamli tibbiyot tizimi, aholining sifatli tibbiy xizmatga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Bu jarayonning amaliy natijalari sifatida aholi salomatligining yaxshilanishi, tibbiy xizmatlarning qamrovi kengayishi ko'rsatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning ko'pchiligi mahalla institutining transformatsiyasini ham izohlaydi. Mahalla tizimining davlat boshqaruvidagi o'rni mustahkamlanib, ijtimoiy masalalarni hal etishdagi roli kuchaygani ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. "Mahalla – jamiyatning tayanchi" tamoyilining amalda qo'llanilishi ijtimoiy sohaga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi tahlillar orqali o'z isbotini topgan[7].

Xulosa qilib aytganda, mavzuga oid adabiyotlar Yangi O'zbekiston davridagi ijtimoiy siyosatning kompleks, insonparvar va zamonaviy yondashuvlarga asoslanganligini ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlar orqali ushbu davrda amalga oshirilgan islohotlarning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va jamiyat hayotiga ta'siri batafsil ochib berilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2017–2024-yillarda ijtimoiy siyosat davlat rivojlanishining asosiy tamoyillaridan biriga aylangan va jamiyat farovonligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida qaralgan.

Tahlil va natijalar. Tahlil natijalari Yangi O'zbekiston davrida ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarning mazmuni, samaradorligi va jamiyat hayotiga ta'sirini har tomonlama yoritadi. 2017–2024-yillar davomida davlat tomonidan olib borilgan ijtimoiy siyosat inson manfaatlarini ustuvor qo'ygan, aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan va ijtimoiy adolatni mustahkamlovchi tizimli o'zgarishlar bilan ajralib turdi.

Tahlil jarayonida birinchi navbatda ijtimoiy himoya tizimining modernizatsiyasi e'tiborga olinadi. "Ijtimoiy reyestr" joriy etilishi, yordam ko'rsatish mexanizmlarining raqamlashtirilishi, ijtimoiy to'lovlarning oshirilishi va eng ehtiyojmand guruhlarni manzilli qo'llab-quvvatlash siyosati ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yordam olish jarayoni shaffoflashdi, byurokratik to'siqlar qisqardi va aholining real ehtiyojlarini aniqlash imkoniyati kengaydi.

Kambag'allikni qisqartirish siyosatida ham sezilarli natijalarga erishildi. Ayniqsa, "Mahallabay" ishlash tizimi, "Temir daftar", "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" kabi mexanizmlar orqali kam ta'minlangan oilalarning muammolarini o'rganish va ularni barqaror daromad manbai bilan ta'minlash bo'yicha samarali natijalar kuzatildi. Bandlikni ta'minlash, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va kasb-hunarga o'qitish kabi yo'nalishlar kambag'allik darajasining pasayishida muhim rol o'ynadi.

Ta'lim tizimidagi islohotlar natijalari ham tahlil jarayonida muhim o'rin tutdi. Maktabgacha ta'lim qamrovining kengayishi, umumiy o'rta ta'lim sifatining oshishi, o'qituvchilar malakasini takomillashtirish va oliy ta'limning xalqaro standartlarga moslashtirilishi yosh avlodning bilim va ko'nikmalarini orttirishda yangi bosqichni boshlab berdi. Bu o'zgarishlar ta'lim tizimining kompetensiyaga yo'naltirilganini va zamonaviy mehnat bozoriga moslashganini ko'rsatadi.

Sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlar, xususan, birlamchi tibbiy xizmatni kuchaytirish, diagnostika markazlarini tashkil etish, tibbiyot muassasalarining moddiy texnik bazasini zamonaviylashtirish aholi salomatligini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Raqamli tibbiyot tizimining joriy etilishi sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirdi va ulardan foydalanishni yengillashtirdi.

Yoshlar va ayollar siyosatidagi o'zgarishlar jamiyatning ijtimoiy faolligini oshirdi. Yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi, ularning ta'lim, bandlik va tadbirkorlikdagi ishtiroki kengaydi. Ayollarni ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash, ularni iqtisodiy faollikka jalb qilish bo'yicha natijalar gender tengligining mustahkamlanayotganini ko'rsatdi.

Mahalla institutining mustahkamlanishi davlat bilan xalq o'rtasidagi muloqotni kuchaytirdi. Mahalla endilikda faqatgina o'zini o'zi boshqarish organi emas, balki ijtimoiy muammolarni hal qilishning markaziy bo'g'iniga aylandi. Bu model ijtimoiy siyosatning manzilliligi va samaradorligini oshirdi.

Yuqoridagi tahlillar umumiy xulosaga imkon beradi: Yangi O'zbekiston davrida amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va davlat boshqaruvinu modernizatsiya qilishda muhim omil bo'ldi. Islohotlar tizimli, izchil va amaliy natijalarga yo'naltirilgani tufayli ijtimoiy siyosat yangi darajaga ko'tarildi. Jamiyatdagi ijtimoiy adolatni ta'minlash va aholi ehtiyojlarini qondirishda katta rol o'ynadi.

Xulosa va takliflar. Yangi O'zbekiston davrida amalga oshirilgan ijtimoiy siyosat islohotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2017–2024-yillar mamlakatning ijtimoiy rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Ijtimoiy himoya tizimining raqamlashtirilishi, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha manzilli yondashuvlar, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining modernizatsiyasi, yoshlar va ayollar siyosatini kuchaytirish hamda mahalla institutining transformatsiyasi ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni ta'minlashda muhim omil bo'ldi. Aholining ehtiyojlariga yaqinlashgan yangi boshqaruv modeli ijtimoiy siyosatning samaradorligini oshirdi va inson manfaatlarini markazga qo'ydi.

Kelajakda ijtimoiy siyosat yanada samarali bo'lishi uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, mahalla tizimini yanada mustahkamlash va ularning vakolatlarini aniq belgilash zarur; ikkinchidan, ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish jarayonini kengaytirib, barcha aholiga qulay va tezkor xizmat ko'rsatishni ta'minlash lozim; uchinchidan, kambag'allikdan chiqarish mexanizmlarini

HISTORY

diversifikatsiya qilish, oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish kerak; to‘rtinchidan, ta‘lim va sog‘liqni saqlashda malakali kadrlar tayyorlashni jadallashtirish va xalqaro standartlarni keng joriy etish maqsadga muvofiq. Ushbu takliflar ijtimoiy siyosatning izchil davom ettirilishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. (2017–2024). Oliy Majlisga Murojaatnomalar. Toshkent.*
2. *“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. (2023). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi.*
3. *“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2022–2026”. (2022). Toshkent: Strategik islohotlar agentligi.*
4. *Saidov, A. (2020). Ijtimoiy davlat va fuqarolik jamiyati. Toshkent: Akademya nashr.*
5. *Yusupov, N. (2021). Ijtimoiy himoya tizimi: islohotlar va rivojlanish istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot va statistika.*
6. *BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP). (2018–2024). Uzbekistan Human Development Reports. Nyu-York.*
7. *Jahon Banki. (2020–2023). Uzbekistan Economic Update: Social Protection and Poverty Reduction. Vashington.*
8. *Rustamov, B. (2022). Kambag‘allikni qisqartirishning zamonaviy mexanizmlari. Toshkent: Davlat boshqaruvi instituti.*

**ЎРТА ЗАРАФШОН ВОҲАСИДА УЧТУТ КОНЧИЛИК МАНЗИЛГОҲИНИНГ
ТУТГАН ЎРНИ**

Савриев Жасур Фахриддинович,

*Навоий инновациялар университети доценти,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

savriyevjasur99@gmail.com

Бахриддинова Маҳбуба Маҳмуджоновна,

Навоий инновациялар университети 1-босқич магистранти

Mahbubabahriddinovna10@gmail.com

Аннотация. Ўрта Осиё устахоналарининг аксарият кўп қисми Ўзбекистон ҳудудларида жойлашган. Бундай ёдгорликлар қаторига Оҳангарон дарёси водийсидаги (Қизилолмасой 1, 2, 3 ва 4, Жарсой, Гиштсой), Қопчигой дарасидаги (Қирғизистон) ва Ўрта Зарафшон воҳасида жойлашган, Қоратовдаги (Учтут, Ижонт, Вауш) устахоналарини киритиш мумкин. Учтут устахонасининг ашель-мустье даври комплекси. М.Р. Қосимов томонидан Учтут устахонасининг ашель-мустье комплексига 884 та тош буюм киритилган. Улар кремний ва кремнийлашган тош жинсларидан ишланган. Ўрта Осиё палеолитининг йирик тадқиқотчиси Л.Б. Вишняцкий бу ҳақда шундай ёзади: "...Учтут, Ижонт ва Вауш каби устахоналар бир -бирига яқин ва кремний ҳамда кремнийлашган оҳактош конлари атрофида жойлашган. Бу ерлардан турли даврларга оид — мустье, сўнги палеолит ва неолит комплекслари аниқланган. Ҳатто, энг кўп коллекцияга эга Учтут устахонаси учун ашель-мустье комплекси ҳам ажратилган.

Калит сўзлар: Қоратов, Учтут, Ижонт, Вауш, Оҳангарон, Қизилолма 2, Гиштсой, нуклеус, устахона, чақмоқлаш техникаси, классификация, палеолит, тош парақалар, шахта деворлари.

**РОЛЬ УЧТУТСКОГО ГОРНОГО ПОСЕЛЕНИЯ В
СРЕДНЕЗАРАФШАНСКОМ ОАЗИСЕ**

Аннотация. Большинство среднеазиатских мастерских расположено на территории Узбекистана. К таким памятникам относятся мастерские в долине реки Ахангаран (Кызылалмасай 1, 2, 3 и 4, Джарсай, Гиштсай), в ущелье Капчигай (Кыргызстан) и в Среднезарафшанском оазисе, а также в Каратау (Учтут, Иджонт, Вауш). Комплекс эпохи ашель-мустье мастерской Учтут. М.Р. Касымов включил в комплекс ашель-мустье мастерской Учтут 884 каменных изделия. Они изготовлены из кремния и окремнелых горных пород. Крупный исследователь среднеазиатского палеолита Л.Б. Вишняцкий пишет об этом: "Мастерские Учтут, Иджонт и Вауш расположены близко друг к другу и вокруг месторождений кремния и окремнелого известняка. Здесь обнаружены комплексы, относящиеся к различным периодам - мустьерскому, позднему палеолиту и неолиту. Даже для мастерской Учтут, обладающей наибольшей коллекцией, выделен комплекс ашель-мустье".

Ключевые слова: Каратау, Учтут, Иджонт, Вауш, Ахангаран, Кызылалма-2, Гиштсай, нуклеус, мастерская, техника расщепления, классификация, палеолит, каменные отщепы, стены шахты.

**THE ROLE OF THE UCHTUT MINING SETTLEMENT IN
THE MIDDLE ZARAFSHAN OASIS**

Abstract. The vast majority of Central Asian workshops are located in the territories of Uzbekistan. Such sites include the workshops situated in the valley of the Akhangaron River (Kizilolmasoy 1, 2, 3 and 4, Jarsoy, Gishtsoy), in the Kapchigay Gorge (Kyrgyzstan), in the Middle Zarafshon Valley, and in Karatau (Uchtut, Ijont, Vaush). The Acheulean-Mousterian complex of the Uchtut workshop: M.R. Kasimov included 884 stone objects in the Acheulean-Mousterian complex of the Uchtut workshop. They are made of siliceous and silicified rocks. L.B. Vishnyatsky, a prominent researcher of the Central Asian Paleolithic, writes about this: ... "Workshops such as Uchtut, Ijont, and Vaush are located close to each other and around deposits of flint and silicified limestone. Complexes from various periods - Mousterian, Late Paleolithic, and Neolithic -

have been discovered here. An Acheulean-Mousterian complex has even been identified for the Uchtut workshop, which has the largest collection”.

Keywords: *Qoratorov, Uchtut, Ijont, Vaush, Ohangaron, Qizilolma 2, G'ishtsoy, nucleus, workshop, flaking technique, classification, Paleolithic, stone flakes, mine walls.*

Кириш. Учтут шахталари меҳнат қурулларининг комплексида, Калтаминор маданиятининг илк босқичи қурулларига ўхшаш тош парақалар учратилади. Улар айнан Жойтун маданияти материаллари билан ўхшашликка эга. Шунинг учун Учтут шахта материаллари илк Калтаминор (Хоразм) ва Жойтун (Туркменистон) маданиятининг сўнгги босқичи материаллари билан тенг эканлигини ҳисобга олиб, унинг йил санасини мил. аввалги V минг йиллик деб белгилаш мумкин. Одамлар кон яқинида чакмоқтошлардан қуруллар ясаб, Учтут шахталарида ибтидоий устахоналарни вужудга келтиришиб, мамлакатимиз тарихида ёрқин из қолдиришди.

Мавзунинг долзарблиги ва методологияси. Учтут тоҳ-кон шахталарида 1967 йилдан бошлаб шахта қазишда қўлланилган янги методларга кўра, траншеялар (кенглиги 1 м) бир шахта доирасида эмас, балки бир қатламдаги бир неча шахталар қамраб олинган.

-1967 йилда қазилган 10 шахта икки галереяли бўлиб, унинг деворларида шохдан ясалган қурул излари яхши сақланганлиги аниқланган. Шундай қурул изларига 15 та дан ортик шахта деворларида дуч келишган.

-1972 йилда Учтут шахталарининг сони ва планиграфияси (жойлашиш тартиби)ни ўрганиш мақсадида шимолдан жанубга қаратиб 80 метрлик қилиб қазилган.

-1968–1974 йиллар давомида 35 та шахта ўрганилган. Улар ҳажми билан бир-бирларидан фарқ қилган. Шахталар конструкциясига кўра, уч гуруҳга (қудуксимон, бир камерали ва пиллапояли кўп камерали) ҳисобланган.

Таҳлил ва натижалар. Қоратоғ этакларига назар ташлаганда, Зарафшон дарёсигача бўлган улкан майдон-Навбахор туманининг бутун ҳудуди бутун бўй-басти билан намоён бўлади. Ўрта Зарафшон воҳасида, Навбахор нафақат тарихи, балки табиий бойликлари билан ҳам бебаҳо замин саналади. Туман ҳудудида 25 миллион йил аввал пайдо бўлган, аниқланган захиралари бўйича 3 миллион 340 минг тоннани ташкил этувчи бентонитли гил кони ҳамда қарийб 900 минг метр куб пардозбоп қурилиш тошлари мавжудлиги тўғрисидаги маълумотларга дуч келамиз[1]. Сабаби, бу тоғларда қанчадан-қанча археолог-олимлар ҳамда инженер технологларнинг ўша давр руҳиятини акс эттирувчи манба ва тадқиқотлари мавжуд.

Бу тупроқларда инсониятнинг илк даврларида яшаган аجدодларимизнинг изи бор. Бугунги кунда мазкур конлар қисман бўлса-да ўзлаштирилмоқда. Шунингдек, 30 миллион метр куб гранит, мрамор ва оҳақтош конлари ҳам бор. Қайд этиш керак, ҳудуди 1,5 минг километр квадратни ташкил этувчи, Навбахор тумани жойлашган макон тарихи юртимизнинг бошқа гўшаларига қараганда нисбатан кам ўрганилган. Қадим Сўғдиёна минтақасида жойлашган ҳозир ги Навбахор тумани ҳудуди бой тарихи билан алоҳида ажралиб туради. Бу ҳудуд Марказий Осиёда палеолит даврининг ўрта ва сўнгги босқичи (ми лоддан аввалги 100–40–12 минг йилликлар) даврлари ибтидоий одамлар ҳаётида ижтимоий-иқтисодий муносабатлар билан биргаликда маданий соҳадаги ўзгаришлар юз бериши натижасида инсоният цивилизациясининг муҳим бир ўчоқларидан бирига айланди. Бундай тамаддун ўчоқлари қулай табиий-географик шароити ва меҳнат қуруллари ишлаб чиқариш учун хомашё ресурслари сероб бўлган минтақаларда анъанавий ўзлаштирувчи хўжалик шароитида ҳам техникавий кашфиётлар қилганлар.

Ана шундай кашфиётлардан бири Қоратоғ тоғининг жанубий ёнбағирларида Учтут қишлоғида амалга оширилган. Бу ерда 1958 йил Х. Муҳамедов, 1959 йил А. Окладников, 1958–66 йилларда М. Қосимов[2]. Т. Мирсаатовлар раҳбарлигида қазишма ишлари олиб борилади. А. Муҳаммаджо новнинг таъкидлашича, бу қадимий ҳудудда аҳоли ўрта тош даври (Мусте – милоддан аввалги 100–40 минг йилликлар) босқичидан бошлаб яшаб келган. Бунга далил тариқасида Учтут манзилгоҳида топиб текширилган ўрта тош даври чакмоқтош синдириб олинган хомашё кони-сангбур, тош қуруллар яшаш устахонаси ва ибтидоий одамлар макони ҳамда янги тош (неолит) даври (милоддан аввалги 6–4 минг йилликлар)да чакмоқтош бўлаклари қовлаб олинган энг қадимги макон “Учтут шахтаси”нинг ўрни ва лаҳмлари ни келтириш мумкин[3].

Юқорида келтириб ўтганимиздек, техник кашфиётни, тоғ саноатининг сир-асрорларини биринчи бўлиб, 1958 йилда археолог М. Қосимов археологик изланишлар ўтказиб, Ижанд ва Учтут қишлоқлари яқинида чакмоқтош устахонаси ва чакмоқтош хомашёси “конларини” кашф этди. М. Қосимов ўрта ва сўнгги палеолитнинг босқичига доир чакмоқтош парақалари ва учқунлари топиб тадқиқот ишларини бошлаб берди. Учтут устахонаси узок даврлар давомида нафақат ўрта ва сўнгги

палеолит, балки неолит даврида ҳам қуролсоз усталарнинг бирламчи қурол яшаш макони сифатида мавжуд бўлган.

М. Қосимов Т. Мирсаатов билан биргаликда тадқиқот ишларини давом эттириб, 1958–1966 йилларда 13 та шахтани очадилар[4]. Коннинг умумий майдони 8000 м² бўлиб, шундан 1000 м² қазиб ўрғанилган ва 32 та чакмоқтош кони очилган. Учтут чакмоқтош конлари учи торайиб борувчи ўра шаклида (ени 95–110 см дан 4–5,5 метргача, чуқурлиги 5–5,5 метр гача) бўлган. Тоғ жинслари қатлами бошлангач, 1–2 метр қолганда конлар 3–4 метргача кенгайиб борган[5]. Учтут чакмоқтош конларининг тупроқ қатлаидан сақланиб қолган қурол излари шахталар қандай қуроллар ёрдамида қазилганлигини аниқлаш имконини беради. Ушбу манзилгоҳ нафақат водий тарихи, балки мамлакатнинг кўҳна тарихи нақадар қадимийлигини исботлаб турувчи тамаддун ўчоғи сифатида намоён бўлиб тургани учун 1967 йилдан бошлаб шахта қазиб ишлари янги усул билан олиб борилди. Шунинг таъкидлаш жоизки, қадимги қуролсоз усталар чакмоқтошга ишлов бериш техникасини мукаммаллаштириш йўлида мақсадли изланишлар ва экспериментал тажрибалар натижаси ўлароқ чакмоқтош устахоналарини ўрганишда катта ютуқларга эришган, яъни иссиқда қайнаб ётган чакмоқтошдан кўра нам тортган чакмоқтошдан қурол яшаш анча осон кечишини кашф қилганлар.

Бу кашфиёт профессор А. Семёнов ва унинг шогирдлари Г. Коропкова, Т. Мирсаатовлар томонидан чакмоқтошдан қурол яшашда бир неча бор экспериментал тажрибалар ўтказилиб, ибтидоий қуролсозлар кашфиёти синаб кўрилган. Экспремент натижаларига кўра, ҳақиқатда куёш хароратида чакнаб ётган тошдан кўра ўзига нам тортган чакмоқтошдан истаган шаклда қурол яшаш осон кечган ва хомашёни тежаш мумкин бўлган. Т. Мирсаатов ўтказилган экспериментал тажрибаларга асосланиб, Учтут ва Ижанд ёдгорликлар комплекси чакмоқтош хомашёсини топиш услубига асосланиб, уч хил объектларга бўлиб ўрганиди[6]. Бундан қадимги учтутликлар конларининг иккитаси хомашёни қазиб олиш билан боғлиқ ишлар, учинчисидан эса меҳнат қуролларини ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлган устахона ишлаб тургани маълум бўлди. Учтут тош устахоналари Тадқиқот натижаларига кўра, улар тош хомашёсини қазиб олиш усули қуролларининг типлари ва хронологик даврий саналари билан бир-бирларидан фарқ қилади:

Биринчи объект ер юзасида сочилиб ётган чакмоқтош бўлақларидан меҳнат қуроллари яшаш устахонаси бўлиб, унинг тахминий майдони 320 кв м, тош устахонаси майдони дан 3 мингдан ортиқ чакмоқтош парчалари ичидан 79 та меҳнат қуроллари ажратиб олинган.

Иккинчи объект – хомашёни очиқ жойда археологик қазилмалар ўтказиб олиш билан олиш уста хонаси бўлиб, унинг тахминий майдони 3200 кв м. Иккинчи объектдан 5400 дан ортиқ тош предметлари топилиб, улар орасида 403 та меҳнат қуроллари ва 17 та нуклеуслар борлиги аниқланган. Учинчи объект – неолит шахталари бўлиб, унинг тахминий майдони 4480 кв м. Бу объектда 38 та неолит (милоддан аввалги 6–4 минг йилликлар) шахталари ўрганилиб, уларни қазиб вақтида топилган 103 минг 400 га яқин чакмоқтош предметлари орасида 2279 та тош қуроллари ва 240 та ҳайвон шохларидан ясалган қуроллар борлиги аниқланган. Бу уч хил объектлардан топилган меҳнат қуроллари нинг шакли, характери, ишланиш техникасига кўра, улар тош даврининг тўрт хронологик босқичларига (ўрта палеолит, сўнгги палеолит, мезолит ва неолит) тегишли эканлиги аниқланган. Қадимги аждодлар меҳнат қуроллари яшашда дастлаб Қоратоғнинг юқори қисмидаги чакмоқтош қатлаидан турли табиий сабаблар таъсирида уқаланиб тушган ва ер юзасида сочилиб ётган чакмоқтош парчала ридан фойдаланган бўлсалар, хомашё олишнинг иккинчи босқичида, энди хомашёни ер юзасидан териб олмайдилар, балки юзаси очиқда, асоси эса тош қоя бағрида ётган чакмоқтошни тош болғалар ёрдамида кўчириб оладилар. Чунки нам тортган тошдан қурол яшаш анча енгил кечади. Хомашё олишликнинг учинчи босқичида аждодлар шахта йўли билан бир неча метр қалинликдаги саз тупроқ остидан ётган чакмоқтош хомашёси қазилмалар ўтказиб олиш билан уни турли жинслардан кўчириб оладилар. Учтут шахталари асосан неолит даврига тегишли бўлиб, уларнинг 100 дан ортиқ излари Учтут қишлоғи яқинида Вовуш қоялари остидан ҳосил бўлган неоген қатлами майдонида бизгача сақланиб қолган[7]. Бу қадимий манзилгоҳда аждодларимиз қончилик ишлари учун махсус мосламаларни табиатнинг ўзидан олишган.

Яъни, ер қазиб ишларини тош-болғалар, ҳайвон шохлари, дўлана ёғочидан ишланган қуроллар ёрдамида бажаришганини тадқиқот ишлари олиб борилган қазилма майдонларидан топилган ёғоч ва шох “қирка”лари нинг қолдиқлари исботлаб турибди. Тупроқ қатлами остидан ётган чакмоқтош хомашёсини қазиб олиш вақтида юқори палеолит ва мезолит даврларига тегишли қуроллари топилиб, улар орасида 100 дан ортиқ ер қазувчи, тош кўчирувчи тош “қирка”лар ва бошқа меҳнат қуроллари бўлган[8]. Уларнинг юқори палеолит даврига тегишли неоген қатламининг қуйи гори зонтларидан топилса, мезолит даврига тегишлилари юқори горизонтлардан топилган.

HISTORY

Хулоса. Шундай қилиб, Зарафшон водийсининг Учтут ва Ижанд қишлоқлари яқинида олиб борилган археологик қазишма ишлари давомида янги соҳа-тоғ саноати билан боғлиқ хомашё ишлаб чиқариш объектлари очилди. Улар Вовуш тоғининг палеоген қолдиқлари устида қадимги тош (палеолит) даврида ташкил топиб, мезолит даврида давом этган тош устахоналари ва неолит даврининг шахталари бўлиб, бу объектлар Учтут шахталари номи билан фан оламига кирди. Учтут шахталарини ўрганиш “неолит инқилоби” билан боғлиқ инсоният тарихида, унинг кундалик ҳаётида илк бор таркиб топган кашфиётлардан бири бўлиб, айнан шу даврдан бошлаб аجدодларимиз иқтисодий ва ижтимоий ҳаётида туб-ўзгаришлар содир бўла бошлади. Учтут шахталарини ўрганиш жараёнида аجدодлар ҳаётида юз берган биринчи ижтимоий меҳнат тақсимотининг илк куртаклари неолит даврдан бошлаб ниш ура бошлайди. Учтут қадимий шахталари мажмуининг топилиши ва тадқиқ этилиши олимларимизга ўлкамизнинг, хусусан, Навоий вилояти Навбаҳор туманининг аввал маълум бўлмаган қадимги тарихи ҳақидаги маълумотларни аниқлашга имкон беради

АДАБИЁТЛАР:

1. Муаллифлар жамоаси. *Навбаҳор тарихи. Кеча ва бугун.* - Тошкент: © «САҲҲОФ», 2021, - Б. 10
2. Касымов М.Р. *Кремнёвая мастерская у кишлака Учтут в районе горы.*
3. *Картау Бухарской области (По материалам археологической экспедиции).*
4. *Научные работы и сообщения. Кн. 6, Ташкент, 1963.*
5. *Иноятов С., Ҳайитова О. Кармана тарих кўзгусида. – Тошкент: “Шарқ”, 2006. – Б. 20–21.*
6. *Мирсаатов Т. Горные разработки эпохи камня. Ташкент-1977.- С.33.*
7. *Облақулов Ф. Навбаҳор тумани (тарихий, иқтисодий, ижтимоий тиббий, маърифий, жузғрофий, адабий маълумотлар). – Тошкент: “Абу Али ибн Сино”, 2000. – Б. 15.*
8. *Джўрақулова Д. Зарафшон водийсининг тош ва бронза даври маданияти. – Тошкент: “Фан”, 2011. – Б. 39–40.*

КОНИМЕХ ТУМАНИ КЕЧА ВА БУГУН

Савриев Жасур Фахриддинович,

Навоий инновациялар университети доценти,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
savrievjasur99@gmail.com

Тилегенова Элиза Бахтияровна,

Навоий инновациялар университети 1-босқич магистранти
tilegenovaeliza002@gmail.com

Аннотация. Мазкур мақолада, сўнги йилларда, Конимех туманида юз бераётган жадал ўзгаришларни тилга олар эканмиз, мазкур саъй-ҳаракатлар замирида, энг аввало, мана шу ерда яшовчи инсонларнинг интилиши ва истаклари мужассамлиги, ҳар бир эзгу ишлар ҳудуднинг қадим бой тарихига бориб тақалиши намоён бўлади. Сўнги йилларда бу ҳудудни ривожлантиришига шахсан давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев жуда катта эътибор қаратганлари ҳамда Навоий вилоятининг олис чўл туманлари аҳолиси турмуши даражасини янада яхшилашига доир бир қатор қарорлари ижроси юзасидан бу ҳудудларда ҳаёт сифатини юксалтириши йўлида жадал ислохотлар ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: Қизилқум, саҳро, иқлим, чордара, қумработ, чорвачилик, наслчилик, тадбиркорлик, инвестиция, меъморий ёдгорликлари, зиёратгоҳлари, қадимий бой тарих, ландшафт.

КАНИМЕХСКИЙ РАЙОН ВЧЕРА И СЕГОДНЯ

Аннотация. В этой статье, говоря о стремительных изменениях, происходящих в Канимехском районе в последние годы, мы видим, что в основе этих усилий лежат стремления и желания людей, живущих здесь, и что каждое благое дело уходит корнями в древнюю богатую историю региона. Речь идёт об ускоренных реформах, направленных на повышение качества жизни в этих районах, в связи с огромным вниманием, которое в последние годы уделяет развитию этого региона лично глава нашего государства Шавкат Мирзиёев, а также во исполнение ряда его постановлений, направленных на дальнейшее повышение уровня жизни населения отдалённых пустынных районов Навоийской области.

Ключевые слова: Кызылқум, пустыня, климат, Чордара, Кумрабат, животноводство, племенное дело, предпринимательство, инвестиции, архитектурные памятники, святыни, древняя богатая история, ландшафт.

KANIMEKH DISTRICT YESTERDAY AND TODAY

Abstract. In this article, as we discuss the rapid changes taking place in the Kanimekh district in recent years, it becomes evident that at the core of these efforts lie, first and foremost, the aspirations and wishes of the people living here, and that every positive endeavor is rooted in the region's ancient and rich history. In recent years, the head of our state, Shavkat Mirziyoyev, has personally paid great attention to the development of this region. In connection with the implementation of a number of resolutions aimed at further improving the living standards of the population in remote desert districts of the Navoi region, intensive reforms are being carried out to enhance the quality of life in these areas.

Keywords: Kyzylkum, desert, climate, Chardara, Kumrabit, animal husbandry, breeding, entrepreneurship, investment, architectural monuments, pilgrimage sites, ancient rich history, landscape.

Кириш. Конимех тумани – Навоий вилоятидаги туманлардан бири ҳисобланади. У 1926 йил 29 сентябрда ташкил этилган. Конимех тумани, вилоятнинг шимолий ғарбида жойлашган. Шарқдан, Навбахор шимолии-шарқдан Нурота, ғарбдан Томди, Учқудуқ, жанубдан Қизилтепа туманлари, ғарбдан Бухоро вилоятининг Гиждувон, Пешку туманлари билан чегарадош. Майдони 15,5 минг км квадрат. Аҳолиси 36,9 минг кишини ташкил этади (2020 йил ҳолатида). Туманда 1 та шаҳарча (Конимех), 7 кишлоқ фуқаролари йиғини (Боймурот, Саржал, Учтепа, Чордара, Янгиобод, Янгиқазган, Каракота) кабилардан иборат.

Маркази Конимех шаҳарчаси. Табиати. Рельефи, асосан, текислик, кўп қисми қумликлардан ташкил топган. Шимоли-шарқда Қизилқум чўли, жануб ва жануби-ғарбда Зарафшон водийси билан туташган. Туманнинг ғарбида Овминзатовнинг шарқий тармоқлари жойлашган. Жанубий қисмида Қарақота ботиғи бор. Иқлими қуруқ, кескин континентал. Ўртача ҳарорат июл ойида 32-33 градусни, январ ойида эса -0-2). Йилига 100-150 мм ёғингарчилик кузатилади. Вегетация даври қисқа. Туманда оқар дарё йўқ. Асосан, артезиан сувларидан чорвачилик ва деҳқончиликда фойдаланилади. Ўшркул сув омбори қурилган бўлиб унда асосан балиқ овлашда фойдаланилади.

Мавзуга доир адабиётлар таҳлили. Тупроғи оч тусли бўз, шўрхок. Ўсимликлардан эфемер, эфемероидлар ва бутасимон ўсимликлар, ранг, кўнғирбош, астрагал, селкин, саксовул, куёнсуяк кабилар ўсади. Ёввойи ҳайвонлардан тулки, чиябўри, жайрон, кемирувчилар ва судралувчилар яшайди. Туман худудидаги Қизилқум кўриқхонасида тўқай ва чўл ландшафтлари мажмуоти ва у ердаги нодир ҳайвонлардан бухоро буғуси (хонгул) муҳофазага олинган. Аҳолиси ўзбек, қозоқ, қорақалпоқлар ва бошқа миллат вакиллари ҳам яшайди. 1 км квадратга ўртача 2,4 киши тўғри келади. Шаҳарликлар 8,4 минг киши, қишлоқ аҳолиси 28,5 минг кишини ташкил этади.

Конимех туманининг меъморий ёдгорликлари ва зиёратгоҳларига қуйидагилар киради.

- Қилич ота макбараси (туман худудида);
- Раим-хўжа меъморий ёдгорлиги (1997 йил туман марказида);
- Мих ота меъморий ёдгорлиги (1995 йил туман марказида);

Археологик ёдгорликлари:

- Чордара тепалиги қўрғони (IV-V аср туман марказида);

Музей:

- Конимех туман тарихий-ўлкашунослик музейи (туман марказида);

Туман қишлоқ хўжалигининг асосий тармоғи-чорвачилик (қоракўлчилик) ғаллачилик билан шуғулланади. Конимех туманида фосфор конлари, 100 дан зиёд кичик ва хусусий қорхоналар фаолият олиб боришади[1]. Шундан 20 таси давлат қорхоналари ҳисобланиб ўндан ортиқ акциядорлик жамиятлари ҳам мавжуд. Суғориладиган ерлари 5,2 минг гектардан иборат бўлиб 1,9 га ерга ғалла экилади ҳамда 9 та ширкат хўжалиги фаолият кўрсатади. Туман ширкат ва шахсий хўжаликларида қарийиб 8,6 минг қорамол, 500 мингга яқин қўй ва эчки, 2 мингдан зиёд туя, 5 мингга яқин от боқилади.

Туман худудининг асосий қисмини ўрмон хўжалиги эгаллайди (майдони 1660 минг га) Дарахтларининг асосий турларига саксовул, юлғун, терак ва тол кабилар ташкил этади. Туманнинг ўрта қисмидан Навоий-Учқудуқ темир йўли ҳамда асосий магистрал йўли кесиб ўтган. Темир йўл 212 км, автомобил транспорт йўллари қарийиб 300 км. Туманда 40 умумий таълим мактаби (шундан 2 мактаб-гимназия, 1 лицей-интернат, касб-хунар, спорт мактаби 23 та кутубхона, 11 клкб, тарих ва ўлкашунослик музейи, болалар маданий маркази мавжуд. 1 марказий касалхона 225 ўринга мўлжалланган бўлиб тиббий муассасаларда 90 врач, 200 га яқин ўрта маълумотли тиббий ходим ишлайди. Конимех тонги газетаси туманнинг иқтисодий ва ижтимоий соҳага оид янгиликларини мунтазам равишда республика жамоатчилик афкор оммасига ёритиб келади. Газета 1930 йилдан бошлаб нашр этила бошлаган ва бугунги кунда адади 1500 нусхани ташкил этади. Сўнгги йилларда Конимех туманида юз бераётган жадал ўзгаришларни тилга олар эканмиз, мазкур саъй-ҳаракатлар замирида, энг аввало, мана шу ерда яшовчи инсонларнинг интилиши ва истаклари мужассамлиги, ҳар бир эзгу ишлар худуднинг қадим бой тарихига бориб тақалиши намоён бўлади. Сир эмас, Конимех туманига яқин-яқин йилларгача фақатгина чорвачиликка ихтисослашган туман сифатида қаралиб келинарди. Сўнгги йилларда бу худудни ривожлантиришга шахсан, Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев жуда катта эътибор қаратди. Президентимизнинг Навоий вилоятининг олис чўл туманлари аҳолиси турмуш даражасини янада яхшилашга доир бир қатор қарор лари ижроси юзасидан бу худудларда ҳаёт сифатини юксалтириш йўлида жадал ислохотлар амалга оширилмоқда[2].

Унинг саноати, чорвачилиги, ўзига хос табиати ва стратегик жойлашуви худудни янада ривожлантириш учун мустаҳкам замин яратиб келаётир. Қизилқум бағрида жойлашган Конимех тумани ўзининг 100 йиллик тарихий юбилейини муносиб нишонламоқда. Бугун бу худудда кўп йиллик меҳнат, жасорат ва янгиликни самаралари яққол кўзга ташланмоқда. Ёзда жуда иссиқ, қишда эса совуқ ва қуруқ иқлимли чўл шароитига қарамай, ўзбек, қозоқ, қорақалпоқ ва яна ўндан ортиқ миллат вакиллари тотув ва иноқ ҳаёт кечириб, туман тараққиётига муносиб ҳисса қўшиб келяпти.



Конимех туманининг рамзий белгиси. Ушбу белги 2018 йилда қайта янгидан барпо этилган

– Сўнги йилларда давлатимиз раҳбарининг ташаббуслари билан Конимехда кенг кўламли ислохотлар амалга оширилди. Инфратузилма янгиланди, иқтисодий салоҳият кенгайди, аҳоли турмуш даражаси яхшиланди, – дейди туман ҳоқими Руслан Рўзиев. – Бугунги Конимех бир асрлик тараққиётнинг янги босқичига қадам қўйган, замонавий кўринишга эга ҳудуддир. Саноат, қишлоқ хўжалиги ва хизматлар соҳаларидаги ўсиш бунинг исботидир. Охириги беш йилда саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш 6, қишлоқ хўжалиги 2,2, қурилиш ишлари 2,8, чакана савдо 2,3, хизматлар кўлами эса 2,2 баробар ошди.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. Тадбиркорлик субъектлари сони ҳам 817 тадан 1348 тага етди. Туманда инвестицияларни жалб этиш бўйича ҳам муҳим натижалар қайд этилди. Беш йил ичида қиймати 396,2 миллион доллар бўлган 302 та лойиҳа амалга оширилди, 2 мингдан ортиқ иш ўринлари яратилди. Ушбу йўналишда 137,3 миллион долларлик хорижий инвестициялар ўзлаштирилиб, умумий инвестиция ҳажми 23 баробарга кўпайтирилди. Туманда томчилатиб суғориш технологиялари жорий этилиши натижасида 100 гектардан ортиқ майдонда юқори сифатли пахта хомашёси етиштирилди. Чорвачилик соҳасида ҳам улкан ютуқлар қайд этилмоқда. Беш йилда чорва бош сони 620 мингга етди, яъни 115 фоизга ошди. Наслчиликни ривожлантириш мақсадида Монголиядан 10 мингдан ортиқ насли кўйлар олиб келинди. Конимехда замонавий инфратузилма барпо этиш ишлари изчил давом этмоқда. Охириги беш йилда 215,7 км автомобиль йўллари ва ички кўчалар таъмирланди. 68,2 км ичимлик суви тармоқлари қурилиб, 9 та аҳоли пункти тоза ичимлик суви билан таъминланди. Чўл ҳудудларидаги қатор овулларда янги қудуқлар қазилди. Электр таъминотини янада яхшилаш мақсадида 151,3 км электр тармоқлари ва 18 та янги трансформатор пунктлари ишга туширилиб, минглаб хонадонлар ва юзлаб тадбиркорлик субъектларининг шароити яхшиланди. Гунги кунда туманда тиббиёт ва таълим соҳаларида ҳам сезиларли ўзгаришлар кузатилмоқда. Бирламчи тиббий ёрдам муассасалари сони 13 тага етди, 7 та “Маҳалла тиббиёт пункти” ташкил этилди. Янгиғазгон ва Саржал шифокорлик пунктлари капитал таъмирдан чиқарилди.

Таълим соҳасида мактабгача таълим ташкилотлари 15 тадан 37 тага кўпайди, қамров даражаси 90,1 фоизга етди. Мактаблар таъмирланиб, 312 та янги ўқув ўринлари яратилди. Олий таълимга кириш кўрсаткичлари ҳам 32,8 фоиздан 43,6 фоизга ошди. Юз йиллик тарихга эга Конимех тумани бугун нафақат замонавий, обод ва истиқболли ҳудудга айланиб борди, балки бирдамлик ва дўстлик, янги қурилишлар, янгиланишлар масканига ҳам айланди. Туманда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотлар аҳоли турмуш даражасини янада яхшилаш учун олиб бориляпти. Албатта, туман аҳлининг тараққиётга интилиши, меҳнатсеварлиги ва бирдамлиги туфайли туман ҳар томонлама ривожланиб, юксалиб бормоқда. 100 йиллик байрам шодиёналари тумanning барча ҳудудларида кенг нишонланмоқда.

Байрам муносабати билан туман марказида маданият маркази таъмирдан чиқарилиб фойдаланишга топширилган бўлса, туман Адлия бўлимига қарашли давлат Архиви таркибида 100 йиллик тарихни акс эттирувчи ноёб экспонатлар ўрин олган музей очилди. Байрам муносабати билан улоқ кўпқари мусобақаси ташкил этилди. Куй-қўшиқлар янграб, барчага байрамона кайфият улашилмоқда. Ўзбекистон “Миллий тикланиш” демократик партияси Марказий Кенгаши ташаббуси билан Конимех туманинг 100 йиллик тўйига атаб, муносиб тухфа сифатида музейлар ва хонадонларда сақланаётган қадимий гиламлар тарихи ўрганилди[3].



Қизилқум бағридаги Конимех 100 ёшда.

Бугунги кунда вилоят партия мутахассислари томонидан сиз сураётган мазкур гилам вилоят тарихи ва маданият давлат музейида сақланаётган бўлиб, у кигиз гилам деб юритилади. XX асрнинг 40 йилларига тегишли ушбу гилам Конимех худудига қарашли. Ундан ўтовлар устини қоплашда фойдаланишган. Гилам сув ва нам ўтказмаслик хусусиятига эга бўлиб, қишлоқ жойларда улар пол қилинмаган хоналарга тўшалган. Ҳозирда ҳам аҳоли бу каби гиламлардан кенг фойдаланади. Конимех худудидан, Буюк ипак йўлининг тармоқлари ҳам ўтган. Ривожланган ўрта асрлар даврида транзит алоқа йўллари билан бир қаторда Мовароуннаҳр шаҳарлари ва вилоятларини ўзаро бир-бири билан боғловчи маҳаллий савдо йўллари ҳам катта аҳамият касб этган. Мазкур йўллар шаҳар ва қишлоқларни ҳам ашё манбалари, фойдали қазилма лар олинадиган конлар билан ҳам боғлар эди. Қизилқум чорвадорлари етиштирган қорақўл терилар, туз, Нурота мармари, Учтут чакмоқтошлари худуднинг энг харидоргир маҳсулотлари турига кирган” [4]. Шунингдек, сопол буюмлар, деҳқончилик маҳсулотлари ҳам ана шу йўллар орқали Самарқанд, Бухоро ва бошқа юртларга чиқарилган.

Буюк Ипак йўлининг асосий тармоқларидан бири Самарқанд орқали Хатирчи томондан келиб, Ижанд, Учтут, Харқона, Фарзикент орқали давом этиб, Конимех даштидан Конимех, Қумработ, Момиқчи, Шўркўл орқали Ғиждувон, Бухоро шаҳар ларига тушган. Қумработдан бироз ўтгач, йўл жанубга – Тошработ ва Тавоисга ҳам йўналган. Ўрта аср тарихчилари асарларида Сўғд ўлкасида савдо-хунармандчилик жадал ривожлангани ва бу қишлоқлардаги бозорларда савдо-сотик молларининг хилма-хиллигига эътибор қаратилган. Жумладан, Конимехнинг Қумработ қишлоғида кулолчилик билан шуғулланган 9 хонали ҳовли топилган. Ҳовлида хумдон бўлиб, унда жуда нафис сопол буюмлар пиширилган[5]. Мазкур идишлар, албатта, бозорга олиб чиқилган. Ўрта асрларда Буюк Ипак йўлининг кичик тармоқлари Конимех тумани худудидан ўтган. Конимех ва Томди туманларининг маҳаллий аҳолиси билан бўлган суҳбатларда Қизилқум худудидан Буюк Ипак йўлининг бир қанча тармоқлари ўтганлиги таъкидланди. Қизилқум худудидан Бухоро – Хива, Сирдарё – Хива, Бухоро – Окмачит, Бухоро – Қаракота – Томди – Бешбулоқ орқали Қақпатос – Жузқудук – Боқантау – Қизилқоқ орқали Сирдарё бўйларига етган. Буюк Ипак йўлининг иккинчи асосий қарвон йўли шимолий Зарафшон воҳаси чўллари орқали Конимех, Янгиқўрғон орқали икки томонга айрилади. Бир томони Ғиждувон орқа ли Бухорога, иккинчи йўналиши Янгиқўрғондан Кармана орқали Каттақўрғон ва Самарқандга йўналган. Маълумотларга кўра, Конимех туманида 2 425 072 минг тонна ёнувчи сланец, 8236 минг тонна донадор фосфорит, 245, 5 минг тонна минерал туз, 1880 минг тонна қўнғир темир жинслари захираси мавжуд. Сўнги йилларда туманда умумий қиймати 77 млрд. сўм миқдоридаги маблағларни ўзлаштириш ҳисобига 40 та лойиҳа амалга оширилиши натижасида минглаб янги иш ўринлари яратилди. Иқтисодиётни ривожлантиришда кичик биз нес субъектларининг ўрни ва салмоғини ошириб бориш асосий стратегик мақсад сифатида белгиланди. Бунинг учун ҳар бир соҳага деференциал ёндашган ҳолда тумандаги мавжуд корхоналар билан кичик бизнес субъектлари ўртасида кооперация алоқаларини мустаҳкамлаш бўйича чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Хулоса сифатида шуни айтишимиз мумкинки, туризм индустрияси жаҳон иктисодиётининг энг жадал ривожланиб бораётган тармоқларидан бирига айланиб бораётган бир пайтда, Конимех туманида сайёҳларни жалб қилувчи экотуризм билан боғлиқ, бетакрор гўзал табиат, ландшафт, хилма-хил ноёб ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, нодир, дунё аҳамиятига эга бўлган археологик топилмалар, палеонтологик қолдиқлар, дунёда кам учрайдиган геологик кесимлар мавжуд. Бир сўз билан айтганда, Конимех туманида экотуризмни ривожлантириш бўйича жуда катта туристик салоҳият мавжуд, туризм индустриясини ривожлантириш имкониятлари ҳам юқори. Буни қуйидагиларда кўришимиз мумкин:

Биринчидан, мамлакатда дунёга машҳур ва хорижий саёҳатчиларни жалб қилувчи қадимий жойлар, тарихий ёдгорликлар билан бир қаторда экотуризм билан боғлиқ бўлган бетакрор гўзал табиат, ландшафтлар (сахро, чўл-адирлар, тоғлар, пасттекисликлар) бор. Қизилқум Евроосиёнинг энг йирик сахроларидан бири ҳисобланиб, шимолда Орол денгизи соҳилидан, жанубда Зарафшон дарёси ёнидаги нисбатан тор фаровон оазисгача чўзилган. Қизилқум битмас-туганмас ер ости ва ер усти бойликларига эга. Навоий вилоятида юртимизни бақувват, кадр-қимматимизни баланд, кўлимизни узун қиладиган, одамларнинг фаро вон турмушига асос бўладиган кўпдан-кўп табиий бойликларнинг улкан захиралари мавжуд. Буларнинг энг асосийси ўзининг юксак сифати билан бутун дунёда машҳур бўлган Қизилқум олтинидир[6]. Мутахассисларнинг таъкидлашича, Менделеевнинг даврий системасига кирувчи кўплаб элементлар бу ерда мавжуд. Қизилқумнинг яна бир бойлиги шундан иборатки, бу ернинг табиати ёввойи ҳолда бўлгани, чўлу биёбонларнинг бекиёс гўзаллиги, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсининг ранг-баранглиги туристларнинг қизиқишларига сабаб бўлмоқда.

Иккинчидан, ҳудудда энг катта сув ҳавзаси Айдарқўл жойлашган. 1969 йилнинг қиши ўлкада узоқ ва жуда қорли бўлди. Баҳорда бу сув кўтариллиши ва Сирдарёнинг ўзанидан тошиб кетишига олиб келди. Сувнинг ҳалокатли даражаси Чорвоқ сув омбори ва кўпгина аҳоли зич яшайдиган туманларни ювиб кетиш хавфини туғдирди. Шунда ортикча сув авария шлюзи орқали шўрхок Арнасой чуқурлигига оқизиб юборилди. Шу тариқа, Қизилқум сахросида сув ҳавзаси Айдарқўл пайдо бўлди. Ўзининг бетакрор табиати, жозибали сув дунёси, ўсимлик, ҳайвонот ва фаунаси Айдарқўлни Қизилқумнинг гўзал “жавоҳири”, деб аташга тўла асос бўла олади. Айдарқўл шароитлари экотуризмни ривожлантириш учун жуда қулай. Бу ерга кўплаб мамлакатлардан дам олиш ва ов қилиш мақсадида тез-тез сайёҳлар келишлари фикримизнинг ёрқин исботидир.

Учинчидан, Айдарқўл каби туман ҳудудидаги Шўркўл сув ҳавзасида ҳам эко туризм имкониятлари юқори ҳисобланади.

Тўртинчидан, “Чордара” тарихий-археологик ёдгорлиги, “Қилич ота” зиёратгоҳи, Мих ота масжиди буюк қадамжолардан ҳисобланади.

Бешинчидан, ўзбек, қозоқ, қорақалпоқ халқи удумлари, урф-одатлари, фольклор кўшиқлари, кўпқари ўйинлари каби маданий мероснинг бойлиги туризмни ривожлантиришга омил бўла олади.

Олтинчидан, Конимехда бошқа ҳудудларга нисбатан ўзига хос хусусиятига кўра ажралиб турувчи гастрономик туризм алоҳида аҳамиятга эга. Шу ерда яшовчи халқнинг қимиз, шубат каби ичимликлари, бешбармоқ, ош, қабоб каби таомлари туризмнинг бу соҳасини ривожлантиришга тўла асос бўла олади.

Бир сўз билан айтганда, Конимех туманидаги тарихий ёдгорликлардан ташқари, ҳудуднинг ўзига хос ва бетакрор табиати, Қизилқумнинг табиий гўзаллиги, алоҳида ажралиб турувчи ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, Айдарқўлдек ноёб сув ҳавзаси алоҳида ва ўзгача аҳамият касб этмоқда. Шаҳар шовқинидан чарчаган, табиат қўйнида дам олиш иштиёқида бўлган сайёҳлар учун бу жойлар ниҳоятда қулай.

АДАБИЁТЛАР:

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/konimex-tumani-uz/>
2. *Конимех тарихи. Муаллифлар жамоаси.-Тошкент: “SAHHOF”,2021.-Б.220* Мазкур китоб Конимех тумани ҳокимлиги ва Ўзбекистон Журналистлари ижодий уюшмаси Навоий вилояти бўлими ҳамкорлигида тайёрланди.
3. [https://darakchi.uz/uz/53776//Навоийдаги энг қадимги гилам қаерда сақланади.](https://darakchi.uz/uz/53776//Навоийдаги_энг_қадимги_гилам_қаерда_сақланади.)
4. Мавлонов Ў., Маҳкамova Д. *Маданий алоқалар ва савдо йўллари. – Тошкент: “Академия”. 2004. – Б. 44.*
5. *Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. – Тошкент: “Фан”, 1991. – Б. 33.*
6. *Жусуп Элқожа ўлы. Тауелибай. – Кенимех: 1998. – Б. 8.*

**“TARJIMON” GAZETASIDA TURKISTONNING SIYOSIY AHVOLIGA DOIR
MA’LUMOTLAR TAHLILI**

*Sodiqova Nargiza Nasri qizi,
ZARMED universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi
nagisodiqova@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ismoilbek Gasparalining "Tarjimon" gazetasida Turkistonning siyosiy hayoti haqida taqdim etilgan muhim ma'lumotlar tahlil qilinadi. Gazeta, Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakasi ostida bo'lgan bir davrda, bosqinchi hukumatning o'lka siyosati va uning ta'sirini yoritishda muhim rol o'ynagan. Maqola, avvalo, Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi va mustamlakachilik siyosatining mohiyati haqida qisqacha ma'lumot berib, keyinchalik "Tarjimon" gazetasida aks ettirilgan siyosiy jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan. Bu orqali o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy konteksti va uning tarixiy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: "Tarjimon", nizom, soliq, general-gubernatorlik, ko'chirish siyosati, qozi, "Vabo isyoni", mustamlaka.

**АНАЛИЗ ИНФОРМАЦИИ О ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ В ТУРКЕСТАНЕ В
ГАЗЕТЕ «ТАРЖИМОН»**

Аннотация. В статье анализируются важные сведения о политической жизни Туркестана, представленные в газете Исмаилбека Гаспарали «Таржимон». Газета сыграла важную роль в освещении местной политики оккупационного правительства и его влияния в период колонизации Туркестана Российской империей. В статье, прежде всего, даются краткие сведения об оккупации Туркестана Россией и сути колониальной политики, а затем анализируются политические процессы, отражённые в газете «Таржиман». Это раскрывает общественно-политический контекст того периода и его историческое значение.

Ключевые слова: «Переводчик», устав, налог, генерал-губернатор, переселенческая политика, судья, «Чумное восстание», колония.

**ANALYSIS OF INFORMATION ON THE POLITICAL SITUATION IN TURKESTAN IN
THE NEWSPAPER "TARJIMON"**

Abstract. This article analyzes important information about the political life of Turkestan presented in Ismailbek Gasparali's newspaper "Tarjiman". The newspaper played an important role in covering the local policy of the occupying government and its influence during the period when Turkestan was under the colonization of the Russian Empire. The article, first of all, provides brief information about the occupation of Turkestan by Russia and the essence of the colonial policy, and then focuses on analyzing the political processes reflected in the newspaper "Tarjiman". This reveals the socio-political context of that period and its historical significance.

Keywords: "Translator", charter, tax, governor-general, resettlement policy, judge, "Plague Rebellion", colony.

Kirish. Ismoilbek Gasparalining "Tarjimon" gazetasida Turkistonning siyosiy hayotiga oid muhim ma'lumotlar taqdim etib borilgan. Ma'lumki, bu davrda Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakasi ostida bo'lib, gazeta sahifalarida bosqinchi hukumatning ushbu o'lkaga nisbatan siyosati ochib berilgan. "Tarjimon" orqali Turkistondagi siyosiy jarayonlarni tahlil qilishdan oldin imperiyaning Turkistonning bosib olishi va uning mustamlakachilik siyosatining asl mohiyati haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Imperiya iqtisodiy siyosatida Turkistonni xom ashyo bazasiga aylantirish, uni Rossiya mollari sotiladigan bozor sifatida tutib turish va tabiiy boyliklarni markazga tashib ketishni maqsad qilgan edi va buni to'liq amalga oshirdi. 1869 – 1896 yillari imperiya xazinasi Turkistondan 158 million rubl daromad olgan. [1;7]

XIX asr o'rtalariga kelib, Rossiya imperiyasi matbuotida Hindistondan boy o'lkani mustamlakaga aylantirgan Angliyadan o'rnak olib, Turkistonda faol harakatga chorlovchi maqolalar paydo bo'la boshlaydi.

1863 yili Polsha, Litva, Belorussiya va Ukrainadagi milliy ozodlik harakatlarini bostirgan, 1864 yili Kavkazda tog'liklarning so'nggi tayanchi, hozirgi Chechenistonni egallagan imperiya bosqinchilari asosiy e'tiborini Turkistonni bosib olishga qaratdi. Shu yilning o'zida Rossiya imperiyasi Bosh shtabi Osiyo bo'limi rahbari graf N.Ignatev taklifiga ko'ra bosqinchilar Qo'qon xonligiga qarshi e'lon qilinmagan urush boshlaydilar. 1864 yil yozida polkovnik Mixail Chernyaev Avliyoota shahriga yurish qiladi. Avliyoota xalqi shahar hokimi Niyoz Ali Turkiston shahriga qochib ketib qolganiga qaramay, shaharni mudofaa qiladi. Harbiy qurol aslaha va askarlar soni ko'pligi jihatidan M.Chernyaev qo'shinlari Avliyootani egallaydi. Bu paytda polkovnik Vervovkin qo'shinlari ham Turkiston shahrini vayron qiladi. Chimkent uchun boshlangan janglarda amiri lashkar Alimqul qo'shinining qo'li baland kelgan va bosqinchilar chekinishga majbur bo'lgan. Puxta tayyorgarlikdan so'ng, 1864 yil 14 sentyabrda Chimkentga ikkinchi bor yurish boshlagan M.Chernyaev 22 sentyabrda shaharni egallaydi.[18;62] 1864 yil 27 sentyabrda Toshkentga hujum boshlab, mag'lubiyatga uchragan M.Chernyaev qo'shini 1865 yil bahorida ikkinchi hujumini boshlaydi. Ayrim vatan xoinlarining ko'magida shu yilning yozida shaharni bosib oladi. Amir lashkar Alimqul qo'shini va Toshkent xalqi shahar mudofaasi uchun tengsiz janglar olib boradilar. Ammo harbiy jihatdan qudratli bo'lgan bosqinchilarni yenga olmaydilar.[19;135-141]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu maqolani tayyorlashda Ismoil Gasprinskiy muharrirligidagi "Tarjimon" gazetasida 1883-1914 yillarda chop etilgan maqolalardan, shuningdek, "Russkiy vestnik", "Najot" gazetalarida nashr etilgan Turkistondagi siyosiy voqealar bayon qilingan maqolalardan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzu tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Imperiyaning zo'ravon siyosati Turkiston xalqining tinkasini quritgan. Bosqin davrida Vatan himoyasi uchun ko'plab yigitlaridan mahrum bo'lgan xalq ozodlik uchun doimiy ravishda qo'lga qurol olgan va mustamlakachilik zulmiga qarshi kurash olib borgan.

1880 – 1890 yillari aholidan olinadigan soliq ikki marta ko'paygan. Soliqchilikka oid qonunga ko'ra, umumiy olinadigan daromaddan qat'i nazar, savdogar savdo qilish huquqi uchun, hunarmand mahsulot ishlab chiqarish huquqi uchun soliq to'lashga majbur bo'lgan. Narx navoning ko'tarilib tushishi, milily savdogarlar va hunarmandlarning daromadlari kamayib borishi soliq yig'ishning yangi tartiblarida e'tiborga olinmadi. Bu esa 1890 yillarning boshi va o'rtalarida ko'plab norozilik chiqishlariga sabab bo'lgan.[2;171]

Tub aholidan olingan soliqning 27 foizi shaharni yangi qismini obodonlashtirish uchun sarflangan.[3;132] Shaharning eski qismi atayin xarob ahvolda qoldirilgan. Shahar egalari, yurt egalarga oxirgi darajadagi kishilar sifatida qaralgan. 1907 yilning oxirida Turkistonda bo'lgan Abdurashid Ibrohim mustamlakachilikning achchiq asoratlarini, Rossiya hukumati qo'li ostidagi musulmonlarning og'ir ahvolini ko'rib, afsuslangan. Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarining eski va yangi qismlarini taqqoslab, Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatini ochiq ko'rsatib bergan.[4;42] Bu holat faqatgina Toshkent uchun xos bo'lmay, Rossiya imperiyasi Turkistonning boshqa markaziy shaharlarida, jumladan, Samarqand, Marg'ildonda ham xuddi shu tartibda yo'l tutganligini qayd etib o'tgan.

"Tarjimon" gazetasida Turkiston hayotiga oid yuqorida bayon qilingan kabi jiddiy holatlar ochiqlash imkoni bo'lmagan, ayrim muhim jihatlar haqida ma'lumotlar berilgan, xolos. Buning asosiy sababi Ismoilbek Gasparalining gazetasiga Turkistondagi maslakdoshlaridan maqola va xabarlar yuborilmasligi bo'lib hisoblanadi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi siyosati o'sha davr matbuoti sahifalaridan ko'chirmalar keltirish orqali berilgani uchun Rossiya manfaatlaridan kelib chiqib, fikr-mulohazalar bildirilganga o'xshab qolgan holatlar ham mavjud.

Turkiston general-gubernatori M.Chernyaev taklifiga ko'ra, imperator 1882 yil 8 mayda "Turkiston general-gubernatorligini taftish qilish to'g'risida" farmon imzolaydi. Unga ko'ra taftish ishlarini olib borish Ichki ishlar kengashi a'zosi, maxfiy maslahatchi F.Girsga yuklatiladi. u tekshiruvlari natijasi o'laroq general-gubernator Turkistonda mustabid hokim ekanligi, imperiya qonunchiligiga rioya qilmay, o'zicha qonunlar chiqargani va o'z mayli hukm yuritganini fosh qilgan.[5] 1883 yili Girs taftish ishlarini yakunlab, imperatorga Turkiston bo'yicha hisobot hamda "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizom" loyihasini taqdim etadi.[6]

"Tarjimon" gazetasida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonni boshqarish va tartibga solishga oid qabul qilingan nizomlar haqida ham ma'lumot berib borilgan. Gazetada yozilishicha, 1886 yili 12 iyunda imperator tomonidan yangi nizom tasdiqlangan. Unga ko'ra hukumat barcha ishlarni nazorat qilishi, Sirdaryo, Farg'ona, Samarqanddagi qishloqlarini aholi tomonidan saylanadigan oqsoqollar boshqarishi belgilangan. Shuningdek, Nizomda yerlar egasiga, o'rmonlar davlatga tegishli bo'lishi qayd qilingan. Maktab, madrasa, xonaqoh va qabristonlarga vaqf qilish faqat general-gubernator ruxsati bilan amalga oshirilishi, maktab uchun qilingan vaqflardan soliq olinmasligi, qolgan barchasidan olinishi ta'kidlangan.[7]

HISTORY

Turkistondagi mavjud vaqf hujjatlari 1887 yil 1 iyulga qadar general-gubernatorlik idorasiga topshirilishi, undan keyin hujjat qabul qilinmasligi uqtirilgan.[8] Ushbu Nizom qabul qilinguniga qadar Turkiston musulmonlari orasida bo'lgan da'vo va ba'zi jinoyatlar mahalliy devonxonalarda hal qilingan bo'lib, "Tarjimon" gazetasida "Правительственный вестник" gazetasidan berilgan iqtibosga ko'ra, yangi nizomi bo'yicha barcha da'volar general-gubernatorlik mahkamalarida ko'rilishi belgilangan.[9]

Yangi nizomga muvofiq, ichki Rossiyadan kelgan tatarlar Turkistondan yer sotib olishi ta'qiqlangan. Ismoilbek Gasparali nizomning ushbu bandini tanqid qilib, tatarlarga nisbatan bunday ish tutilishini insofsizlik deb ataydi.[10]

Turkiston general-gubernatorlik idorasiga doir nizomning ba'zi moddalarigi 1889 yili o'zgartirish kiritilgan va bu imperator tomonidan tasdiqlangan. Yangi tartibga ko'ra, musulmon aholi istiqomat qilgan yerdagi mahalliy boshliqlar ba'zi kichik jinoyatlar uchun hukm chiqarishga haqli bo'lgan; odam ularning hukmidan norozi bo'lsa 7 kungacha yuqori organlarga murojaat qilishi mumkin bo'lgan; hukm doirasida mahalliy boshliqlar undirgan pullar shahar xazinasiga topshirilishi belgilangan.[11] Imperator farmoni bo'yicha turkistonliklardan kim Rossiya fuqaroligini qabul qilishni istasa general-gubernatorga murojaat qilishi ham qayd qilingan. General-gubernator maxsus daftar ochishi, bir yilda nechta odam fuqarolikni qabul qilganligini Ichki ishlar va Mudofaa vazirliklariga taqdim qilishi qayd qilingan. Ushbu nizomdagi o'zgarishlardan biri Turkistonda istiqomat qilayotgan tatarlarga general-gubernator qarori bilan er va mulk sotib olish huquqi taqdim qilingan. Ismoilbek Gasparali bu huquqning joriy qilinishini tatarlarning 2 yil davomida qattiq harakat qilib, hukumatga murojaat qilishining natijasi, deb ta'kidlagan.

Gazetada Turkistonga ruslarni ko'chirib keltirish, ularni eng unumdor yerli hududlarga joylashtirish, katta imtiyozlar berish bo'yicha ham ma'lumotlar muntazam berib borilgan. General-gubernatorlik Rossiya hududidan ko'chib keluvchilarni qo'llab-quvvatlashga va'da bergan va bu bo'yicha bir necha imtiyozlarni ishlab chiqqan. Rus qishloqlari tashkil etishga qaror qilingan. Gazetada qayd qilinishicha, 1884 – 1890 yillari amalga oshirilgan ko'chirish siyosati tufayli Turkistonning Qo'qon, Zarafshon va Sirdaryo viloyatlarida 25 ming ruslar ko'chib kelgan, ammo yerli ekinchilikdan xabarlar bo'lmagani uchun iqtisodiy jihatdan og'ir ahvolda qolgan. [12]

Turkiston viloyatiga rus aholisini ko'chirish bo'yicha 1889 yili loyiha qabul qilingan bo'lib, 1893 yilgacha 12 ming oila ko'chirilishi va ishlaydigan kishi boshiga 10 desyatidan yer berilishi belgilangan. Rossiya imperiyasi Ichki ishlar vaziri bu masala yuzasidan Turkiston general-gubernatoridan ma'lumot so'ragan. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'chirish loyihasi bo'yicha rus oilalarini ko'chirish muntazam amalga oshirib borilgan. 1892 yildayoq, birgina Sirdaryo viloyatida ko'chirib keltirilgan ruslarning 47 ta qishlog'i tashkil etilgan, Toshkent atrofida 16 ming rus yerlashgan edi. Samarqand viloyatida 3 ta rus qishlog'i vujudga kelgan edi. Sirdaryo viloyatidagi ruslarga o'z "xavfsizligi"ni ta'minlashi uchun 1500 ta miltiq berilgani ham ta'kidlab o'tish joiz. Shuningdek, har bir qishloqda rus maktabi ochilgan. 1891 yili Turkistonda rus oilalari yashayotgan va yangi ko'chib keladiganlar uchun 300 ming desyatina yer ajratilgan va bu hududga suv olib borish uchun ariqlar qazish bo'yicha topshiriq berilgan. 1897 yilga kelib, Turkistonda rus oilalari 51 ta qishloqda yashagan. Ularning umumiy soni 17665 tani tashkil qilgan. Turkiston general-gubernatorligi bo'sh joylar yo'qligini e'lon qilsa-da, Rossiyadan 3 ming rus kelgan va ular uchun 15 ta qishloq tashkil etilgan. Natijada yerli aholi o'z yeridan mahrum bo'lib, noqulay vaziyatda qolgan. Rus oilalarining juda ko'plab ko'chib kelishi yer tanqisligini keltirib chiqarishi oqibatida 1897 yili Turkiston general gubernatori Mirzacho'lga suv olib chiqish loyihasini ishlab chiqqan va Rossiya imperiyasi Ziroat vazirligiga taqdim qilgan. Ammo vazirlik mavjud yeralar va kanallarga ko'proq e'tibor qaratilishi lozim deb, loyihani qaytargan. Shu o'rinda Mirzacho'lga aholini ko'chirish va suv olib chiqish XX asr 50-yillarida bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgani qayd etib o'tish joiz.

1898 yili Turkistonga ko'chib kelgan ruslar uchun yangi qishloqlar tashkil qilingan. Ular uchun ibodatxonalar va maktablar qurish masalasi hal qilingan. Imperiya tomondan o'z manfaatlarini yo'lida amalga oshirilgan bu siyosat turkistonliklarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvoriga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

"Tarjimon" gazetasida Turkiston shaharlarida turli yuqumli kasalliklar taraqqulishi, uni bartaraf etish bo'yicha Turkiston general-gubernatorligi amalga oshirgan ishlar haqida ham muntazam ma'lumot berib borilgan. Gazetada 1888 yili Toshkentda vabo kasali tarqalgani qayd qilingan. Shaharda karantin joriy qilingan va hatto pochta ham 6 hafta davomida shahardan chiqarilmagan. 1891 yilga kelib, Turkistonda vabo kasali avj oladi. "Tarjimon" sahifalarida Toshkent shahar boshlig'ining qaroriga bilan shahar ozodaligi va xavfsizligi uchun 9 qabriston yopilgani, shahar boshlig'ining bu xayrli ishiga e'tiroz bildirmaslik kerakligi haqida ma'lumot berilgan.[13] Gazetada Jizzax va Sirdaryo viloyatida 1892 yili vabo tarqalgani haqida ma'lumotlar uchramaydi, buning eng asosiy sababi "Tarjimon"ning bu hududlarda muxbirlari yo'qligi bo'lib hisoblanadi. Tarixchilar Sh.Karimov va R. Shamsutdinovlar "Turkiston Rusiya bosqini davrida" kitobida Turkistonda vaboning tarqalishini 1982 yil, shaharda yopilgan qabristonlar sonini 12 ta deb ko'rsatgani

HISTORY

holda, gazetada bu raqamlar va sonlar bo'yicha tavofutni ham ko'rish mumkin. Gazetaga telegraf orqali kelgan xabarlar asosida ma'lumotlarning o'z vaqtida yoritib borilgani hisobga olinsa, Toshkentda vaboning boshlanishi sanasi 1888 yil, kasallikning avj olishi 1891 yil ekani oydinlashadi. Qabristonlar masalasi bo'yicha ham yil va sonlar o'rtasida jiddiy farq mavjudligini qayd etish joiz. Bundan tadqiqotchilar kasallikning tarqalishini 1892 yili boshlangan "Vabo isyoni"ga bog'lab ko'rsatganlar, degan xulosaga kelish mumkin. Aslida kasallik isyondan uch yil oldin boshlanganini "Tarjimon" gazetasidan tashqari "Turkiston viloyatining gazetasi" va boshqa gazetadagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

"Tarjimon" gazetasida Rossiya imperiyasining ruslashtirish va maorif sohasidagi siyosati haqida ham maqolalar va xabarlar berib borgan. Ammo gazeta tashkil qilinganiga qadar imperiyaning bu borada Turkistonda amalga oshirgan siyosati, shuningdek gazetaning faoliyati davrida Turkistonda ta'lim tizimi sodir bo'lgan jarayonlar yoritilmay qolganini ham ta'kidlash joiz. Rossiya imperiyasi Turkistonda ruslashtirish siyosatini maorif sohasidan boshlashga qaror qilgan va o'z dasturini ishlab chiqqan. Ayniqsa, Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P. fon Kaufman bu sohada jonbozlik ko'rsatdi. 1880 yildagi Imperiya davlat kengashida fon Kaufman ruslar va mahalliy aholi bolalarini birgalikda tarbiyalash masalasini ko'targan. Musulmon va rus maktablarining ajralib turishini iqtisodiy hamda siyosiy jihatdan zararli deb hisoblagan.[14]

"Tarjimon" gazetasida Turkistonning siyosiy hayotiga oid boshqa matbuot sahifalarida deyarli uchramaydigan yahudiylarning ko'chib kelishi masalasiga oid muhim ma'lumotlar taqdim qilingan. Gazetada yozilishicha, 1899 yili Turkistonning musulmon aholisi Rossiya imperiyasi Moliya vaziriga yahudiylarni ko'chib kelmasligini so'rab, ariza berganlar. Natijada imperiya hukumati Turkistonda yashovchi chet ellik xristyanlarga, Rossiyaning boshqa joylaridan kelgan musulmon va yahudiylarga er va mulk sotib olishni taqiqlaydi. 1910 yilga kelib, Turkistonda yashagan Buxoro yahudiylarini Turkistondan ketishlari buyurilgan, Zakaspiy harbiy general-gubernatori nafaqat Buxoro yahudiylari, balki Eron, afg'on yahudiylari, jumladan islomni qabul qilgan "jadid" nomidagi yahudiylarni ham chiqarib yuborilishi haqida Turkiston general gubernatoriga murojaat qilgan, buning natijasida 600 ta "jadid" yahudiylar chiqarib yuborilgan. Gazetada 1912 yili ham yahudiylarni Toshkentdan chiqarib yuborii ishlari amalga oshirilgani, ular orasida "Russkiy vneshniy bank" mudiri Ozarinskiy ham borligi, katta savdogarlar Turkiston general-gubernatoriga uni qoldirish uchun murojaatlari qilganlari ham yordam bermagani ta'kidlangan. [15]

"Tarjimon" gazetasida Turkiston siyosiy hayotining muhim bo'lagi hisoblangan qozilikka oid bir necha ma'lumotlar va xabarlarni o'qish mumkin. Bu paytda Rossiya imperiyasi mamlakatda qozilik ishlarini tashkil etishda ham o'z tartiblarini joriy qilgan bo'lib, unga ko'ra, Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida amalda bo'lgan shayx ul-islom, xojai kalon, qozi ul-quzzot, qozi kalon, qozi ul-mutlaq kabi mansablar tugatilgan. Qozi va biylar sudlari faoliyati "Turkiston o'lkasini boshqarish haqida Nizom"ga asosan olib borilishi joriy etilgan. Qozilikka nomzodlar Nizomga ko'ra, 17 kundan ortiq qamoq jazosini o'tamagan yoki 30 rubllik jarimaga tortilmagan, sud nazoratiga olinmagan va 35 yoshdan kichik bo'lmagan shaxslar, shuningdek, rus o'quv muassasalarini tugatgan 25 yoshga to'lgan shaxslar qozilikka saylanishi mumkin bo'lgan. Bunday tartiblarning joriy qilinishi sohada jiddiy muammolarni keltirib chiqargan. Jumladan, diniy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan qozilarning saylanishi natijasida ta'magirlik va poraxo'rlik, sud ishlarini noqonuniy ko'rib chiqish holatlari ko'paygan. Bu ahvol aholining noroziligiga sabab bo'lgan va qozilik sudlariga nisbatan salbiy qarashlarni kuchaytirib yuborgan. Mahmudxo'ja Behbudiy qozilik va boshqa vakolatli lavozimlarga poraxo'r, noloyiq shaxslar saylanishi natijasida iste'dodli ulamolar chetda qolib ketganligini qayd etgan. [16]

"Tarjimon"da berilgan ma'lumotga ko'ra, Rossiya imperiyasi Davlat majlisi 1899 yili Farg'ona, Samarqand va Sirdaryo viloyatlari qozilarini ishdan olish va tayinlash huquqini bergan. Shundan kelib chiqib, butun Turkistonda qozilik ishlari general-gubernator va viloyatlarning harbiy gubernatorlari tomonidan tartibga solingan. Gazetada Turkiston viloyatidagi qozilar ishlarini isloh qilish va almashtirish haqidagi loyiha adliya vazirligiga topshirilgani hamda Farg'ona harbiy gubernatori qozilar yuritayotgan daftarlarida rus hisobidagi sana ishlatishi, imzo va muhr qo'yishi bo'yicha farmon bergani bayon qilingan. Bu kabi o'zgarishlar Turkiston qozilarining noroziligiga sabab bo'lgan. Ular daftarlarni eski tartibda yuritish, sud ishlarini islohi va o'zgartirilishiga noroziliklarini izhor etganlar. Mana shunday sharoitda Mahmudxo'ja Behbudiy yangi etilib kelishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olish maqsadida Imom Qozixonning Fatvo kitobiga va "Jome'ur rumuz" (muallifi ko'rsatilmagan) tayanib, mamlakatni boshqarib turgan amaldor tomonidan qozilik ishlarini tartibga solishga oid hujjat qabul qilinsa, unga qozilar bo'ysunishi lozimligi ko'rsatilganini asoslab bergan.[17]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Turkistonning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi siyosiy hayoti "Tarjimon"da imkon qadar tizimli yoritib borilgan. Jumladan, imperiyaning mustamlakachilik siyosati, Nizomlarning qabul qilinishi hamda mamlakatda joriy qilinishi, Girs va Palenlarning taftish o'tkazishi,

HISTORY

natijasi va oqibatlari, turkistonliklarning bosqinchi hukumatga qarshi norozilik harakatlari “Vabo isyoni”, “Andijon qo‘zg‘oloni”, yahudiylarning “jadid” niqobi bilan Turkistonga ko‘chib kelishi va hukumat qarori bilan chiqarilib yuborilishi kabi qiziq, yangi va tanqidiy maqolalar, xabarlar va ko‘chirmalar bosilgan. Bu ma'lumotlar Turkistonning siyosiy hayoti haqida ayrim mulohazali masalalarni oydinlashtirishda muhim va foydali bo‘lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Стеткевич А. Убыточен ли Туркестан для России? Санкт-Петербург. 1899.*
2. *Бартольд В. История культурной жизни Туркестана. Ленинград. 1927.*
3. *Добросмыслов А. Ташкент в прошлом и настоящем. Ташкент. 1912.*
4. *Abdürreşid İbrahim. Alem-i İslam ve Japonya'da İslamiyetin Yayılması. İşaret Yayınları. 2012*
5. *Basirati doxiliy va xorijiy // “Tarjimon” gazetasi. 1883 yil 1 iyul.*
6. *Turkiston mufattishi.... // “Tarjimon” gazetasi. 1884 yil 8 fevral.*
7. *Turkiston viloyatining yangi nizomnomasi // “Tarjimon” gazetasi. 1886-yil 21-noyabr.*
8. *Turkiston vaqflari // “Tarjimon” gazetasi. 1886-yil 19-dekabr.*
9. *Ismoil Gasprinskiy. Turkiston // “Tarjimon” gazetasi. 1888-yil 25-aprel.*
10. *Ismoil Gasprinskiy. Turkiston nizomnomasi xususida // “Tarjimon” gazetasi. 1889-yil 16-yanvar.*
11. *Farmoni podshohiy // “Tarjimon” gazetasi. 1889-yil 12-may.*
12. *Russkiy Vestnik. Turkistonda rus muhojirlari // “Tarjimon” gazetasi. 1890-yil 3-dekabr.*
13. *Axbori doxiliya // “Tarjimon” gazetasi. 1891-yil 15-mart.*
14. *O‘zbekiston Milliy arxivi, 47-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1004-hujjat, 32-varaq.*
15. *Doxiliya xabarlari // “Tarjimon” gazetasi. 1912-yil 27-yanvar.*
16. *Bexbudiy M. Bizga isloh kerak // “Najot” gazetasi. 1917-yil 7-noyabr.*
17. *Samarqanddan kelgan maktub // “Turkiston viloyatining gazetasi”. 1903-yil 15-aprel.*
18. *O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Birinchi kitob. Toshkent: Sharq, 2000.*
19. *Ziyoyev H. O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi (miloddan oldingi asrlardan to 1991 yil 31 avgustgacha), Toshkent: Sharq, 2001.*

ЗАРАФШОН ВОҲАСИ ИНШООТЛАРИ, РАБОТИ МАЛИК КАРВОНСАРОЙИ ҲАҚИДА

Савриев Жасур Фахриддинович,

*Навоий инновациялар университети доценти,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
savrievjasur99@gmail.com*

Ахмедов Ақтам Абдуллаевич,

*Навоий инновациялар университети
1-босқич магистранти
aktamboyaahmedov@gmail.com*

Аннотация. Мазкур мақолада, қадимги Кармана тарихи билан боғлиқ бўлган буюк инпак йўли иншооти карвонсарой ҳақида маълумот берилади. Работи Малик карвонсаройи аср силсилаларига бардош берган ва ўз тарихий меъморий лойиҳаларини, кириш дарвозаларини асрлар оша авайлаб келган. Бу обидалар эса бевосита воҳа тарихи билан боғлиқ ёдгорликларни асрлар оша маиший аҳамиятга эга бўлган иншоот сифатида халқ учун хизмат қилиб келганлигини ифода этади.

Калит сўзлар: *Навоий, Кармана, Работ, Малик, чўл, сахро, минора, обида, подишоҳ, меъморий иншоот, план, лойиҳа, тадқиқот, канал, сардоба.*

**О КАРАВАНСАРАЕ РАБОТИ МАЛИК - СООРУЖЕНИИ
ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА**

Аннотация. В данной статье представлена информация о караван-сараяе - сооружении Великого шёлкового пути, связанном с историей древней Карманы. Караван-сарай Работи Малик выдержал испытание веками и бережно сохранял свои исторические архитектурные проекты и входные ворота на протяжении столетий. Эти памятники свидетельствуют о том, что объекты, непосредственно связанные с историей оазиса, на протяжении веков служили народу как сооружения бытового значения.

Ключевые слова: *Навои, Кармана, Рабат, Малик, степь, пустыня, минарет, памятник, правитель, архитектурное сооружение, план, проект, исследование, канал, сардоба.*

**ABOUT THE CARAVANSERAI OF RABATI MALIK - A STRUCTURE
OF THE ZARAFSHAN OASIS**

Abstract. This article provides information about the caravanserai, a structure of the Great Silk Road, associated with the history of ancient Karmana. The Raboti Malik caravanserai has withstood the passage of centuries and has preserved its historical architectural designs and entrance gates through the ages. These monuments demonstrate that structures directly related to the history of the oasis have served the people for centuries as buildings of domestic importance.

Keywords: *Navoi, Karmana, Rabat, Malik, steppe, desert, minaret, monument, king, architectural structure, plan, project, research, canal, sardoba.*

Кириш. Ҳозирги кундаги муаммолар Ўзбекистон тарихий шаҳарлари қаторида Навоий вилоятидаги бир қатор меъморий ёдгорликларни муҳофаза қилишнинг асосий мақсади, омиллари ва йўналишларини белгилайди. У ёдгорликлар, мажмуалар ва шаҳар муҳитини муҳофаза қилиш, таъмирлаш ва улардан замонавий мақсадларда фойдаланиш, шунингдек, тарихий шаҳар марказларини қайта тиклаш ва янги қурилишлар муаммоларини очиб беради. Муаммоларнинг асосий моҳияти шаҳар муҳитини ўзгартириш ва мукамаллаштиришнинг маънавий, ҳуқуқий жиҳатларини таъминлашга қаратилган. Ҳозирги глобаллашув давридаги маданий ва маънавий мерос ўрнини ҳеч нима билан тўлдириш мумкин бўлмаган иқтисодий ва социал капитал ҳисобланади. Табиий бойликлар билан баробар бу миллий кадриятни дунё ҳамжамияти томонидан эътироф этиш учун асосий омиллардан биридир.

Мамлакатимиз мустақиллик йилларида маданий мероснинг юқори потенциали, уни дунё иқтисодиётининг муҳим ресурсларидан бири сифатида муҳофаза қилиш ва ундан самарали

фойдаланиш зарурлиги тан олинди. Йўқотилган маданий бойликлар ўрнини тўлдириб ҳам, қайтариб ҳам бўлмаслиги эътироф этилди. Маданий меросни ҳар қандай йўқотиш ҳозирги ва келажак авлод ҳаётининг барча жабҳаларида намоён бўлади ва маънавий инқирозга, тарихий хотиранинг бузилишига, жамиятнинг кучсизланишига олиб келади. Замонавий маданият ривожининг асоси ҳисобланади. Тан олиш керакки, дастлаб Навоий шаҳрини ташкил қилувчи шаҳар тузилмасининг асосини Кармана ва уни атрофидаги моддий маданият ёдгорликлари, улуғвор иншоотлар ташкил этган. Жумладан, Работи Малик карвонсаройи ҳам ўзининг йўл бўйи иншоотлари сифатида халқимизга асрлар оша XIX аср охирига қадар хизмат қилиб келган. Шу билан бир қаторда ушбу карвонсарой Бухоро ва Кармана ўртасидаги кириш дарвоза вазифасини ҳам бажарган.

Мавзуга доир адабиётлар таҳлили. Ўрта Осиё меъморчилик меросини ўрганиш Евроосиё китъасининг мазкур қадимий цивилизация ўчоғи ўтмишининг кўплаб номаълум саҳифаларини очиб беради. Ўрта Осиёнинг ўрта асрлар меъморчилигининг ажойиб ёдгорлиги Работи Малик (“Подшо қалъаси”) эски Кармана яқинидаги даштда минтақанинг икки қадимий марказлари, Самарқанд ва Бухоро ўртасидаги асосий магистрал йўлда жойлашган. Бу ердан Ўрта ер денгизи мамлакатлари ва Хитойни боғлаб турган Буюк Ипак йўли ўтган. Араблар истилоси даврида бу йўлни йўл бўйидаги махсус қалъаларда жойлаштирилган йирик араб ҳарбий гарнизонлари кўриқлаган[1]. X асрда Самарқанд ва Бухоро ўртасидаги йўлнинг аҳамияти ниҳоятда ортиб, уни шоҳ йўли- “Шоҳ-Роҳ” деб аташган[2]. Йўлнинг қарама-қарши томонида мазкур даврнинг тарихий маданиятининг иккинчи ёдгорлиги – XI-XII асрларнинг гидротехник иншооти- “Подшо қалъаси” мавжуд бўлган барча даврларнинг асосий сув манбаси, ярми ер остида жойлашган, усти гумбаз билан ёпилган сув сақлаш иншооти – Сардоба жойлашган. Сардобага сув Зарафшон дарёси орқали Нарпай каналидан ва кичик ариқлар тизимидан оқиб келган.

Работи-Малик аллақачон Марказий Осиё ўрта асрлар меъморчилигининг улуғвор обидаси сифатида тан олинган. XX асрнинг 20-40 йилларида сақланиб қолган асосан бош фасад қисми салобатли - бурама новсимон, ярим эгилган устунлари-гофралари ва монументал кириш пештоқи ҳақида тадқиқотлар доирасидаги адабиётларда илмий маълумотлар учрайди[3]. Работи-Малик тўғрисидаги маълумотлар рус матбуотида XIX-асрнинг биринчи ярмида пайдо бўлган. Бухоро амирлиги саройига 1841-42 йилларда К.Ф. Бутенев[4] бошчилигида юборилган рус расмий дипломатик миссияси иштирокчилари Бухорога кириш яқинидаги даштда жойлашган ўрта асрлар қалъасининг улуғвор харобаларини кўриб ҳайратга тушганлар. Қадимий дашт қалъасининг ташландиқ, лекин ҳалиям ўз жозибдорлигини сақлаб қолган харобалари саёҳатчиларда унутилмас таассурот қолдирган.

Экспедиция иштирокчиси Н.В. Ханьков даштдаги мавжуд қалъа ёдгорлиги тўғрисида озроқ маълумотлар билан чекланган бўлса, А.Леман ёдгорлик бош фасадининг схемали суратини, Работи-Малик интерьерларининг батафсил баёнини бериши ўта муҳим маълумот ҳисобланади[5]. А.Леманн, шунингдек қалъанинг муҳим даражада реал тарихини акс эттирувчи ёдгорлик ҳақидаги ривоятларни ҳам тўплаган, бундан 700-800 йиллар аввал гуллаб яшнаган истехком қалъа хон ва унинг ворисларининг турар жойи бўлганлигига ишора қилади.



А.Леманн тасвирлаган "Работ" қишлоғининг кўриниши.


К.Ф. Бутеневдан сўнг ёдгорликни Россия турли идораларининг вакиллари ва хорижий саёҳатчилар Н.Ф.Ситняковский, Н.А. Маев, А.Г.Вамбери, Э.Скайлер ва бошқалар келиб кўрганлар. Лекин улар А.Леманнинг маълумотларига бирор бир янгилик қўша олмаганлар. Ўша даврдаги ғарб фани учун бу ёдгорлик номаълум бўлиб қолаверган. Работи Маликни шўролар замонасида ўрганиш бошланди, лекин XX асрнинг 70-йилларида ўтказилган археологик тадқиқотларга қадар ёдгорликка В.В. Бартольд, И.И. Умняков, А.А.Семёнов, Б.Н.Засипкин, В.Л. Воронина, А.М.Прибиткова,

HISTORY

В.А.Нильсен, Г.А.Пугаченкова, Л.И.Ремпель, С.Г.Хмельницкий томонидан берилган баҳо унинг даштда сақланиб қолган асосий ташқи фасадни тавсифлаш билан чекланиб қолинди.

Қалъанинг ўша замон фотосуратларида кўриниб турган ички ҳовлиси қисми XX асрнинг 20 – йилларидаёқ мавжуд эмас эди, “Подшо қалъаси”нинг интерьерлари ҳақидаги барча тасаввурлар А.Леманн баён қилган ёзувларга асосланган бўлиб, реал маълумотларнинг бўлмаслиги турли фаразлар ва тахминлар туғилишига сабаб бўлган. XX асрнинг 20 йилларида И.И. Умняков ва Б.Н.Засыпкин томонидан ёдгорликнинг биринчи тадқиқ қилиниши катта аҳамият касб этади. Фасаднинг сақланиб қолган қисмининг биринчи схемали ўлчови, тарихий конъюктура ва меъморчилик шакллари таҳлили, куфий ёзувни ўқиш (И.И.Умняков илтимоси билан А.Э.Шмидт томонидан) ва 1928 йилда бош фасад деворларини мустаҳкамлаш ишлари амалга оширилган. Экспедицияда В.А. Красильников, Б.Н. Засыпкин, М.Ю. Саиджонов, В.Р.Чайлитко, М.М.Логинов, В.К Костко ва бошқалар иштирок этишган.

Ўша вақтда Работи Малик кимнинг топшириғи билан қурилганлиги масаласида (В.В.Бартольд, И.И.Умняков) қорахонийлар ҳукмдори бўлган, Шамс ул Мулкга (472/1079-1080й.й) нисбат беришган[6] Ушбу хулосага келишнинг сабаби эса “Китоби Муллозода”нинг (XVI аср) хошиясидаги Шамсул Мулк томонидан қалъанинг 471 хижрий йилда қурилиши ҳақидаги ёзувлар асос қилиб олинган[7]. А.А.Семенов кейинроқ кўшимча ёзма маълумотларни ўрганиб, бундай эмаслиги тўғрисида ёзган. [8] Ўтган XX асрнинг 40-йилларида бош фасаднинг қолдиқлари бузиб юборилган. 50-йилларда эса Навоий шаҳрининг қурилиши даврида Работи Маликнинг ички қисмининг марказидан асфальт йўл ўтказилган. Йўл туташ худуд деворларнинг қолдиқлари билан бирга бульдозер билан текисланиб- “ободонлаштирилган”.



**Работи Малик карвонсарой кўриниши. 1-расм чап томондан 1960 й.й
2-расм ўнг томондаги 1998-1999 й.й ҳолати.**

Тадқиқот методологияси. XX асрнинг иккинчи ярмида амалга оширилган археологик тадқиқотлар вақтида Работи Маликнинг ички инфраструктураси ва унинг режавий композицияси тўғрисида дастлабки маълумотлар олинган. Археологик тадқиқотлар (1973-2001йиллар кесимида) 20 йиллик танаффус билан (техник сабабларга кўра) олиб борилган. Работи Малик харобаларида Н.Б.Немцева бошчилигидаги бир гуруҳ олим ва тадқиқотчилар археологик тадқиқот ишларини олиб борганлар. Улар бу жой ҳақида янги тарихий маълумотларни билдирганлар. Жумладан, мустақилликнинг биринчи йилларида Н.Б.Немцева, М.Хушназаровлар бошчилигидаги тадқиқотчилар гуруҳи бу жойдан Амир Темур даврида зарб этилган тангани ва эски асфальт йўли қолдиқлари остидан озик-овқат маҳсулотларини салқин сақлайдиган тўла омборхонани топдилар[9]. Бизнинг фикримизча, даштда қурилган ўзига хос ажойиб бу иншоот подшоларнинг ҳар йиллик ёввойи ҳайвонларни таъкиб қилиш ва овлашни амалга ошириш қароргоҳи бўлиши эҳтимол, бу ҳақида кейинги давр кўлөзма манбалари[10] китоб миниатюраси[11] шунингдек археологик тадқиқотлар[12] кенг маълумотларни беради. XVIII–XIX асрларда қулонлар, сайғоқлар ва жайронларнинг катта

подалари мавсумий кўчиш йўлларида ва қишки озикланиш ҳудудларида ўтлаб юргани ва минглаб ов қилинган тўғрисида этнографик маълумотлар хабар беради[13].

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили.1999 ва 2001 йилларда таниқли олима Н.Б.Немцева томонидан ўтказилган илмий тадқиқотлар ва қазилма ишлари Работи Малик карвонсаройига нисбатан қарашларни тубдан ўзгартириб юборди. Гап шундаки, ушбу археологик ўрганишлар натижасида олима мазкур ёдгорликни Буюк Ипак йўли устида қурилган “Шоҳ саройи” деб хулоса берди. Археологик тадқиқотлар давомида керамика, металл буюмлар, суяклар, турли хил қийматдаги кўп миқдордаги тангалар топилдики, у ўрта асрда Мовароуннахрнинг моддий маданияти ва санъатини тасвирлайди. Мазкур ишларнинг натижаси ўларок ўрта асрлар Мовароуннахрининг моддий маданияти ва санъатини тавсифини берадиган Работи Маликнинг режавий таркиби, қурилишини даврлаштириш, интерьерларнинг бадиий безаклари тўғрисида улкан ҳажмдаги моддий материаллар, шунингдек катта миқдорда артефактлар (керамика, металл, суякдан ясалган буюмлар, турлича қийматли ва даврларга оид кўп миқдорда тангалар) топилган.

Қазишмаларда квадрат режали сарой туридаги, мураккаб кўп ҳовлили композицияли, иккита аниқ - жанубий хўжалик қисмига ва ҳашамдор безатилган турар жойлари бўлган шимолий қисмларига бўлинган қалъа иншооти қолдиқлари аниқланган.Жами йиғилган маълумотлар бўйича даштдаги “Подшо қала”сининг XI асрда бунёд этилгани, XII асрда реконструкция қилинганлиги, фаолият юритиши XVIII аср бошларига қадар давом этганлиги аниқланди[14]. Ушбу тадқиқотда археологик материаллар ва “Подшо қалъа”сининг XX асрларгача сақланиб қолган харобалари асосида ўрта асрларни йўқолган дурдонасининг ташқи ва ички қиёфасини тиклашга ҳаракат қилинди.

Хулоса. Демак, Работи Малик Марказий Осиёдаги ўрта аср тарихи ва маданиятига энг ажойиб ёдгорликлардан биридир, ушбу ёдгорлик фан, санъатшунослик, архитектура соҳасида ўзбек халқининг маънавий-маърифий равнақи тарихини ўрганишда катта аҳамиятга эга бўлиб, алоҳида ўрин тутди. Работи Малик ёдгорлиги, Шарқ Ренессанси даврининг ғоят мухташам, улкан, қурилиш архитектураси жиҳатидан тенги йўқ, пурвиқор обидаси саналган. Работи Малик XI–XII асрлар Марказий Осиё меъморлик мактабига хос синкретик услубнинг ёрқин намунасидир. У кўп ҳовлили тархга эга бўлиб, анъанавий равишда битта ёки икки ҳовлили карвонсаройлардан кескин фарқ қилади. ЮНЕСКО бутунжаҳон мероси рўйхатида №5308 объект сифатида қайд этилган.

Археологик тадқиқотлар давомида сопол, заргарлик буюмлари, тангалар ва бошқа маданий артефактлар топилган. Айниқса, XI–XVIII асрлар орасида ишлаб чиқарилган маиший идишлар хунармандчилик ривожланиш босқичларини аниқлашда муҳим аҳамият касб этди. Работи Маликдаги муҳандислик ечимлари — айниқса, икки қаватли устунларга асосланган саккиз бурчакли гумбаз тизими — ўша даврдаги синхрон меъморчиликда тенгсиз ҳисобланади.Бугунги кунда ёдгорликнинг фақат жанубий фасади ва бурж қисми сақланган. Қазишмалар натижасига кўра, иншоот квадрат шаклда (100 метр томонли) бўлиб, буржлар баландлиги 15 метрдан ортиқ бўлган. Деворлар ташқи томондан жуфтлаштирилган ярим устунлар билан безатилган. Асосий кириш — жанубий портал орқали бўлган. Бу портал тўғри бурчакли шаклда, юқори қисми ўқ томонга тортиладиган камонсимон бўлиб, ғиштли нақшлар билан безатилган. Порталдан кейинги йўлак марказдаги саккиз бурчакли зал — ротондага олиб борган. Бу ердан шимолдаги асосий яшаш қисмига чиқиш йўллари бўлган. Шу ерда кичик масжид (меҳроб ва минбар билан) жойлашган бўлиб, деворлар ганч ўйма ва кўк бўёк билан безатилган. Қазишмаларда инсон суяклари ҳам топилган — бу ерда карвонсарой атрофида кабристон мавжуд бўлганини кўрсатади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии, Л.-1973, -С.152.//О.С.Ҳайтова., Ж.Ф.Савриев. Работи Малик.-Бухоро:Дурдона,2023.-Б.10-13.
2. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия.Т.1.- Москва-1963, -С. 148.
3. Пугаченкова Г., Галеркина О. Миниатюры Средней Азии. -Москва, “Изобразительное искусство”, 1979.-с.-208.
4. Соловьев М. Ученая экспедиция в Бухару в 1841-1842 г. при участии натуралиста А.Лемана, М – Л,1936, -С. 212-214, 216.
5. Немцева Н.Б. Рабат-и Малик.....-С.128, аксонометрия.; Асанов АА. Предварительная реконструкция сооружения // Художественная культура Средней Азии IX – XIII вв. -Ташкент, 1983,- С. 142; Немцева Н.Б. Степная резиденция Караханидов, // Средняя Азия, археология, история, культура, -М., 2000. Рис 3.
6. Бартольд В.В. соч.т.1,М.,1963,- С.308, пр. 4; Умняков И.И. цит. соч.- С.185-188.

7. *Наришахий, Бухоро тарихи, Т., 1960.*
8. *Семенов А.А. К вопросу о датировке Рабат-и Малика в Бухаре // Труды САГУ, н.с., вып. XXIII, гуманитарные науки, кн.4, -Ташкент, 1951. -С.21-27.*
9. *Муҳиддинов Ф. Кармананинг тупроғида олтинлар гуллар... “Дўстлик байроғи”, 2002 йил 26 ноябрь.*
10. *Марко Поло о разнообразии мира, записанная пизанцем Рустикано в 1298 году от р.х. Алма-Ата. 1990, -С.104-106.*
11. *Пугаченкова Г., Галеркина О. Миниатюры Средней Азии. -М., 1979.*
12. *Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949-1953 гг. // Труды ХАЭЭ. Т.II. М., 1958, - С.78*
13. *Ягодин В.Н. Стреловидные планировки Устюрта //Археология Приаралья. Вып.V. Ташкент, 1991.,Ричков П. Топография Оренбургская, то есть обстоятельное описание Оренбургской губернии, сочинённое коллежским советником Импер. Академии наук корреспондентом Петром Рычковым. Часть первая. С.-Пб., 1762,-С. 29.*
14. *Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. М., 1867.*
15. *Силантьев А.А Обзор промысловых охот в России. С.-Пб., 1898, -С. 363-364.*
16. *Немцева Н.Б. Рабат-и Малик. Археологические исследования 1973-1975,1977 гг. Художественная культура Средней Азии IX-XIII вв.- Ташкент, 1983,- С. 112-142.*

VICTOR USPENSKY: THE HISTORY OF MUSIC THROUGH THE PRISM OF ETHNOGRAPHY

Karimova Kamilla Vyacheslavovna,
teacher of the department of music education,
Termez State University, Termez, Uzbekistan
<https://orcid.org/0009-0006-0659-8877>
kkarimova96gmail.com

Abstract. *The article analyzes the life and activity of Viktor Uspensky, a Russian and Soviet cultural figure, musicologist, and composer, from a historical perspective. It highlights his role in the formation and development of musical culture in Central Asia, particularly his ethnographic expeditions and scholarly research on national musical heritage in the early twentieth century. Based on historical sources, the study also examines Uspensky's contribution to the development of musical culture and civilization in the region, as well as the interaction between Russian and local cultural traditions.*

Keywords: *cultural history, musical culture, Russian and Soviet period, ethnographic expeditions, Central Asia, national folklore, Shashmaqom, historical and cultural processes.*

ВИКТОР УСПЕНСКИЙ: ИСТОРИЯ МУЗЫКИ СКВОЗЬ ПРИЗМУ ЭТНОГРАФИИ

Аннотация. *В статье с исторической точки зрения анализируются жизнь и деятельность русского и советского деятеля культуры, музыковеда и композитора Виктора Успенского. Освещается его роль в формировании и развитии музыкальной культуры Центральной Азии, в частности его этнографические экспедиции и научная деятельность по изучению национального музыкального наследия в начале XX века. Также на основе исторических источников рассматривается вклад В. Успенского в становление музыкальной культуры и цивилизации региона, а также вопросы взаимодействия русских и местных культурных традиций.*

Ключевые слова: *история культуры, музыкальная культура, русский и советский период, этнографические экспедиции, Центральная Азия, национальный фольклор, шашмаком, историко-культурные процессы.*

VICTOR USPENSKIY: ETNOGRAFIYA PRIZMASI ORQALI MUSIQA TARIXI

Annotatsiya. *Maqolada rus va sovet davri madaniy arbobi, musiqashunos va bastakor Viktor Uspenskiyning hayoti hamda faoliyati tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Uning Markaziy Osiyoda musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishidagi o'рни, ayniqsa XX asr boshlarida olib borgan etnografik ekspeditsiyalari va milliy musiqa merosini o'rganishdagi ilmiy faoliyati yoritiladi. Shuningdek, Uspenskiyning mintaqada musiqa madaniyati va sivilizatsiyasining tarixiy jarayon sifatida shakllanishiga qo'shgan hissasi, rus va mahalliy madaniy an'analar o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalalari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *madaniyat tarixi, musiqa madaniyati, rus va sovet davri, etnografik ekspeditsiyalar, Markaziy Osiyo, milliy folklor, shashmaqom, tarixiy-madaniy jarayonlar.*

Introduction. The history of interaction between Eastern and Western musical civilizations began long before the twentieth century and may, in a schematic sense, be viewed as tripartite. The first stage was marked by the influence of the highly developed culture of the East on European music during its formative period. In the second stage, beginning already in the Middle Ages, the East was gradually and increasingly resolutely pushed to the periphery of the musical world. It was at this point that Eurocentrism in cultural and artistic criteria took shape and asserted itself — a conception according to which the principles of aesthetic apprehension of the world, and above all of artistic creation (systems of thinking, stylistic and formal norms, canons of beauty, etc.), crystallized in the works of European masters, were perceived and evaluated as universal laws of art. The third stage (approximately from the late nineteenth century) may be regarded as a kind of reprise: the East re-enters the consciousness of European musicians, who now turn to it with hope and expectation of renewal.

HISTORY

Analysis of literary sources. The relevance of this work lies in the significant role played by Russian music in the formation of the composer schools of Central Asia. It is hardly accidental that Russian music played such an important part in the formation of the composer schools of Central Asia. Above all, one must recognize the influence of its creative and aesthetic principles. This influence was all the more powerful because a number of Eastern composers studied in the Moscow and St Petersburg Conservatoires or with leading masters of those capitals — an entirely natural educational path within the Russian Empire. In 1918, people's conservatoires were established in Tashkent, Samarkand and other cities. In 1934 the Higher School of Music was founded in Tashkent (from 1936 — the Conservatoire). Great work in collecting and studying the folk musical heritage of Central Asia was undertaken by the musical-ethnographic commission under the leadership of V. A. Uspensky (Tashkent, 1920–23), the Samarkand Scientific Institute, and the Institute of Music and Choreography (INMUZKHORUZ).

Close collaboration between representatives of Russian musical culture and Uzbek musicians had a positive impact on national musical art. The development of Uzbek culture was profoundly influenced by democratic Russian culture, which entered Central Asia after its incorporation into Russia. The study of the region began; the first libraries and printing houses were opened; scholarly societies emerged. “Central Asia,” wrote Academician T. N. Kary-Niyazov, “is indebted to the eminent members of the Society, remarkable Russian scholars and travellers, who wrote brilliant pages in the history of the study of this remarkable region.”

An invaluable contribution to the development of Uzbek musical culture was made by Viktor Aleksandrovich Uspensky (1879–1949), Doctor of Arts, Professor, holder of the Order of the Badge of Honour, and People's Artist of the Turkmen SSR. He was driven by the idea of scholarly exploration of the musical cultures of the various peoples of Central Asia, in particular Uzbek music. He genuinely loved Uzbek music, and for this honest and noble service his name has remained in history.

From 1918 onwards, Uspensky lived in Tashkent, engaged in the study of the musical culture of the peoples of Central Asia. It was here, in conditions extremely difficult for life, that he led numerous ethnographic expeditions throughout the region. As a result of these expeditions, a number of musical collections of traditional Uzbek, Turkmen and Tajik folk music were compiled. In 1923, in Bukhara, Uspensky began his monumental and invaluable work: the first recording of the Shashmaqom (tanbur and usul parts). In 1924, the “Shashmaqom” was published in musical notation (without text).

His ethnographic activity continued in 1925–29, when he travelled to Turkmenistan, undertaking three folklore expeditions and recording around 400 folk songs and melodies. He began his scholarly research in the field of ethnomusicology, producing numerous articles and books, including *Turkmen Music* (with V. M. Belyaev), *Music to the Texts of Alisher Navoi*, *Uzbek Vocal Music*, and many others. Ethnographic expeditions continued into the 1930s. At the beginning of the new decade, Uspensky travelled to the Fergana Valley, where he recorded Uzbek and Tajik folk music. This work later resulted in his article “Katta Ashula.”

His activity in Tashkent was no less fruitful: he carried out musical-ethnographic research and taught harmony at the People's Conservatoire (1918–22) and at the Tashkent Music School (1928–34). From 1936 he held the title of professor and taught musical-theoretical disciplines at the Tashkent Conservatoire. In 1943, Uspensky received the degree of Doctor of Arts Studies. Until his final days, Viktor Aleksandrovich Uspensky faithfully served the musical art of Uzbekistan. Arriving for a short stay, he remained there for life. He passed away on 9 October 1949.

The work of Russian musicians with the folk music of various Eastern peoples was determined, on the one hand, by the task — faced by musicians dedicated to the formation and development of national composer schools — of acquainting the population throughout Central Asia with the traditions of European music, and on the other, by their profound interest in the rich heritage of the peoples of the East.

Research methodology. The ethnographic expeditions undertaken by Uspensky in Uzbekistan and Turkmenistan revealed not only the richest layers of Uzbek and Turkmen musical folklore but also that of other peoples. As an active member of the musical-ethnographic commission at the People's Commissariat of Education of Turkestan, and as part of numerous teams collecting and recording folk songs, Uspensky amassed a vast corpus of folk melodies. Alongside Uzbek and Turkmen folklore, he also studied that of Turkish, Afghan, Iranian, Kazakh, Uighur, Tajik and other Eastern peoples. His three expeditions to Turkmenistan — in 1925–26, 1927–28 and 1930 — served as the basis for the two-volume scholarly work *Turkmen Music* (with V. M. Belyaev). Its publication was of great importance, for it was the first major work dedicated to the music of the peoples of the East (Vol. 1, 1928; Vol. 2 remained unpublished). Uspensky not only collected concrete examples of multi-national folklore but also studied its essence and characteristic

HISTORY

features. This is evident from his works, articles and reflections on the music of the Kyrgyz, Turkmen and Uzbeks. His scholarly work enriched his work as a composer.

The concerts of “Eastern Music” (the first of which took place in 1920), which showcased and promoted the musical culture of the peoples of the Central Asian region, were also of great significance. Uspensky, in his research, disproved the then-prevailing idea of Eastern music as a homogeneous phenomenon. A perceptive observer, he defined the essential features of Uzbek, Kazakh and Turkmen music on the basis of extensive study.

Analysis of the results obtained. A major contribution by Uspensky to Uzbek musical culture was his recording and subsequent study of the Shashmaqom. Such was his commitment to Uzbek culture and traditional music that he was not deterred by the absence of transport, his inability to speak the local language, or even the lack of safety (as armed groups opposed to the new regime operated in the mountains). Arriving in Uzbekistan in 1918 at the age of 38, he fell forever in love with the land, its people, and above all, the art of the maqoms. One of the first in the Central Asian region, he began actively to record and transcribe the unsurpassed *shu‘be* and *usuli* of the Shashmaqom. Throughout his life he carried out extensive work, recording over three thousand examples of traditional music using European notation. Among them are 30 songs recorded from Uzbek schoolchildren in 1932 by Uspensky, E. Romanovskaya, I. Akbarov and Kh. Mukhamedova.

In addition to *Turkmen Music*, he authored numerous articles and papers, including “Some Features of Kyrgyz Folk Song,” “Classical Music of the Uzbeks,” “Auj-i Turk and Its Role in the Folk Song Tradition of Bukhara,” “Katta Ashula,” and “Recitative in the Uzbek Opera.” In 1918, the Turkestan People’s Conservatoire was opened; the first teaching staff included Uspensky, V. Sakovich, V. Koch, E. Romanovskaya and many other Russian musicians. It offered initial musical training, and its first graduates continued their studies when, in 1922, the institution was reorganised as a music college. Similar conservatoires soon appeared in other cities of Uzbekistan. A valuable aspect of the process was that people of different ages could study there simultaneously.

The conservatoire had its own charter, which stated that it offered all social groups the opportunity to study any musical instrument, with compulsory theoretical courses. It emphasised that all students had the right to perform the works they had studied.

Uspensky enthusiastically engaged in teaching. At his initiative, “Eastern classes” were introduced, in which local students not only learned national music by ear but also became acquainted with musical notation and studied Uzbek musical instruments and their scales. It is noteworthy that Uspensky created a course in the “History of Uzbek Music,” which he taught in the Tashkent Conservatoire from its opening in 1936. Combining ethnographic and pedagogical work, he introduced his students to examples of folklore and maqoms during lessons.

Uspensky taught harmony first at the People’s Conservatoire, then at the college, and later at the Tashkent State Conservatoire. He also taught composition. His teaching materials included *Musical Dominoes* for solfège classes, based on Uzbek music, and *Wall Charts for Music Theory*. He also introduced the method of rhythmic dictation for Uzbek students, which helped bridge their traditional musical perception with the classical European system.

Uspensky consistently argued for the need to create educational materials based on Asian musical examples — Uzbek, Turkmen, Kazakh and others. Even his piano collections for two and four hands contained excerpts from maqoms (“Muhammas Iraq,” “Samoi Dugoh” — for two hands) and folk songs (“Nailaram,” “Askari”) as well as instrumental melodies (“Ufar,” “Usmaniya” — for four hands). As in his orchestral suite *Four Melodies of the Peoples of Central Asia* and his piano works, Uspensky was mindful of the needs of children encountering the unfamiliar instrument of the piano.

In the last decade of his life, Uspensky taught at the Tashkent State Conservatoire, heading the faculty of theory and composition. His influence on young musicians cannot be overstated. His personal qualities — strictness combined with modesty and integrity — inspired students and yielded great results.

Today, Uzbekistan has achieved a high standard in musical education, not only among Central Asian countries but also within the CIS. The dreams of Uspensky — the great ethnographer and scholar — have been fulfilled. His multifaceted work remains a model of selfless devotion to art.

Uspensky’s name is associated with the formation and early successes of Uzbekistan’s composer school. Despite the variety of genres, he did not leave behind a vast number of works, as much of his time was devoted to scholarly and ethnographic activity. Yet this work enriched his creativity, as he composed using material he had personally recorded, understanding deeply the process of song creation and its subtle nuances.

HISTORY

In 1933, Uspensky began work on the musical drama *Farhad and Shirin*. His interest in Navoi's poem was no coincidence: its many transformations among different poets reflected his constant search for material related to the Eastern world. The traditions Uspensky established in the interpretation of folklore continue to influence Uzbek composers today. He was the author of the first symphonic work and the first musical drama in Uzbekistan.

His arrangements of folklore in symphonic, piano and vocal works served as a starting point for subsequent generations of Uzbek composers. His main achievement, however, was the genre of arrangements of songs and melodies of various Eastern peoples, which enabled creative comparison of diverse musical traditions, revealing both similarities and differences.

Uspensky's legacy is invaluable, for having been raised within Russian musical culture, he not only continued the Oriental traditions of Russian classics while working directly with connoisseurs of Uzbek, Tajik, Kyrgyz, Afghan and other musical heritages, but also significantly transcended the boundaries of Russian musical Orientalism. He expressed this succinctly in a letter to V. M. Belyaev, noting the difficulties he faced in harmonising and orchestrating Eastern music: "... there are no examples! Rimsky-Korsakov, Borodin, Musorgsky, Cherepnin, Glinka, Rubinstein gave a 'study-room East,' beautiful, but not authentic."

In these words lies confirmation that one cannot draw parallels between the "Mighty Handful's" depiction of the East and Uspensky's own work, particularly as the traditions he established continue to thrive in contemporary Uzbek music.

Discussion. Uspensky turned to the immortal tale of the tragic love of Farhad and Shirin in late 1933–early 1934. At that time, Uzbekistan had no opera of its own, and the Institute of Art Studies was instructed by the government to find a composer who could harmonise and orchestrate Uzbek melodies. Uspensky — an ethnographer knowledgeable in Eastern music — was entrusted with this task. He approached it with great seriousness and pleasure. From the vast number of original melodies he had collected, he selected around two hundred for further work.

In those early years, when polyphonic composition was only beginning to develop in Uzbekistan, the general public was not yet familiar with European genres and forms. Therefore, the first musical-theatrical and symphonic works had to rely on melodies and rhythms familiar to the people.

The musical drama was the first stage genre in Uzbekistan. Its roots may be traced to the popular theatrical performances of the seventeenth to nineteenth centuries — the *maskaraboz*, *darbaz*, and *qiziqchi* traditions. Music was an essential element of these performances, imparting expressiveness and national colour. The genre unites elements of drama — spoken dialogue and acting — with musical features such as arias, recitatives, choruses, ensembles and orchestral writing, as well as choreography.

The musical drama *Farhad and Shirin* exists in several versions, testament to Uspensky's persistent efforts to create a high-quality production combining Uzbek national and European operatic traditions. In 1941, together with G. Mushel, he reworked the musical drama into an opera, but its premiere took place only after Uspensky's death.

In the late 1950s and early 1960s, the Union of Composers of the Republic was enriched by graduates of the Leningrad and Moscow Conservatoires. With their arrival, a gradual balance between European and traditional musical thinking was achieved. During this period, works of various genres were created — operas, ballets, symphonies, symphonic poems, instrumental concertos. This period was characterised by an active turn to large-scale forms, reflecting the growth of professional skill and the expansion of creative themes.

Conclusion. Thus, we may conclude that the development of Uzbek musical scholarship is inseparably linked with the Russian school. The role of the Russian-language branch of musicology cannot be overstated. Thanks to the numerous and systematic ethnographic expeditions of Viktor Uspensky, a tremendous contribution was made to the musical culture of Uzbekistan. His work laid the foundation for the study and development of the professional composer school in the country. He became one of the founders of musical ethnography in the region and a recognized authority on Eastern music. Through his efforts, the rich musical heritage of the peoples of Central Asia — which might otherwise have been lost — has been preserved for future generations.

REFERENCES:

1. Беляев В.М. Путь труда и энтузиазма. - В кн.: Научное наследие. Воспоминания современников. Композиторское творчество. Т., 1980, с.89.
2. Из личной беседы автора с Икрамом Акбаровым. Март, 1984.
3. Пеккер Я.Б., Успенский В.А. Музыкально-этнографическая и композиторская деятельность в Узбекистане и Туркмении. Т., 1959.

1979 - 1991 YILLAR ORALIG‘IDA BUXORO VILOYATIDA AHOLI SONI VA TARKIBIDAGI DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR

*Rivojov Sherzod Shoyimovich,
Fan va texnologiyalar universiteti tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatining 1979-1991-yillar davridagi demografik holati har tomonlama o‘rganilgan. O‘rganish davomida aholi sonining o‘shirish sur‘atlari, shahar va qishloq aholisining nisbati, jinsiy tarkib, aholi zichligi kabi asosiy demografik ko‘rsatkichlar tahlil qilingan. Shuningdek, erkak va ayollar o‘rtasidagi jinsiy muvozanat barqaror bo‘lgani ham qayd etilgan. Aholi zichligining ortishi ijtimoiy sohalarga bo‘lgan talabni oshirgan. Ushbu tahlil Buxoro viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish va aholi siyosati uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Buxoro viloyati, demografik rivojlanish, aholi soni, urbanizatsiya, shahar va qishloq aholisi, aholi zichligi, jinsiy tarkib, tabiiy ko‘payish, demografiya migratsiya jarayonlari.

ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ЧИСЛЕННОСТИ И СОСТАВЕ НАСЕЛЕНИЯ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ В 1979–1991 ГОДАХ

Аннотация. В данной статье всесторонне изучено демографическое состояние Бухарской области в период 1979–1991 годов. В ходе исследования были проанализированы основные демографические показатели, такие как темпы роста численности населения, соотношение городской и сельской местности, половая структура, плотность населения. Также отмечено, что половое соотношение между мужчинами и женщинами оставалось стабильным. Рост плотности населения усилил спрос на социальные услуги. Данный анализ имеет практическое значение для социально-экономического планирования и реализации демографической политики в Бухарской области.

Ключевые слова: Бухарская область, демографическое развитие, численность населения, урбанизация, городское и сельское население, плотность населения, половая структура, естественный прирост, демография, миграционные процессы.

DEMOGRAPHIC CHANGES IN THE POPULATION SIZE AND STRUCTURE OF THE BUKHARA REGION IN 1979–1991

Abstract. This article provides a comprehensive study of the demographic situation in the Bukhara region during the period of 1979–1991. The research analyzes key demographic indicators such as population growth rates, the ratio of urban to rural population, gender structure, and population density. It is also noted that the gender balance between men and women remained stable throughout the period. The increase in population density led to a higher demand for social services. This analysis has practical significance for socio-economic planning and the implementation of population policy in the Bukhara region.

Keywords: Bukhara region, demographic development, population size, urbanization, urban and rural population, population density, gender structure, natural growth, demography, migration processes.

Kirish. SSSR Ministrlar Soveti qaroriga muvofiq, davlat statistika organlari tomonidan 1979-yil yanvar oyida navbatdagi Umumittifoq aholini ro‘yxatga olish ishlari o‘tkazildi. O‘sha yilning aprel oyida ro‘yxatga olishning dastlabki natijalari matbuotda e‘lon qilindi, dekabr oyida esa 1979-yilgi ro‘yxatga olishning aniqlashtirilgan ma‘lumotlari va aholi ta‘lim darajasi, milliy tarkibi, tili, yashash manbai, nikoh va oilaviy holati» haqidagi natijalari chop etildi [1]. Yanvar oyida ro‘yxatga olish o‘tkazish Sovet amaliyotida an‘anaviy bo‘lib qolgan: 1939-yilda 17-yanvar, 1959-1970-yillarda 15-yanvar. Oyni o‘rtasi va hafta o‘rtasi tanlanishining sababi – bu davrda aholining ko‘chib yurishi nisbatan kam bo‘ladi. Shu sanani ro‘yxatga olish kuni sifatida belgilash natijalarni olishni osonlashtiradi, shuningdek, yil boshiga oid turli demografik hisob-kitoblar uchun ham qulaylik yaratgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Buxoro viloyati umumiy 143,2 ming km² maydonni egallab, O‘zbekiston SSR tarkibidagi eng katta hududlardan biri sanaladi. Ammo aholi zichligi juda past – har bir km² yerga o‘rtacha 8,8 nafar kishi to‘g‘ri kelgan. Bu ko‘rsatkich viloyatda aholi nisbatan tarqoq

HISTORY

joylashganini va tabiiy-geografik sharoitlar aholi joylashuviga ta'sir ko'rsatgan. Hududning asosiy qismi cho'l va yarim cho'l hududlardan iborat bo'lib, sug'orish imkoniyatlari cheklangan, suv resurslari yetarli emas. Shu bois, aholi asosan shaharlar va yirik qishloqlar atrofida joylashgan.

Ma'muriy-hududiy tuzilish har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston SSR tarkibidagi Buxoro viloyati ham geografik kengligi, aholi joylashuvi va boshqaruv tizimi bilan mamlakatda muhim o'rin egallagan.

Buxoro viloyatida 1980-yillar oxirida jami **14 ta tuman** faoliyat yuritgan. Bu tumanlar asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan va katta hududni qamrab olgan. Shaharlar soni 5 tani tashkil etgan bo'lib, ulardan faqat bittasi respublika yoki viloyatga bo'ysunadigan alohida ahamiyatga ega shahar sifatida qayd etilgan. Qolgan 4 ta shahar esa tumanlar tarkibida faoliyat yuritgan. Shuningdek, viloyatda 4 ta qishloq tipidagi posyolka va 58 ta qishloq kengashi mavjud bo'lib, bu ko'rsatkichlar qishloq aholisining soni yuqori bo'lganini va boshqaruvning asosan qishloq joylarida tashkil etilganini ko'rsatadi.

Buxoro viloyati aholi zichligi bo'yicha O'zbekistonning boshqa viloyatlari bilan solishtirilganda ancha past ko'rsatkichga ega.

1980 yillar oxiriga oid ma'lumotlarga ko'ra:

Andijon viloyatida aholi zichligi – 321,3 kishi/km²

Farg'ona viloyatida – 238,6 kishi/km²

Qashqadaryo viloyatida – 39,5 kishi/km²

Buxoro viloyatida esa – atigi 8,8 kishi/km²

1970-1991-yillar davri, ayniqsa 1979-1991-yillar oralig'i, O'zbekiston SSR tarkibidagi Buxoro viloyati uchun aholi soni va tarkibidagi sezilarli o'zgarishlar, ijtimoiy rivojlanish va urbanizatsiya jarayonlari bilan ajralib turadi. Buxoro viloyatida aholi soni 1979-yilda 1 149 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 1989 yilga kelib bu raqam 1 494 ming kishiga yetgan va 1991 yilda 1 564 ming kishiga ko'tarilgan. Bu 12 yil davomida umumiy aholi sonining 415 ming kishiga yoki taxminan 36,1% ga o'sganini ko'rsatadi [2].

Bunday o'sish dinamikasi viloyatdagi tabiiy ko'payish (tug'ilishlar soni o'sishi), hayot davomiyligining oshishi va ehtimol, ichki migratsiya hisobiga sodir bo'lgan. O'sishning bu darajasi Buxoro viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalarga bo'lgan ehtiyojning ham mutanosib ravishda ortib borganini anglatadi. Shahar va qishloq bo'yicha taqsimoti ushbu davrda unchalik katta o'zgarishlarga uchramagan. 1979-yilda shahar aholisi 396 ming kishi bo'lib, umumiy aholining 34,5% ini tashkil etgan. 1989-yilda shahar aholisi 520 ming kishiga, 1991-yilda esa 541 ming kishiga yetgan. Ammo ushbu o'sishga qaramasdan, shahar aholisining umumiy aholiga nisbati 34,5–34,8% oralig'ida saqlangan.

Bu shuni ko'rsatadiki, urbanizatsiya jarayonining o'sish sur'ati ancha sekin kechgan va qishloq aholisi hanz ustunlik qilgan. Qishloq aholisi 1991-yilda 1 023 ming kishini tashkil etgan, bu umumiy aholining taxminan 65,4%ini tashkil etadi. Shuningdek, shaharlashish sur'atining sustligi viloyatdagi sanoatlashuv darajasi, migratsion siyosat yoki shahar infratuzilmasining cheklangan imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Aholining jinsiy tarkibi bo'yicha ma'lumotlar ham viloyatda demografik muvozanat saqlanganini ko'rsatadi. 1979-yilda viloyatda 563 ming erkak va 586 ming ayol yashagan bo'lsa, 1989-yilda bu raqamlar 740 ming va 754 mingni tashkil etgan. 1991-yilda esa erkaklar soni 774 ming, ayollar soni 790 ming kishini tashkil etgan [3].

Mazkur holatni tabiiy demografik tendensiya sifatida baholash mumkin. Chunki dunyodagi ko'plab hududlardagidek, Buxoro viloyatida ham ayollarning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi erkaklarnikiga nisbatan ancha yuqori. Bu esa muayyan yosh guruhlarida ayollar sonining ko'payishiga olib keladi. 1991-yilgi rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro viloyatida ayollar soni erkaklar sonidan **16 ming nafarga ko'p** bo'lgan. Bu esa viloyat aholisi tarkibida **jinsiy disbalansning** mavjudligini, ammo uning tabiiy va demografik normalar doirasida ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. 1969-1979 va 1989 yillarda Buxoro viloyatida ham, respublikaning boshqa hududlari qatorida, sotsiologik-demografik tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarning asosiy maqsadlaridan biri - ayollarning jamoat ishlab chiqarishida ishtirok etishi (ya'ni ish bilan bandligi) va tug'ilish darajasi o'rtasidagi munosabatni o'rganish bo'lgan [4].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Buxoro viloyatida ham ayollar bandligi darajasi ularning farzandlari soniga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Masalan, 1988-1989-yillar davrida shahar hududlarida har bir xizmatchi (ofis yoki davlat muassasalarida ishlovchi) o'zbek ayoliga o'rtacha 2,6 nafar farzand to'g'ri kelgan. Ishchi (ishlab chiqarishda band bo'lgan) ayollarga-3,2 nafar, kolxozchi ayollarga-3,6 nafar va uy bekasi ayollarga-3,8 nafar farzand to'g'ri kelgan.

Qishloq joylarida esa bu ko'rsatkichlar ancha yuqori bo'lgan. Xususan, xizmatchi ayollarga-3,2, ishchi ayollarga-3,8, kolxozchi ayollarga-4,5, va uy bekasi bo'lgan ayollarga-4,7 nafar farzand to'g'ri kelgan. Bu

HISTORY

ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, Buxoro viloyatida ham ayollarning ish bilan bandlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tug'ilish darajasi shunchalik past bo'lgan.

Ayniqsa, to'liq ish vaqtini talab qiluvchi kasblarda band bo'lgan ayollar orasida farzand soni nisbatan kamroq bo'lgan. Bu esa ayollarning ish faoliyati va onalik vazifalarini bir vaqtda olib borishidagi qiyinchiliklar bilan bog'liq edi. Ayollarning kasb - korlik faoliyatiga jalb etilishi ularning oiladagi o'rmini mustahkamlab, oila a'zolari oldidagi nufuzini keuchaytirdi, bu esa oilaviy munosabatlardagi ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Sotsialistik jamiyat ayollarning ijtimoiy sohalarga jalb etilishi uchun ko'plab ishlarni amalga oshirdi, ammo ularga ishlab chiqarish va uy ishlari uchun bab - baravar shart sharoit yaratib bera olmadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. 1980-1990-yillar Buxoro viloyatida aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'zgarishlar kuzatilgan davrlardan biri hisoblanadi. Bu yillarda mamlakat miqyosida amalga oshirilgan bir qancha ishlar, jumladan sog'liqni saqlash, ta'lim va mehnat munosabatlaridagi o'zgarishlar aholining demografik tarkibiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Buxoro viloyatida sotsiologik va demografik ko'rsatkichlar bu jarayonlarni yaqqol aks ettiradi.

1980-yilda Buxoro viloyatida har ming aholiga tug'ilganlar soni 34,4 promileni tashkil etgan bo'lsa, 1990-yilga kelib bu ko'rsatkich 31,3 promilega kamaygan. Bu pasayish juda katta emas, lekin muayyan tendensiyani ko'rsatadi. Aholining, ayniqsa ayollarning jamiyatdagi roli o'zgarib borgani, ularning ta'limga, kasbga, faol mehnat faoliyatiga jalb qilinishi tug'ilish qarorlarini kechiktirishga yoki farzandlar sonini qisqartirishga olib kelgan. Bunda shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi farq ham ahamiyatga ega: shaharlarda tug'ilish darajasi qishloqqa nisbatan past bo'lgan, chunki shahar aholisi orasida ish bilan bandlik yuqori va turmush sharoiti farqli bo'lgan.

O'lim darajasining pasayishi bo'yicha sezilarli ijobiy o'zgarish kuzatilgan. 1980-yilda promileni tashkil etgan o'lim darajasi 1990-yilda 5,5 promilega pasaygan. Bu holat Buxoro viloyatida tibbiy xizmat sifatining yaxshilanishi, bolalar va onalar salomatligiga bo'lgan e'tiborning ortgani, profilaktik tadbirlar, emlash ishlari va umumiy sanitariya sharoiti yaxshilanganini ko'rsatadi. Bu omillar o'lim darajasining kamayishiga hamda umumiy demografik vaziyatning barqarorlashuviga xizmat qilgan [5].

Tabiiy ko'payish 1980-yilda 26,4 promileni tashkil etgan bo'lsa, 1990 yilda bu ko'rsatkich 27,6 promilegacha oshgan. Tabiiy ko'payish - tug'ilish va o'lim o'rtasidagi farq bo'lib, aholining tabiiy o'sish sur'atini ko'rsatadi. Buxoro viloyatida bu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi aholi sonining barqaror o'sib borganini anglatadi. Bu holat o'z navbatida ijtimoiy jarayonlarga (maktablar, bolalar bog'chalari, shifoxonalar, uy-joylar) bo'lgan ehtiyojni oshirgan, ya'ni demografik o'zgarishlarga faqat tibbiy xizmat yoki aholi ongi emas, balki kengroq ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlar ta'sir qilgan.

1991-yilga kelib Buxoro viloyatidagi demografik jarayonlar-tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari-hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati, aholi salomatligi va rivojlanish istiqbollari haqida muhim ma'lumot beradi. Yil davomida **40 709 nafar bolaning tug'ilishi** viloyatda tug'ilish darajasi yuqori bo'lganini, aholining yosh tarkibida bolalar va yoshlar ulushi salmoqli ekanini ko'rsatadi [6].

Bu ko'rsatkich nafaqat tabiiy o'sishning yuqoriligidan dalolat beradi, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, bolalarga mo'ljallangan infratuzilmalarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishini ham anglatadi. Shu bilan birga, **6580 nafar o'lim holati** qayd etilgani-aholining umumiy sog'lig'i, tibbiy xizmatlarga yetishi va sanitariya-epidemiologik sharoitlar bilan bog'liq holatni aks ettiradi [7].

Bu raqam tabiiy o'sishni cheklovchi asosiy omillardan biri bo'lib, uni tahlil qilish orqali sog'liqni saqlash tizimidagi muammolarni aniqlash va yaxshilash choralarini ko'rish mumkin. 1991-yilda Buxoro viloyatidagi demografik vaziyat - yuqori tug'ilish va past o'lim darajasi-viloyatning tabiiy o'sish salohiyati katta ekanini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki aholining o'sishi-har bir davlat uchun muhim demografik ko'rsatkich bo'lib, u tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarga, shuningdek, milliy urf-odatlar va an'analarga bevosita bog'liqdir. Aholining o'sishi nafaqat biologik, balki ijtimoiy-madaniy omillar bilan ham shakllanadi. Jahon miqyosida kuzatilayotgan demografik jarayonlar shundan dalolat beradiki, aholi ko'payishi asosan rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu davlatlarda tug'ilish darajasi yuqori, o'lim darajasi esa salkam pasaygan. Shu sababli, tabiiy ko'payish yuqori sur'atlarda kechmoqda.

Mamlakatning turli viloyatlarida kuzatiladigan demografik vaziyat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu holat aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini shakllantirishda geografik yondashuvni talab etadi. Masalan, aholisi tez o'sib borayotgan yoki qarish jarayoni tezlashgan hududlarda ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoj mutanosib ravishda ortib boradi. Shuningdek, sanoatlashgan viloyatlar bilan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan mintaqalar o'rtasidagi farqlar ham ijtimoiy muhofaza strategiyalarini moslashtirishni taqozo etadi.

HISTORY

Demografik omillarni hisobga olgan holda, har bir hududda aholining yosh tarkibi, migratsiya koʻrsatkichlari, mehnat bozori holati va oilaviy tuzilmalar asosida maqsadli ijtimoiy siyosat yuritilishi lozim. Bu esa nafaqat resurslarni samarali taqsimlash, balki aholining hayot sifati va farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Buxoro viloyatidagi demografik oʻzgarishlar nafaqat aholining oʻsish surʻati, balki uning jinsiy, yosh va hududiy tarkibidagi oʻzgarishlar, ayollarning ijtimoiy faolligi va turmush sharoiti bilan uzviy bogʻliq boʻlib, kelgusi rivojlanish siyosatlarini belgilashda asosiy omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Итоги Всесоюзной переписи населения 1979 года. Численность населения СССР, Союзных автономных республик, краев и областей.* – Москва, 1989. Том I. – С.3-5.
2. *Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. статистической ежегодник.* – Ташкент “Узбекистон”, 1990. – С. 14-15.
3. https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/135959/1/978-5-94646-689-9_2024_016.pdf Рождаемость в Узбекистане (1890–1990 гг.)
4. *Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. статистической ежегодник.* – Ташкент “Узбекистон”, 1990. – С. 18.
5. *Абдурахмонов К.Х. ва бошқалар. Демография. Дарслик.* - Т.: “Iqtisodiyot”, 2014. – Б. 180
6. *Абдурахмонов К.Х. ва бошқалар. / Зокирова Н.К., Шоюсупова Н.Т., Габзалилова В.Т., Абдураманов Х.Х., Абдурахмонова Г.К., Шакаров З.Г. Демография. Дарслик.* - Т.: “IQTISODIYOT”, 2014. – Б. 203.

DAVLAT XIZMATI MASALASINING PAYDO BO‘LISH TARIXI

Rafiqova Gulnoza Valijonovna,

Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Maqolada davlat xizmati masalasining paydo bo‘lish tarixi hamda uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif davlat xizmati inson faoliyatining ijtimoiy tashkil etilishida, jamoa ehtiyojlarini qondirish va boshqaruv tizimlarini barqarorlashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lganini ta’kidlaydi. Tadqiqotda davlat xizmatining ildizlari qadimgi Sharq va G‘arb sivilizatsiyalaridagi boshqaruv an‘analari asosida ko‘rsatiladi. Shuningdek, uning ibtidoiy jamoa tuzumidan to industrial va postindustrial davrgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari izchil yoritiladi. Maqolada davlat xizmatining shakllanishida ijtimoiy ehtiyojlar, mehnat taqsimoti, hokimiyat institutlarining yetishishi va iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi asosiy omil sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: davlat xizmati, tarixiy rivojlanish, jamiyat, ijtimoiy ehtiyojlar, davlat boshqaruvi, xizmat ko‘rsatish tizimi, industrial jamiyat, davlat institutlari, boshqaruv an‘analari, ijtimoiy barqarorlik.

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ВОПРОСА О ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЕ

Аннотация. В статье проводится научно-теоретический анализ истории возникновения понятия государственной службы и её роли в развитии общества. Автор подчёркивает, что государственная служба проявлялась как важный фактор в социальной организации человеческой деятельности, в удовлетворении коллективных потребностей и стабилизации систем управления. В исследовании показываются истоки государственной службы, берущие начало в управленческих традициях древних восточных и западных цивилизаций. Кроме того, последовательно освещаются этапы её развития — от первобытнообщинного строя до индустриального и постиндустриального общества. В статье социальные потребности, разделение труда, формирование институтов власти и совершенствование экономических отношений оцениваются как основные факторы становления государственной службы.

Ключевые слова: государственная служба, историческое развитие, общество, социальные потребности, государственное управление, система обслуживания, индустриальное общество, государственные институты, управленческие традиции, социальная стабильность.

THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF PUBLIC SERVICE

Abstract. The article provides a scientific and theoretical analysis of the historical emergence of the concept of public service and its role in the development of society. The author emphasizes that public service has manifested itself as an important factor in the social organization of human activity, in meeting collective needs, and in stabilizing management systems. The study traces the roots of public service to the administrative traditions of ancient Eastern and Western civilizations. Furthermore, it consistently highlights the stages of its development — from the primitive communal system to the industrial and post-industrial eras. The article assesses social needs, division of labor, the emergence of power institutions, and the improvement of economic relations as the main factors in the formation of public service.

Keywords: public service, historical development, society, social needs, public administration, service system, industrial society, state institutions, administrative traditions, social stability.

Kirish. Antik davrdan boshlab faylasuflar, huquqshunoslar va siyosatshunoslar “jamiyat” va “davlat” tushunchalarining o‘zaro bir-birlariga nisbati qanday bo‘lishi ekanligi to‘g‘risida turli-tuman fikrlar bildirgan edi. Hozirgi davrga kelib, zamonaviy davlat sifatida ijtimoiy jihatlardan muvozanatga erishgan davlatni e’tirof etish rusumga kirdi.

Fransuz olimlarining fikricha, ijtimoiy muvozanat ikkita asosiy faoliyat turi asosida amalga oshiriladi[1]. Birinchi faoliyat turiga me‘yorlar ijodkorligi kirib, uning vositasida huquqiy chegaralar va xulqning yagona standartlari ta‘minlanadi. Huquq me‘yorlarini saqlash ularni buzganlik uchun jazolashlarni belgilash bilan ta‘minlanadi. Shu jihatdan qaraganda, davlat me‘yorlarga rioya qilish kafolati sifatida namoyon bo‘ladi. Davlat faoliyatining ikkinchi turi jamoaviy ehtiyojlarni qondirish uchun davlat xizmatlarini amalga oshirish orqali ijtimoiy muvozanatga erishish faoliyatida namoyon bo‘ladi. Xuddi ana

shu davlat xizmatlarining mavjudligi demokratik va ijtimoiy davlatning muhim unsurlari hisoblanadi, chunki bunda xizmatlarning muayyan turlari foyda olinishi yoki olinmasligidan qat'iy nazar barcha uchun ochiq bo'lishi lozim. Hattoki, davlat xizmatlari davlatning o'zi tomonidan amalga oshirilmagan yoki davlat byudjetidan moliyalashtirilmagan taqdirda ham davlat xizmatlarini amalga oshirish davlatning muvofiqlashtirilishi asosida kechadi va bozor iqtisodiyoti doirasidan tashqari chiqib ketishi ham mumkin bo'ladi.

Qadimgi davrlardan buyon barcha jamiyatlarda davlat xizmatlarining kurtaklarini topish mumkin. Jumladan, Qadimgi Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Misr va boshqa mamlakatlarda irrigatsiya, sun'iy sug'orish kanallari, xavfsizlikni saqlash, g'allaning ijtimoiy zaxiralari davlat boshqaruvida bo'lgan. Janubiy Amerikadagi inkalar davrida davlat yo'llar va suv ta'minotini boshqarib turgan. Rim imperiyasi o'z fuqarolariga pensiyalar va teatrlarni taqdim etgan. Jahondagi barcha rivojlanayotgan davlatlar davlat xizmati ko'rsatish tajribasini Yevropa mamlakatlaridan o'rganishi rusumga kirdi. Shuning uchun ham davlat xizmati ko'rsatish tarixini Yevropa mamlakatlari tajribasidan boshlash mantiqqa muvofiq keladi.

Ibtidoiy jamoa tuzumining oxirgi davriga kelib murakkab xo'jalik mashg'ulotlari paydo bo'ldi, ko'plab funksiyalarni bajaradigan muayyan maqomga ega shaxslar, qabilalar boshliqlari, oqsoqollar kengashi, diniy xizmatchilar roli kuchaydi, ma'naviy qadriyatlar yaratuvchilar – baxshilar, qoyalarga naqsh va rasm chizuvchilar, primitiv musiqachilarning roli ortib bordi. Shu tariqa, bu sohalar vakillari hozirgi davrda xizmat ko'rsatish sohasi deyiladigan faoliyat bilan Shug'ullandi. Albatta, bu kabi faoliyatlar ijtimoiy aloqalar maydonida shakllandi, chunki bu davrda qabila boshlig'i, diniy xizmatchi, baxshilar jamiyatdagi ehtiyojlar tufayli paydo bo'lgan edi. Bu mashg'ulotlar ixtiyoriy ravishda, birovni majburlashsiz, daromad olish maqsadida shakllandi. Ularning faoliyati tufayli jamiyatda o'zaro yordamlashishlarning roli ortdi, ijtimoiy xizmat ko'rsatishning turlari ko'payib murakkablashib bordi. Ularning ko'pchiligi oilalar doirasida amalga oshirilar edi. Hamjamiyatdagi oilalar qarindoshlar, oila mehmonlari, uy xizmatchilari va qullardan iborat katta bir jamoalarga aylandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur maqolaning metodologiyasi davlat xizmati masalasining shakllanishi va rivojlanishiga tarixiy hamda huquqiy-nazariy yondashuv asosida ishlab chiqilgan. Tadqiqotda tizimli, qiyosiy, tarixiy va institutsional tahlil usullari qo'llanilgan bo'lib, ular orqali davlat xizmati institutining turli davrlardagi shakllanish jarayonlari, ma'muriy-huquqiy islohotlarning mohiyati va ularning davlat boshqaruvidagi o'rni yoritilgan. Shu bilan birga, Guglielmi G. J., Mehrotra S., Jarrett S. W. kabi xorijiy olimlarning davlat xizmati tizimiga oid nazariy qarashlari tahlil etilib, ular orqali O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimi evolyutsiyasiga nisbatan ilmiy asosli xulosalar ishlab chiqilgan.

Mavzuning o'rganilganlik jihati shundan iboratki, davlat xizmati institutining paydo bo'lishi va rivojlanishiga doir ilmiy adabiyotlarda, jumladan, Avanesova G.A., Rodinova I.A., Koshkin P.P. singari mualliflarning asarlarida davlat xizmatining iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv aspektlari chuqur o'rganilgan. Shuningdek, xalqaro tajribani aks ettiruvchi Washington Administrative Code va "Консультант Плюс" tizimidagi huquqiy manbalar tahlil qilinib, ularning asosida zamonaviy davlat xizmati mexanizmlarining shakllanishi hamda ochiqlik va samaradorlik tamoyillari yoritilgan. Shu bois, maqola davlat xizmati tizimining tarixiy ildizlari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy-nazariy asosda tahlil qilishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Qadimgi dunyo jamiyatlarida xizmat ko'rsatishning shakllanishi va rivojlanishi er.av.4-3-ming yilliklarda boshlandi. Bu davrning boshida insonlar faoliyatning yangi turlarini egallab, ularning bir qismi ko'chmanchilik hayotidan o'troqlikka o'tdi, qulolchilik paydo bo'ldi, metallarga eritib ishlov berila boshlandi, o'ziga xos yozuvlar va belgilar paydo bo'ldi.

Qadimgi jamiyatlarni belgilab beruvchi qator hususiyatlari oldingi davrdan farq qila boshladi:

- tashkiliy uyushmalarning davlat-huquqiy shakllari va ijtimoiy amaliyotni muvofiqlashtirish shakllandi;
- xususiy mulk rivojlanib, u odamlarni iqtisodiy va ijtimoiy qatlamlarga bo'linishga olib keldi; qullik instituti paydo bo'ldi;
- xo'jalik amaliyotida tovar-bozor munosabatlarining oddiy unsurlari paydo bo'ldi, ular mehnat taqsimotini chuqurlashtirdi, xo'jalik yuritish sohalarini shakllandi;
- qishloq xo'jaligi, savdo, hunarmandchilik ishlab chiqarishi va hokazo;
- yangi mashg'ulotlar va kasblar paydo bo'ldi (yozuv, davlat boshqaruvi, huquqiy faoliyat bilan bog'liq va boshqalar);
- diniy hayot xizmatchilari, Shuningdek badiiy-estetik qadriyatlar yaratuvchilar vakillari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy faollarning barqaror shakllari rivojlandi;
- bir tomondan, katta ijtimoiy birliklar paydo bo'ldi, ikkinchi tomondan, ijtimoiy yacheyka – oila uzil-kesil shakllandi.

HISTORY

Shu tariqa jamiyatning rivojlanib borishiga monand ravishda yangidan-yangi xizmat ko'rsatish sohalari paydo bo'la boshladi.

Xizmat ko'rsatish turlarining paydo bo'lishi an'analar va urf-odatlar bilan belgilandi, ya'ni faoliyatlarning odatdagi me'yorlari, xo'jalik to'g'risidagi barqaror tasavvurlar asosida yangi sohalar ko'payib bordi. Antik jamiyatda turli hayotiy faoliyatlarda xizmatlarning muhim turlari shakllandi. Masalan, moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonidagi munosabatlar sohasida (hunarmandchilik ishlab chiqarishi, savdo, pul muomalasi), huquqiy munosabatlar sohasida (professional armiya, sudyalari), kommunikatsiya va madaniyat sohasida (transport, fan, san'at, ta'lim va hokazo), shaxsiy ehtiyojlarni qondirish sohasida yangi xizmat ko'rsatish turlari paydo bo'ldi.

Savdo va maishiy xizmatlardan tashqari hunarmandchilik, yuksak malaka talab qiladigan xizmatlar yuqori malakali tayyorgarlik talab qilishi tufayli xo'jalik yuritishda mehnat taqsimotining roli keskin oshdi. O'rta Yer degizi va Sharqdagi shaharlarda tosh tarashlovchilar, xaykaltaroshlar, arxitektorlar, quruvchilar, nusxa ko'chiruvchi kotiblar va maktablarda o'qituvchilar ko'payib bordi.

Qadimgi dunyoda xo'jalik amaliyoti va ijtimoiy aloqalar turli xizmat ko'rsatish shakllarini ko'payishi bilan bog'liq ravishda rivojlandi, lekin ular hali patriarxal holatda edi. Butun bir jamiyat sekinlik bilan rivojlandi, iqtisodiyot esa ekstensiv yo'l bilan bo'lsa ham rivojlandi. Lekin, Shu bilan birga, antik davrda, jamiyatning o'sib borishiga ijobiy ta'sir qila oladigan faoliyatlar turi shakllandi. Masalan, inson tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan san'at asarlari. Shu davrda ilmiy-falsafiy fikrlar paydo bo'ldi, tabiat va olamni o'rganishning yangi qirralari ochildi.

O'rta asrlarga kelib (V-XV asrlar) xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish jarayonida xo'jalik taqsimoti va bozor munosabatlarini chuqurlashtiruvchi ko'plab ishlab chiqarish-moliyaviy va ijtimoiy mexanizmlar ishlab chiqildi, ular iqtisodiyot va yangi turdagi xizmatlarning shakllanishiga kuchli ta'sir etdi. O'rta asrlarda ijtimoiy rivojlanishning o'sishiga sharoitlar yaratadigan faoliyatlar turlari chuqurlasha boshladi (Shu davr uchun kuchli ilmiy-falsafiy tafakkurlash, Shuningdek insonni rivojlantirishga yo'naltirilgan san'at). Bu davrda sekin rivojlanayotgan ijtimoiy hayotni o'zida aks ettiruvchi Sharq madaniyati ancha ustuvorlikka erishdi.

Yangi davr – XVII asrdan boshlab iqtisodiy, mehnat munosabatlari, odamlar dunyoqarashi, Shuningdek jamiyat ma'naviy sohalari ancha o'zgarishlar ro'y berdi. Quldorlik ishlab chiqarishi o'rniga manifakturalar kirib keldi, banklar va boshqa kredit-moliya muassasalari paydo bo'ldi, xizmat ko'rsatishning moliyaviy sektori faol ravishda rivojlana boshladi. G'arb mamlakatlari iqtisodiyoti savdo tizimini yaxshilanishi natijasida rivojlandi, bu holat bozor turidagi pul muomalasini vujudga keltirdi. Lekin, bu davrda xizmat ko'rsatish va servis sektorida etarli malakani egallamagan, bu sohaga oid to'liq axborotlarga ega emas edi. Bu soha ijtimoiy boylikni ko'paytirmaydi, moddiy qoniqishga olib kelmaydi degan qarashlar hukmron edi[2].

Savdo sohasida kasb-korporativ munosabatlarning ancha takomillashgan shakllari paydo bo'ldi. Savdo uyushmalari, jamiyatlari, gildiyalari, ganzalar ittifoqlari tashkil topib, ular faoliyati natijasi o'laroq savdo faolligining (savdo-sotiq, xavfsizlik, tijorat va boshqalar) ichki korporativ me'yorlarini muvofiqlashtirishga imkon bera boshladi. Ana Shunday tarzda hunarmandchilik sexlari, korporativ birlashmalar tashkil topib, ularda ishlab chiqarishdagi mehnat muvofiqlasha boshladi. G'arbiy Yevropaning barcha yirik shaharlarida universitetlar, maktablar paydo bo'lib, oldinlari diniy o'qish markazlari bo'lgan muassasalar dunyoviy o'quv yurtlariga aylandi.

Qishloq xo'jaligi kapitalistik yo'lga chiqib olgan jamiyatlarda zamonaviy xizmat ko'rsatishning muhim bo'g'ini shakllandi: "xizmatlar ishlab chiqaruvchilari – iste'molchilari". Bu holat dastlab sayohat qilish sohasida tezlik bilan rivojlandi. Sayohatchilar sonining o'sib borishi bilan yaxshi yo'llar, mehmonxonalar, ovqatlanish muassasalarini ko'payishini taqozo qila boshladi. Dastlab bu xizmatlardan foydalanuvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar xulqlarini an'analar, diniy odatlarga oid tasavvurlar va me'yorlar muvofiqlashtira boshladi. Vaqtlar o'tishi bilan ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlardagi huquqiy stereotiplar va me'yorlarni davlat tomonidan muvofiqlashtirish zaruriyati tug'ildi.

Yangi davrga kelib Yevropa sivilizatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning yangi omillarini yaratdi – texnika, sanoat ishlab chiqarishi va fan kabi yangi industrial jamiyat asoslari paydo bo'ldi.

XX asrning o'rtalarida fan-texnika inqilobi boshlanib, uning natijasida xizmat ko'rsatish sohasida tub o'zgarishlar boshlandi, industrial madaniyat shakllandi. Bu davrga kelib moddiy ishlab chiqarish servisining (xizmat ko'rsatish sohasining) rivojlanishiga bog'liq bo'lib qoldi. Biron-bir tovarni ishlab chiqarishdan oldin tadbirkorning marketing tadqiqot o'tkazishi hayoti zaruratga aylandi, uni faoliyati yangi innovatsiyalarga ehtiyojlar seza boshladi. Yangi va ilm-fanga asoslanib ishlab chiqariladigan tovarlarni kashf etilishi ilmiy bilimlarsiz amalga oshmasligi sababli malaka oshirishga bo'lgan talablar kuchaydi. Fan, ta'lim, savdo kabi xizmat ko'rsatish sohalari – fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlariga aylandi.

HISTORY

Industralashtirish davri jahon xo'jaligida resurslarning qayta taqsimlanishiga turtki berdi. Endi resurslarning katta qismi nafaqat savdo ishlarida, balki yirik ishlab chiqarish va kredit-bank sektorida to'plandi. Buning natijasida shahar aholisining hissasi ortib bordi, fan-texnika taraqqiyoti mahsulotlari bilan bog'liq yangi kasb-korlar ko'paya boshladi. Tadbirkorlar aloqa va kommunikatsiyalar xizmatidan foydalanishi avj oldi[3].

Muhokama. Industrial jamiyatning shakllanishi bilan turli-tuman ehtiyojlarga ega ko'plab ijtimoiy qatlamlar va guruhlar paydo bo'lib, bu bilan bog'liq holda yangidan-yangi xizmat ko'rsatish turlari paydo bo'ldi. Chunki, industrial jamiyat sharoitida odamlar o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini yo'qota boshlagan edi. Ular o'z faoliyatini ishlab chiqarish faoliyati printsiplari asosida qurgan xizmat ko'rsatish sektoridan foydalanishga kuchli zarurat sezga boshlagan edi.

Shu tariqa, sanoatlashtirish natijasida uchinchi sektor (nodavlat notijorat tashkilotlar – NNT) tezlik bilan rivojlandi. Xizmat ko'rsatish sohasi yangidan-yangi ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarni vujudga kelishiga sabab bo'lib, bozordagi iste'molchilar ongini o'sishiga kuchli ta'sir etdi. Xizmat ko'rsatish yangi sanoat ishlab chiqarishi texnologiyalari bilan qurollanib, odamlarning kundalik hayotiga kirib keldi.

Va nihoyat, XX asrning o'rtalaridan boshlab iqtisodiyotda dastlab rivojlangan, keyinroq esa boshqa mamlakatlarda postindustrial jamiyatga o'tish jarayonlari (industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish) boshlandi. Bu jarayon hozirgi davr iqtisodiyotining asosiy tamoyiliga aylanib, boshqa mamlakatlarga ham tarqala boshladi[4].

Jahonda rivojlanayotgan mamlakatlarda hozir ham industrialashtirish davom etayotgan bo'lsada, iqtisodiyotda uchinchi sektorning o'rni ortib bormoqda. Bu sektorning o'sishi asosan fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, ta'lim, madaniyat, san'at va boshqa nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida yuz berdi. Postindustrial jamiyatdagi asosiy ishlab chiqarish resursi – bu bilim va mehnatdir. Iqtisodiy munosabatlar esa ko'p jihatdan yangi bilim va texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishga bog'liq holda rivojlandi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish va iste'mol tuzilmalari ham o'zgardi. YAIM (yalpi ichki mahsulot) ishlab chiqarish tuzilmasida xizmat ko'rsatish hissasi tovarlardan oshib, u yanada o'sish tamoyiliga aylandi. Postindustrial jamiyatda xizmat ko'rsatish sohasining ustunligi bois ta'lim, ayniqsa, maktabdan keyingi ta'lim, odamlarning ma'lumotlilik darajasining o'sib borishi natijasida yuqori malakali xodimlar ko'paydi, oylik ish haqlari o'sib bordi[5].

Shu bilan bir qatorda iqtisodiyotning servislashish jarayoni boshlanib, xizmat ko'rsatish xodimlarining madaniy va professionallik sifati darajasi o'sdi, bu soha investitsiyaviy qo'llab-quvvatlanadigan yo'nalishga aylandi.

Dastlab davlat tomonidan majburiy ta'lim berish Yevropa, Shimoliy Amerika va Yaponiyada boshlandi. Shundan keyin davlat tasarrufidagi tibbiyot, transport korxonalari, aeroportlar paydo bo'ldi. Davlat havo yo'llaridagi harakatlarni nazorat qilish funksiyasini o'z zimmasiga oldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish davrida ijtimoiy xizmatlar davlat boshchiligida isloh etildi va u umumiylik kasb etgan sohaga aylandi. Buyuk Britaniya qirolligi va Shimoliy Irlandiyada o'rta ma'lumot olish majburiy va bepul ta'lim olish sohasiga aylanib, u 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan qo'llandi. Barchaning "beshikdan qabrgacha" moddiy himoyalashni ta'minlash maqsadida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi tashkil topdi. Buyuk Britaniya qirolligining barcha mintaqalarida 1949-1948-yillarda Milliy tibbiyot xizmati (National Health Service) tashkil etildi. Unga binoan mamlakat tibbiyoti tizimining barcha tizimlar transformatsiyalashdi. Milliy tibbiyot xizmatining asosiy prinsiplari – bu umumxalq xizmati ko'rsatish – mamlakatning har bir fuqarosiga bepul xizmat ko'rsatishni davlat tomonidan moliyalashtirishdan iborat bo'ldi[6].

Yevropa davlatlari misolida ko'rish mumkinki, davlat xizmati ko'rsatish evolyutsiyasi transformatsiyalasha borib, dastlab u politsiya davlati konsepsiya asosida rivojlandi. Asta-sekinlik bilan bu davlatlar ichki siyosatida ijtimoiylik kuchayib borib, jamiyatda muvozanatga erishishning yangi usuli – davlat xizmatlari ko'rsatish shakllandi. Dastlab bu xizmatlar ko'rsatish mintaqalarda, davr o'tishi bilan zamonaviy demokratik davlatning ustuvor konsepsiyasiga aylanib, u servis ko'rsatish davlatiga aylandi[7]. Taniqli siyosatshunos S.A.Belovning fikricha, bu konsepsiya Buyuk Britaniyada M.Tetcher hukumat boshlig'i bo'lib turgan davrda "yangi menejerizm" deb nom oldi. "Yangi menejerizm"ning asosi – bu davlat tashkilotlari mijozlarga ochiq bo'lishi va xizmat ko'rsatishga yo'nalgan bo'lishi edi. Bu konsepsiyaning asosiy prinsipi davlat xizmatini etkazib beruvchilari (provayderlari) o'rtasida raqobatchilik kuchaytirilishi lozim; bu sohada fuqarolar huquqlarini kengaytirish; qonunlarga va qoidalarga emas, ko'proq maqsadlarga moslashish va boshqa[8].

Shu davrda boshlab davlat xizmati ko'rsatish tizimi barcha Yevropa mamlakatlarida shakllana boshladi. Shu bilan birga, bu jarayon davlat xizmati ko'rsatish sohasida yangi tushuncha va iboralarni paydo

HISTORY

bo'lishiga olib keldi. Ingliz tilidagi manbalarda «public service» iborasi paydo bo'lib, u Fransiyadagi «service public» tushunchasi bilan bir xil ma'noga ega bo'ldi. Shuningdek, ingliz tilidagi adabiyotlarda «government service» – “davlat xizmati” yoki “hukumat xizmati” (ijroiya hukumat xizmati) tushunchalari keng yoyildi.

Albatta, “ijtimoiy xizmat” “davlat xizmati” tushunchasiga nisbatan ancha keng bo'lib, u o'z ichiga xizmat ko'rsatishning barcha turlarini oladi. «Public service» tushunchasi nihoyatda keng tarqalib, u davlat va munitsipalitet organlari tomonida va davlatning moliyalashtirishi asosidagi davlat xizmatini anglatishi tufayli ham xorijiy adabiyotlarda ham tez-tez eslanadigan tushunchaga aylandi.

Fransiyada qo'llanadigan «service public» tushunchasi esa ikki xil ma'noda ishlatila boshlandi: moddiy va organik (jonli). Moddiy ma'noda u huquqiy me'yorlar asosida vakolatlariga ega bo'lgan va hokimiyat organlari tomonidan nazorat qilinadigan ijtimoiy yoki xususiy tashkilot tomonidan umumiy manfaatlarni qondirishga qaratilgan faoliyatlarni anglatga boshladi. Organik ma'noda esa u bu kabi funksiyalarni amalga oshiruvchi ma'nosini bera boshladi.

Xulosalar. Xorijiy mamlakatlar huquqiy hujjatlarida davlat xizmatiga oid boshqa iboralar ham uchraydi. Jumladan, Yevropa Ittifoqi (EI) mamlakatlarida davlat xizmatiga oid «services of general interest» iborasi ishlatiladi. Uni o'zbekchaga tarjima qilganda “umumiy manfaatlar xizmati” ma'nosi kelib chiqadi. Yevropa kasaba uyushmalari konfederatsiyasining (European Trade Union Confederation – ETUC) saytida umumiy manfaatlar xizmati insonlarning farovonligini oshirish uchun ularning kundalik ehtiyojlarini qondirishi lozim, degan qoida keltirilgan. Shuningdek, yana AQSH qonunchiligida “shahar davlat xizmati” («urban governmental services») iborasi ishlatiladi. Vashington qonunchiligida shahar xizmat ko'rsatishi deganda ijtimoiy xizmatlar tushuniladi. Shahar xizmatiga politsiya xizmati, yong'in xavfsizligi xizmati, sel oqimi kanalizatsiya va kollektorlari, suv bilan ta'minlash va suv chiqarish, ko'chalarni tozalash kabilar kiradi

Yevropa davlat xizmatlarini takomillashtirish sohasidagi muhim tamoyillardan **birinchi** – bu ularning ochiqlikka intilishidir. Bu degani, birinchi navbatda, “fuqarolar bilan o'zaro munosabatlardagi barcha imkoniyatlardagi usullar bilan davlat organlari faoliyatlarining barcha sohalariga oid barcha axborotlar ochiq bo'lishini ta'minlash, Shuningdek davlat xizmatlarining iste'molchilari ko'rsatilgan xizmatlar sifati va hajmiga ta'sir qila olish imkoniyatlarini yaratish”[9]. Shu tariqa, davlat xizmatlarining iste'molchisi nafaqat xizmatlardan foydalanish imkoniyatlariga, balki davlat organlariga takliflar, shikoyatlar bilan murojaat qilish va izohlar olish imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim.

Xorijiy mamlakatlarda davlat xizmatlarini takomillashtirishning **ikkinchi** tamoyili – bu xizmatlar sifatini oshirish hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun turli usullar qo'llaniladi, masalan, sifat standartlarini ishlab chiqish va ularni qo'llash, Shuningdek ularga amal qilishni doimiy ravishda nazorat qilib borish. Standartlarning mavjudligi – sifatli davlat xizmatlarini taqdim etishning muhim sharti bo'lib, ularga rioya qilish bu kabi xizmatlar samarasini oshiradi, iste'molchilarda qoniqish hosil etadi, xizmat ko'rsatish jarayonini engillashtiradi.

Uchinchi tamoyil – bu xizmat ko'rsatishning moslashuvchanligini ta'minlashdir. Chunki, aholining ijtimoiy-iqtisodiy va yosh tarkibi doimo o'zgarib boradi. Shuning uchun ham xizmatlarga bo'lgan talablar, uning tarkibi va hajmiga nisbatan moslashuvchanlikni oshirish doimiy ravishda monitoring etib boriladi.

Davlat xizmatlari provayderlari sonini ko'paytirib borish davlat xizmatlari ko'rsatishning **to'rtinchi** tamoyili sifatida namoyon bo'ldi. Davlatlar rivojlanishining hozirgi darajalarida milliyashtirishning teskari jarayoni – xususiylashtirishni tezlashib borishi kuzatilmoqda. Bu jarayon xususiy kompaniyalarni davlat tuzilmalari tomonidan nazorat qilishdan kechish asosida investorlarga sotishga (yoki tashkil etishga) qulay shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Shu bilan birga, Shimoliy Yevropa mamlakatlarida xizmat ko'rsatish sohasiga oid obyektlarni davlat xususiy mulki sifatida qoldirish yoki korxonalar (kompaniyalar) aksiyalar nazorat paketlari asosida berish tajribalari shakllandi. Davlat xizmatlari ko'rsatishni xususiy korxonalariga berishning yangi usuli – bu davlat-xususiy sherikchiligi bo'lib, u rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda davlat xizmati ko'rsatishni rivojlantirishning **beshinchi** tamoyili – bu zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Elektron hukumat konsepsiyasini rivojlantirish “davlat organlarini ishini engillashtirish, axborotlar taqdim etish va davlat xizmati ko'rsatish uchun har qanday axborot texnologiyalarida foydalanishdan iboratdir”[10]. Uning asosiy maqsadi aholiga davlat xizmatlarining ko'plab turlarini qulay va iqtisodiy samarali holda taqdim etish, bunda iste'molchi vaqtdan va mablag' resurslaridan tejamkorlikka erishishi ko'zda tutiladi. Elektron hukumat davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlab, undan hukumatning qanday ishlayotganligiga oid axborotlarni olish mumkin bo'ladi.

HISTORY

Xorijiy mamlakatlarda davlat xizmatini shakllanish tarixi va dastlabki tajribalarini tahlil etish asnosida bu kabi xizmat dastlab Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida paydo bo'lganligini e'tirof etish mumkin. XX asrdan boshlab Yevropa davlat xizmati ko'rsatish tajribasi rivojlanayotgan mamlakatlarga tarqala boshladi. Lekin, hozir o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda davlat xizmati ko'rsatishga oid islohotlar endi boshlanmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Guglielmi G. J. *Introduction au droit du service public.* – P., 1994
2. Аванесова Г.А. *Сервисная деятельность: Историческая и современная практика, предпринимательство, менеджмент: Учебное пособие.* -Москва: Аспект Пресс 2005
3. Родионова И.А. *Мировая экономика: Индустриальный сектор.*-Москва: Российский университет дружбы народов, 2010
4. Наумов А.О. *Международные неправительственные организации и проблемы глобального управления // Государственное управление. Электронный вестник. Выпуск № 39, РФ, 2013*
5. *Экономика новых индустриальных стран, их место и роль в мировой экономике.* 21.11.2018 <https://finuni.ru/ekonomika-novoindustrialnyh-stran-v-mirovoy-ekonomike>.
6. Mehrotra S., Jarrett S. W. *Improving Basic Health Service Delivery in Low-Income Countries: «Voice» to the Poor // Social Science & Medicine. 2002. Vol. 54. Iss.11.*
7. Кошкин П.П. *Традиционно-бюрократическая идеология и «новый менеджеризм» (сравнительный анализ) // Теория и практика общественного развития. 2007. № 1.*
8. *Washington Administrative Code (WAC)365-196-320 // URL: <http://apps.leg.wa.gov/wac/default.aspx?Cite=365-196-320>.*
9. *Консультант Плюс: справочно-правовая система [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.consultant.ru>*

AXBOROT ASRIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

O'rinova Bozorgul Zokirovna,

Buxoro davlat universiteti

Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası dotsenti, t.f.d.

Annotatsiya. maqolada XXI asrga axborot asri deb ta'rif berilishi, mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarining rivojlanishida ichki axborot makonini yaratuvchi asosiy vositalar – televideniye, radio, matbuot, internet tarmoqlari va ulardan kundalik faoliyatimizda oqilona foydalanish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, matbuot, televideniye, gazeta, jurnal, kommunikatsiya, kompyuter, radio, internet.

СМИ В ИНФОРМАЦИОННУЮ ЭПОХУ

Аннотация. В статье даётся характеристика XXI века как века информации, анализируются основные средства создания внутреннего информационного пространства в развитии средств массовой информации нашей страны - телевидения, радио, печати, Интернета и их рациональное использование в нашей повседневной деятельности.

Ключевые слова: СМИ, пресса, телевидение, газеты, журналы, связь, компьютеры, радио, интернет.

ASS MEDIA IN THE INFORMATION CENTURY

Abstract. The article characterizes the 21st century as a century of information, analyzes the main means of creating an internal information space in the development of the mass media of our country - television, radio, print, the Internet and their rational use in our daily activities.

Keywords: mass media, press, television, newspapers, magazines, communications, computers, radio, internet.

Kirish. Ushbu mavzuning dolzarbligi O'zbekistonning XX asrning 90-yillari XXI asrning boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni o'rganish zaruriyatidan kelib chiqqan holda xarakterlanadi. Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida takidlanganidek "Bu sohadagi ahvolni tubdan o'zgartirish yurtimizdagi eng dolzarb va hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi" [1].

O'tgan asrning so'nggi o'n-o'n besh yilida dunyo miqiyosida yuz bergan olamshumul tarixiy o'zgarishlardan kelib chiqib hozirda biz yashab turgan XXI asrga kamtargina "Axborot asri" deb nihoyatda munosib ta'rif berildi. XX asrning so'nggi choragida ham dunyo axborot oqimining shiddati juda kuchli edi va bu shiddat yil sayin kuchayib bordi. Insoniyat navbatdagi asrga axborot oqimi tezligida sakrab o'tdi va yangi asr uni nafaqat shiddatliroq, balki axborot oqimi axborot to'foniga aylangan holda qarshiladi. Ommaviy axborot vositalari va boshqa kommunikatsiya imkoniyatlari shu qadar rivojlanib ketdiki, axborot oqimi zo'raygani ustiga endilikda u chek-chegara bilmay qoldi.

O'zbek matbuotining demokratlashuvi dunyo axborot makonining ana shu tariqa globallashuvi davriga "jaxon jurnalistikasi", "sarhadsiz jurnalistika" tushunchalari taomilga dadil kirib kelayotgan davrga to'g'ri keldi [2].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Xolis va tezkor axborot olish, aytish mumkinki, milliy jurnalistikamizning eng jiddiy muammolaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. XXI asrda yashayotgan zamondoshlarimiz uchun axborotning ahamiyati suv va havoning ahamiyatidan kam emas. "Dunyo axborot makoni" tushunchasi ong va shuurlarga shu qadar chuqur singib ketdiki, dunyo hamjamiyatining haqli a'zosi- sub'yektiga aylanish istagidagi har qanday davlat va shu davlat fuqarolari mazkur axborot makonidan mustahkam o'rin egallashining ahamiyatini so'z bilan ifodalash qiyin.

Jamiyatni bir tirik organizm deb tasavvur qilsak, ommaviy axborot vositalarini organizmning qon tomirlariga, axborotni esa - mana shu qon-tomirlarida to'xtovsiz harakatda bo'ladigan qonga o'xshatish mumkin. Tiriklik va sog'lomlikning asosiy sharti esa-barcha a'zolarining, hujayra to'qimalarning qon bilan yetarlicha va uzluksiz ta'minlanishida ko'rinadi. Zamonaviy insonning ma'naviy-mafkuraviy, fuqaro

sifatidagi tirikligi, sog'lomligi esa uning axborot bilan nechog'lik to'liq ta'minlanganligi bilan belgilanadi. Bunday sharoitni mamlakatdagi ichki axborot makoni yaratadi.

Mamlakatimizda ichki axborot makonini yaratuvchi asosiy vositalar- televideniye, radio, gazeta, jurnal. Bunga aholining butun dunyoni qamrab olgan axborot kommunikasion vositalarni, ya'ni internet tarmog'i va ijtimoiy tarmoqlarni qo'shish mumkin.

Aholining aksariyat qismi axborotni asosan televideniye va radiodan oladi. Respublika aholisining necha foizi televizor ko'rishi va radio tinglashidan qat'i nazar, uning qamrovini qoniqarli deya olmaymiz. Qolaversa ko'rish, eshitishdan ko'ra, bevosita o'qish orqali olingan axborot dunyoqarashni ko'proq boyitadi, samarali bo'ladi. Ayni paytda Respublikamizdagi OAV lar soni 2 mingga yaqin bo'lib ularning aksariyati nodavlat tashkilotlardir. Ularning xili, turi, qiyofasi xilma-xil. Lekin axborotga bo'lgan munosabatidan kelib chiqilsa ularni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

- ishni asosan bozor talabidan kelib chiqib tashkil etayotgan, ya'ni "axborot birinchi navbatda tovar" degan aqidaga rioya qilayotgan OAV;

- Muassisning maqsad - vazifalarini birlamchi o'ringa qo'yayotgan, ya'ni "axborotni ko'proq targ'ibot vositasi" sifatida ko'rayotgan OAV;

- birinchi va ikkinchi xil yondashuvlarni qorishiq holda olib borayotgan OAV.

Bugun yangi axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va keng miqiyosda tarqalishi o'z-o'zidan axborot sohasidagi global o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ular bevosita davlat tuzilishi va fuqarolik jamiyati institutlari iqtisodiy va ijtimoiy soha, ilm-fan, madaniyat va insonlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Axborotlarning yangi texnologiyalar asosida keng tarqalishi tufayli XXI asr axborot asri sifatida e'tirof etilmoqda. Ammo shuni esdan chiqarish kerakki, ishlab chiqarishning keskin ravishda o'sishi, bizni axborot jamiyati sari yetaklovchi asosiy vosita bo'lgani yo'q. Yaqin o'tmishda kompyuterlar bir-biri bilan mutlaqo aloqasiz ishlar edi. Lokal tarmoqlar, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi, hatto multimedia texnologiyalari biror-bir firma yoxud kompaniyaning ichki avtomatizatsiyasida oddiy bir uskuna sifatida ishlatilgan. Axborot inqilobining keyingi bosqichi global kompyuter tarmoqlarining paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, maxsus kompyuterlarning beqiyos qudratga ega bo'lishi hamda axborot imkoniyatlarining oshishiga olib keldi.

Internetning paydo bo'lishi va jahon miqiyosida boshlangan bozor liberalizatsiyasi natijasida kommunikasion xizmatlarning narxlarini pasaytdi. Bu esa ikki muhim omil axborot muhitining rivojlanishini tezlashtiradi va ijtimoiy sohani kuchaytiradi. Kompyuter va aloqa xizmatlari narxining pasayishi nafaqat davlat muassasalari hamda xususiy biznes, balki keng ommaga ham foydalanish uchun yo'l ochdi. Buning natijasida axborot industriyasida millionlab yangi istemolchilar va turli-tuman bozorlar vujudga keldi.

Endilikda mamlakatimizda bir necha tillarda faoliyat yuritayotgan qator axborot vositalari materiallari bilan internet orqali ham tanishish imkoniyati paydo bo'ldi.

Ma'lumki 1996-yilning may oyida O'zbekiston axborot vositalarining Amerika Qo'shma Shtatlarida joylashgan jahondagi yirik kompyuter tizimi orqali aloqa o'rnatilib, undan eng so'nggi yangiliklarni qabul qilib olish imkoniyatiga erishdi. Ushbu masalaning jamiyatimiz taraqqiyotida tutgan o'rni haqida to'xtalib, Islom Karimov shunday degan edi: "Hozirgi axborot kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari asrida, internet kundan - kunga hayotimizning barcha jabhalariga tobora chuqur va keng kirib borayotgan bir paytda, odamlarning ongi va tafakkuri uchun kurash hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyatda bu masalalarning jamiyatimiz uchun naqadar dolzarb va ustuvor bo'lib borayotgani haqida gapirib o'tirishning hojati yo'q" [4].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Axborot sohasi globallashuvining hozirgi bosqichida internetning milliy va xalqaro kompaniyalar, davriy matbuot, TV va radio bilan munosabatlari yanada kengayib, boyib bormoqda. Demak, ommaviy axborot vositalari faoliyatini erkinlashtirish-davr talabi. O'zbekiston matbuotining jahon ommaviy axborot vositalari tizimiga uyg'unlashuvi, internetning global axborot maydoniga integratsiyalashuvi ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Shunday qilib hozirgi vaqtda jahonning turli nuqtalarida ro'y berayotgan voqea-hodisalar haqida ommaviy axborot vositalari orqali to'g'ridan-to'g'ri axborot olish imkoniyatiga ega bo'ldik. Kelgusida bu jarayonning yanada kengayishi, yangicha ma'no-mazmun kasb etishi. matbuot va axborot vositalarining yanada erkinlashuvining kuchayishi shubhasizdir. Umuman olganda, bugungi kunda mamlakatimiz matbuoti va axborot vositalari erkin fikr maydoniga aylanib borayotgani bois demokratiya, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, jamiyatdagi yaratuvchilik muhiti, fikr va so'z erkinligi, rang-barangligi mahsuli sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan ommaviy axborot vositalarining mustaqillik g'oyalari yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishda xizmatlari katta bo'lmoqda, ular o'lmas madaniy me'rosimiz milliy-istiqlol mafkurasi, bunyodkor xalqimizning boy manaviy qadriyatlarini, tarix saboqlari va bugungi zamon hodisalarini atroflicha yoritishga harakat qilmoqda. Shu bilan birga, matbuot va axborot vositalari insonni o'z-o'zini idrok etishga, kimligini anglab yetishga, hayot ma'no va mohiyati

nimadan iborat ekanligini teran tushunishga xizmat qilmoqda, bilish va yuksalishning o'ziga xos vositasi sifatida bo'y ko'rsatmoqda.

Xulosa. Hozir jahonning eng chekka burchagida ro'y berayotgan voqea-hodisa haqida ommaviy axborot vositalari orqali to'g'ridan-to'g'ri axborot olish imkoniyatiga egamiz. Demak, XXI asr - axborot asri. Unda jahon xalqlarining o'zaro munosabatlari ham yangidan-yangi yo'nalishlarda o'z ifodasini topaveradi.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, axborot maydonining kengayishi, uning yanada ochiq - oshkorlashuvi, jahon axborot tizimi bilan to'g'ridan - to'g'ri aloqa o'rnatilishi XXI asr - axborot asri, ma'rifat asri ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Bunda ommaviy axborot vositalarining faoliyatini yanada erkinlashtirish yo'llaridagi say'-harakatlar o'z ijobiy natijalarini bermoqda.

Bugungi eng dolzarb vazifalar sirasiga mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining jahon andozalari darajasida rivojlantirish, bu sohada chinakam raqobat muhitini vujudga keltirish, yuksak malakali, burch hamda mas'uliyatni chuqur his etadigan jurnalist kadrlarning yangi avlodini paydo bo'lishiga mustahkam zamin yaratish kabilarni keltirish mumkin.

Matbuot, jurnalistika, yozuvchilik mahorati xususda ko'plab maqolalar yozgan ulug' adib Abdulla Qodiriy so'zlari bilan aytganda, "Yaxshi bilish kerakki, qalam-o'qlog'i, matbuot ketmon bozori emas. Yo'sinsiz ravishda xotiraga kelgan har so'zdan jumlar tuzmak- fazilat sanalmaydir. So'z qolip, fikr uning ichiga qo'yilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin" [5].

ADABIYOTLAR:

1. Каримов И. Юсак маънавият - энгилмас куч. –Т.: Маънавият. 2008. – Б.5.
2. Дўстмуҳаммад Ҳ. Оммавий ахборот воситаларини ривожлантиришнинг демократик андозалари. –Т.: Ўзбекистон. НМИУ,2005.Б-25.
3. Муксимова Ҳ. Глобал ахборот жамиятининг шаклланиши. // Жамият ва бошқарув. 2011. № 3, –Б.51.
4. Каримов И. Бизнес бош мақсадимиз жамиятни демократлаштириши ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишидир. Т; Ўзбекистон. 2005. – Б. 56.
5. Абдуазизова Н. Миллий журналистика тарихи. (Миллий истиқлол даври). Иккинчи жилд. – Т.: Шарқ, 2008. – Б.353.
6. Ўринова Б. Ўзбекистон Республикасида ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнларни ёритишда матбуотнинг роли.(1991- 2002 й.) Монография. - Бухоро. 2004, 131-б.
7. Ўринова Б. Маънавият сарчашмаси. // Фан ва турмуш. 1998, №4, 12-13 б.

THE ROLE OF NON-GOVERNMENTAL ORGANIZATIONS IN SHAPING SOCIAL PARTNERSHIP IN ADVANCED STATES

Akhmadalieva Sevinchbonu Rustamjon kizi,
PhD student of the National University of Uzbekistan
sarahuzbek97.co@gmail.com

Abstract. This article examines the development and significance of social partnership between the state and civil society institutions, with a particular focus on non-governmental non-profit organizations (NGOs) in Uzbekistan. Against the backdrop of globalization, socio-economic challenges, and ethical crises, the study highlights international experiences in social partnership, including models from Europe, the United States, Japan, and South Korea. It explores mechanisms of cooperation, such as tripartite agreements, advisory councils, state grants, and joint programs, which enhance political participation, socio-economic development, and public welfare. The article emphasizes the role of legal frameworks, institutional support, and state policies in fostering effective collaboration between government bodies and civil society. The findings indicate that expanding NGO activity and strengthening social partnership relations contribute to democratization, citizen engagement, and the consolidation of civil society, providing a model for sustainable development and social cohesion in Uzbekistan.

Keywords: social partnership, civil society, non-governmental organizations, State-NGO cooperation, socio-economic development, public policy, citizen participation, legal framework, democratic governance.

РОЛЬ НЕПРАВИТЕЛЬСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЁРСТВА В РАЗВИТЫХ ГОСУДАРСТВАХ

Аннотация. В статье рассматривается развитие и значение социального партнёрства между государством и институтами гражданского общества, с особым вниманием к неправительственным некоммерческим организациям (НКО) в Узбекистане. На фоне глобализации, социально-экономических проблем и этических кризисов исследование подчёркивает международный опыт социального партнёрства, включая модели из Европы, США, Японии и Южной Кореи. Рассматриваются механизмы сотрудничества, такие как трёхсторонние соглашения, консультативные советы, государственные гранты и совместные программы, которые способствуют политическому участию, социально-экономическому развитию и общественному благосостоянию. В статье подчёркивается роль правовой базы, институциональной поддержки и государственной политики в формировании эффективного взаимодействия между государственными органами и гражданским обществом. Результаты исследования показывают, что расширение деятельности НКО и укрепление отношений социального партнёрства способствует демократизации, вовлечению граждан и консолидации гражданского общества, предоставляя модель устойчивого развития и социальной сплоченности в Узбекистане.

Ключевые слова: социальное партнёрство, гражданское общество, неправительственные организации, сотрудничество государства и НПО, социально-экономическое развитие, государственная политика, участие граждан, правовая база, демократическое управление.

ILG‘OR DAVLATLARDA IJTIMOIIY SHERIKLIKNI SHAKLLANTIRISHDA NODAVLAT TASHKILOTLARNING ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlikning rivojlanishi va ahamiyati, ayniqsa, O‘zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT)ga e‘tibor qaratilgan. Globalizatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va axloqiy inqirozlar fonida tadqiqot ijtimoiy hamkorlik bo‘yicha xalqaro tajribalarni, jumladan, Yevropa, AQSh, Yaponiya va Janubiy Koreya modellarini yoritadi. Ushbu maqolada uch tomonlama kelishuvlar, maslahat kengashlari, davlat grantlari va qo‘shma dasturlar kabi hamkorlik mexanizmlari o‘rganiladi. Ular siyosiy ishtirok, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va jamoat farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Maqolada huquqiy asoslar, institutlar yordami va davlat siyosati davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi samarali hamkorlikni rivojlantirishdagi roli ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari NNTlar faoliyatini kengaytirish va ijtimoiy hamkorlik aloqalarini mustahkamlash demokratik jarayonlarni rivojlantirishga, fuqarolarning faol ishtirokiga va

fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishiga hissa qo'shishini ko'rsatadi, bu esa O'zbekistonda barqaror rivojlanish va ijtimoiy birdamlik modeli sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy hamkorlik, fuqarolik jamiyati, nodavlat notijorat tashkilotlari, davlat va NNT hamkorligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, davlat siyosati, fuqarolarning ishtiroki, huquqiy asos, demokratik boshqaruv.*

Introduction. In the context of deepening globalization, lingering economic crises, and growing social and ethical challenges, the role of non-governmental organizations (NGOs) and civil society institutions in socio-political development has become increasingly significant. Across Europe, the United Nations, and other international bodies, state policies have increasingly emphasized collaboration between government structures and civil society to address pressing social, economic, and humanitarian issues. This collaboration aims to enhance citizen participation, create mechanisms for shared responsibility, and strengthen social cohesion. Social partnership, historically rooted in labor relations and codified by international instruments such as the International Labor Organization (ILO) conventions, has evolved into a multifaceted model encompassing political, economic, and social cooperation. Developed countries, including the United States, European nations, Japan, and South Korea, demonstrate diverse approaches to social partnership, balancing the interests of employers, employees, and state institutions to ensure stability, democracy, and socio-economic development. In Uzbekistan, recent reforms underscore the strategic importance of fostering a strong civil society through the support of NGOs and public structures. By institutionalizing social partnership mechanisms, the state aims to enhance public welfare, promote citizen engagement, and strengthen democratic governance. This study examines the evolution of social partnership, evaluates its implementation in Uzbekistan, and explores the role of NGOs in shaping contemporary civil society.

Research Methodology. This study employs a qualitative research methodology, combining document analysis, comparative policy review, and theoretical synthesis. Primary sources include national legislation, government resolutions, and policy documents related to social partnership and NGO activity in Uzbekistan. International documents such as ILO conventions, UN resolutions, and Council of Europe regulations are also examined to provide a comparative framework. A descriptive-analytical approach is applied to explore the mechanisms of social partnership and the interactions between state bodies and civil society institutions. Comparative analysis of models from Western countries, the United States, and East Asia provides insights into best practices and adaptable strategies. The study further synthesizes scholarly literature on social partnership, civil society, and NGO management to evaluate theoretical perspectives and practical applications in the Uzbek context.

Analysis and Results. The analysis reveals that social partnership operates as a multi-dimensional mechanism bridging state institutions and civil society. International experience demonstrates that effective social partnership enhances political stability, strengthens labor relations, and facilitates socio-economic development. For instance, European and East Asian models combine legal frameworks, tripartite agreements, and advisory councils to harmonize interests between government, employers, and citizens. In Uzbekistan, state support for NGOs and public organizations includes financial subsidies, informational and methodological assistance, preferential property use, and the development of advisory councils. These mechanisms enable NGOs to participate in social programs, draft regulatory documents, and address community challenges, particularly in areas such as social protection, education, public health, and civic engagement. The findings indicate that social partnership in Uzbekistan is evolving into a structured and sustainable model. Overall, the study highlights that the development of social partnership is not only a mechanism for socio-economic progress but also a crucial factor in consolidating civil society, reinforcing democratic governance, and promoting human rights in Uzbekistan.

Today, in the context of deepening globalization processes, the lingering effects of the global financial and economic crisis, and the intensification of moral and ethical crises in society, several European countries are implementing relevant measures to develop a unified state policy for cooperation with the non-governmental sector. In particular, documents defining state policy regarding the coordination of efforts and resources of the state and the non-governmental sector to address pressing issues of social, socio-economic, and humanitarian development are of particular importance. Based on the content of these documents, two main objectives can be identified. First, they aim to activate citizens' participation in political life; second, they aim to create mechanisms of cooperation that can partially relieve the state of certain service obligations to the population.

As of today, the United Nations, on the occasion of its 75th anniversary, has initiated a global discussion on the role of international cooperation in shaping the future we want. Numerous changes are

occurring worldwide: the planet's climate is changing rapidly, technology is advancing swiftly, and significant demographic shifts are observed. We are facing risks based on growing inequality, prolonged conflicts, and new forms of violence. Building a safe, just, and sustainable world is essential to achieve our common goals.[1]

In developed Western countries, the primary reason for decades of major socio-economic achievements is linked to the implementation of the social partnership system, which has played a pivotal role in ensuring political stability. This system mainly served as a legal basis for establishing healthy relations among workers, entrepreneurs, and government officials. Social partnership is historically associated with the International Labor Organization (ILO), founded in 1919. Conventions adopted by the ILO, particularly Convention (1976) on tripartite consultations to promote the application of international labor standards, became a foundation for developing social partnership systems. The idea of social partnership has been enshrined in the constitutions of many Western countries, such as Belgium (1948), Germany (1952), Austria (1957), France (1958 and 1970).[2;-B.372]

In Western countries, several models of social partnership have prevailed:

Pure worker representation model: In this model, the labor collective has the opportunity to elect its representatives to a company council (or committee) that negotiates with the employer. These councils primarily serve advisory and information-sharing roles, and the degree to which the employer considers their opinions is defined in collective agreements. This model is used in Spain, Greece, Portugal, and other countries.

Mixed representation model: In this model, representatives of employers are included in councils elected by labor collectives. Council powers are broader, even participating in decision-making by consensus. Issues subject to council decisions (work schedules, safety, working conditions, working hours) may be implemented through special laws or agreements. For example, in France, company management is legally required to provide the council annually with reports on wages, staffing, changes, and working conditions. Decisions taken without consulting the council can be annulled in court. This model is characteristic of Belgium, Denmark, Ireland, and others.[3;-B.448]

In Ireland, the state plays a significant role in ensuring social partnership, emphasizing compliance with agreements between stakeholders and combating monopolistic tendencies. In the United States, the concept of social partnership historically emphasized creating a union-free environment in enterprises. For a long time, the U.S. government was minimally involved in labor relations, allowing employers near-complete autonomy. During the mid-1930s, President F.D. Roosevelt focused on establishing culturally grounded labor relations between employers and employees, leading to the Wagner Act (1935), which for the first-time recognized workers' rights to form unions and strike, compelling employers to negotiate collective agreements. This law marked a turning point in U.S. labor relations. Subsequently, labor legislation expanded further post-World War II. However, despite decades of effort, U.S. unions have yet to eliminate provisions of the Taft-Hartley Act that most restrict workers' rights, creating ongoing challenges for socio-economic and political stability.

In developed countries, scientific research continues to explore how social partnership mechanisms can address increasingly complex socio-political issues associated with globalization. This includes enhancing the influence of social partnership relations on political processes, strengthening collaboration among civil society institutions, increasing the role of state and non-governmental organizations in political life, and developing effective mechanisms for implementing social partnership across various spheres (economics, politics, education, social security, culture, etc.).

Experiences from the U.S., Europe, Japan, China, and South Korea indicate that civil society and social partnership relations manifest through employee-employer relations in the labor sphere, with active state participation. According to A.Kh. Saidov, the term "social partnership" is widely used internationally. In economics, social partnership refers to a type of social relationship aimed at harmonizing the socio-economic interests of key social groups, and it is a natural outcome of market economy development. In Europe, socially oriented states have developed models of social responsibility and various social standards. In Japan and South Korea, government agencies collaborate with non-governmental organizations through program and grant announcements to address social issues. In Austria, social partnership is implemented through advisory councils and committees, as well as equality-based commissions at general and sectoral levels. [4; -B.16]

Most Western sociologists, legal scholars, and political scientists consider non-governmental organizations (NGOs) as fundamental institutions of civil society. Although various international documents define aspects of NGOs, there is no universally accepted normative definition. The UN describes an NGO as "any voluntary non-profit association of citizens organized at local, national, or international levels." The

2003 Council of Europe decision on the status of NGOs defines an NGO as a self-governing voluntary organization by nature.

NGOs and other civil society institutions participate in developing socio-economic programs, drafting regulatory documents, working in state commissions and working groups, negotiating social partnership agreements, and implementing joint projects. The state provides NGOs with material, informational, advisory, organizational, and methodological support. For instance, property can be temporarily provided to NGOs under preferential terms for specific purposes, and donors supporting NGOs may receive tax exemptions. State subsidies, grants, social contracts, and financing of social partnership activities are all forms of government support to strengthen social partnership.

The Law “On Social Partnership” outlines the rights of social partnership participants, including access to information, participation in drafting agreements, programs, and state decisions, negotiations, and monitoring implementation, alongside obligations such as legal compliance, transparency, and project execution. Consequently, today social partnership relations are widely applied between government authorities and civil society institutions.

The development of cooperation between NGOs and the state represents a form of social partnership, whereby the parties unite their efforts to improve public welfare. In complex situations, the state can empower NGOs to address social issues that would otherwise be difficult to solve without broad community support. Financing mechanisms for NGOs, including expanding the use of subsidies and increasing state orders for NGO activities, are considered among the most effective methods. These approaches are widely recognized internationally and have proven effective in Uzbekistan as well.

The main principles of social partnership regulating the activities of non-governmental non-profit organizations and other civil society institutions consist of compliance with the law, equality, openness and transparency, inclusiveness, independence, impartiality, mutual respect, consideration of interests, responsibility, voluntary assumption of obligations, and accountability. This system is primarily implemented in areas such as social protection of the population, support, increasing social activity, ensuring employment, developing small businesses and private entrepreneurship, fostering farming, protecting the environment and public health, and promoting a healthy lifestyle. In addition, it covers issues related to the development of science, education, informatization, culture, and sports, raising legal awareness among the population, strengthening ideas of interethnic harmony and civic unity, and protecting consumer rights.

On April 20, 2017, the resolution “On Measures to Further Develop the Higher Education System” was adopted to fundamentally improve the higher education system, in line with the country’s priority socio-economic development tasks. Its aim was to comprehensively revise the content of personnel training and create the necessary conditions for training highly qualified specialists at an international standard. This was necessary because unresolved problems still exist in the higher education system. For instance, in several higher education institutions, scientific and pedagogical potential remains low; the educational process’s methodological and informational support does not meet modern requirements; the material and technical base needs systematic updating; and efforts to improve the qualifications of teaching and research staff are insufficient.

From this perspective, the President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev emphasizes in his work “Critical Analysis, Strict Discipline, and Personal Responsibility Should Be the Daily Rule of Every Leader” that: “Critical analysis, strict discipline, and personal responsibility must be the daily rule for every leader—whether a Prime Minister or their deputies, a member of the government, or a regional governor. First and foremost, the duty of the heads of state administration bodies is to ensure the responsible execution of the tasks assigned to them by critically evaluating the situation in the sector and area they are responsible for.”[5]

From this viewpoint, cooperation between state bodies and non-governmental non-profit organizations not only increases citizens’ social activity but also serves as an important factor in state and society building. Therefore, the expansion of the non-governmental non-profit sector and the emergence of new areas of activity within it indicate that the human rights protection system in Uzbekistan is strengthening.

Non-governmental non-profit organizations occupy a special place in modern civil society. Their functions range from limiting arbitrary state pressure in pursuit of narrow interests and ensuring stability of interests in society to preserving universal and national values, providing material and moral support to the population—particularly the socially vulnerable, disabled, and low-income groups. These organizations complement the work of state bodies by meeting material and spiritual needs of the population and contribute to the development of democratic values through new proposals and operational mechanisms. Due to their number, flexibility, and accessibility, the non-governmental sector has the ability to act locally in areas where the capacities of state bodies are limited and to prevent emerging social problems.

The purpose of state support for non-governmental non-profit organizations and other public structures is to create a new model of social policy for such structures in the republic, establish active cooperation with them, involve them in solving socially significant problems, provide informational, advisory, methodological, and organizational-technical support, and accelerate their activities through state social orders. Achieving this goal involves the following tasks:

- Improving the system of cooperation between state bodies and non-governmental non-profit organizations and other public structures;
- Creating conditions to promote civic initiatives;
- Financing social programs of non-governmental non-profit organizations and other public structures through state social orders;
- Establishing advisory councils on cooperation between state bodies and non-governmental organizations;
- Conducting joint scientific, practical, and international events;
- Providing public structures with information;
- Improving the registration system for public structures;
- Developing a management system for public structures and assisting in increasing staff qualifications.[6]

In summary, today, the role of non-governmental non-profit organizations and other civil society institutions in societal life is expanding, and their influence in socio-economic relations is deepening. At the same time, improving the organizational and legal mechanisms of citizen participation in building a democratic and legal state and a strong civil society is increasingly important. Specifically, it is necessary to strengthen the legal foundations for the transparency and effectiveness of state authorities, as well as citizen participation in political decision-making and implementation processes. In such a context, creating a special path for interactions between civil society institutions and the state and organizing their effective functioning becomes essential. After all, democratizing society without protecting and ensuring basic human rights and freedoms is impossible. The goal of ongoing reforms in the country is to liberate social life, establish a legal state and civil society, and prepare the ground for consolidating democratic foundations of social life. Strengthening the role and significance of non-governmental and public organizations is one of the key conditions for forming civil society and reinforcing social partnership relations.

Conclusion. The idea of social partnership does not serve only a part of society or certain social actors. It exists objectively in the context of interrelated social relations. The institution of social partnership in Uzbekistan is becoming a stable form of cooperative activity aimed at meeting fundamental societal needs. Social partnership mechanisms provide a basis for distributing functions, rights, and obligations among participants across sectors. It is vital to explore new modern directions for strengthening social partnership between state authorities and civil society institutions and implement collaborative projects, including solving socially significant problems effectively. The diversity of state bodies and NGOs supporting social partnership indicates the activity, regularity, and self-renewing nature of social partnership institutions. Research shows that the development of social partnership in NGO activities primarily involves the effective application of certain political, economic, legal, ethical, and other mechanisms and the creation of new ones. The most commonly used inter-sector cooperation mechanisms between NGOs and state bodies include organizing and financing joint events, state grants, service contracts, and informational support for projects. The use of these mechanisms indicates the dynamic development of the social partnership system in the region and a stable tendency toward forming it. Long-term strategies and social orders in Uzbekistan apply these mechanisms to strengthen social partnership institutions. Social partnership in state-society relations requires a legal basis, historical clarity, and consideration of the balance between state and society. It must align with societal goals, national laws, and democratic principles, consider the country's condition and development objectives, and take into account the worldview and ideological perspectives of citizens.

REFERENCES:

1. <http://www.un.uz/uzb/news/display/366>
2. Kurennoi A. M. *The Welfare State and Social Partnership: How to Combine Efforts? // Labor Law in Russia and Abroad. 2015. No. 4. Pp. 3–7. Social Partnership. Experience, Technologies, Evaluation of Effectiveness. Edited by A. A. Neshchadin and G. L. Tulchinsky. Aletya, 2010. – 400 p. Social Conflicts and Partnership. Edited by A. V. Glukhova and V. S. Rakhmanin. Series: Monographs. Issue 7. Voronezh: Voronezh State University, 2004. – 372 p.*

3. Mikheev V. A. *Fundamentals of Social Partnership: Theory and Policy. Textbook for universities.* Moscow: Ekzamen, 2001. – 448 p.
4. *International Experience on Issues of Social Partnership and Public Participation in State Decision-Making / Compilers: N. Borzheli [et al.]; Translators: E. M. Ernazarov, O. O. Okyulov; National Centre of the Republic of Uzbekistan for Human Rights, Centre for the Study of Legal Problems.* – Tashkent: ART FLEX, 2012. – p. 16.
5. Mirziyoyev, Sh. M. *Critical Analysis, Strict Discipline, and Personal Responsibility Should Become the Daily Rule in the Work of Every Leader.* – Tashkent: Uzbekistan, 2017.
6. [http://uzmarkaz.uz/www_data/articles/file/fuk_zhamiyati_institutlari_asosiy_mavzu_\(1\).pdf](http://uzmarkaz.uz/www_data/articles/file/fuk_zhamiyati_institutlari_asosiy_mavzu_(1).pdf)
7. Council of Europe. (2003, April 16). *Basic Principles on the Status of Non-Governmental Organizations in Europe.* Strasbourg: Council of Europe Publishing.
8. European Commission. (2001, July 25). *White Paper on European Governance.* Brussels: Commission of the European Communities.
9. International Labor Organization (ILO). (1919). *Constitution of the International Labor Organization.* Geneva: ILO.
10. International Labor Organization (ILO). (1976). *Convention No. 144: Tripartite Consultations (International Labor Standards) Convention.* Geneva: ILO.
11. Republic of Uzbekistan. (2017, April 20). *Resolution on Measures to Further Develop the Higher Education System.* Tashkent: Government of the Republic of Uzbekistan.
12. Republic of Uzbekistan. (n.d.). *Law on Social Partnership.* Tashkent: National Database of Legislation.
13. Saidov, A. Kh. (2010). *The Concept of Social Partnership in Modern Legal Systems.* Tashkent: Academy of State and Society Building.
14. United Nations. (1968). *Resolution of the Economic and Social Council on the Role of Non-Governmental Organizations.* New York: United Nations.
15. United Nations. (2020). *UN75: Shaping Our Future Together—UN 75th Anniversary Report.* New York: United Nations.

YANGI O'ZBEKISTONNING YANGI KASABA UYUSHMALARI IJTIMOIIY
SHERIKCHILIK YO'LIDA

Kamolov Ilhomjon Ibrohimovich,

*O'zbekiston metallurgiya va mashinasozlik sanoati
tarmoqlari xodimlari kasaba uyushmasi Respublika
Kengashi tashkiliy ishlar bo'yicha bosh mutaxassisi,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
icamolove@yandex.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida globallashuv va modernizatsiyalash jarayoni shiddat bilan kechayotgan bugungi kunda Yangi O'zbekistonning yangi kasaba uyushmalari ijtimoiy sherikchilik yo'lida mehnatkashlar uchun ijtimoiy kafolatlar va ijtimoiy himoya sohasidagi faoliyati, ish beruvchilar bilan hamkorlik qilish, bandlikning noan'anaviy shakllarida mashg'ul kishilar (norasmiy sektorda mashg'ul, vaqtincha va mavsumiy xodimlar va boshqalar) hamda ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasiga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, pensionerlar, nogironlar, balog'atga yetmaganlar, yolg'iz keksalar va yuqori darajadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni «Ayollar daftari»ga kiritish orqali, ularga aniq manzilli yordam ko'rsatish hamda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishdagi faoliyati qisqacha yoritiladi.

Kalit so'z: kasaba uyushmasi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy sheriklik, jamoa shartnoma, davlat, Ayollar daftari, xotin-qizlar.

НОВЫЕ ПРОФСОЮЗЫ НОВОЙ УЗБЕКИСТАНА НА ПУТИ СОЦИАЛЬНОГО
ПАРТНЁРСТВА

Аннотация. В данной статье кратко рассматривается деятельность новых профсоюзов Нового Узбекистана на пути социального партнёрства в условиях стремительных процессов глобализации и модернизации в социальных, экономических и духовных сферах. Раскрывается их работа по обеспечению социальных гарантий и социальной защиты трудящихся, сотрудничеству с работодателями, разработке и реализации мер по социальной защите лиц, занятых в нетрадиционных формах занятости (в неформальном секторе, временных и сезонных работников и др.) и членов их семей. Особое внимание уделяется оказанию адресной помощи пенсионерам, инвалидам, несовершеннолетним, одиноким пожилым людям и женщинам, нуждающимся в повышенной социальной защите, путём включения их в «Женский реестр». Также освещается активное участие профсоюзов в реализации демократических преобразований во всех сферах общественной и государственной жизни.

Ключевые слова: профсоюз, социальная защита, социальное партнёрство, коллективный договор, государство, Женский реестр, женщины.

THE NEW TRADE UNIONS OF NEW UZBEKISTAN ON THE PATH
OF SOCIAL PARTNERSHIP

Abstract. This article briefly highlights the activities of the new trade unions of New Uzbekistan on the path of social partnership amid the rapid processes of globalization and modernization in the social, economic, and spiritual spheres. It analyzes their efforts to ensure social guarantees and protection for workers, to cooperate with employers, and to develop and implement measures aimed at protecting individuals engaged in non-traditional forms of employment (such as those in the informal sector, temporary, and seasonal workers) as well as their family members. Special attention is given to providing targeted assistance to pensioners, persons with disabilities, minors, lonely elderly people, and women in need of enhanced social protection by including them in the "Women's Register." The article also discusses the active role of trade unions in promoting democratic reforms across all areas of public and state life.

Keywords: trade union, social protection, social partnership, collective agreement, state, Women's Register, women.

Kirish. O'zbekiston kasaba uyushmalarining ijtimoiy himoya sohasidagi vazifa va yumushlari tarmoq kasaba uyushmalari va Federatsiyaning dasturiy hujjatlarida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, kasaba uyushmalarining mehnatkashlar uchun ijtimoiy kafolatlar va ijtimoiy himoya sohasidagi faoliyati quyidagilarga yo'naltirilmoqda:

qonun hujjatlarida aholining zaif qatlamlarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashish, yolg'iz keksalar, pensionerlar, nogironlar, imkoniyati cheklangan bolalar, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlari, ish beruvchilar bilan hamkorlik qilish, bandlikning noan'anaviy shakllarida mashg'ul kishilar (norasmiy sektorda mashg'ul, vaqtincha va mavsumiy xodimlar va boshqalar) hamda ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasiga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, pensionerlar, nogironlar, balog'atga yetmaganlar, yolg'iz keksalar va yuqori darajadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan fuqarolarning boshqa toifalarini ijtimoiy himoyalash, "Korporativ ijtimoiy mas'uliyat" va "Ijtimoiy mas'ul korxonalar" konsepsiyasini ishlab chiqish va uni keng qo'llash.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish jarayonida kam ta'minlangan oilalar, ko'p bolali oilalar, pensionerlar, urush va mehnat faxriylarini jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali moddiy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari qabul qilinadi [1].

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida kasaba uyushmalarining himoya vazifasi asosan bandlik, mehnat xavfsizligi, daromadlarni oshirish, huquqiy va ijtimoiy himoya kabi yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Bugungi kunda mazkur vazifani ijtimoiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish orqaligina amalga oshirish mumkin. Umuman olganda, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi ijtimoiy himoyada ikki yo'nalishda ishtirok etadi: korxonalar va tashkilotlar jamoa shartnomalari orqali mehnatkashlar va ularning oila a'zolarini himoya qiladi hamda aholini ijtimoiy himoya qilish davlat dasturlarida ishtirok etadi.

Birinchi yo'nalishda kam ta'minlangan oilalar, pensiya yoshidagi ishchilar, nogironlar, mehnatkash ayollar va yoshlarga jamoa shartnomalari orqali ijtimoiy yordam ko'rsatilishi ustidan muhtazam monitoring olib borilmoqda. Xususan, 2023-yilning 9 oyi-davomida jamoa shartnomalari va kelishuvlari asosida ish beruvchilar va kasaba uyushmalari mablag'lari hisobidan 173 ming 40 nafar fuqaroga, 48 ming 722 oilaga 117 milliard 439 million so'mlik ijtimoiy yordam ko'rsatildi.

Koronavirus pandemiyasi davrida ikkinchi yo'nalishning ahamiyati yaqqol namoyon bo'ldi. Karantin cheklavlari sharoitida mamlakatimiz kasaba uyushmalari tomonidan 50 mingga yaqin kam ta'minlangan oilaga yordam ko'rsatildi [4].

Bugun ko'pchilikka sir emas, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Oila va mahallani qo'llab-quvvatlash vazirligi va boshqa bir qator hamkor tashkilotlar bilan birgalikda "Ayollar daftari" bo'yicha faol ish olib bormoqda. Ushbu tizim orqali xotin-qizlar muammolarini xalq etishning butunlay yangi tartibi joriy qilindi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kasaba uyushmalari o'z resurslarini safarbar etgan holda xotin-qizlar muammolarini hal etishda davlat va nodavlat tashkilotlarni birlashtirishga, uyma-uy yurib ayollarning muammolarini xatlovdan o'tkazishda rosmiyaning xalq tashkiloti sifatida maydonga chiqqan aslo mubolag'a qilmagan bo'laman. Ko'pdan-ko'p o'rganishlar, muloqotlar, hisob-kitoblar asosida poyoniga yetayotgan 2023-yilda 900 mingdan ortiq ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qiz «Ayollar daftari»ga kiritildi, ularga aniq manzilli yordam ko'rsatildi. Bu esa faqat aytishgagina oson bo'lgan ishdir. Biz bu bilan jamiyatning og'riqli muammosini bir qadar yengillashtirishga hissa qo'sha oldik [4].

Bugungi kunda O'zbekiston kasaba uyushmalari asosiy e'tiborni boshlang'ich tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish masalasiga qaratmoqda. Barchamizga ma'lumki, boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi barcha korxonalar, tashkilot va muassasalar faoliyatida muhim bo'g'in sanaladi. Binobarin u jamoadagi sog'lom muhitni shakllantirish, ishchanlik ruhini ta'minlash va xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bois bunda, ayniqsa nodavlat sektori tizimidagi korxonalar va muassasalar bilan alohida ish olib borilmoqda. Chunki, yurtimizda yil sayin iqtisodiyotdagi ulushi ortib borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida mehnat qilayotgan xodimlarning ijtimoiy himoyasiga munosib hissa qo'shish kasaba uyushmalari oldidagi ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Kasaba uyushmalariga a'zolik afzalliklarining oshirilishi, tizimni takomillashtirish natijasida bugungi kunda kasaba uyushmalari a'zolari mehnatidan foydalanuvchi yuridik shaxslarning 95,8 foizi jamoa-shartnomaviy munosabatlar bilan qamrab olinishiga erishildi. Tuzilayotgan jamoa kelishuvlarida mehnat bozorini rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash masalalari aniq ifoda etilgan. Xodimlarning ish va dam olish vaqtlari masalalariga alohida e'tibor qaratilib, uzaytirilgan asosiy va qo'shimcha ta'tillar o'rnatilgan [3].

Tuzilayotgan jamoa shartnomalari orqali, jumladan, xodimlarning kasbi, malakasi va mehnat shartnomasiga binoan to'la bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini barpo etish, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish chog'ida qonun me'yorlariga rioya etish masalalari hal etilmoqda.

Natijada keyingi 2 yilda jamoa shartnomalari va kelishuvlari xodimlar turmush darajasini oshirishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Qator tarmoqlarda jamoa shartnomasi xodimlarning bevosita va bilvosita daromadlarini yuksaltirishning amaliy vositasiga aylanmoqda [2].

Muhokama va natijalar. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamdagi islohotlar mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini mehnatkashlarga atroflicha tushuntirish maqsadida boshlang'ich tashkilotlar tomonidan mehnat jamoalarida har oyda «Ma'naviyat soatlari»ni o'tkazib borish masalasi ham bevosita jamoa shartnomalari orqali amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2024-yilning 1-choragi davomida har bir hududda 26 mingga yaqin boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlarida «Ma'naviyat soatlari» o'tkazildi. Ularda 3 millionga yaqin ishchi-xodimlar ishtirok etdi.

O'tgan yili «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan o'tkazilgan Ijtimoiy so'rov natijalari ham jamoa shartnomasi tuzilishi ustidan nazoratni ta'minlash masalalarida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni va ahamiyati ortganini ko'rsatmoqda. So'rovda ishtirok etgan respondentlarning qariyb 80 foizi o'zlari mehnat qilayotgan korxonalar va tashkilotlarda jamoa shartnomasi tuzilganidan xabardor ekanliklarini bildirganlar. O'tkazilgan so'rov natijalari jamoa shartnomasini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida mehnat jamoalarining tutgan o'rni va ta'siri yildan-yilga ortib borayotganini ham ko'rsatdi [4].

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan so'nggi yillarda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

1) xodimlari kasaba uyushmalarga a'zo bo'lgan barcha tashkilotlarda jami 111 mingdan ortiq jamoa shartnomalari rasmiylashtirildi hamda ular asosida yil davomida 1 ta xodimni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasiga o'rta hisobda sarflanadigan mablag' miqdori 5 marotaba oshirildi.

2) Farg'ona viloyatining eng chekka chegara hududida joylashgan So'x tumanida 200 o'rinlik zamonaviy tipdagi «So'x» bolalar sog'lomlashtirish oromgohi qurilib, foydalanishga topshirildi. Mavsum davomida 1000 nafar so'xlik bolalar oromgohda xordiq chiqardi. Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq tumanida «Oq kema», Jizzax viloyatida «Zomin», Toshkent viloyatida «Anor», Qashqadaryo viloyatida «Ziyo chashmalari» zamonaviy bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari barpo etildi [4].

Yoz mavsumi davomida Qoraqalpog'iston Respublikasidan «Ayollar daftari», «Temir daftari» va «Yoshlar daftari»ga kiritilgan oilalarning 2 ming 430 nafar farzandlari Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg'ona, Toshkent va Xorazm viloyatlaridagi eng yaxshi stasionar turdagi oromgohlarda sog'lomlashtirildi.

Shuningdek, joriy yilda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkil etish departamenti delegatsiyasi Amerika oromgohlari Assotsiatsiyasi (American Camp Association) prezidenti taklifiga binoan Amerika Qo'shma Shtatlarida tashkil etilgan «Oromgoh xarakterini shakllantiradi» shiori ostidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etdi va ikki tashkilot o'rtasida Hamkorlik memorandumini imzolandi [3].

3) Toshkent viloyatining Parkent tumanida nafas yo'llari va asab tizimi kasalliklarini davolashga ixtisoslashtirilgan, 200 o'ringa ega bo'lgan «Zarkent» sanatoriysi qurilib, foydalanishga topshirildi. Sanatoriyda 60 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi. Shuningdek, «Yangiyer», «Ko'xinur», «Xo'jaipok», «Chinobod Plaza», «Ibn Sino», «Sevarsoy», «Sangardak» va «Xonqa» kabi yangi sanatoriylar, «Termiz marvaridi», «Oqtosh», «Chimyon», «Zomin», «Turon», «Umid gulshani», «Chortoq» va «Omonxona» sanatoriylarida qo'shimcha binolar qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu esa nafaqat sog'lomlashtirish sifatini sezilarli darajada yaxshilash, balki 1227 ta yangi barqaror ish o'rni yaratish imkonini berdi [4].

Buning natijasida mavjud 32 ta sanatoriyda yiliga qo'shimcha 2500 (jami 143 ming) nafar xodimni sog'lomlashtirish imkoniyati yaratildi.

4) 143 mingdan ortiq xodimlar va ularning oila a'zolari, 300 dan ortiq urush va mehnat fronti faxriylari sanatoriylarda sog'lomlashtirildi.

5) 237 mingdan ziyod xodimlar va ularning oila a'zolari, 3 mingga yaqin keksa avlod vakillari va 15 mingdan ortiq ehtiyojmand oilalar a'zolarining respublikamizdagi tarixiy shaharlar va diqqatga sazovor qadamjolariga sayohatlari tashkil qilindi.

217 mingdan ortiq xodimlar va oila a'zolarining teatrlar, muzeylar, ko'rgazma va konsertlarga tashriflari uyushtirildi.

6) umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida "Mening Prezidentim" ijodiy ishlar tanlovi, "Temurbeklar maktabi" va "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseylarning 1-2-kurs o'quvchilari o'rtasida "Yangi O'zbekistonga qanot bo'lamiz!" mavzusida insholar tanlovi, Oliy ta'lim muassasalarining bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari o'rtasida "Yangi O'zbekistonni o'zimiz, o'z qo'llarimiz bilan bunyod etamiz!" shiori ostida respublika esselar tanlovi, oliy va o'rta maxsus islom ta'limi muassasalari talaba-o'quvchilari o'rtasida "Vatanni sevmoq iymondandir" mavzusida insholar tanlovi o'tkazildi. Shuningdek, respublikadagi oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Mehnat huquqi yoshlar nigohida" tanlovi o'tkazildi va g'oliblar taqdirlandi.

7) mehnatni muhofaza qilish yuzasidan 932 ta korxon va tashkilotlar faoliyati o'rganildi hamda uning natijalari bo'yicha aniqlangan 5 mingdan ziyod kamchiliklar bartaraf etildi.

Xodimlarning buzilgan mehnat huquqlarini tiklash yuzasidan ish beruvchilarga 116 ta ko'rsatma va taqdimnoma, sudlarga 68 ta da'vo arizalari kiritildi hamda xodimlar foydasiga 11 mlrd so'mga yaqin mablag' undirildi va 5 425 nafar xodimlarning huquqlari tiklandi [5].

Paxta yig'im-terimi mavsumida terimchilar uchun shart-sharoit yaratish, bolalar mehnati va majburiy mehnatni oldini olish yuzasidan milliy monitoringni amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yildi.

8) "Ayollar daftari" bilan ishlash tizimi joriy etilib, o'tgan davr mobaynida mutasaddi vazirlik va idoralar, hokimliklar bilan hamkorlikda 5 mlnga yaqin xotin-qizlarning muammolari hal etildi.

Xotin-qizlarning muammolari bo'yicha kunu-tun faoliyat ko'rsatadigan 1211 ishonch telefoni tashkil etilib, o'tgan davrda kelib tushgan 128940 ta murojaatning 99,1 foizi qonuniy hal etildi, qolgan 0,9 foizi (1 194 ta) ijrosini ta'minlash jarayonlari mutasaddi tashkilotlar tomonidan nazoratga olingan.

Jizzax viloyatidagi "Gulchi opa tomorqa xizmatlari" MChJ rahbari Sharofat Noriyevning kooperatsiya usulidagi tadbirkorlik tajribasini ommalashtirish maqsadida joylarda 924 ta loyiha ishga tushirildi. Natijada 100 588 nafar aholi (shundan, 72 742 nafar xotin-qizlar) kooperatsiya asosida ish bilan ta'minlandi.

9) "Sport – salomatlik garovi" shiori ostida spartakiadalarni va "Sog'lom oila" sport musobaqalarini har yili o'tkazish tizimi yo'lga qo'yildi.

10) O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Mehnat va ijtimoiy munosabatlar Akademiyasi tashkil etildi. Akademiyada 2023-yildan boshlab mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi, hayot faoliyati xavfsizligi, inson resurslarini boshqarish, ijtimoiy ish, psixologiya, menejment, mehnat huquqi kabi yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlanadi [1].

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston xalqining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, shuningdek, jahon tajribasiga tayangan holda, jamiyatni isloh qilishda jiddiy yondashuvlar ishlab chiqildi. Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy tizimida O'zbekiston kasaba uyushmalari xalq hayotining asosiy sohalariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi, yuqoridan pastgacha aniq va ravshan tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan eng ommaviy jamoat tashkiloti sifatida alohida o'rin egalladi.

Mamlakatda kasaba uyushmalari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan o'zaro munosabatlarning mutlaqo yangi shakli-ixtiyoriy hamkorlik, teng huquqlilik, sheriklik shakli yuzaga keldi. Uning asosiy qarashlari jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish, ishlab chiqarish jarayonidagi muammolarning yechimini topish va ijtimoiy sohani rivojlantirish, kasaba uyushmasi tashkilotlari mehnatkashlarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarining haqiqiy himoyachilari bo'lishini ta'minlashga qaratildi.

ADABIYOTLAR:

1. *Axmadjonov B.O. Davlat va jamiyat hayotida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni // O'tmishga nazar jurnali. – Toshkent, 2022.*
2. *Boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma. – Toshkent. 2020. – 124 b.*
3. *O'zbekiston Respublikasining 06.12.2019-yildagi O'RQ-588-sonli "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonuni.*
4. *Rafikov Q. Millatparvar. – Toshkent: Akademyashr, 2023. – 112 b.*
5. *Моховикова М. Н. Деятельность профсоюзов Узбекистана и органов самоуправления граждан в сфере занятости и охраны трудовых прав // Власть. 2013. № 3. – С. 161-14.*

ZAMONAVIY DIPLOMATNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK
QIYOFASI VA UNING KASBIY SIFATLARI

Sa'dullayeva Yulduzxon Erkinovna,
Turon universiteti "Xalqaro munosabatlar"
yo'nalishi 2-kurs talabasi
yulduz7erkinovna@gmail.com

Maqola Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasida dotsenti E.Yoziyevning ilmiy rahbarligi ostida tayyorlangan.

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy diplomatning ijtimoiy-psixologik qiyofasi, uning shaxsiy va kasbiy sifatlari, shu jumladan emotsional intellekt, muloqot madaniyati, strategik fikrlash va stressga chidamlilik kabi psixologik ko'nikmalarning diplomatik faoliyatdagi roli yoritilgan. Shuningdek, maqolada yangi avlod diplomatiyasi, uning asosiy tamoyillari, mazmun-mohiyati va amaliyotdagi ahamiyati tahlil qilingan. Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari mazkur muammoni o'rganish bugungi kunda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: globallashtirish, tashqi siyosat, diplomatiya, diplomat, shaxs qiyofasi, kompetensiya, kommunikatsiya, raqamli texnologiya, muloqot madaniyati, emotsional intellekt, strategik fikrlash, stressga chidamlilik.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ОБЛИК СОВРЕМЕННОГО ДИПЛОМАТА И
ЕГО ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ КАЧЕСТВА

Аннотация. В статье рассматривается социально-психологический облик современного дипломата, его личностные и профессиональные качества, включая роль таких психологических навыков, как эмоциональный интеллект, культура общения, стратегическое мышление и стрессоустойчивость. Кроме того, анализируется дипломатия нового поколения, её основные принципы, содержание и практическое значение. Проведённое автором исследование свидетельствует о том, что изучение данной проблемы является актуальным в настоящее время.

Ключевые слова: глобализация, внешняя политика, дипломатия, дипломат, имидж личности, компетентность, коммуникация, цифровые технологии, культура общения, эмоциональный интеллект, стратегическое мышление, стрессоустойчивость.

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL PROFILE OF THE MODERN DIPLOMAT AND HIS
PROFESSIONAL QUALITIES

Abstract. The article examines the socio-psychological appearance of a modern diplomat, his personal and professional qualities, including the role of psychological skills such as emotional intelligence, communication culture, strategic thinking and stress tolerance. In addition, the article analyzes the diplomacy of the new generation, its basic principles, content and practical significance. The research conducted by the author indicates that the study of this problem is relevant at the present time.

Keywords: globalization, foreign policy, diplomacy, diplomat, personality image, competence, communication, digital technologies, communication culture, emotional intelligence, strategic thinking, stress tolerance.

Kirish. Butun dunyoda globallashtirish, raqamli texnologiyalar rivoji va geosiyosiy muvozanatning tez sur'atda o'zgarishi zamonaviy diplomatiyaning mazmun-mohiyatiga to'liq yangicha ko'rinish berdi. Agar an'anaviy diplomatiya asosan davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni rasmiy yo'llar bilan yuritishga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda diplomatik jarayonlar jamiyatning barcha qatlamlari, jumladan, xalqaro tashkilotlar, xususi sektor, ommaviy axborot vositalari, va hatto, oddiy fuqarolar ishtirokida amalga oshmoqda. Shu bois zamonaviy diplomatiya nafaqat tashqi siyosatning instrumentlarini, balki global muammolarga yangicha yondashuvlarni ham qamrab oladi. Ayniqsa, XXI asrda diplomatning roli ham sezilarli darajada kengaydi: u nafaqat muzokarachi, balki tinchlik jarayonlarining targ'ibotchisi, raqamli kommunikatsiya ustasi, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantiruvchi vositachi sifatida maydonga chiqmoqda. Shubhasiz, xalqaro munosabatlardagi

noaniqliklar, mintaqaviy nizolar, ekologik inqiroz va kiberxavfsizlik kabi muammolarning kuchayishi bugungi kunda diplomatiyaning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan boshlab uning tashqi siyosati va diplomatiya xizmati ham tubdan yangi bosqichga ko'tarildi. Davlat suverenitetining ta'minlanishi mamlakatimizning xalqaro munosabatlarda mustaqil subyekt sifatida ishtirok etishi, jahon hamjamiyati bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni yo'lga qo'yishi uchun mustahkam huquqiy va institutsional asos yaratdi. Shu davrda milliy diplomatiya maktabi shakllanib, tashqi siyosiy faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmalar tizimi yangidan tashkil etildi, xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalar kengaytirildi, mamlakat elchiliklari va konsulxonalar faoliyati bosqichma-bosqich mustahkamlandi. Mustaqil O'zbekiston tashqi siyosati tamoyillarining ishlab chiqilishi, strategik sheriklik munosabatlarining o'rnatilishi, xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlikning yo'lga qo'yilishi milliy diplomatiyaning mazmun-mohiyatini belgilab berdi. Shu bilan birga, mamlakatning geosiyosiy mavqeyi, mintaqaviy xavfsizlik masalalari, iqtisodiy integratsiya jarayonlari diplomatiya xizmatining rivojlanishida muhim omil sifatida namoyan bo'ldi.

Istiqlol yillarida O'zbekistonda zamonaviy diplomat shaxsini shakllantirish va uning kasbiy fazilatlarini rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda, milliy diplomatiya maktabini barpo etishga qaratilgan institutsional islohotlar, xususan, tashqi ishlar vazirligi tizimini takomillashtirish, diplomatik o'quv muassasalarini tashkil etish va malaka oshirish dasturlarining joriy etilishi diplomat kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi. Zamonaviy diplomat uchun zarur bo'lgan siyosiy tafakkur, muloqot madaniyati, chuqur analitik fikrlash, xorijiy tillarni mukammal bilish, xalqaro huquq normalarini puxta o'zlashtirish kabi fazilatlar bo'yicha maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Bu esa mamlakat manfaatlarini xalqaro maydonda munosib himoya qilishga qodir, faol, bilimdon va yuqori madaniyatli diplomatlar avlodini voyaga yetkazish uchun mustahkam zamin yaratdi. Shu bilan birga, mamlakatimizning tashqi siyosatdagi ochiqlik va pragmatizm tamoyillari diplomatlarning shaxsiy va kasbiy sifatiga qo'yiladigan talablarni yanada oshirdi. Diplomatlar nafaqat klassik diplomatik ko'nikmalarga, balki iqtisodiy diplomatiya, madaniy-gumanitar hamkorlik, raqamli diplomatiya yo'nalishlariga oid zamonaviy kompetensiyalarga ega bo'lishlari zarurligini ko'rsatdi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon ilm-fanida diplomatik xizmat va diplomatning kasbiy sifatleri muammosi ko'p tarmoqli, fanlararo yo'nalish sifatida shakllangan bo'lib, tadqiqotlar davlat boshqaruvi, xalqaro munosabatlar va shaxs psixologiyasining integratsiyalashgan ilmiy tajribasiga tayanadi. Diplomatik xizmatning tashkil etilishi, uning huquqiy tartibga solinishi va davlat xizmati sifatida faoliyat yuritishi bilan bog'liq tashkiliy-nazariy jihatlar ko'plab huquqshunos olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, G.V.Atamanchuk, I.N.Barsits, A.G.Gurinovich, Y.Y.Kireyeva, L.M.Kolodkin, A.F.Nozdachev, A.V.Obolonskiy, V.A.Prokoshin va Y.N.Starilovning ilmiy tadqiqotlari davlat xizmati va diplomatik xizmatning institutsional tuzilmasi, huquqiy asoslari va tashkil etilish mexanizmlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan. V.I.Dolgov, Y.V.Dubinina, T.V.Zonova, G.L.Kesselbrenner, N.S.Leonov, P.F.Lyadov, I.A.Melixov, V.I.Popov, O.P.Selyaninov, V.P.Terexov, A.V.Torkunov va A.L.Fedotovning tadqiqotlari esa diplomatik xizmatning tarixiy rivojlanishi, davlatlararo munosabatlardagi o'rni va uning faoliyat yuritish prinsiplarini keng yoritishga qaratilgan. Shuningdek, V.D.Grajdani, Ye.V.Oxotskiy, V.L.Romanov, A.I.Turchinov, V.N.Yujakov, L.I.Yakobson va boshqa olimlarning ishlari esa diplomatik xizmatni kompleks, fanlararo nuqtayi nazardan tahlil qilishga xizmat qiladi. Bu tadqiqotlar orqali diplomat shaxsining kasbiy va individual sifatleri, faoliyatning samaradorligi va zamonaviy diplomatik mexanizmlar hamda siyosiy jarayonlar o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlanadi.

Tahlil va natijalar. Bizning ilmiy tadqiqot ishimiz yuqorida zikr qilingan olimlarning ishlaridan farqli ravishda zamonaviy diplomatning ijtimoiy-psixologik qiyofasiga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – diplomatning shaxsiy va kasbiy sifatlarini chuqur o'rganish, shu orqali uning faoliyatida samaradorlikni oshirish va zamonaviy diplomatik faoliyat talablariga mos ravishda rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Ilmiy ish jarayonida diplomatning individual xususiyatlari, intellektual va emotsional barqarorligi, kommunikativ va muloqot ko'nikmalari, qaror qabul qilish qobiliyati va stressga chidamlilik kabi omillar kompleks ravishda tahlil qilingan. Shu bilan birga, tadqiqotda diplomatning kasbiy kamoloti va shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-muhit va psixologik sharoitlar ham o'rganilgan. Natijada, bizning tadqiqot ishimiz zamonaviy diplomatning kasbiy va shaxsiy salohiyatini rivojlantirish, ularning muloqot madaniyati va faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa diplomatik xizmatning zamonaviy talablariga mos kadrlarni tayyorlash va ularning professional salohiyatini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, hozirgi davrda diplomatiya nafaqat davlat manfaatlarini xalqaro maydonda himoya qilishning an'anaviy vositalari bilan cheklanmay, balki turli zamonaviy muammolarga tez va samarali yechim topishni talab qiladi. Shu bois, zamonaviy diplomat shaxsiga qo'yiladigan talablar ham an'anaviy diplomatik etika va muomaladan tashqari, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, strategik tafakkurga ega bo'lish, turli madaniyat va sivilizatsiyalar bilan muloqot qilish qobiliyati hamda inqirozli vaziyatlarda tez va aniq qaror qabul qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bugungi kunda diplomat nafaqat mamlakatining xalqaro obro'sini saqlash va uni mustahkamlashga mas'ul, balki global tendensiyalarni chuqur anglaydigan, axborot oqimini tahlil qila oladigan va innovatsion yondashuvlardan foydalanish imkoniyatiga ega shaxs bo'lishi kerak. Shuningdek, zamonaviy diplomat keng qamrovli fikrlash, turli manfaatlar va qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirish hamda strategik rejalashtirish kabi ko'nikmalarni ham rivojlantirgan bo'lishi lozim. Bu esa diplomat faoliyatini zamonaviy reallikka moslashtirish, davlatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlash va global jarayonlarda samarali ishtirok etish imkonini beradi.

Bugungi davr diplomati nafaqat an'anaviy diplomatik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak, balki zamonaviy xalqaro maydonda samarali faoliyat yuritish uchun qator kasbiy professional sifatlarga ega bo'lishi lozim. Ular quyidagilardan iborat:

1) Professional bilim va tahlil qobiliyati. Zamonaviy diplomat faqat huquqiy, siyosiy va iqtisodiy bilimlarga ega bo'lib qolmasdan, balki xalqaro munosabatlardagi tendensiyalar va yo'nalishlarni tahlil qilish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Bu esa strategik rejalashtirish va davlat manfaatlarini samarali himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

2) Strategik tafakkur va qaror qabul qilish ko'nikmalari. Ma'lumki, diplomat ish jarayonida turli siyosiy, iqtisodiy va madaniy muammolarga duch keladi. Shuning uchun ham zamonaviy diplomat uchun strategik fikrlay olish, alternativ variantlarni baholash va inqirozli vaziyatlarda tez va aniq qaror qabul qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

3) Ko'p madaniyatlilik va kommunikatsiya qobiliyati. Xalqaro maydonda samarali faoliyat yuritish uchun diplomat turli madaniyat va sivilizatsiya vakillari bilan samarali muloqot qila olishi, diplomatik etika va madaniy xususiyatlarni chuqur anglashi lozim. Bu ko'nikmalar mamlakatning xalqaro obro'sini saqlash va mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

4) Axborot texnologiyalari va raqamli diplomatiyadan foydalanish. Raqamli texnologiyalar va internet platformasidagi kommunikatsiyalar diplomatiyaning yangi maydonini tashkil etmoqda. Shu bois zamonaviy diplomat axborot oqimini tahlil qilish, global media bilan ishlash va raqamli diplomatiya vositalaridan samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

5) Etik va ma'naviy sifatlari. Har qanday professional bilim va ko'nikmalarning samarali ishlashi uchun diplomatning ishonchligi, odilligi va prinsipialligi ustun bo'lishi lozim. Bu sifatlari diplomatning xalqaro maydondagi obro'si va davlatning imiji uchun asosiy elementlardan hisoblanadi.

Shubhasiz, hozirgi davr diplomatining kasbiy faoliyatida professional bilim va tahlil qobiliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, uning samarali va maqsadli harakatlarini ta'minlaydi. Professional bilim diplomatga nafaqat an'anaviy siyosiy va huquqiy bilimlarni, balki iqtisodiy jarayonlar, xalqaro huquq, global iqtisodiy va madaniy tendensiyalar hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini chuqur anglashni talab qiladi. Bu bilimlarning keng qamrovli bo'lishi diplomatga turli siyosiy va ijtimoiy muammolarni tahlil qilish va hal etishda asosiy poydevor hisoblanadi. Odatda, tahlil qobiliyati diplomatning strategik fikrlashini, voqealarni tizimli va maqsadli o'rganishini, turli ssenariylar asosida oqilona va tez qaror qabul qilishni ta'minlaydi. Bu sifatlari diplomatning xalqaro maydondagi samaradorligini oshiradi va mamlakatning manfaatlarini mustahkam himoya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, tahlil qobiliyati diplomatni global jarayonlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar va imkoniyatlarni oldindan ko'ra olishga va ularga samarali moslashishga tayyorlaydi.

Bundan tashqari, zamonaviy diplomatning samarali faoliyat yuritishi uchun uning strategik tafakkuri va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalari alohida ahamiyatga ega. Ya'ni diplomat xalqaro vaziyatni chuqur tahlil qila olishi, ehtimoliy tavakkalchilik va imkoniyatlarni oldindan ko'ra bilishi, uzoq muddatli manfaatlarini himoya qiluvchi qarorlar qabul qilishi kerak. Shu bilan birga, murakkab siyosiy jarayonlarda tez va asosli xulosa chiqara olish, turli manfaatlar o'rtasida muvozanat saqlash ham uning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Qaror qabul qilish ko'nikmalari zamonaviy diplomat uchun muhimdir, chunki diplomatiya ko'pincha tez o'zgaradigan va noaniq sharoitlarda amalga oshiriladi. Zamonaviy dunyoda turli siyosiy, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy inqirozlar yuzaga keladi, va har bir qaror davlatning xalqaro obro'si va strategik manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois diplomat strategik fikrlash asosida turli variantlarni baholay bilishi, eng maqbul va samarali yo'lni tanlashi, shuningdek, inqirozli vaziyatlarda tez va oqilona qaror chiqara olishi zarur.

Globalashuv jarayonida davlatlar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarida, balki madaniy, ijtimoiy va etik hamkorlikda ham chuqurlashib bormoqda. Shu bois diplomat turli sivilizatsiyalar va madaniyatlar orasida samarali muloqot olib borish, madaniy farqlarni tushunish va ularni hisobga olgan holda muzokaralar olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi shart. Ko'p madaniyatlilik qobiliyati diplomatga turli xalq va davlatlar bilan munosabatlarda muvozanatni saqlash, qarama-qarshi qiziqishlarni muvofiqlashtirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash imkonini beradi. Bu ko'nikma diplomatning madaniy sezgirligi, til va kommunikatsiya strategiyalarini samarali qo'llay bilishi, shuningdek, diplomatik etika va an'analarni chuqur anglashi bilan mustahkamlanadi. Zamonaviy diplomat o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifoda qilish, samarali muloqot olib borish, xalqaro hamkorlik subyektlari bilan ishonchli aloqa o'rnatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu nafaqat diplomatning shaxsiy obro'sini, balki davlatning xalqaro maydondagi imidji va strategik manfaatlarini ham himoya qiladi. Shuningdek, ko'p madaniyatlilik va kommunikatsiya qobiliyati diplomatga global tendensiyalarni anglab, turli siyosiy, ijtimoiy va madaniy kontekstda to'g'ri qaror qabul qilishida muhim ahamiyatga ega.

Bugungi globalashuv davrida hozirgi zamon diplomatining axborot texnologiyalari va raqamli diplomatiyadan samarali foydalanishi uning kasbiy salohiyati va xalqaro maydonda davlat manfaatlarini himoya qilish qobiliyatida muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va internet platformalari diplomatiyaning yangi maydonini tashkil etmoqda, shu bois diplomat nafaqat an'anaviy muzokaralar va uchrashuvlar orqali, balki global axborot oqimlari, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn kommunikatsiyalar orqali ham faoliyat yuritishi shart. Axborot texnologiyalari diplomatga global tendensiyalarni tez va aniq tahlil qilish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tizimli ravishda integratsiya qilish va strategik qarorlarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Shuningdek, raqamli diplomatiya vositalari davlatning xalqaro imidji va siyosiy pozitsiyasini samarali tarzda shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Diplomat onlayn platformalar orqali tezkor muloqot olib borish, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash, shuningdek, diplomatik xabarlarini targ'ib qilish va strategik kommunikatsiyalarni muvofiqlashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish va axborot tahlili qobiliyati diplomatni global va mintaqaviy tahdidlar, siyosiy o'zgarishlar va strategik imkoniyatlarga tayyorlaydi. Bu ko'nikmalar zamonaviy diplomatning samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi, har bir davlatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiradi va strategik manfaatlarini himoya qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli diplomatiya va axborot texnologiyalari diplomatning kommunikatsiya qobiliyati, ko'p madaniyatlilik muhitda samarali ishlash va strategik tafakkurini qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa uning professional rivojlanishini ta'minlaydi va zamonaviy xalqaro jarayonlarda muvaffaqiyatli harakat qilishini kafolatlaydi. Umuman olganda, zamonaviy diplomatning axborot texnologiyalari va raqamli diplomatiyadan samarali foydalanishi uning kasbiy salohiyatini oshiradi, davlatning xalqaro obro'sini mustahkamlaydi va global siyosiy jarayonlarda strategik ustunlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shuningdek, zamonaviy diplomat shaxsida uning etik va ma'naviy sifatlari ham muhim o'rin tutadi. Diplomat faoliyati ko'pincha siyosiy, iqtisodiy va madaniy murakkabliklarga to'la vaziyatlarda amalga oshiriladi, shu bois uning shaxsiy va kasbiy faoliyatida ishonchlilik, odillik, prinsiplilik va mas'uliyatlilik kabi sifatlar muhimdir. Etik va ma'naviy sifatlar diplomatning faoliyatida qarorlar qabul qilish jarayonida eng muhim o'rinni egallaydi. Diplomat qarorlarni qabul qilar ekan, ularning davlat manfaatlari va xalqaro qoidalarga muvofiqligini ta'minlashi, shubhali yoki manfaatlarga zid vaziyatlarda odilona yo'lni tanlashi zarur. Bu sifatlar diplomatning xalqaro maydondagi obro'si, ishonchligi va qonuniyligi uchun asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, etik va ma'naviy sifatlar diplomatga turli sivilizatsiyalar va madaniyatlar bilan muloqotda samarali va etik meyorlarga rioya qilgan holda harakat qilish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, davlatning xalqaro obro'sini saqlash va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy diplomatning ma'naviy barkamolligi va etik prinsiplarga sodiqligi, shuningdek, professional bilim, strategik tafakkur, ko'p madaniyatlilik va kommunikatsiya qobiliyati hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi sifatlar bilan uyg'unlashganda uning xalqaro maydondagi faoliyati samarali va ustuvor bo'ladi.

Shu jihatlardan kelib chiqib, hozirgi zamon diplomatining ijtimoiy-psixologik qiyofasi haqida gapirilganda, uning kommunikatsiya, intellektual tahlil, emotsional barqarorlik, madaniy muloqot va axloqiy mas'uliyatni o'z ichiga olgan kompleks kompetensiyalar tizimi nazarga tutiladi. Bu tizim uning xalqaro munosabatlar dinamikasini to'g'ri anglashini, murakkab jarayonlarda oqilona yo'l tutishini va davlat manfaatlarini samarali himoya qilishini ta'minlaydi.

Zamonaviy diplomat faoliyati uchun eng muhim psixologik kompetensiyalardan biri emotsional intellekt (EQ) bo'lib, u o'z ichiga hissiyotlarini anglash va boshqarish, muzokara jarayonida boshqalar emotsiyalarini to'g'ri baholash, tezkor emotsional barqarorlik, empatiya va samarali munosabat o'rnatish

qobiliyati kabi elementlarni qamrab oladi. Bu qobiliyatlar diplomatning keskin vaziyatlarda ham xis-tuyg'ularni nazorat qilib, konstruktiv muloqot olib borishini ta'minlaydi. Keskin geosiyosiy o'zgarishlar, tezkor axborot almashinuvi va global manfaatlar to'qnashuvi bilan xarakterlanuvchi murakkab kommunikativ muhitda diplomatning emotsional intellekti muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda diplomatning muvaffaqiyati an'anaviy siyosiy bilimlar va huquqiy malakalar bilan bir qatorda, yuqori darajadagi emotsional intellekt qobiliyatlariga bog'liqdir. Emotsional intellekt shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalar his-tuyg'ularini to'g'ri idrok etish va muvofiq munosabat o'rnatish qobiliyati bo'lib, diplomatiya sohasida strategik ahamiyat kasb etadi.

Odatda, emotsional intellekt diplomatning samarali muloqot va muzokaralar yuritish malakalarini kuchaytiradi. Muzokara jarayonida diplomat nafaqat ratsional dalillarga, balki ishtirokchilarning emotsional holatlariga, ularning yashirin motivatsiyalari va xavotirlariga ham diqqat qiladi. Bu esa munosabatlarni yengillashtirib, konstruktiv, uzoq muddatli va barqaror kelishuvlarga erishish imkonini yaratadi. Emotsional intellektning yana bir muhim jihati – empatiya, ya'ni o'zaro tushunish va boshqalarning psixologiyasiga ahamiyat qaratish qobiliyatidir. Xalqaro maydonda turli madaniy an'analar, ijtimoiy qadriyatlar va siyosiy qarashlarni to'g'ri idrok etish diplomat uchun strategik ustunlik beradi. Empatiya siyosiy taraflar o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi va madaniy to'qnashuvlarni yumshatadi. Bu, ayniqsa, ko'p qutbli dunyoda turli sivilizatsiyalar o'rtasida muloqot olib borishda juda muhimdir. Emotsional intellekt diplomatning stressga chidamliligini va emotsional barqarorligini ta'minlaydi. Xalqaro inqirozlar, bosim, vaqtinchalik keskinliklar yoki murakkab muzokaralar jarayonida diplomat o'z his-tuyg'ularini nazoratda ushlab lozim. Emotsional muvozanat professional qarorlarning sifatini oshiradi, xavfli vaziyatlarda shoshma-shosharlikdan saqlaydi va davlat manfaatlarini himoya qilishda barqaror pozitsiyani ta'minlaydi.

Hozirgi davrda diplomatiya faqat davlatlar o'rtasidagi rasmiy munosabatlarni tartibga solish vositasi emas, balki global kommunikatsiya tizimining muhim elementi sifatida namoyon bo'lmoqda. Qisqa vaqtda tezkor qaror qabul qilish, ko'p qirrali muloqotni tashkil etish va axborot oqimini to'g'ri boshqarish diplomatdan yuqori darajadagi muloqot madaniyatini talab qiladi. Diplomat faoliyatining 70-80% qismi muloqot bilan bog'liq bo'lib, bunda nutqning mantiqiyliigi va aniqligi, neverbal ishoralarni to'g'ri talqin qilish, dialogda neytral, ta'sirchan va muloyim uslubda ishtirok etish, konfliktsiz muloqot texnologiyalaridan foydalanish diplomatning ijtimoiy qiyofasini belgilaydi. Bunda diplomatning nutqi adolatli, ehtiyotkor, diplomatik terminologiyani to'g'ri qo'llaydigan va kontekstga mos bo'lishi lozim. Diplomatning verbal muloqot madaniyati tillarni mukammal bilish (ona tili, davlat tili, xorijiy tillar), voqelikni aniq ifoda etish, nutqda neytralligi va diplomatik diplomatiyani saqlash, hissiyotlarni nazorat qilish kabi mezonlar bilan baholanadi. Shuningdek, noverbal muloqot vositalari, jumladan kinesika, mimika, ishoralar, poza, ovoz tembri, distansiya kabi omillar diplomatik muvaffaqiyatning muhim qismi hisoblanadi. Har bir vaziyatda obektga xos noyob noyeverbal kodlarni bilish madaniyatlararo muloqotga xizmat qiladi.

Bugungi davr zamonaviy diplomatiyasida diplomatning madaniy sezgirlik mahoratiga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur xususiyat har bir diplomat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, uning negizida qarshi tomonning madaniy qadriyatlarini hurmat qilish, milliy an'analarni inobatga olgan holda muammo yechimi taklif etish, multimadaniy muhitda muloqotda stereotiplardan qochish kabi muhim sifatlar yotadi. Bu sifatlar diplomatni xalqaro muhitda ishonchli va mulohazali shaxs sifatida namoyon qiladi. Madaniyatlar orasidagi farqlar insonning hulq-atvori, his-tuyg'ularning namoyon bo'lishi, ishonch bildirish usullari va diplomatik etiketini belgilab, ushbu farqlarni anglamagan holda diplomatik munosabatni o'rnatish o'zaro noto'g'ri xulosa chiqarish, muzokara jarayonida tushunmovchilikka yo'l qo'yish yoki suhbatdoshni yomon xulqli deb baholash imkonini beradi. Odatda, diplomatning boshqa madaniyat va an'analarga hurmati, uning muloqotdagi ehtiyotkorligi, madaniy ramzlarni to'g'ri qo'llashi xalqaro sheriklarda psixologik qulaylik va hurmat tuyg'usini yuzaga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan madaniy sezgirlik zamonaviy diplomatiyaning strategik, psixologik va ijtimoiy poydevori sifatida namoyon bo'lib, diplomatik samaradorlikning hal qiluvchi omillaridan biriga aylanmoqda.

Bugungi murakkab, tez o'zgaruvchan va ko'p qirrali global muhitda davlatlar o'rtasida munosabatlarni yaxshilashda psixologik barqarorlik diplomatning kasbiy samaradorligini belgilaydigan asosiy kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi. Psixologik barqarorlik shaxsning emotsional, kognitiv va xulqiy jihatdan muvozanatni saqlashi, stress, bosim va ziddiyatli vaziyatlarga mos ravishda reaksiya qaytarish qobiliyati bo'lib, zamonaviy diplomat uchun bu faqat individual xususiyat emas, balki professional faoliyatning strategik talabi ham hisoblanadi. Psixologik barqarorlik diplomatning stress va bosim sharoitida ham ravshan, aniq va asosli qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Chunki diplomatik muzokaralar, inqirozli vaziyatlar, keskin siyosiy o'zgarishlar va geosiyosiy ziddiyatlar tezkor va xatosiz fikr yuritishni talab qiladi. Psixologik barqarorligi past diplomat emotsiya ta'sirida irratsional qaror qabul qilishi mumkin, bu esa

xalqaro munosabatlarda jiddiy oqibatlariga olib keladi. Barqarorlik esa xoli, obektiv va pragmatik qaror qabul qilish uchun zamin yaratadi.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish zarurki, psixologik barqarorlik diplomatik muloqotda emotsional nazorat va kommunikativ muvozanatni ta'minlaydi, zamonaviy diplomatiyada shaxsiy ijtimoiy mas'uliyat, kasbiy samaradorlik, strategik muvozanat, madaniyatlararo muloqot va mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishning asosiy mezoni hisoblanadi. Xalqaro muloqot jarayonida savollar, tanqidlar, provokatsiyalar yoki salbiy bayonotlar diplomatning hissiyotlariga ta'sir ko'rsatishini inobatga oladigan bo'lsak, diplomatning emotsiyalarini nazorat qilishi muloqotda keskinlikni kamaytirish va konstruktiv munosabatni yuzaga keltirishda muhim ahamiyatga ega. Demak, turli madaniyat va siyosiy sistemalar bilan ishlash, yangi muhitga tez moslashish, madaniy farqlardan kelib chiqadigan tushunmovchiliklarga bardosh berish yuqori darajadagi psixologik muvozanatni talab etadi. Barqaror diplomat madaniy stress, adaptatsiya qiyinchiliklari va kommunikatsiyadagi ziddiyatlarga qarshi turishda samarali bo'ladi. Bular esa diplomatning shaxsiy imiji va mamlakat nufuzini saqlashda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar. Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, zamonaviy diplomatning ijtimoiy-psixologik qiyofasi ko'p qirrali va murakkab tizimdan iborat bo'ladi hamda uning faoliyati samarasi nafaqat siyosiy bilimlarga, balki emotsional intellekt, muloqot madaniyati, madaniy sezgirlik, stressga chidamlilik, strategik fikrlash kabi psixologik sifatlarga ham bog'liq bo'ladi. Zamonaviy diplomat turli manfaat va qarashlarga ega taraflar bilan muloqot qilishini nazarga tutsak, shu bois uning faoliyatida emotsional holatlarni to'g'ri idrok qilish, taraflarning ehtiyojlarini baholash va konstruktiv yechim taklif etish qobiliyati zarur hisoblanadi. Bu qobiliyatlar psixologik barqarorlik va empatiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, diplomatning faoliyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, professional bilim va tajribalar diplomatning mojarolarni barqaror yo'l bilan hal qilish, turli madaniy muhitda samarali hamkorlik o'rnatish va davlatning xalqaro nufuzini saqlash imkonini beradi.

Biz olib borgan tadqiqotlarimiz natijalariga tayangan holda, zamonaviy diplomat faoliyatini yanada samarali qilish maqsadida quyidagilarni tavsiya qilamiz:

Birinchiidan, diplomatik malaka va bilimni doimiy rivojlantirish – diplomatlar zamonaviy xalqaro munosabatlar tendensiyalarini, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sohalarni yangidan yana o'rganib borishlari kerak. Bu malaka ularga tez va samarali qaror qabul qilish imkonini beradi.

Ikkinchiidan, texnologiya va kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish – elektron diplomatiya, ijtimoiy tarmoqlar va ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari diplomat faoliyatini tezkor va samarali olib borishga yordam beradi.

Uchinchiidan, xalqaro hamkorlik va tarmoqlarni kengaytirish – boshqa davlatlar diplomatlari, xalqaro tashkilotlar va nodavlat tashkilotlar bilan samarali aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish diplomatik ta'sirni oshiradi.

Turtinchidan, madaniy va til malakasini rivojlantirish – diplomatlar turli madaniyat va tillarni bilishi orqali shaxsiy va tashkilot darajasida munosabatlarni samarali qurishi mumkin.

Beshinchidan, strategik tahlil va siyosiy axborot to'plash qobiliyatini kuchaytirish – diplomatlar xalqaro vaziyatni tahlil qilish, muammolarni oldindan aniqlash va samarali strategiyalar ishlab chiqish orqali faoliyat samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Егоров В.П. *Дипломатический протокол и этикет: учеб. пособие* / В.П.Егоров. -М.: Юридический институт МИИТа, 2013. -200 с.
2. Rasulov M.F. *Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi: O'quv qo'llanma* / Mas'ul muharrir R.Arslonzoda. -Farg'ona: Classik, 2023. -176 b.
3. Мелихов И.А. *Индивидуально-личностные качества и профессиональные компетенции дипломатического работника.* «Дипломатическая служба», №2 (23)/2012. -119-124 с.
4. Фельтхэм Р.Дж. *Настольная книга дипломата: / Ральф Джордж Фельтхэм; пер. с англ. В.Е.Улаховича.* -7-е изд. -Минск: Новое знание, 2000. -298 с.

ERON TASHQI SIYOSATINING MAFKURAVIY ASOSLARI VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI

Radjabov Kamronbek Ulug'bek o'g'li,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Siyosiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Eron Islom Respublikasining tashqi siyosati mafkuraviy asoslari va institutsional xususiyatlarining o'zaro uzviy bog'liqligi kompleks tahlil qilinadi. Shuningdek, Eron tashqi siyosatini amalda shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi asosiy institutlar — Oliy rahbar instituti, diniy-huquqiy kengashlar, Islom inqilobi qo'riqchilari korpusi, Tashqi ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik oliy kengashi hamda parlament o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir mexanizmlari ochib beriladi.

Maqola Eron tashqi siyosatini faqat realpolitik yoki mafkuraviy yondashuv bilan izohlash yetarli emasligini, balki ularning sintezi asosida tahlil qilish zarurligini asoslab beradi. Ushbu yondashuv Eronning mintaqaviy va global siyosatdagi xatti-harakatlarini, jumladan Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan olib borayotgan siyosatini chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalari Eron tashqi siyosatining konseptual asoslarini, qarorlar qabul qilish mantiqini va institutsional ta'sir mexanizmlarini tushunishda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Na Sharq, na G'arb, Islom inqilobini eksport qilish, ezilgan xalqlar, maslehat, velayat-e faqih, norasmiy muxolifotlar.

IDEOLOGICAL FOUNDATIONS AND INSTITUTIONAL FEATURES OF IRANIAN FOREIGN POLICY

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the organic interconnection between the ideological foundations and institutional characteristics of the foreign policy of the Islamic Republic of Iran. It also reveals the complex mechanisms of interaction among the key institutions that shape and implement Iran's foreign policy in practice—namely, the institution of the Supreme Leader, religious-legal councils, the Islamic Revolutionary Guard Corps, the Ministry of Foreign Affairs, the Supreme National Security Council, and the parliament.

The article argues that explaining Iran's foreign policy solely through the lens of realpolitik or an ideological approach is insufficient, and substantiates the necessity of analyzing it on the basis of their synthesis. This approach enables a deeper understanding of Iran's behavior in regional and global politics, including its policy toward the states of Central Asia. The research findings are of significant scientific and practical importance for understanding the conceptual foundations of Iran's foreign policy, the logic of decision-making, and the mechanisms of institutional influence.

Keywords: Neither East nor West, exporting the Islamic revolution, oppressed peoples, maslehat, velayat-e faqih, unofficial oppositions.

ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ ИРАНА

Аннотация. В данной статье проводится комплексный анализ органической взаимосвязи идеологических основ и институциональных особенностей внешней политики Исламской Республики Иран. Также раскрываются сложные механизмы взаимодействия между основными институтами, формирующими и реализующими внешнюю политику Ирана на практике, — институтом Верховного лидера, религиозно-правовыми советами, Корпусом стражей Исламской революции, Министерством иностранных дел, Высшим советом национальной безопасности и парламентом.

В статье обосновывается положение о том, что объяснение внешней политики Ирана исключительно с позиций реалполитики либо идеологического подхода является недостаточным, и подчёркивается необходимость её анализа на основе их синтеза. Такой подход позволяет глубже понять поведение Ирана в региональной и глобальной политике, в том числе его политику в отношении государств Центральной Азии. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для понимания концептуальных основ внешней политики Ирана, логики принятия решений и механизмов институционального влияния.

Ключевые слова: Ни Восток, ни Запад, экспорт исламской революции, угнетённые народы, маслехат, веляят-е факих, неофициальная оппозиция.

Kirish. Eron tashqi siyosati o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita omillar majiuasi ta'siri ostida shakllanadi: Islom Respublikasining mafkuraviy doktrinalari va Eron siyosiy tizimining noyob institusional arxitekturasi. Mafkuraviy asoslar tashqi siyosatning qadriyat yo'nalishlari va uzoq muddatli maqsadlarini belgilaydi, institusional mexanizmlar va ishtirokchilar (masalan, Islom inqilobi qo'riqchilari korpusi, diniy muassasalar, Tashqi ishlar vazirligi, Oliy rahbar va boshqalar) esa bu siyosatni amalda, ko'pincha murakkab o'zaro ta'sirlar kontekstida amalga oshiradilar. Eron tashqi siyosatini to'liq tushunish uchun har ikkala jihatni ko'rib chiqish zarur: Eronni jahon sahnida qanday g'oyalarga tayanib faoliyat yuritishi va mamlakat ichida tashqi siyosat bo'yicha qarorlar qabul qilish qanday tashkil etilgani.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. *Eron tashqi siyosatining mafkuraviy asoslari.* Eron Islom Respublikasi 1979-yilgi inqilobdan so'ng paydo bo'lgan davlat bo'lib, u ochiqchasiga mafkuraviy xususiyatga ega edi. Eron shohi Muhammad Rizo Pahlaviy davrida tashqi siyosat nisbatan dunyoviy va pragmatik bo'lgan edi; bundan farqli o'laroq, Imom Ruhulloh Xumayniy boshchiligidagi yangi rejim tashqi siyosat diskursiga diniy-inqilobiy tamoyillarni kiritdi. 1979-yildan beri Eronning yo'nalishini belgilab kelgan asosiy mafkuraviy tamoyillar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) "Na Sharq, na G'arb" konsepsiyasi – Xumayniy tomonidan e'lon qilingan tamoyil, unga ko'ra Eron G'arb yoki Sharq super kuchlariga bo'ysunishni yoki bloklarga qaramlikni rad etadi. Bu shior tashqi siyosatda to'liq mustaqillikka intilishni va sovuq urush davridagi ikkala kuchga qarshilikni aks ettirdi. SSSR qulaganidan so'ng, bu tamoyilning mohiyati har qanday global kuch markazlariga, birinchi navbatda Qo'shma Shtatlarga nisbatan umumiy ishonchsizlikka va Eronning **tashqi siyosatda mustaqil o'z-o'zini belgilashga** aylandi.

2) **Anti-imperializm va Qo'shma Shtatlarga nisbatan dushmanlik.** Shoh rejimini qo'llab-quvvatlagan va Eron inqilobiy ritorikasida Islom dunyosining asosiy ekspluatatori sifatida qaralgan Qo'shma Shtatlar asosiy "dushman" (mashhur "Buyuk Shayton" laqabi) o'rnini egalladi. Amerikaga qarshilik Eron tashqi siyosati mafkurasining ajralmas qismiga aylandi. Bu o'zini dunyoda Amerika etakchiligining qonuniyligini tan olishdan bosh tortishda ham, Yaqin Sharq va boshqa joylarda AQSh siyosatiga qarshi chiqishda ham namoyon bo'ladi. Bunga mustamlakachilikni tanqid qilish, G'arb mamlakatlarini islom diniga dushmanlikda ayblash va musulmon xalqlarning mustaqilligiga putur etkazishga urinishlar kabi umumiy G'arbg qarshi kayfiyat hamroh bo'ladi.

3) **Islom inqilobini eksport qilish.** Eron inqilobi dastlab uning rahbarlari tomonidan nafaqat milliy voqea sifatida, balki boshqa **ezilgan xalqlar, birinchi navbatda Islom dunyosi uchun namuna** sifatida namoyish etilgan. Xumayniy va uning safdoshlari zulm va imperializmga qarshi kurashayotgan islomiy harakatlarni qo'llab-quvvatlash maqsadlarini e'lon qilishdi. Amalda, bu Livanning Hizbullohidan tortib, 1980-yillarda Fors ko'rfazi davlatlariga "inqilob eksport qilish" e'lon qilingan maqsadigacha Yaqin Sharqdagi bir qator shia (va ba'zan sunniy) guruhlarini qo'llab-quvvatlashga aylandi. Eron vaqt o'tishi bilan inqilob eksport qilish haqidagi to'g'ridan-to'g'ri ritorikasini biroz pasaytirgan bo'lsa-da, Eron **inqilobiy avangard missiyani** bajaradi degan fikr uning tashqi siyosat mafkurasiga singib ketgan.

4) **Panislomizm va mazlumlarni himoya qilish doktrinasi (mostaz'afin).** Eron o'zining tashqi siyosatdagi faolligini ummatning birligi (global islom hamjamiyati) diniy konsepsiyasi orqali qonuniylashtirishga intiladi. Eron Konstitutsiyasida tashqi siyosat "barcha musulmonlarning huquqlarini himoya qilish"ga (152-modda) va dunyoning istalgan nuqtasida zulmkorlarga qarshi kurashni qo'llab-quvvatlashga (154-modda) asoslanganligi aniq ko'rsatilgan. Bu doktrina Eron nafaqat o'zining milliy manfaatlarini nomidan, balki butun islom olami, ayniqsa uning ayrim "zolimlar" (odatda Isroil va G'arbparast rejimlar yoki to'g'ridan-to'g'ri G'arb kuchlari deb tushuniladigan qismlari) tomonidan zulm ostida bo'lgan xalqlar nomidan gapirishini anglatadi. Buning amaliy ifodasi Eronning Falastin ishini doimiy ravishda himoya qilishi (Isroilga qarshi kurash), musulmon ozchiliklarini (masalan, Myanmadagi rohinalarni) ritorik qo'llab-quvvatlashi va o'zini barcha mazlum xalqlar uchun adolat ovozi sifatida ko'rsatishidir. Albatta, bu mafkura Eronning mintaqaviy mojarolarga aralashuvini oqlash uchun ham vosita bo'lib xizmat qiladi.

5) **Shia birdamligi va inqilobiy shia islomi.** Rasmiy ritorika umummusulmon birligi haqida gapirsada, Eron tarixan shia jamoalari uchun diqqat markaziga aylangan. Eron siyosiy tizimining asosini tashkil etuvchi Veloyat-e faqih (huquqshunos-ilohiyotshunosning vakolati) mafkurasida shia tushunchasidir. Eron o'z ta'sirini diniy muassasalar orqali targ'ib qiladi: u chet eldagi shia ruhoniylarini, ta'lim muassasalarini (jamg'armalar, universitetlar) va shialarning muhim sanalarini nishonlashni qo'llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, tashqi siyosat ham konfessiyaviy o'lchamga ega bo'ladi – shia pozitsiyalarini himoya qilish va mustahkamlash (Livan, Iroq, Bahrayn, Yaman, Afg'oniston va boshqalarda). Bu har doim ham rasman aniq

ifoda etilmaydi, lekin amalda u mafkuraviy motivasiyaning muhim qismiga aylandi. Shuni ta'kidlash kerakki, Xumayniy tomonidan asos solingan mafkuraviy tamoyillar vaqt o'tishi bilan **zamonaviylashtirildi va qayta talqin qilindi**. Uning vafotidan keyin, ayniqsa 1990-yillardan boshlab, xalqaro izolyasiya va iqtisodiy qiyinchiliklar realligiga duch kelgan Eron rahbariyati idealizm va pragmatizm o'rtasidagi muvozanatni izlay boshladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Xumayniyning o'rniga rahbar bo'lgan Oyatulloh Ali Xomanei, garchi u G'arbga qarshi qattiq ritorikani davom ettirgan bo'lsa-da, pragmatik murosaga kelish mumkin bo'lgan qadamlarni ham ma'qulladi (masalan, 1988-yilda Iroq bilan urushda - Xumayniyning qarori bilan "Islom rejimini saqlab qolish" uchun sulhga rozilik berdi; 2001-yildan keyin Qo'shma Shtatlar bilan Tolibonga qarshi cheklangan hamkorlik o'rnatdi; uning rahbarligi ostida 2013-2015-yillarda yadroviy muzokaralar olib borildi). Eron siyosiy tafakkurida "**maslehat**" (davlat manfaati) tushunchasi paydo bo'ldi, bu Islom davlatining keng manfaati yo'lida ayrim mafkuraviy qoidalardan vaqtincha voz kechish mumkinligini anglatadi. 1988-yilda bahsli masalalarni hal qilish va qiyinchiliklarni engib o'tish uchun mo'ljallangan Maqsadlilik Kengashining (Maslahat Kengashi) tashkil etilishi ham **mafkurani muvozanatlashtirish uchun pragmatizm kerakligini** tan olishni aks ettirdi. Shunga qaramay, rasmiy mafkuraviy asoslar o'zgarishsiz qoldi va Oliy rahbar, ularning vasiysi sifatida, siyosat chetga chiqmasligi kerak bo'lgan chegaralarni belgilashda davom etmoqda. Tahlilimiz maqsadlari uchun Eron mafkurasi shunchaki ritorika emas, balki tashqi siyosatga, ayniqsa, belgilangan maqsadlar va **strategik madaniyat** darajasida ta'sir ko'rsatadigan omil ekanligini tushunish muhimdir. Eron strategik madaniyati qamal ostida qolish hissi (Qo'shma Shtatlar va uning ittifoqchilarining doimiy dushmanligi tufayli) va messianlik missiyasi (islom inqilobi bayrog'ini ko'tarish) bilan to'yingan. Bu, masalan, Eron ko'pincha **qisqa muddatli foydadan ko'ra obro' va tamoyillarni ustuvor** deb bilishida yaqqol ko'rinib turibdi.

Chunonchi, Tehron ko'p yillar davomida yadroviy dasturi bo'yicha yon berishdan bosh tortib keldi, G'arbning bu haqdagi talabini mamlakat suvereniteti va inqilobiy qadr-qimmatiga putur etkazishga urinish sifatida baholadi. Faqat bosim juda kuchayganda taktik mulohaza bilan kompromiss, ya'ni murosa choralarini ko'rdi, shunda ham o'z obro'ini saqlab qolishni shart qilib qo'ydi (yadro energiyasidan tinchlik yo'lida foydalanish huquqini saqlab qoldi va hokazo). Tashqi siyosatning bunday belgilari, ya'ni o'z so'zida qat'iy turish, suverenitetga sadoqat, o'z ideallari uchun ayrim iqtisodiy qiyinchiliklarga dosh berishga tayyorlik – bular bari rejimning mafkuraviy asoslaridan kelib chiqadi.

Eron tashqi siyosatining institusional xususiyatlari. Eron siyosiy tizimi juda noyob fenomen, chunki u teokratiya bilan respublikani uyg'unlashtirgan, bu esa **tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish va amalga oshirishga** bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tizimda har biri tashqi siyosatda o'z rolini o'ynaydigan quyidagi asosiy institutlar va aktorlarni ajratib ko'rsatish mumkin: (1) Oliy ruhoni rahbar va u bilan bog'liq diniy institutlar; (2) saylangan organlar – prezident va hukumat (avvalo Tashqi ishlar vazirligi), shuningdek, parlament; (3) xavfsizlik kuchlari, asosan Islom inqilobi qo'riqchilari korpusi; (4) Milliy xavfsizlik oliy kengashi kabi maslahat organlari; (5) yarim rasmiy ta'sir guruhlari (fraksiyalar, ruhoniylar, tahlil markazlari). Keling, har birini alohida ko'rib chiqaylik.

Oliy rahbar (lider) Eron siyosiy tizimining markaziy figurasi va tashqi siyosatning bosh me'moridir. Eron Konstitusiyasiga ko'ra, Oliy rahbar mamlakat siyosatining umumiy yo'nalishini belgilaydi va asosiy xavfsizlik kuchlarini nazorat qiladi. Oliy rahbar lavozimi eng yuqori ruhoni va dunyoviy hokimiyatni bir shaxsda birlashtiradi, **veloyat-e faqih** (islom huquqshunosi hokimiyati) konsepsiyasini amalga oshiradi. Amalda, bu tashqi sohada hech qanday fundamental qaror – urush yoki tinchlik, yirik kelishuvlar tuzish yohud ittifoqchilar va raqiblarni aniqlash - Oliy rahbarning (ochiq-oydin yoki yashirin) roziligisiz qabul qilinmasligini anglatadi. 1989-yildan beri bu lavozimni egallab kelayotgan oyatulloh Ali Xomaniy inqilobiy tamoyillarga sodiqligi va G'arbga ishonchsizligi bilan shuhrat qozondi, bu esa so'nggi o'n yilliklarda Eron tashqi siyosatida o'z izini qoldirdi.

Oliy rahbar tashqi siyosatga institusional ta'sir ko'rsatishning keng ko'lamli imkoniyatlariga ega:

1) Oliy rahbar qurolli kuchlarga, jumladan, IRQC va armiyaga bevosita qo'mondonlik qiladi va shu bilan tashqi siyosatning **harbiy-strategik jihatlarini** nazorat qiladi.

2) Oliy rahbar xavfsizlik va tashqi siyosat idoralari boshliqlarini shaxsan tayinlaydi: sud hokimiyati rahbari, Qo'riqchi kengashi a'zolari (bu kengash xalqaro shartnomalarni, agar ular islom normalariga zid bo'lmasa, ratifikasiya qiladi), IRQC Oliy bosh qo'mondoni va xavfsizlik vazirlarini tanlashda hal qiluvchi so'zga ega. Bundan tashqari, Oliy rahbar Milliy xavfsizlik oliy kengashini boshqaradi, uning kotibini tayinlaydi (garchi de-yure prezident kengash raisi hisoblansa-da, biroq de-fakto MXOK qarorlari oliy rahbar tasdiqlagandan so'ng kuchga kiradi).

3) Oliy rahbar qo'l ostida **tashqi siyosat bo'yicha bir qator maxsus maslahat organlari** tashkil etilgan. Bunga misol qilib 2006-yilda tashkil etilgan va sobiq vazirlar va diplomatlardan tashkil topgan,

Kamal Xarrazi (sobiq tashqi ishlar vaziri) boshchiligidagi Tashqi aloqalar bo'yicha Oliy kengashni (Strategik tashqi siyosat tadqiqotlari kengashini) keltirish mumkin. Ushbu organlar Tashqi ishlar vazirligi bilan parallel ravishda faoliyat yuritib, rahbar homiyligida tashqi siyosat takliflarini ishlab chiqish uchun muqobil kanallarni yaratadi.

4) Oliy rahbar turli muassasalardagi o'z vakillari orqali norasmiy, ammo kuchli ta'sirga ega. Masalan, uning IRQC, universitetlar va Xavfsizlik kengashida vakillari bor, ular ushbu tuzilmalar tomonidan olib borilayotgan siyosat Rahbarning ko'rsatmalariga muvofiqligini ta'minlaydi.

Ali Xominaiyning rahbarlik uslubining asosiy xususiyati – bu uning hokimiyatini saqlab qolish uchun nazoratni qat'iy ushlab va ma'lum darajada o'zini chetda tutishidir. Xominaiy ko'pincha umumiy ko'rsatmalar beradi va **“qizil chiziq”**larni belgilaydi, ammo texnik jihatdan amalga oshirishni prezident va hukumatga topshiradi, mabodo bu ish muvaffaqiyatsiz yakunlansa, u o'zini chetga olishi mumkin. Masalan, Xominaiy 2015-yilgi Qo'shma harakat rejasi (QHR) bo'yicha muzokaralarni ma'qulladi va Prezident Ruhoniy jamoasiga mandat berdi. Biroq, AQSh 2018-yilda kelishuvdan chiqqanidan so'ng, u buni xatolik va “boshdan oyoq zararlik” deb atadi va shu bilan aybni hukumatga yukladi. Bu taktika Oliy rahbar institutiga o'z tarafdorlari nazarida **beaybligini** saqlab qolish imkonini beradi: yutuqlar uning donoligiga, muvaffaqiyatsizliklar esa mas'ullarga bog'lanadi.

Demak, Oliy rahbar Eron tashqi siyosatining **strategik markazi** bo'lib, mafkuraviy ko'rsatmalarni belgilaydi va muhim masalalar bo'yicha yakuniy qarorlar qabul qiladi, degan xulosaga kelish mumkin. Shu bilan birga, Oliy rahbar ko'pincha tezkor nazoratni boshqa muassasalarga qoldiradi, biroq ularning tizginini qo'ldan chiqarmaydi.

Diniy institutlar tashqi siyosat kontekstida olib qaralganda, jedu keng tushuncha ekani ma'lum bo'ladi. Bular qatoriga avvalo jamoatchilik fikri va kadrlar siyosatiga ta'sir ko'rsata oladigan **shia ruhoniylari** (ulamolar) hamda tegishli tashkilotlar kiradi. Inqilobdan keyin ruhoniylarning katta qismi rasmiy lavozimlarni egalladi (masalan, parlamentda, Ekspertlar kengashida va boshqaruv organlarida). Ular tashqi siyosatni bevosita shakllantirmaydi, balki uni amalga oshirish uchun mafkuraviy muhit yaratadi. Ko'plab yuqori martabali oyatullohlar o'zlarining va'zrlari (ayniqsa, Tehrondagi juma namozlari an'anaviy ravishda tashqi siyosatga qaratilgan) orqali aholi va elitaga xalqaro voqealarga nisbatan “to'g'ri” munosabatni shakllantiradi – xoh u Qo'shma Shtatlarni qoralash bo'lsin, xoh Falastinliklarni qo'llab-quvvatlash yoki G'arbga muxolif bo'lgan “do'stona” Rossiya va Xitoy bilan ittifoqni yoqlash bo'lsin. Shu tarzda, bu ruhoniylar rahbarlar rejimining tashqi siyosatini diniy nuqtai nazardan qonuniylashtiradilar.

Tashqi siyosat bilan bog'liq eng muhim diniy-siyosiy organ Konstitutsiya posbonlari kengashi bo'lib, uning yarmi ruhoniylardan iborat. Bu Kengash barcha qonun hujjatlarini (shu jumladan, ratifikatsiya qilinishi lozim bo'lgan xalqaro shartnomalarni) islom dini tamoyillariga muvofiqligini ko'rib chiqadi. Masalan, Eronning ayrim xalqaro konvensiyalarga qo'shilishi masalasi kun tartibiga qo'yilganda, Posbonlar kengashi ularni inqilobiy manfaatlariga zid deb baholab, rad javobini berdi. Chunonchi, bank sohasidagi o'zaro munosabatlar uchun zarur bo'lgan moliyaviy monitoring bo'yicha FATF bloklandi. Aytish mumkinki, tashqi siyosatga oid ko'plab tashabbuslar diniy-huquqiy ekspertiza eligidan o'tkaziladi. *Siyosiy maqsadga muvofiqligini aniqlash bo'yicha kengash (maslahat)* parlament va Posbonlar kengashi orasida kelishmovchilik paydo bo'lsa, munozaraga aralashishi mumkin. Maqsadga muvofiqlikni aniqlash kengashiga ruhoniylar va sobiq amaldorlar ham kiradi va ko'pincha **davlat manfaatlarini** tub mafkuraviy tamoyildan ustun qo'yish-qo'yimaslik to'g'risida qaror qabul qiladi. Chunonchi, muayyan islohotlar yoki kelishuvlar masalasida shunday bo'lgan: agar davlatning (iqtisodiy yoki siyosiy) manfaatlari ustuvorlik qilsa, Kengash, garchi ruhoniylar qarshi bo'lsa-da, bu qarorni ma'qullashi mumkin edi. Shunday qilib, diniy institutlar tashqi siyosatning mafkuraviy postulatlar chegarasidan tashqariga chiqmasligini va agar og'ishlar zarur bo'lsa, faqat eng yuqori kengashlardagi jamoaviy qaror bilan amalga oshirilishini ta'minlab kelmoqda.

Islom inqilobi qo'riqchilari korpusi (IRQC) Eron tashqi siyosatiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan eng noyob institut, desak, xato qilmagan bo'lamiz. Inqilobdan ko'p o'tmay, yangi rejimni himoya qilish uchun qo'riqchi sifatida tashkil etilgan IRQC vaqt o'tishi bilan nafaqat baquvvat harbiy kuchga, balki tashqi siyosatga o'ziga xos qarashlarga ega siyosiy va iqtisodiy aktorga aylandi. IRQCning xorijdagi operatsiyalar uchun mas'ul bo'lgan maxsus bo'linmasi – *Quds kuchlari* mavjud bo'lib, ular o'ziga ittifoqdosh bo'lgan, ammo nodavlat hisoblangan aktorlar (Livandagi Hizbulloh, Iroqdagi shia jangarilari, Yamandagi hutiyalar, ba'zi Falastin guruhlari va boshqalar) bilan aloqalarni nazorat qiladi va Erondan tashqarida operatsiyalar olib boradi. Aslida, IRQC, ayniqsa “Quds”, tashqi siyosatning harbiy komponentini amalga oshiruvchi qurolli kuchlarning o'ziga xos “xufiyona tashqi ishlar vazirligi” vazifasini bajaradi. Masalan, Eronning Suriya urushida Asad hukumati tomonida ishtiroki asosan IRQC orqali amalga oshirildi (general Qosim Sulaymoniy bu kompaniyada asosiy shaxs edi). IRQC shuningdek, chegara xavfsizligi, terrorizmga qarshi kurash (masalan, ISHIDga qarshi) va Fors ko'rfazini qo'riqlash faoliyati bilan shug'ullanadi (ko'rfazda vaqti-vaqti

bilan xorijiy harbiylar bilan bog'liq mojaralarda ishtirok etadi, chegarani bo'gan kemalar, dronlarni egallab oladi. Bularning barchasi tashqi siyosatga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

IRQC to'g'ridan-to'g'ri Oliy rahbarga bo'ysinadi va **hukumatga hisobot bermaydi**, bu esa tashqi siyosatda ikkiboshlikni vujudga keltiradi: bir yo'nalish diplomatik kanal orqali amalga oshadi – bu prezident boshchiligidagi Tashqi ishlar vazirligi, ikkinchisi yo'nalishda esa harbiylar (Oliy rahbar boshchiligidagi IRQC). Ba'zan bu yo'nalishlar bir-biriga zid kelib qoladi. Masalan, Ruhoniy hukumati G'arb bilan muzokaralar olib borayotganida, IRQC ballistik raketalarni namoyishkorona sinovdan o'tkazdi yoki amerikalik dengizchilarni hibsga oldi, bu bilan o'z inqilobiy tamoyillari zaiflashmayotganidan darak bermoqchi bo'ldi. Bu holat “mo'tadil” diplomatiya bilan “qo'pol” harbiy kuch o'rtasida raqobat bor degan taassurotni yaratdi. Biroq, strategik jihatdan IRQC va diplomatiya rahbar tomonidan belgilangan bir yo'nalishda, shunchaki yumshoq va qattiq usullardan foydalangan holda faoliyat yuritadi. **Institutsional jihatdan** IRQCning tashqi siyosatga ta'siri juda katta: mutaxassislarning fikriga ko'ra, so'nggi yillarda Tashqi ishlar vazirligining roli pasaygan, harbiylashgan kuchlar va Xavfsizlik Kengashining roli esa oshgan.[1] Hamidreza Aziziyning fikriga ko'ra, an'anaviy diplomatik kanallar qolib, ko'proq harbiylashtirilgan va xavfsizlikni ta'minlovchi strategiyalar tomon siljish kuzatilgan. IRQC iqtisodiyot va siyosatga o'z ta'sirini kengaytirib, tashqi siyosat bo'yicha qarorlar qabul qilish markazlaridan biriga aylandi. IRQC ko'pincha xavfsizlik va mafkura manfaatlaridan kelib chiqib, qattiqqo'l yo'nalish olishga olishga majburlaydi. Masalan, Qo'shma Shtatlar bilan munosabatlarning har qanday iliqlashishi IRQCning mafkuraviy qarshiligiga duch keladi, chunki u buni inqilobiy merosga tahdid deb biladi. IRQC shuningdek, sharqiy yo'nalishda – qo'shni davlatlar bilan hamkorlik qilish, Markaziy Osiyo davlatlari bilan harbiy mashqlarda ishtirok etish va chegaralarda kontrabanda va ekstremizmga qarshi kurash orqali faol ishtirok etadi. Bu uni Eronning Markaziy Osiyo siyosatida **bevosita ishtirokchiga** aylantiradi.

Tashqi ishlar vazirligi tashqi siyosatni diplomatik qo'llab-quvvatlash uchun mas'ul bo'lgan an'anaviy muassasa hisoblanadi. Eron Tashqi ishlar vazirligi va, umuman olganda ijro etuvchi hokimiyat (prezident va vazirlar mahkamasi) rasman tashqi aloqalarni nazorat qiladi, shartnomalar tuzadi va xalqaro tashkilotlarda Eronning vakilligini ta'minlaydi. Biroq, ularning harakat erkinligi Oliy rahbar tomonidan belgilangan doiralar va Milliy xavfsizlik oliy kengashi qarorlari bilan sezilarli darajada cheklab qo'yilgan. Eron prezidenti (ayniqsa, agar u Xotamiy yoki Ruhoniy kabi mo'tadil yohud islohotchi siyosatchi bo'lsa) ma'lum **diplomatik tashabbuslarni** boshlashi mumkin, ammo rahbarning ko'magisiz ular amalga oshirilmaydi (bunga misol: qo'shnilar bilan munosabatlarni yaxshilash, G'arb bilan muloqot va boshqalar). Shunga qaramay, prezidentlik instituti tashqi siyosatning **“qiyofasi” rolini o'ynaydi**. Prezident xalqaro sammitlarda Eron nomidan gapiradi, uning bayonotlari global ommaviy axborot vositalari tomonidan yozib olinadi va uning ma'muriyati mamlakat imidjini shakllantiradi. Shuning uchun bu erda shaxsiy omil ham muhimdir: masalan, 2021-yilda konservativ prezident Ibrohim Raisiyning kelishi ritorikaning qattiqlashishi va Sharqqa ko'proq moyillikning kuchayishini ko'rsatdi, Ruhoniy o'z davrida yadroviy kelishuv va Evropa bilan muomalani yumshatish yo'lini tutgan edi.

Milliy xavfsizlik oliy kengashi (Shoray-e Ali-e Amniat-e Melli) tashqi siyosat va mudofaa kesishadigan nuqtalarni muvofiqlashtiruvchi eng muhim organdir. Konstitutsiyaga ko'ra, MXOK unga rasman raislik qiluvchi prezident rahbarligida **milliy xavfsizlik va tashqi siyosat strategiyasini** ishlab chiqadi. Uning a'zolari orasida asosiy vazirlar (shu jumladan, tashqi ishlar, mudofaa va razvedka vazirlari), harbiy qo'mondonlik, kotib (rahbar tomonidan tayinlangan) va rahbarning vakillari bor. Aslida, MXOK eng dolzarb, chunonchi yadroviy siyosat, mintaqaviy inqirozlar va buyuk davlatlar bilan munosabatlar bo'yicha konsensus qarorlarini ishlab chiqadi. MXOK qarorlari Oliy rahbar tomonidan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi va yuqoridan nazoratni ta'minlaydi.[2] Tarixan, MXOKning roli, ayniqsa, 1980 va 1990-yillarda (urush va undan keyingi davrda) sezilarli darajada oshdi va so'nggi yillarda yanada oshib bormoqda. Masalan, **yadroviy masala bo'yicha muzokaralar** dastlab (2003-2005) MXOK kotibi (o'sha paytda Hasan Ruhoniy) tomonidan boshqarilgan, keyin Tashqi ishlar vazirligiga o'tkazilgan va undan so'ng Konservatorlar qoshidagi MXOK homiyiligiga qaytarilgan.[3] Ushbu qayta-qayta taqsimlash shuni ko'rsatadiki, muhim daqiqalarda Oliy rahbar masalalarni faqat Tashqi ishlar vazirligiga emas, balki xavfsizlik kuchlari va uning ishonchli vakillari kuchli bo'lgan MXOK ichidagi kichik doiraga ishonib topshirishni afzal ko'radi. MXOK shuningdek, diplomatlar va harbiy xizmatchilar bir vaqtning o'zida ishtirok etadigan Suriya va Iroq bo'yicha siyosatni muvofiqlashtiradi.

MXOK turli idoralarni birlashtirishi va shu bilan birga uning ichida byurokratik raqobatni qisman institutsionalizatsiya qilishi bilan ahamiyatga molikdir. Tashqi ishlar vazirligi, IRQC, razvedka va prezident ma'muriyati vakillari munozara olib boradilar, umumiy til topishga harakat qiladilar. Yakuniy qaror – kompromiss, ya'ni murosaga kelishdir, keyin esa hamma uni amalga oshirishga kirishadi. Ideal holda, MXOK tashqi siyosatni konsensus asosida rejalashtirish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Biroq, agar

Kengashda bitta fraksiya etakchilik qilsa, qarorlar shu tarafga qarab og'a boshlaydi. Xususan, Raisiy rahbarligi davrida konservatorlarga yaqin bo'lgan sobiq IRQC a'zosi Ali Shamxoniy (2023 yilgacha) Milliy xavfsizlik oliy kengashi kotibi etib tayinlandi va kengashning siyosati yanada qat'iylashdi. Shunga qaramay, MXOK strukturasi barcha asosiy institutlarning xabardor qilinishini va tashqi siyosat harakatlariga mos kelishini ta'minlaydi, kelishmovchiliklarining oldini oladi.

Mejlis (parlament) tashqi siyosatda asosiy kuch bo'lmasa-da, bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Mejlis xalqaro shartnomalarni ratifikasiya qiladi, u hukumat tashabbuslariga to'sqinlik qilishi yoki ularni ma'qullashi mumkin. Masalan, yaqin o'tmishda Mejlis xorijiy investorlar ishtirokdagi loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha kelishuvni uzoq vaqt ratifikasiya qilmadi, ma'lum bir shubha tug'ilgani uchun hatto ShHT bilan shartnomani ratifikasiya qilishdan bosh tortdi. Parlament komissiyalari (xavfsizlik va tashqi siyosat bo'yicha) tashqi siyosat masalalarini muhokama qilish, vazirlarni taklif qilish va tanqidiy fikrlarni bildirish uchun forum vazifasini ham bajaradi. Biroq, umuman olganda, Eron tizimidagi Mejlis siyosatni belgilamaydi; aksincha, u kuchlar muvozanatini aks ettiradi (konservatorlar ko'pchilik ovozga ega bo'lganda, Mejlis qat'iy yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi; islohotchilar ko'pchilik ovozga ega bo'lganda, u yumshatishni qo'llab-quvvatlashi mumkin).

Institutlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va qaror qabul qilish xususiyatlari. Xulosa qilib aytganda, Eron tashqi siyosatining institusional tuzilishi **ko'p qatlamli va murakkabdir**. Rasmiy ravishda, davlatning barcha atributlari mavjud: davlat boshlig'i (rahbar) va hukumat rahbari (prezident), vazirliklar, parlament va xavfsizlik kengashi. Biroq, diniy-inqilobiy tuzilmalar (rahbar, IRQC, diniy kengashlar) va respublika organlarining (prezident, Tashqi ishlar vazirligi, parlament) parallelligi tufayli qaror qabul qilish jarayoni ko'pincha noaniq bo'lib, elitalar o'rtasida kelishuvni talab qiladi. Tahlilchilar ta'kidlaganidek, tashqi siyosatning haqiqiy jarayoni asosan **norasmiy xarakterga ega** bo'lib, konstitusiyaviy doiralardan tashqariga chiqadi, bu esa uni birma-bir ta'riflashni qiyinlashtiradi. [4] Fraksiyalar va ta'sir guruhlar kabi norasmiy tarmoqlar muhim rol o'ynaydi. Masalan, sobiq prezident Ruhoniy atrofida markazlashgan texнократик elita bir yo'nalishni ilgari surgan, IRQC xavfsizlik kuchlari va ultra-konservatorlar esa, boshqa yo'nalishni ilgari surgan. Turli vaqtlarda yo birinchisi yoki ikkinchisi ustunlik qilgan bo'lsa-da, ikkalasi ham doimo mavjud bo'lgan.

Xulosa. Eronning tashqi siyosati mafkura va institutlarning noyob uyg'unligi mahsulidir. Mafkuraviy asoslar – islomning inqilobiy shia yo'nalishi, antiimperializm va islom dunyosida etakchilikka intilish – Eron tashqi siyosatining qadriyatlar doirasini ta'minlaydi va uzoq muddatli ustuvorliklarni belgilaydi (masalan, AQSh ta'siriga qarshilik ko'rsatish, "qarshilik o'qi"ni qo'llab-quvvatlash, Isroilni tan olmaslik va Eronning G'arbga alternativa sifatida o'z boshqaruv modelini ilgari surish). Institusional xususiyatlar – ikkihokimiyatchilik (rahbar vs. prezident), parallel harbiy va diplomatik tuzilmalarning mavjudligi va ular o'rtasida konsensus talabi – bu siyosatni amalga oshirishga ta'sir qiladi, uni murakkab va ko'p qatlamli qiladi. Asosiy ishtirokchilar - Oliy rahbar, IRQC, diniy idoralar va Tashqi ishlar vazirligi – har biri o'z resurs va nuqtai nazarini o'rta tashlaydi va amalda tashqi siyosat ularning o'zaro ta'siri natijasiga aylanadi.

Ushbu mafkuraviy va institusional omillarni anglab etish Eronning tashqi siyosati, shu jumladan Markaziy Osiyoga nisbatan olib borayotgan siyosatini tahlil qilish uchun o'ta muhimdir. Eron nima uchun u yoki bu maqsadlarni e'lon qilishi va jahon sahnasida o'zini qanday tutishini (axloqiy va tarixiy nuqtai nazardan) aynan mafkura tushuntirib beradi. Institusional tahlil esa, Eronning qanday qilib aniq qarorlar va harakatlarga kelishini, ularning ortida kim turganini va pozitsiyalar qanday muvofiqlashtirilganligini izohlaydi. Quyida, Eronning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan aniq harakatlarini o'rganar ekanmiz, ularning har biri ortida milliy manfaatlar (realizm ruhida), mafkuraviy motivlar (inqilobiy ta'limot ruhida) va ushbu qadamlarni ilgari surgan yoki amalga oshirgan turli institutlar ta'sirining o'ziga xos kombinatsiyasi borligini ko'ramiz. Ushbu yaxlit yondashuv birinchi bo'limlarda bayon etilgan metodologik asoslarga mos keladi: bu yondashuv nazariy (neorealistik) nuqtai nazarni Eronning inqilobiy davlat sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini anglash bilan birlashtiradi. Bu Eron tashqi siyosatining konseptual asoslarini va uning ma'lum bir mintaqaviy kontekstda namoyon bo'lishini yanada ob'ektiv va keng qamrovli tushunish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Hamidreza Azizi. *Iran's Evolving Foreign Policy Structure: Implications on Foreign Relations. The Middle East Council on Global Affairs. Issue brief June 2024.*
2. "Changing Direction of the Supreme National Security Council," *Bahar News, May 23, 2023, <https://www.baharnews.ir/news/405350>.*

3. "Iran's Rouhani Shifts Responsibility for Nuclear Talks," *BBC*, September 5, 2013, Azadeh Eftekhari, "Nuclear File: Commuting Between the National Security Council and the Ministry of Foreign Affairs Under the Leader's Supervision," *Independent Persian*, July 21, 2021,

4. Abdolrasool Divsallar, "Iran's Foreign Policy Institutions," in *The Sacred Republic: Power and Institutions in Iran*, ed. Mehran Kamrava, (Oxford University Press, 2023).

ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАСИДА НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРНИНГ
ХАЙРИЯ ВА ЁРДАМЛАРНИ БЕРИШ ТАРТИБИ ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

*Исаджанов Бекзод Ибрагимович,
Денов тадбиркорлик ва педагогика
институтини мустақил тадқиқотчиси
bii84@gmail.com*

Аннотация. Ушбу мақолада Туркия Республикасида нодавлат нотижорат ташкилотларини шаклланиши, уларни ривожланиши босқичлари ҳамда ўзига хос жиҳатлари таҳлил этилган. Мақолада, Туркиядаги ННТларнинг хайрия ва ёрдам турларини бериш тартиби, яъни хайрия ва ёрдамларни қайси йўналишларда амалга оширилиши, уларни беришдаги норматив-ҳуқуқий асослар батафсил таҳлил этилган. Қолаверса, ННТ томонидан хайрия ва ёрдам бериш тартибини бузганлик учун жавобгарлик масаласи ёритилган.

Калит сўзлар: Туркия Республикаси, нодавлат нотижорат ташкилотлар, хайрия, ёрдам, юмшоқ куч, гуманитар ёрдам, камолчилик йўналиши.

ПРОЦЕДУРА ОКАЗАНИЯ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНОЙ ПОМОЩИ
НЕПРАВИТЕЛЬСТВЕННЫМИ НЕКОММЕРЧЕСКИМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ
В ТУРЦИИ И ИХ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация. В данной статье анализируется формирование неправительственных некоммерческих организаций в Турецкой Республике, этапы их развития и специфические аспекты. В статье раскрывается процедура предоставления пожертвований и помощи НПО в Турции. Подробно анализируются направления, в которых осуществляется предоставление пожертвований и помощи НПО, а также нормативно-правовая база для их предоставления. Кроме того, анализируется вопрос ответственности за нарушения порядка оказания благотворительной и социальной помощи со стороны НПО.

Ключевые слова: Турецкая Республика, неправительственные некоммерческие организации, благотворительность, помощь, мягкая сила, гуманитарная помощь, направление развития.

PROCEDURE FOR PROVIDING CHARITABLE AID BY NON-GOVERNMENTAL NON-
PROFIT ORGANIZATIONS IN TURKEY AND THEIR CHARACTERISTICS

Abstract. This article analyzes the formation of non-governmental non-profit organizations in the Republic of Turkey, their development stages, and specific aspects. It describes the procedure for providing donations and assistance to NGOs in Turkey. It provides a detailed analysis of the areas in which donations and assistance are provided to NGOs, as well as the legal framework for their provision. Furthermore, the issue of liability for violations of the procedure for providing charitable and social assistance by NGOs is analyzed.

Keywords: Republic of Turkey, non-governmental non-profit organizations, charity, aid, soft power, humanitarian aid, development trends.

Кириш. Сўнги йилларда етакчи давлатлар дунёнинг турли минтақаларида, жумладан, Марказий Осиё каби геосиёсий аҳамиятга эга бўлган маконда ўз таъсир доираларини кенгайтириш ва геосиёсий манфаатларини илгари суришга интилишлари билан боғлиқ жараёнлар кузатилмоқда. Бунда суверен давлатларнинг ички ишларига аралашув ҳолатлари нафақат хорижий давлатлар томонидан амалга оширилмоқда, балки халқаро ҳукумат ва ноҳукумат ташкилотлари ҳам бу жараёнда фаол иштирок этмоқда. Хусусан, замонавий халқаро муносабатлар ҳукумат ва ноҳукумат ташкилотлар сонининг сезиларли даражада ошиши, давлатнинг ижтимоий иқтисодий, гуманитар ва сиёсий жараёнларида уларнинг ролини кучайиши билан тавсифланади. Таъкидлаш жоизки, “юмшоқ куч” сиёсатини фаол амалга ошираётган давлатлардан бири Туркия ҳисобланади[1] Шундан келиб чиқиб, ноҳукумат ташкилотлари глобал, минтақавий ва миллий муаммоларни ҳал қилишда “юмшоқ куч” сиёсатини амалга ошириш воситасига айланмоқда. Натижада маданий, тарихий, диний ва иқтисодий тушунчалардан қувват олувчи янги сиёсий тушунча ва ўзига ишонч ҳамда миллий ўзига хослик пайдо бўлди[2].

Мавзуга доир адабиётлар таҳлили. А.В.Белоглазов, Туркиянинг Марказий Осиё минтақасидаги “юмшоқ куч” сиёсатини қуйидаги йўналишларга ажратади:

- маданий ҳамкорлик;
- таълим соҳасидаги ҳамкорлик;
- соғлиқни сақлаш соҳасидаги ҳамкорлик;
- гуманитар ёрдам лойиҳалари;
- туризм[3].

Юқоридагилардан келиб чиқиб, Туркиянинг бугунги кунда “Юмшоқ куч” сиёсатини тарғиб этишда нодавлат нотижорат ташкилотлари ва улар томонидан олиб борилаётган хайрия тарғиботларининг роли муҳим ҳисобланмоқда. Бу эса, давлат миллий манфаатлари ва унинг хавфсизлиги учун ўрганилиши лозим бўлган алоҳида мавзудир.

Туркия нодавлат нотижорат ташкилотларининг фаолияти узоқ тарихига эга бўлиб, асосий вазифаси давлат идеалларини тарғиб қилишга қаратилган[4]. Масалан, 1980 ва 1990 йилларда Туркиянинг Европа Иттифоқиغا интеграциялашув билан боғлиқ сиёсий спектрдаги ўзгаришлар, очик фуқаролик жамиятини шакллантириш борасидаги мажбуриятларнинг бажарилиши ННТ фаоллигини оширишга хизмат қилди. Хусусан, [5] 2000 йилларга келиб эса ЕИ томонидан қўйилган мажбуриятларни фаол бажарилиши ННТлар сонининг янада ўсишига олиб келди, уларнинг кўпчилиги демократлаштириш йўналишига эга бўлиб чиқди[6]. Бу даврда Туркия ҳукумати уюшмалар ва жамғармалар тўғрисидаги қонунларни либераллаштирди, ташкилотлар устидан давлат назорати даражасини, шу жумладан молиялаштириш манбалари кескин ўзгаришлар содир бўлди[7]. Шунга қарамай, Ассоциациялар Департаменти ва Жамғармалар Бош бошқармаси оғир бюрократик қоидаларга бўйсунишда давом этган фуқаролик жамияти ташкилотларини назорат қилиш усулларида номувофиқлигича қолди[8].

Тадқиқот методологияси. Шулардан келиб чиқиб, ҳозирги Туркиядаги ННТларни қуйидагича гуруҳлаш мумкин: [9]

1. “Профессионал” нодавлат ташкилотлар (*Касаба палаталари ва уюшмалари, оммавий ахборот воситалари*);

2. “Ҳуқуқ ва эркинликлар” соҳасида ривожланаётган нодавлат нотижорат ташкилотлари: Инсон ҳуқуқлари ассоциацияси (*Human Rights Association*), *Mazlum-Der*;

3. Аънавий консерватив бўлмаган нодавлат ташкилотлари: *Maarif Foundation*;

4. “Таҳлил платформаси” соҳасида ривожланаётган нодавлат ташкилотлар: *Liberal Thought Community, Freedom Research Association, TESEB, TÜSEB*;

5. Этник ва маданий ҳуқуқлар атрофида вужудга келган нодавлат ташкилотлар: *Кавказ уюшмалари, алавийлар уюшмалари, Курд Ҳаракати*;

6. Фуқаролик жамияти жабҳаси сифатида эътиборни тортаётган соҳалардан бири атроф-муҳит муҳофазаси: *TEMA, Туркия Атроф-муҳит жамғармаси, Табиий ҳаётни ҳимоя қилиш уюшмаси*;

7. Камолчилик йўналишидаги ташкилотлар киради. 1980 йилларда пайдо бўлган *Замонавий ҳаётни қўллаб-қувватлаш уюшмаси сингари*;

8. Нодавлат нотижорат ташкилотлари ривожланишининг яна бир йўналиши тадқиқот ва ҳамкорликдир: *AKUT, Дениз Фенери, Турк Қизил Ярим Ой жамияти, Diyanet Foundation, Volunteers, Hayrat Humanitarian Relief Foundation, Aziz Hüdayi Foundation, Cansuyu Assistance and Solidarity Association, Yardımelı International Humanitarian Aid Association, Doctors Worldwide, Beşir Association, Sadakataşı Association, Buslat Association*;

9. Бу туркумлашга Туркияда фаолият юритаётган халқаро ноҳукумат ташкилотларни ҳам киритишимиз мумкин: *Conrad Adenauer foundation, Amnesty International, Helsinki Monitoring Committee, Green Peace* ва бошқалар сингари.

Юқоридагиларга таяниб Туркиядаги ННТларнинг хайрия ва ҳомийлик[10] хайриялари ҳақида тўхталадиган бўлсак, ўзига хос нозик жиҳатларни кўришимиз мумкин. Сабаби, Туркияда қонунчилигида хайрия ва ёрдам ўртасида тафовут мавжуд. Гарчи бу икки тушунчага қонун чиқарувчи томонидан етарлича таъриф берилмаган бўлса-да, амалиёт ва суд қарорлари бу таърифларни маълум даражада шакллантирган деб айтиш мумкин. Яъни, Туркияда “хайрия” тушунчасига “ёрдам” тушунчаси каби батафсил ҳуқуқий асослар белгиланмаган. Ёрдам йиғиш фаолияти қонунчиликда батафсил тартибга солинган, аммо бу қоидалар чекланган бўлиб, кўпроқ ушбу фаолиятни назорат қилишни таъминлашга қаратилган.

ННТларнинг мавжуд бўлиши ва ўз фаолиятини амалга ошириши учун зарур бўлган аъзолик бадаллари, хайрия ва ёрдамлар каби моддий ва нақд даромадларга нисбатан қонунчилик доирасида жорий этилган ҳуқуқий асослар мавжуд. Туркияда хайрия маблағларини йиғиш учун олдиндан

рухсат олиш шарт эмас, аммо агар Туркияда жамоат манфаати мақомига эга бўлмасангиз, хайрия маблағларини йиғиш учун олдиндан рухсат олиш керак.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. Ҳомийлик маблағлари ННТнинг бош қароргоҳи, филиали ёки ваколатхонаси жойлашган ердаги бошқарув кенгаши аъзолари ёки бошқарув кенгаши ташкил этилганда, ўз номидан ваколат берган шахслар томонидан олинганлиги тўғрисидаги гувоҳнома эвазига ёки ННТнинг ўз веб-сайти орқали қабул қилиниши мумкин. ННТ даромадлари банклар орқали йиғилган тақдирда, банк томонидан расмийлаштирилган ҳисобдан чиқариш ёки ҳисобварақ маълумотномаси каби ҳужжатлар олинганлик тўғрисидаги гувоҳнома ўрнини босади. Ушбу жараён 2860-сонли "Ёрдам йиғиш тўғрисида"ги қонундан ташқарида қолиб, 5253-сонли "ННТлар тўғрисида"ги қонунга мувофиқ амалга оширилиши мумкин. Шунинг учун олдиндан рухсат олиш шарт эмас. ННТнинг даромадларини тўплашда фойдаланиладиган келиб тушган ҳужжатлар ННТ бошқарувининг қарори билан бекор қилинади.

ННТ даромадларини йиғувчи шахслар жамият бошқарувининг қарори билан белгиланади ва уларнинг номига ваколат берувчи ҳужжат расмийлаштирилади. ННТ номидан даромадлар тўплайдиган шахс ёки шахслар, бундан ННТнинг ҳақиқий аъзолари ва вакиллари мустасно, ваколат муддати ҳам кўрсатилган ҳолда ННТнинг бошқарув қарори билан белгиланади. ННТ номидан пул йиғишга ваколатли шахслар йиғилган пул маблағларини ўттиз кун ичида ННТ ҳисобига топширадилар ёки ННТнинг банкдаги ҳисоб рақамига ўтказадилар. Бироқ, йиғилган маблағ 5000 турк лирасидан ошса, ўттиз кунлик муддатни кутмасдан, йиғилган пуллари икки иш кунидан кечиктирмай ННТнинг банк ҳисобига ўтказадилар. ННТ кассасида сақланиши мумкин бўлган пул маблағлари миқдори эҳтиёжларни ҳисобга олган ҳолда ННТ таъсисчилари томонидан белгиланади.

Номига ваколат берувчи ҳужжат расмийлаштирилмаган ҳолда даромадларни йиғувчиларга ва била туриб даромадларни йиғишга йўл қўйган ННТ бошқарув аъзоларига нисбатан маъмурий жарима қўлланилади. 7000 турк лирасидан ортиқ бўлган ҳар қандай тушумлар, йиғимлар, харажатлар ва тўловларни банклар ва бошқа молия институтлари ёки ППТ (*Туркия Почтаси АЖ*) орқали амалга оширмаган ННТ раҳбарларига ҳар бир транзакция учун ҳисоб-китоб суммасининг 10 %гача маъмурий жарима солинади.

Ҳар қандай йўл билан ўзига тегишли бўлган пул ёки пул шаклидаги ҳужжатлар, векселлар ёки бошқа мол-мулкни ўзининг ёки бошқаларнинг манфаатларини кўзлаб сарфлаш ёки гаровга қўйиш ёки сотиш, яшириш, йўқ қилиш, рад этиш, бузиб кўрсатиш ёки ўзгартириш билан шуғулланган ННТ бошқарув раиси ва аъзолари ёки ННТнинг бошқа ходимлари, шунингдек, аудиторлар Туркия Жиноят кодексининг "ишончли суистеъмол қилиш" жинояти бўйича жазога тортилади. Бундан ташқари, суд судланувчиларни ННТлардаги лавозимидан вақтинча четлаштириш тўғрисида ҳам ажрим чиқариши мумкин.

Ёрдам йиғиш

ННТлар жамоат манфаатларига мувофиқ: ўз мақсадларини амалга ошириш, муҳтожларга ёрдам кўрсатиш, улар бир ёки бир нечта давлат хизматларини амалга ошириш ёки қўллаб-қувватлаш учун ёрдам йиғишлари мумкин.

ННТ ваколатли органнинг рухсатсиз ёрдам йиғиши мумкин эмас. Жамоатчилик асосида ишлайдиган ННТлар, муассасалар ва жамғармалардан қайси бири рухсат олмасдан ёрдам йиғиши мумкинлиги ҳукумат томонидан белгиланади ва эълон қилинади.

Ёрдам йиғиш учун рухсатлар:

Агар ёрдам йиғиш фаолияти вилоятнинг бир нечта туманларини қамраб олса, ушбу вилоят ҳокимидан, туман доирасида эса, ушбу туман ҳокимидан, агар бир нечта вилоятни қамраб олган бўлса, ёрдам йиғиш фаолиятини амалга оширувчи ННТ жойлашган вилоят ҳокимидан олинади, бу ҳақда рухсат берган ҳокимлик томонидан тегишли ҳокимликларга ва Ички ишлар вазирлиги хабардор қилинади.

Ёрдам йиғиш фаолияти қуйидаги усуллар билан амалга оширилиши мумкин: қвитанция билан, муайян жойларга қутилар қўйиш, банкларда ҳисобварақлар очиш, ёрдам маркасини чиқариш, буюмлар бозорини ташкил этиш, маданий намоишлар ва кўргазмалар, спорт томошалари, экскурсиялар ва кўнгилочар тадбирлар ташкил этиш ва бошқ.

ННТлар ўз уставларида кўрсатилган мақсадларни амалга ошириш учун ўзлари билан ўхшаш мақсадларга эга бўлган ННТлардан, касаба уюшмалари ва тегишли ташкилотлардан моддий ёрдам олишлари ва кўрсатиб ўтилган ташкилотларга моддий ёрдам кўрсатишлари мумкин. ННТлар чет элдаги шахслар, муассасалар ва ташкилотлардан моддий ва нақд пул шаклидаги ёрдамни маҳаллий давлат бошқарув органларини олдиндан хабардор қилиш шarti билан олишлари мумкин. Нақд пулдаги ёрдамларни банклар орқали олиш мажбурийдир.

Ёрдам олиш учун аризачи томонидан кўрсатилиши керак бўлган маълумотлар: қандай мақсадда ва қанча миқдорда ёрдам йиғилади, ёрдам йиғиш фаолияти юритиладиган вилоят ва туманлар, ёрдам йиғишнинг қайси усуллари қўлланилади, қанча одам иш билан таъминланиши ва ёрдам йиғишда ишлатилиши керак бўлган қвитанция миқдори, йиғиладиган ёрдам миқдорини аниқлаш учун ярокли бўлган хулоса, далолатнома ва шунга ўхшаш маълумотлар ва ҳужжатлар, фаолиятга жалб қилинадиган шахсларнинг паспорт маълумотлари, яшаш жойи ва суд реестр баённомалари, шунингдек, икки донадан расмий фотосурат.

Агар ёрдамни йиғиш таълим муассасаси фойдасига ёки ташкилот ичида амалга оширилса, ташкилот раҳбарининг ёзма рухсати билан, ташкилот томонидан берилган аризаларда ташкилотнинг бошқарув органларидаги мансабдор шахсларнинг расмий ҳужжати ва манзиллари, агар давлат хизматчиларини жалб қилиниши кўзда тутилган бўлса, тегишли ҳокимликлардан олинган рухсатномалар ариза билан бирга тақдим этилиши керак. Рухсат берувчи орган томонидан зарур деб топилган бошқа маълумотлар ва ҳужжатлар кейинчалик тўлдирилиши мумкин.

Қонунга кўра, ариза берилганидан кейин 2 ойдан кечиктирмай ёрдам йиғиш учун рухсатнома натижаси тўғрисида хабар бериш керак.

Ёрдам йиғиш муддати рухсат берувчи орган томонидан бир йилдан ортиқ бўлмаган муддатга белгиланади. Бироқ, узрли сабаблар мавжуд бўлган тақдирда, берилган муддат рухсат берувчи орган томонидан кўпи билан яна бир йилга узайтирилиши мумкин.

Жазо чоралари:

Рухсатсиз ёрдам йиғанларга 5 минг лирадан 100 минг лирагача маъмурий жарима қўлланилиши мумкин. Интернет тармоғида рухсатсиз ёрдам йиғиш эса 10 минг лирадан 200 минг турк лирасигача маъмурий жаримага сабаб бўлади. Ўзбошимчалик билан ёрдам йиғиш учун жой ва имконият яратиб берганлар огоҳлантирилган бўлишига қарамай, бу фаолиятни тўхтатмаса, 5 минг лира миқдоридида маъмурий жаримага тортилади.

Ички ва ташқи ёрдам кўрсатиш тартиби ва принципларига зид равишда хорижга ёрдам кўрсатган НТТ масъул хайъат аъзоларига 5 мингдан 100 минг турк лирасигача миқдорда маъмурий жарима солинади. Ёрдам йиғиш фаолияти билан боғлиқ маълумотларни тақдим этмаган жисмоний ва юридик шахсларга нисбатан инспекция ходимлари ва рухсат берувчи орган томонидан 5 мингдан 20 минг турк лирасигача маъмурий жарима қўлланилади.

Бироқ ушбу ҳуқуқбузарлик давлат органлари ва ташкилотлари доирасида содир этилган бўлса, интизомий жазо чоралари кўрилади. Ёрдам йиғишнинг рухсат этилган шаклидан ташқари бошқа шакллари бўйича рухсатсиз ёрдам йиғувчилар, агар улар огоҳлантирилганлигига қарамай, ушбу фаолиятни тўхтатмаса, 5 мингдан 20 минг турк лирасигача миқдорда маъмурий жаримага тортилишга сабаб бўлади. Ёрдамни рухсат бериш ваколатига эга бўлган орган рухсат берган жойдан ташқарида йиғувчилар, агар улар огоҳлантирилганлигига қарамай, ушбу фаолиятни тўхтатмаса, 5 мингдан 20 минг турк лирасигача миқдорда маъмурий жаримага тортилади. Қонуннинг бошқа қоидаларига зид хатти-ҳаракатларни содир этганлар, агар уларнинг ҳаракатлари жиноят ҳисобланмаса, 1000 турк лираси миқдоридида маъмурий жаримага тортилади. Ўзбошимчалик билан тўпланган мол-мулк ва пул маблағлар мусодара қилиш йўли билан унинг мулкани оммавийлаштиришга қарор қилинади.

Хориждаги шахс, муассаса ва ташкилотлардан олган мол-мулк шаклидаги ва нақд пул шаклидаги ёрдамларни маҳаллий давлат бошқарув органларига олдиндан хабар бермаган ва нақд пул шаклидаги ёрдамларни банклар орқали олмаган ҳуқуқбузарлар 3 ойгача қамоқ ёки суд жаримаси билан жазоланади. Шунингдек, чет эл ёрдамни банклар орқали олмаганлик учун ННТ бошқаруви раисига олинган маблағнинг 25 % миқдоридида маъмурий жарима солинади.

Хулоса қилиб айтганда, бугунги кунда демократиянинг ўзига хос хусусиятлари конституциявий давлат, ҳокимиятлар бўлиниши, сиёсий эркинлик, шаффофлик, давлат бошқарувининг чекланганлиги, дунёвийлик, халқ ва нодавлат нотижорат ташкилотларининг эркин ўз тақдирини ўзи белгилашини акс эттириш учун сайлов натижалари зарурлиги ҳисобланади. Бошқа томондан, демократиянинг регрессив омиллари сифатида қуйидаги омиллар таъкидланади: полиция давлати, ҳокимиятнинг монополлашуви, қарам суд тизими, чексиз ҳуқумат, инсон ҳуқуқларининг бузилиши, деполитизация, диктатура раҳбариятининг тақиқлари, сирлар, динни яшириш, сиёсийлаштириш, таълимнинг паст стандартлари, сиёсий бефарқлик, манфаатлар ва босим гуруҳлари суверенитети, плутократия. Шубҳасиз, демократик кадриятлар ҳаётини аҳамиятга эга бўлган бугунги кунда ННТ фаолияти ва жамоавий иштирокни инкор этиб бўлмайдиган омиллардир. Бошқача айтганда, нодавлат нотижорат ташкилотлари ўз мақсадлари қандай бўлишидан қатъи назар, демократик мамлакатлардаги фундаментал ташкилотлардан бири ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Turkey makes best use of soft power: Turkish FM // *Hürriyet Daily News* 12.05.2018. [Электронный ресурс] URL: <https://www.hurriyetdailynews.com/turkey-makes-best-use-of-soft-power-turkish-fm-131707>
2. Binay, M. (1997), *1997'de Yeni Dünya Düzeni*, <http://www.turkiye.net/mbinay/review96/1997.html>.
3. Белоглазов А.В., Надыров Р. Н. «Мягкая сила» Турции в Центральной Азии в конце XX – начале XXI в.: интеграционный потенциал. 2021. Том 14. Выпуск 7. С. 1381-1385 file:///C:/Users/2021_Kahorov_sh/Downloads/myagkaya-sila-turtsii-v-tsentralnoy-azii-v-kontse-xx-nachale-xxi-v-integratsionnyu-potentsial.pdf
4. Bahçecik, ŞO., & Turhan, Y. (2022). Mapping relations between state and humanitarian NGOs: The case of Turkey. *Third World Quarterly*, 43, 979.
5. Tocci, N. (2005). Europeanization in Turkey: Trigger or anchor for reform? // *South European Society and Politics*, 10(1), 73–83.
6. Altan-Olcay, O., & Icduygu, A. (2012). Mapping civil society in the middle east: The cases of Egypt, Lebanon and Turkey. // *British Journal of Middle Eastern Studies*, 39(2), 157–179.
7. Bikmen, F. (2005). Progress on civil society legislation in Turkey. // *The International Journal of Not-for-Profit Law*, 7(2), 76.
8. Varon, L., Yermioğlu Yılmaz, S., Dereci, S., Ersen, T.B., and Balçioğlu, Z. (2014). *Monitoring Matrix on Enabling Environment for Civil Society Development: Turkey Report*. TUSEV.
9. Çaha, Ö. (2017). *Sivil Toplum Sivil Topluma Karşı: Sivil Toplumun Türkiye'deki ve Dünyadaki Serüveni*. İstanbul: Mana Yayınları. S. 75-80
10. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 2 майдаги Ҳомийлик тўғрисидаги Қонуни.// <https://lex.uz/docs/1183667?ONDATE=08.05.2025&ONDATE2=21.04.2021&action=compare>

2030

UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE

uzjournals.edu.uz



® digital object
identifier

Google
scholar

ROAD

DIRECTORY
OF OPEN ACCESS
SCHOLARLY
RESOURCES



ADVANCED SCIENCES INDEX

**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
29.12.2025 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.

Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara, Hofiz tanish
Bukhari street, 190 B-house